

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

TARIX FAKULTETI

**TARIX TA'LIM YO'NALISHI
«O'ZBEKISTON TARIXI» KAFEDRASI**

**«XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA BUXORO
AMIRLIGINING IJTIMOIIY-SIYOSIY TUZUMI VA
DAVLAT BOSHQARUVI»**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: ***Raximova Gavhar***

Ilmiy rahbar: ***prof.Sh.S.G`afforov***

Malakaviy bitiruv ishi "O'zbekiston tarixi" kafedrasida bajarildi.
Kafedraning 2013 yil _____ majlisida muhokama qilindi va
himoyaga tavsiya etildi. (bayonnoma №_____).

Kafedra mudiri:

dots.R.Sh. Xoliqulov

Malakaviy bitiruv ishi YADAKning 2013 yil _____ iyundagi majlisida
himoya qilindi va _____foizga baholandi (bayonnoma №_____)

YADAK raisi:

A'zolari:

Samarqand-2013

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-11
I.BOB. BUXORO AMIRLIGINING XIX ASR O'RTALARIDAGI MA'MURIY-SIYOSIY VA IQTISODIY AHVOLI.....	11-43
<i>I.1. Buxoro amirligida davlat boshqaruv tizimi.....</i>	<i>13-24</i>
<i>I.2. Buxoro amirligi hududi va aholisi.....</i>	<i>25-34</i>
<i>I.3. Buxoro amirligining iqtisodiy ahvoli.....</i>	<i>34-43</i>
 II. BOB. BUXORO AMIRLIGINING XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDAGI IJTIMOY-SIYOSIY TUZUMI VA DAVLAT BOSHQARUVI.....	 44-70
<i>II. 1. Buxoro amirligi davlat boshqaruvidagi va ma'muriy-hududiy tizimidagi o'zgarishlar va unga chor Rossiyasi siyosatining ta'siri.....</i>	<i>44-57</i>
<i>II.2. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro hukmdorlarining tarixiy portretlari.....</i>	<i>57-66</i>
<i>II. 3. Buxoroda chor Rossiyasi imperatorligi Siyosiy agentligining tashkil etilishi va uning faoliyati.....</i>	<i>66-70</i>
 III.BOB. XIX ASRNING OXIRI – XX ASRNING BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGINING IQTISODIY AHVOLI.....	 71-92
<i>III.1. Buxoro iqtisodiyotiga chor Rossiyasi kapitalining kirib kelishi va uning oqibatlari.....</i>	<i>71-75</i>
<i>III.2. Buxoro amirligi iqtisodiyotida temir yo'llar qurilishining ahamiyati..</i>	<i>75-90</i>
<i>III.3. Buxoroda rus manzilgohlarining tashkil etilishi va garnizonlarining joylashtirilishi.....</i>	<i>84-85</i>
<i>III.4. Rus kapitalining amirlik iqtisodiyotiga kirib kelishi va uning mustamlakachilik mohiyati.....</i>	<i>85-92</i>
 XULOSA.....	 93-97
 FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	 97-107

KIRISH

Bugun tarixga aylangan XX asr misli ko'rilmagan voqea va hodisalarga benihoya boy bo'ldi.

Tarix taqozosi bilan asr nihoyasida dunyodagi eng yirik va so'nggi imperiyalardan biri Sovet Ittifoqi besamar «kommunistik tajriba» qurboni bo'ldi va siyosat sahnasidan tushdi.

Dunyoning oltidan bir qismini egallab turgan ushbu ulkan mamlakatda uzoq yillar davomida mutelik holatida yashagan xalqlar nihoyat qaramlik kishanlaridan xalos bo'lishdi. Ularning har biri o'z imkoniyati, aqlzakovati darajasida o'z milliy davlatchiligini yangi demokratik asosda barpo qilishga kirishdi. O'zbek xalqining asriy orzusi ijobati sifatida jahon siyosiy xaritasi va maydonida «O'zbekiston Respublikasi» nomli davlat paydo bo'ldi¹.

O'zbekiston Respublikasi 1991 yil 31 avgustda o'z mustaqilligini e'lon qilgandan so'ng, qisqa muddat ichida respublikamizning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va iqtisodiy sohalarida ulkan yutuqlar qo'lga kiritildi. Jumladan, ushbu davrda erishgan eng buyuk va bebaho yutuqlarimizdan biri – bu insoniyat tarixi va jahon sivilizasiyasida o'z o'rniga ega bo'lgan o'zbek xalqining ko'p asrlik boy madaniy va ma'naviy merosini mazmunan yangitdan o'rganish, uzoq yillar davomida soxtalashtirib kelingan haqiqiy tariximizni o'rganish va amalda tarixiy haqiqatning tiklanishi, jamiyatda ma'naviy-axloqiy poklanish jarayonlarining amalga oshirilishidir.

O'zbek xalqining o'zligini anglashda tarix fanining o'ziga xos alohida o'rni bor. Zero, O'zbekiston tarixi milliy o'zlikni anglash qurolidir. U mustaqil O'zbekiston fuqarolarini nafaqat vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi, balki milliy birlikni shakllantirish, shajaramiz ulug'ligi va uning pokligini anglash hamda qadrlash, qadimiy va mehnatkash hamda tinchliksevar xalqimizning dunyo xalqlari orasida tutgan o'rniga munosib baho berish, uning boy hayotiy va tarixiy tajribalaridan o'rinli va unumli foydalanish, xalqimizning an'anaviy oliyjanob, erkparvar yo'llarini izchil o'rganish, uni davom ettirish va yanada boyitishga, xullas, umumlashtirib aytganda, kelib chiqish tarixi va zamini ulug' hamda mustahkam bo'lgan mustaqil O'zbekiston fuqarosiga xos hisoblangan olijanob va buyuk insoniy fazilatlarni shakllantiradi.

Vatan tarixini, ajdodlar va avlodlar tarixini ongli suratda bilgan va to'g'ri tushungan xalqni qaytadan mustamlaka iskanjasi va asoratiga solib bo'lmaydi. Va aksincha, milliy o'zligini anglab yetmagan xalq o'z milliy mustaqilligi qadriga ham yetmaydi, natijada bunday xalq qalbida milliy g'urur, yagona Vatan ravnaqi yo'lida fidoyilik tuyg'ulari barq urmaydi va alangalanmaydi, millat birligi, vatanparvarlik va o'zaro yordam tuyg'ulari uyg'unlashmaydi. Bunday xalqlar aksariyat hollarda boshqa xalqlar va davlatlar asoratiga va iskanjasiga tushib qoladi.

Mamlakatimiz xalqlarini qariyb 130 yildan oshiqroq vaqt mobaynida qullik va mutelik asoratida saqlab kelgan chor Rossiyasi mustamlakachiligi hamda Sovetlar tuzumi vatan tarixining insonlar ongiga kuchli inqilobiy ta'sir ko'rsatish kuchi va buyuk qudratini ham aqlan, ham farosat ila to'laqonli ravishda to'g'ri anglagani uchun ham, uni parda orqasida, ya'ni temir va po'lat sandiqlarda saqlashga harakat qildi.

¹ Каримов И. А. Узбекистон XXI асрга интилоқда. – Т.; Ўзбекистон 1999, 8- бет

Na chor Rossiyasi davrida, na Sovetlar tuzumi hukmronligi davrida xalqimizning haqiqiy sof tarixini yaratishga yo'l berilmadi. Insoniyat tarixi bilan uyg'un bo'lgan xalqimiz tarixi chor Rossiyasi mustamlakachiligi mafkurasi manfaatlariga moslashtirilib, sun'iy ravishda soxta holatda yaratildi va xalqqa yetkazildi.

XX asrning so'nggi o'n yilligi insoniyat tarixida yangi bir davrni boshlab berdi. Totalitarizm, ma'muriy-buyruqbozlik va zo'ravonlik g'oyalariga asoslangan sosializm barbod bo'ldi, kommunistik mafkura inqirozga uchrab, mustamlakachilikning so'nggi tayanchlari birin-ketin quladi. Insoniyat tarixida, shu jumladan, o'zbek xalqi tarixida ham yangi bir palla, ya'ni yangilanish jarayoni boshlandi. O'zbekiston ushbu jaraslar oqimida o'zining kuchli ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy yangilanishlar dasturiga ega bo'lgan davlat sifatida o'ziga xos va kuchli mavqeyga ega bo'ldi. Shu bilan birga, mamlakatimiz o'zining keng imkoniyatlarini namoyon qila boshladi.

Mustaqillik sharofati tufayli mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida bo'lgani kabi, O'zbekiston tarixi fani oldida ham yangi istiqbolli ufqlar ochildi. Ajdodlarimizning boy, serqirra va qadimiy tarixini hyech qanday bo'yoqlarsiz, qanday bo'lsa shunday yaratish va o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik. Eng muhimi farzandlarimizni Vatan tarixi timsolida milliy g'urur va iftixor, milliy o'zligini anglagan, milliy ongi uyg'oq, ma'naviyati yuksak darajadagi komil insonlar qilib tarbiyalash imkoniyati paydo bo'ldi.

Zero, o'z tariximizni haqqoniy o'rganish tom ma'noda mustamlakachilik ta'sirida hamda sovetlar tuzumi hukmronligi davridagi kommunistik zo'ravonlik mafkurasi ta'siri natijasida o'zligini yo'qotgan, o'zining qadr-qimmatini deyarli to'la unutgan fuqarolarni uyg'onishga, ularni o'zligini anglashga, o'z huquqlarini himoya qila oladigan hamda ozod va obod Vatan ravnaqi yo'lida tinchlik uchun, el-yurt omoplighi uchun kurashadigan va uni doimo himoya qila oladigan barkamol shaxs sifatida shakllanishlariga da'vat etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimoviig «O'zbek millati azaldan o'z fikri, o'z istiqloli uchun kurashib yashagan. Bunga moziy guvoh. Millatimiz tarixi haqidagi hasiqat yurtimizning fidoyi, o'z yo'lidan, maslagidan, so'zidap qaytmaydigan farzandlariga ochilishi lozim. Bilishimiz shart bo'lgan tarix sahifalarini qunt bilan varaqlash hammamiz uchun ham farz, ham qarzdir»¹, degan fikrlarida ham aynan shu holat nazarda tutilgan. Xalqimizning boy va betakror uzoq tarixi o'z o'tmishida xalqimizning doimo ozodlik va mustaqillik uchun tinimsiz ravishda mardona kurash olib borganligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda o'zbek davlatchiligi tarixini, jumladan, O'zbekiston hududida qadimgi davrlardan to bizning davrimizgacha bo'lgan davlatlar tarixini yangitdan, tarixiy haqiqat mezoni asosida to'laqonli holatda tiklash va uni xalqimizga yetkazish masalasi O'zbekiston tarix fani va tarixchi olimlari oldida turgan eng muhim va eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu jihatdan olib qaraganda, XV asrning oxiri–XVI asrning boshlarida tarix sahnasida paydo bo'lgan va XX asrning 20-yillariga qadar mavjud bo'lgan Buxoro davlati tarixini, ayniqsa, uning so'nggi davri, ya'ni chor Rossiyasiga qaramlik holatiga tushib qolgan davri tarixini o'rganish va undan tegishli xulosalar chiqarish, bu davrdagi davlat boshqaruv tizimi, uning tartib-qoidalarini, vaqt o'tib borishi bilan unda sodir bo'lgan o'zgarishlarni tahlil etish bugungi kunda nihoyatda katta tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan masaladir.

Mavzu tarixshunosligi:

¹ Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. -Т.: Ўзбекистон, 1996, 92- бет

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro tarixi mavzusining o'rganilishiga bag'ishlangan barcha ilmiy adabiyotlar va maqolalarning tarixiy tahlili, uning o'rganilish vaqti, mazmuni, hududi hamda yondashuv uslubi xarakteri bo'yicha uni uch davrga bo'lib tahlil qilish va ta'riflashga imkon beradi.

Birinchi davrga taalluqli bo'lgan adabiyotlar tarkibiga bevosita chor Rossiyasi bosqini olib borilgan va uning mus-tamlaka hukmronligi o'rnatilgan davr, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yaratilgan tarixiy asar-lar majmuasini kiritish mumkin.

Ikkinchi davrga taalluqli adabiyotlar tarkibiga esa bevosita 1917 yil oktyabr davlatto'ntarishidan to 1991 yilga qadar, ya'ni Sovetlar tuzumi davrida nashr etilgan va markscha-lenincha metodologiyaga asoslangan holda yaratilgan tarixiy asarlar va ilmiy-tadqiqotlarning juda katta turkumi mansub bo'lib, ular tadqiqot jarayonida alohida yondashuvni taqozo etadi.

Uchinchi davrga taalluqli adabiyotlar tarkibiga bevosita O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan so'ng, ya'pi mustaqillik yillarida yangicha dunyoqarash va yangicha yopdashish asosida yaratilgan ilmiy ishlar majmuasi mansubdir.

Oxirgi yillarda chet el va MDHda chop etilgan asarlar majmuasini alohida turkumga ajratib o'rganish mumkin.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida, bevosita o'sha davr tarixiy voqyealar guvohlari va ishtirokchilari tomonidan yaratilgan, birinchi davrga oid hisoblangan asarlar yig'indisi bugungi kunda o'z qiymati va muhimligi jihatdan nodir yezma manbalar hisoblanadi. Mana shuning uchun ham biz ularni bir tomondan, bevosita o'sha davrda yaratilgan va biz o'rganayot-gan mavzuga oid bo'lgan ilk asarlar jumlasiga kiritgan bo'lsak, ikkinchi tomondan, bugungi kunda ular juda oz nusxada saqlanib qolganligi va yozma manba sifatida baholanayotganligi hamda ularning bebaho va nodir hisoblanganligi uchun, ularni yozma tarixiy manbalar qatoriga kiritib, ulardan ko'proq yozma manba sifatida foydalandik. Shuning uchun ham ular to'g'risida ishimizning manbaviy bazasi bo'limida batafsil to'xtatib o'tamiz. Bizga ma'lumki, sobiq Sovet tuzumi davri tarixshunosligida ham chor Rossiyasining O'rta Osiyoga, shu jumladan, Buxoro amirligiga qarshi harbiy harakatlari va u yerda olib borgan mustamlakachilik siyosati tarixi qisman o'rganilgan. Biroq zamonaviy zayli va o'sha davr siyosati, yakka partiyachilik hukmronligi hamda uning mafkurasi ta'siri ostida ushbu tarixiy voqyealarga o'z zamonasi nuqtai nazaridan baho berilgan.

Ilmiy tadqiqot mavzuimizga taalluqli bo'lgan ikkinchi davrga oid adabiyotlar majmuasini 1917 yildan 1991 yilga qadar chop etilgan asarlar tashkil etadi. Ularga I. A. Remez, A. A. Semenov, V. Bartold, S. Ayniy, F.Xo'jayev, A. X. Hamroyev, A. Muhammadjonov, T. Ne'matov, O. Suxareva, B. Iskandarov, L. Shek, A. Majlisov, N. Kislyakov, M. Vahobov, A. Ishanov, N. Xalfin, X. Bekmuhamedov, A. Boboxo'jayev, I. Mo'minov, A. Fomchenko, B. G'ofurov, B. Lunin, T. To'xtametov, A. Ryabinskiy, M. Abduraimov, T. Fayziyev, O. Chexovich, K. Muhsiova, L. Levteyeva, N. Norqulov, G. Ahmadjonov, M. Vekselman, G. Mixaleva, F. Qosimov va H. Ziyoyevlar asarlarini kiritish mumkin.¹ Ushbu davrda (1917–1991 y.y.) yaratilgan asarlarni yagona umumlash-tirgan holda olib qarab, ularni sovet davri tarixshunosligi mahsuli deb baholash mumkin.

¹ Ремеz И. А. Вышняя торговля Бухары до мировой войны. Опыт историко-стат. обзор внешней торговли ханства вне сферы таможенных объединений его с Российской империей. – Т.. 1922. 45 с; Семенов А. А. Очерк земельно-податного и налогового устройства бывшего Бухарского ханства. – Т., 1929. – 54 с; Он же. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени. – Сталинабад. 1954, – 76 с; Бартольд В. В. История культурной жизни Туркестана. – Л.: 1927.; Он же, Бухара,

Sovet tuzumi hukmronligi davrida chop etilgan va ikkinchi guruhga mansub bo'lgan adabiyotlarning aksariyati o'sha davrning hukmron mafkurasi va buyuk davlatchilik g'oyasining ustunligi sababli ularda uslubiy yondashuv oshkora ravishda siyosatlashtirilganligi va davr mafkurasiga bo'ysundirilganligi ko'zga yaqqol tashlanadi.

Aynan mana shuning uchun ham, ushbu davrda yaratilgan asarlarning aksariyatida o'rganilgan masalalarni bir yoqlama talqin qilish ustun bo'lgan.

// Соч. Т. 111. - М» 1965; Айний С. Бухоро инкилоби тарихи учун материаллар. - М.: 1926; Ўша муаллиф. Бухара. Воспоминания. кн. 2,4. -М., 1961; Ўша муаллиф. Чавоби мап. Куллист чилди II, китоби I, - Душанбе, 1963; Ўша муаллиф. Тарихи инкилоби Бухоро. - Душанбе, 1987. (Ўзбек тилидаги 1926 й. нашр асосида тожик тилида chop этилган); Ходжаев Ф. К истории революции в Бухаре и национального размежевания в Средней Азии, Избр. трудм -Т. 1. -Т., 1970; Хамраев А. Х. К вопросу о земельно-водных отношениях в Бухарском ханстве вXIXв. -Т., 1948, - 31 с; Он же, К вопросу о январских событиях 1910 года в Бухаре. - Труды САГУ, -Т., 1954, вып. ГУП; Мухаммаджонов А. Р., Нейматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари Тарихига доир баъзи манбалар, - Т., 1957. - 223 б.; Сухарева О. А. К истории городов Бухарского ханства: (ист.этног.очерк.) - Т., 1958. -147 с; Она же. Бухара: XIX-начало XX в. (позднефеодалный город и его населения).- М., 1966. - 328.; Искандаров Б. И. Из истории Бухарского эмирата, (Восточная Бухара и западный Памир в первой половине XIX в.) - М., 1958.-131 с; Он же, Восточная Бухара и Памир во второй половине XIX в. ч. 1-2. - Душанбе 1962; Он же, О некоторых изменениях в экономике Восточной Бухары на рубеж XIX-XX вв. // Труды института истории АН Тадж. ССР, т. УХХХШ, 1962.; Шск Л. К. Победа Народной Советской революции в Бухаре- Т.. 1956.; Он же, Советско-Бухарские отношения в 1917-1920 гг.// Рукопись дисс. на соиск. учеп. степ. канд. ист. наук. - Т., 1949; Маджлисов А. Аграрные отношения в Восточной Бухаре в XIX-начале XX в.в. - Душанбе - Алма-Ата; 1967; Кисляков Н. А. Патриархально-феодалные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX - начале XX в. - М-Л., 1962; Вахобов М. Г. Формирование узбекской социалистической нации.- Т., 1961,-с.588; Ишанов А. И. Бухара в период первой русской революции. // Известия АН Уз ССР., 1955, № 12; Он же Создани Бухарской Народной Советской республики. - Т., 1965; Он же, Победа Бухарской Народной революции. -Т., 1957; Халфин Н. А. Политика России в Средней Азии (1857-1868 гг.).- М., 1960. - 272 с; Он же. Россия и ханства Средней Азии: (Первая половина XIX в.) - М., 1974. - 406 с; Он же, Россия и Бухарский Эмират на Западном Памире. - М., 1975, 127 с; Бсмухамедов Х. Народное движение 1910 г. в Бухаре.// Рукопись дисс. на соиск. учеп. степ. канд. ист. наук., - Т., 1949.; Бабаходжаев А. Х. Происки британского империализма в Средней Азии и позиция Бухарм в 1918-1920 гг.// Известия АН УзССР, 1948 № 5.; Муминов И. Из истории развития общественно-философской мысли в Узбекистане в конце XIX и начале XX в.в. - Т., 1955; Фомченко А. П. Русские поселения в Бухарском эмирате.- Т., 1958; Гафуров Б. История таджикского народа. - М., 1955; Гафуров Б. Прохоров Н. Н. Падение Бухарского эмирата.-Душанбе, 1940.; Луиин Б.В.Средняя Азия в дорволюционном и советском востоковедении. - Т., 1965.; Он же, Средняя Азия в научном наследии отечественных востоковедов: Историограф. очерк. - Т., 1979.,- 182с.; Тухтаметов Т. Г. Русско-Бухарские отношения в конце XIX - начале XX в. - Т.. 1966, 178 с; Он же, Россия и Бухарский эмират в начале XX в. - Душанбе, 1977. - 208 с; Он же, Экономическое состояние Бухарского эмирата в конце XIX и начале XX веков. //Труды института истории А. Н. Киргизской ССР. - 1967, вып. 3; Он же, Прогрессивное значение русского протектората над Бухарским эмиратом. // Звезда Востока, 1956, № 8; Рябинский А. М. История колониального порабощения Бухарского ханства царской Россией. // Труды Военно-Политической Академии Красной Армии. Т.4. - М., 1940., Абдураимов М. О некоторых категориях феодального землевладения и положения крестьян в Бухарском ханстве в XIX - начале XX века. //Общественные науки в Узбекистане, 1963, №7.; Он же, Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в XVI-первой половине XIX века - Т., 1966, - 369 с; Файзиев Т. Бухоро хонлигида кул савдоси. -Т., (1970. - 56 б; Уша муаллиф, Бухоро феодал жамиятида куллардан фойдаланишга доир ҳужжатлар (XIX аср.) - Т., 1990., -142 б.; Чехович О. Д. Об актовых материалах по истории Бухары, Т. 16, -М, 1945.; Мухсинова К. К. История вытупления Бухарских крестьян против натового гнета в конце XIX в. / / Проблемы востоковедения, 1959, №1; Левтеева Л.Г. Присоединение Средней Азии к России в мемуарных источниках - Т., 1986., -142 с; Норкулов Н. «Таърихи Салимий» - ценный источник по истории Бухарского эмирата (1860-1920 гг.) // Дисс.на соиск. ученой степени кандист.наук, - Т., 1968,-387с.; Ахмеджанов Г.А Советская историография присоединения Средней Азии к России. - Т., 1989. - 154с; Вексельман М. И. Российский монополистический и иностранный капитал в Средней Азии (конец XIX - начале XX в.в.) - Т., 1987; Михалева Г. А. Торговые и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами через Оренбург (вторая половина XVIII- первая половина XIX в.) - Т., 1982 - 92 с; Зиёев Ҳ. 3. Ўрта Осиё ва Сибирь. (XVI-XIX асрлар) - Т., 1962.; Он же. Экономические связи с Сибирью (XVI-XIX в.в.) - Т., 1983; Историм Бухары. С древнейших времен до наших дней (Б. В. Лунип, Я. Г. Гадтямов, Г. А. Пугаченкова и др.) - Т., 1976, -383с

XX asrning 80- yillari oxiri – 90- yillar boshiga kelib, respublikamizning mustaqillik tomon yo'l tutishi va kommu-nistik tuzumning yemirila boshlashi, xalqimizning ijti-moiy-siyosiy va ma'naviy hayotida ijobiy o'zgarishlarning paydo bo'lishi, o'z navbatida, uzoq yillar davomida soxta tarzda o'rganilgan va talqin etilgan tarixiy voqeyeliklarni ham yangicha tadqiq etishga keng imkon ochib berdi. Shu davrda tarixchi olimlar H. Ziyoyev, X. Bobobekov, D. Ziyoyeva va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari yaratildi. Ularning ishlarida chor Rossiyasi istilosi, uning mustamlaka siyosati, mahalliy aholi vakillarining rus mustamlakachilariga qarshi olib borgan milliy-ozodlik harakatlari masalalari ilk bora yangicha qarash va uslub hamda xolislik va ilmiylik asosida yoritish tomon yo'l tutildi.

O'rganilayotgan mavzuga oid adabiyotlarning uchinchi guruhiga bevosita mustaqillik yillarida respublikamiz olim-lari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar va chop etilgan asarlar mansub bo'lib, ular yangicha uslubiy yondashuvlar aso-sida yaratilganligi, masalaga milliy va umuminsoniy manfa-atlar hamda tarixiy haqiqat mezonini nuqtai nazaridan qaral-ganligi bilan ajralib turadi.

H. Ziyoyev, A. G. Ahmadjonov, Sh. Vohidov, K. Hakimova, F. Qosimov, Q. Rajabov, O. Masaliyeva, F. Ochildiyev, A. Xoli-qulov, M. Hamidova, B. Ergashev, Sh. Yusupov, A. Odilov, R. Xoliqova va boshqa mualliflarning ilmiy tadqiqotlari mustaqillik davri mahsuli hisoblanib, ular yaratgan asarlar va maqolalarda XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro tarixining ayrim jihatlariga taalluqli masalalar ustida to'xtalib o'tilgan.¹

¹ Зиёев Х. 3. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши қурагя (XVII–XX аср бошлари.) –Т.: Шарқ, 1998. Ўша муаллиф. Ўзбекис-тон мустақиллиги учун қурашларнинг тарихи (милоддан аввалги асрлардан то 1991 йил 31 августгача). –Т.: Шарқ, 2001. Ўша муаллиф. Завоевание Бухарского и Хивинского ханства царизмом. // Обществєнные науки в Узбекистане. –Т., 1990. №8; Ахмаджонов Г. А. Российская империя в Центральной Азии. (История и историография колониальной политики царизма в Туркестане) –Т, 1995; Шодмон Воҳид. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. Т., 1996; Хақимова К. 3. Крестьянство Бухарского эмирата в конце XIX начале XX в-в. –Т., 1991; Қосимов Ф. Ўзбек давлатчилиги тарихида Бухоро ҳукмдорларининг ўрни. // Тарих, мустақиллик, миллий ғоя. – Т. 2001. 192–193- бетлар; Зиёева Д. Туркистон миллий озодлик ҳаракати: (Мустақил тўзумга қарши). – Т., 2000; Масалиева О. Бухоро амирлигида давлат бошқаруви (хорижлик муатлифлар асарлари асосида). // Ҳаёт ва қонун, 1991, 2- сон; Очилдиев Ф. Бухоро амирлигида Сурхон воҳаси бекликларининг тутган ўрни. // Тарих. Мустақиллик миллий ғоя. –Т.: Академия, 2001, 204–205- бетлар. Яна қаранг //Жамият ва бошқарув. 2004, 3- сон. Ўша муаллиф. Бухоро амирлигида иқтисодий ҳаёт. // Жамият ва бошқарув, 2001, 2- сон. Ўша муаллиф. XX аср бошларида шарқий Бухородаги иқтисодий ҳаёт// Жамият ва бошқарув, 2003, 2- сон; Холиқулов А. Чироқчи беклигининг Бухоро амирлиги сиёсий-иқтисодий ҳаётида тутган ўрни (XIX–XX аср бошлари). // Тарих, мустақиллик, миллий ғоя, – Т., 2001, 197–199- бетлар. Ўша муаллиф. Ҳунармандчилик ва савдо марказлари. // Жамият ва бошқарув, 2003. 1-сон; Эргашев Б. Идеология национально-освободительного движения в Бухарском эмирате. –Т., 1991; Одилов А. Бухороамирлигида XIX асрнинг 60- йилларида озодлик ҳаракати тарихи // Илмий тўпламда –Т., 1995, 96–98-бетлар. Ўша муаллиф. Абдулмалик Тура бошчилигидаги халқ озодлик ҳаракати тарихидан, //ЎзМУ хабарлари, 2002. 2- сон. Ўша муаллиф. Озодлик фидойиси. //Тафаккур, 2001. 2-сон; Ражабов Қ. Бухорога Қизил Армия босқини ва унга қарши қураш. – Тошкент: Маънавият, 2002. Шу муаллиф, Туркистон минтақасида совет рёжимиға қарши қурулган ҳаракат (1918–1924 й.й.). Тарих фан. докт., дисс. –Т., 2005, 342-бет. Библиография 343–408-бетлар. Бухоро ҳукмдорлари ҳақида Қ. Ражабовнинг ҳам бир қатор мақолалар мавжуд. Қар.: Ражабов Қ. Муҳаммад Раҳимхон – манғитлар сулоласи асосчиси. // Бухоро мавжлари, 2005, 3-сон, 36–37-бетлар; Шу муаллиф, Муҳаммад Дониёлбий оталиқ: бийлик мансабидан амирлик рутбасигача. // Бухоро мавжлари, 2005, 4-сон, 26–27-бетлар; Шу муаллиф: Амир Шаҳмурод ёхуд Амири Маъсум (турон тарихида унинг тутган ўрни). // Бухоро мавжлари, 2006, 1-сон; Ўзбекистон Миллий энциклопедия-сидаги Муҳаммад Ҳакимбий оталиқ, Муҳаммад Раҳимхон (6-жилд), Амир Шохмурод (10-жилд), Амир Ҳайдар (11-жилд), Амир Насруллох (6-жилд), Амир Музаффар (6-жилд), Амир Олимхон (6-жилд) ҳақидаги мақолалар ҳам Қ. Ражабов қаламига тегишли.; Холикова Р. XIX асрда Бухоро амирлиги. // Жамият ва бошқарув, 2000. 3- сон. Ўша муаллиф. Босқинчилар кўзини ўятган Бухоро олтини. // Жамият ва бошқарув. 2000. 4- сон. Ўша муаллиф. Амирликдаги амаллар ва унвонлар. // Фан ва турмуш. 2000. 4- сон. Ўша муаллиф. Абдуллахоннинг работ ва сардобалари (ўзбек, рус ва инглиз

Mustaqillik davrida mualliflar jamoasi tomonidan hamkorlikda olib borilgan ko'plab yirik tadqiqotlar nati-jasi bo'lmish asarlar majmuasi, yirik fundamental monografiyalar, o'quv qo'llanmalari va darsliklar¹ chop etilgan bo'lib, ularda XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlaridagi Buxoro amirligi tarixi va chor Rossiyasining mustamlakachilik siyosati masalalariga u yoki bu borada qisman e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov asarlarida² O'zbekiston tarixini xolisona va haqqoniy o'rganish o'z tahlilini topgandan so'ng o'zbek xalqi davlatchiligi tari-xini tadqiq etish borasida jiddiy ishlar amalga oshirildi.

Mualliflar hamkorligida yaratilgan «Turkestan v nachale XX veka: K istorii istokov natsionalnoy nezavisimosti»³ kitobida Turkiston o'lkasi tarixining, shu jumladan, Buxoro-ning 1917–1924 yillardagi voqyealari: milliy uygonish, milliy davlat qurish tomon yo'l tutilishi, shu davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot va kurash, iqtisodiy ahvol, Buxoro amirligining qulashi, Buxoroning sovetlashtirilishi, O'rta Osiyoda milliy chegaralanishning amalga oshirilishi va O'zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasining tashkil topishi kabi muhim masalalar yangicha yondashuv, tarixiy xolislik va tadrijiylik hamda haqqoniylik prinsipi asosida yoritilgan.

Turkiston o'lkasi, jumladan, Buxoro amirligining mus-tamlaka davri tarixi to'g'risidagi fikr-mulohazalar va ilmiy bilim darajasini yanada boyitishda uch jildlik «O'zbekis-tonning yangi tarixi» kitobining «Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida»⁴ nomli birinchi kitobi va «Tarix shohidligi va saboqlari: chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida O'zbekiston milliy boyliklarining o'zlashtiri-lishi»⁵ nomli asarlar o'ta muhim hisoblanadi.

Shuningdek, ushbu davrda Sh. Vohidov va 3. Choriyevlar tomonidan Muhammad Ali Baljuvoniyning «Tarixi Nofei-y» nomli asari⁶ hozirgi o'zbek tiliga o'girilib, nashrdan chiqarilishi katta ahamiyat kasb etdi. Ushbu asarda 1918–1924 yillar davomida Buxoro amirligida yuz bergan siyosiy voqyealar bevosita o'sha voqyealar guvohi tilidan bayon etilgan.

Mustaqillik yillarida chor Rossiyasi istilosi va uning mustamlakachilik davri tarixini o'rgaiishga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlar ham yaratildi va himoya qilindi. Bular jumlasiga N. A. Abdurahimova, H. D. Sodiqov, D. Toshqulov, A. M.

тилларида). // Санъат-Искусства-АгГ 2003.1- сон. Ўша муаллиф. XIXаср охири – XX аср бoshларида Россия-Бухоро ўртасидаги иктисодий муносабатлар тарихидан лавҳалар. // Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар. 2003, 1, 2- сонлар. Ўша муаллиф. Бухоро тарихига оид муҳим манба. // Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фаплар. 2004, 1- сон; Ўша муаллиф. Бухоро ҳукмдорлари. Автобиографикочерк(XIXасрохири XXаср бoshлари). // Жамият ва бoshқарув. 2004, 2- сон. Ўша муаллиф. Марказий давлат бoshқаруви тарихига бир назар. // Мулоқот. 2004, 1- сон. Ўша муаллиф. XIX аср охири ва XX аср бoshларида Бухоро амирлиги // Жайхун, ТерДУ хабарлари, 2005, 1- сон. 32–37- бетлар. Ўша муаллиф. Вассал Бухоро амирлигида маҳаллий бoshқарув. // Тарих, мустақиллик, миллий ғоя. – Т. 2001, 209–210- бетлар. Ўша муаллиф. Торгово-хозяйственне отношения казахских жузов с Бухарой в XIX веке. Сборник статей. –Т. 2002, с.36-39ваб

¹ Туркестан в начале XX века. К истории истоков пациональной независимости. Научный редактор Р. Я. Раджабова –Т.: Шарқ, 2000; Узбекистон тарихи. II жилд. –Т.: Фан, 1993; Бобобеков Х. ва бoshқалар. Узбекистон тарихи. 8- синф учун дарслик. –Т.: Ўқитувчи, 1996

² Қаранг: Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажакйўқ. – Т.: Шарқ, 1998.

³ Туркестан в начале XX века. К истории истоков национальной независимости. Научный редактор Р.Я. Раджабова –Т., Шарқ. 2000.

⁴ Ўзбекистоннинг янги тарихи: 1- китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т., Шарқ, 2000.

⁵ Тарих шохидлиги ва сабоқлари: Чоризм ва совет мустамлакачи-лиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. –Т: Шарқ, 2001.

⁶ Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи Нофсий. Тожиқ тилидан таржима. сўз боши ва изоҳлар муаллифлари Шодмон Воҳидов, Зоир Чориев. –Т., Академия, 2001.

Xudoyqulov, S. D. Boltaboyev, X. Sh. Avazova, R. M. Abdullayev, N. U. Musayev, 3. U. Choriyev, T. V. Katyukova, A. Kuraxmedov, Sh. Murodova, K. Pardayev, A. Odilov, O. Xaitova, A. Pardayev, 3. Daminova, Sh. G'afforov¹, Q. Rajabov² ilmiy tadqiqotlari kiradi.

O'rganilgan va tahlil etilgan adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr bosh-larida Rossiya-Buxoro munosabatlari tarixi, jumladan, chor Rossiyasining Buxoroga nisbatan olib borgan harbiy hara-katlari, ular o'rtasidagi qattiq janglar, 1868 va 1873 yil-larda imzolangan shartnomalar, chor Rossiyasi bosqiniga qarshi xalq tomonidan ko'tarilgan milliy-ozodlik harakat-lari, chor Rossiyasi tomonidan Buxoroni vassal davlatga aylantirish siyosati, chor Rossiyasi imperiyasining Buxoroning ichki va davlat boshqaruvi ishlariga aralashuvi, Buxoroni iqtisodiy jihatdan qaram hududga aylantirish siyosati masalalari hali to'la o'rganilgan deb bo'lmaydi.

Shunday qilib, mavzu tarixshunosligi shuni ko'rsatadiki, ushbu tadqiqot ishimiz mavzusi hozirgi kunga qadar maxsus o'rganish uchun mavzu sifatida olimlar tomonidan o'z oldilari-ga vazifa va maqsad qilib belgilanmagan.

Shuningdek, mavzu tarixshunosligi tahlili ushbu mavzuga bevosita oid bo'lgan tarixiy adabiyotlarning o'ta kam ekanli-gini va borlari ham bizning mavzuimizga qisman, u yoki bu borada tegishli ekanligini, yaratilganlarining deyarli aksa-riyati sobiq sovetlar tuzumi hukmronligi davrida o'z davri va hukmron tuzum mafkurasi asosida yaratilganligi, ushbu biz tanlagan mavzuning o'z davrida tarixiylik va haqqoniylik lrisipidan chetlashgan holda, hamda noxolis, sun'iy ravish-da mafkuralashtirilgan holatda o'rganilganligini ko'rsatadi.

¹ Абдрахимова Н. А. Колониальная система власти в Туркестане. (вторая половина XIX–начало XX в.в.). Автореферат дисс... докт. ист. наук. –Т., 1994.; Содиков Х. Д. Колониальная политика империализма в Туркестане и борьба за национальную независимость в начале XX века. Автореферат дисс. докт. ист. наук. –Т., 1994.; Худойкулов А. М. Просветительская деятельность джадидов Туркестана. (конец XIX–начало XX в.в.) – Автореферат дисс. канд. ист. наук. –Т., 1995.; Тошкуллов Д. Основы направления политико-правовой мысли народов Узбекистана во второй половине XIX и в начале XX в. – Автореферат дисс. докт. юрид. наук. –Т., 1995.; Болтаев С. Д. Вакфное имущество в Туркестанском крае во второй половине XIX начале XX в.в. – Автореферат дисс... канд. ист. наук. –Т., 1997.; Абдуллаев Р. М. Национальные политические организации Туркестана в 1917–1918 гг. Автореферат дисс... докт. ист. наук. –Т., 1998.; Мусаев Н. У. Формирование и развитие промышленного производства в Туркестане (конец XIX–начало XX в.в.) Автореферат дисс... докт. ист. наук. –Т., 1999.; Чариев З. У. Усиление колониальной политики и национального гнета и их последствия в Туркестане в начале XX века (На примере мобилизации на тыловые работы) – Автореферат дисс... докт. ист. наук. –Т., 1999.; Катюкова Т. В. Проблемы Туркестана в центральных законодательных органах власти Российской империи. (1905–1917 гг.). Автореферат дисс... канд. ист. наук. –Т., 2001.; Курахмедов А. Э. Экономическая и культурная жизнь Самаркандской области второй половины XIX–начала XX в.в. (по материалам «Туркестанского сборника»). Автореферат дисс. канд. ист. наук. –Т., 2001.; Пардаев К. К. Ўрта Зарафшон (Миснол) воҳсиниғ XIX–XX аср бошларида ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти. Тарих фан. номзоди. дисс. автореф. –Т., 2003.; Одилов А. А. Бухоро амирлигида миллий-озодлик ҳаракатлари тарихи (Абдулмалик Тўрабончиликдаги халқ озодлик ҳаракати мисолида). – Тарих фан. номзоди дисс. автореф. –Т., 2003.; Гаффаров Ш. С. Переселенческая политика Российской империи в Туркестане. (вторая половина XIX–начала XX в.в.). Автореферат дисс. докт. ист. наук. –Т., 2003.; Муродова Ш. XIX аср охири – XX аср бошларида Туркистон ўлкасидаги озодлик ҳаракатлари тарихи (Самарканд вилояти мисолида). Тарих фан. номзоди дисс. автореф. – Т., 2004.; Хайтова О. С. Кармана шахристон Бухоро хоплиги ижтимоий-сиёсий ва маънавий ҳаётида тўған ўрни. Тарих фан. номзоди. дисс. автореф. –Т., 2004.

² Ражабов Қ. Туркистон минтақасида совет режимиға қарши қуролли ҳаракат (1918–1924 й.й.). Тарих фанлари доктори ... диссертацияси – Т., 2005. 342-бет. Библиография 243–408 б.б. Бухоро ҳукмдори ҳақида Қ. Ражабовнинг ҳам бир қатор мақолалари мавжуд. Юқорида таъкидлангандек: Ражабов Қ. Мухаммад Раҳимхо-мангитлар сулоласи асосчиси. // Бухоро мавжлари, 2005, 3-сон. 36–37-бетлар. Ўша муаллиф, Мухаммад Доппилбий оталик: бийлик мансабидан амирлик рутбасига. // Бухоро мавжлари, 2005, 4-сон, 26–27-бетлар; Ўзбекистон Миллий энциклопедиясидаги Мухаммад Ҳакимбий оталик (6-жилд), Мухаммад Раҳимхон (6-жилд), Амир Шохмурод (10-жилд), Амир Ҳайдар (11-жилд), Амир Насруллох (6-жилд), Амир Музаффар (6-жилд), Амир Олимхон (6-жилд) ва б. мақолалар.

Tadqiqot mavzui tarixshunosligini yakuniy tahlili nati-jasi sifatida, ushbu mavzu hali ham yetarli darajada chuqur o'rganilmagan bo'lib, sobiq sovet tuzumi davrida hukmron mafkura o'zining uslubiy andozasi va ko'rsatmalari asosida mazkur mavzuni ilmiy jihatdan asosli, tarixan xolis o'rganishga yo'l ham, imkon ham bermaganligini alohida ta'kidlash lozim.

Xulosa qilib aytganda, sobiq sovetlar hukmronligi davrida XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya-Buxoro munosabatlari tarixini har tomonlama atroflicha, xolis va haqqoniy hamda ilmiy tarzda yoritib beruvchi ilmiy asarlar yaratilmadi.

Sobiq sovet tuzumi davrida ushbu mavzuga u yoki bu borada tegishli bo'lgai tadqiqotlar:

- birinchidai, to'la markscha-lenincha metodologiya asosida yozildi;
- ikkinchidan, tarixiy voqeyeliklar markscha-lenincha konsepsiya andozalariga sun'iy ravishda moslashtirildi va haqiqiy tarixiy voqeyelik aks ettirilmay, u buzib talqin etildi;
- uchinchidan, mavzuga oid manbaviy asoslar yetarli darajada chuqur o'rganilmadi, o'rganilgan hujjatlar esa bir tomon-lama tahlil etiddi;
- to'rtinchidan, mahadliy mualliflar tomonidan o'sha voqeyeliklar bo'lib o'tgan vaqtda yaratilgan mahalliy tildagi yozma manbalar ilmiy muomalaga kiritilmadi.

Mustaqillik yillarida bir qator yangi talqindagi asar-lar majmuasi tayyorlandi va chop etildi. Ularda milliy dav-latchilik tarixining ba'zi bir tomonlari yoritildi. Xolis va haqqoniy tarz-dagi asarlar shakllana boshlandi. Biroq XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro amirligi tarixi, ayniqsaxoro amirligi hududi, uning aholisi kabi masalalar yetarli darajada to'la o'rganilmadi va hozirgacha u o'z yechimini kutmoqda.

Aynan mana shu nuqtai nazardan olib qaralganda, ushbu tadqiqotda XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoroni kompleks holatda o'rganilayotganligi e'tiborga olinsa, ushbu mavzuni tarixiylik va haqqoniylik yuzasidan o'rganish zaruriyati eng avvalo bugungi kun talabi ekanligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Yuqorida zikr etilgan asarlar, tadqiqotlar, ilmiy maqo-lalar tahlili asosida xulosa tariqasida aytish mumkinki, hozirgi kunga qadar chor Rossiyasining Buxoroga nisbatan olib borgan harbiy harakatlari, uning hududlarini bosib olishi, u yerda o'z hukmronligini o'rnatishi, Rossiya-Buxoro o'rtasida 1868 va 1873 killarda tuzilgan rasmiy shartnomalar va uning tafsiloti, Buxoro tomonidan siyosiy huquqning yo'qotilishi hamda chor Rossiyasi tomonidan XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoroga nisbatan uni iqtisodiy jihatdan qaram etish siyosatining olib borilishi va unga erishishi masalalari kompleks holatda o'rganilmagan. Aynan mana shu holat muallifga ushbu mavzuni maxsus ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida belgilab olishiga asosiy sabab bo'ldi.

Prezidentimiz aytganlaridek, Buxoro tarixi shukuhli va muborak kunlar bilan bir qatorda, juda og'ir va musibatli damlarga ham guvoh bo'ldi, ko'plab bosqinlarni boshdan kechirdi, necha marta vayron etildi, o't ichida qoldi. Bu muqaddas tuproqda begunoh sonlar to'kildi, muhtasham obida, minora va aziz avliyolarning qabrlari oyoqosti qilindi.¹

Prezidentimiz I. Karimov o'z nutqlarida ta'kidlagan Buxoroning ana shunday og'ir va musibatli davrlaridan biri – bu Buxoro davlatining chor Rossiyasi qaramligiga tushib qolish davridir. Chor Rossiyasi harbiy qudrati Buxoro amirligining katta hududlarini ishg'ol etib, uni butunlay tugatishga imkoni bo'lgan holda, bu vazifani bajara olmaganligining mohiyatini va sabablarini aniq tarixiy dalillar asosida ochib berish,

¹ Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6- жилд. –Т.: Ўзбекистон, 1998, 372- бет.

Buxoroda amirlik hokimiyatining saklanib qolganligini va uniig sabablarini ko'rsatib berish O'zbekiston tarixi fani oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Buxoro amirligi garchi chor Rossiyasiga qaram davlatga aylanib qolgan bo'lsa-da, uning davlat boshqaruvida o'rta asr an'analari saqlanib qolindi. Ammo shunga qaramay, qisman bo'lsa-da, amirlikning iqtisodiy va madaniy hayotida Yevro-padagi bu davrda mavjud bo'lgan tizimga xos bo'lgan o'zgarishlar yuz berdi.

Buxoro amirligidagi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlarda marka-ziy va mahalliy davlat boshqaruvining o'rnini, tabiatini va xususiyatlarini ko'rsatish hamda ularni bugungi kun tarix fani oldida turgan talab va vazifalar nuqtai nazaridan tahlil qilish hamda haqqoniy xulosalar yaratish yana bir bor ushbu mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi. Monogra-fiyaning konseptual mohiyatidan kelib chiqqan holda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Rossiya-Buxoro munosabatlari tarixi masalasini tizimli ravishda ilmiy tahlil qilish; Rossiya-Buxoro munosabatlarining tarix chorrahasidagi uchrashish sabablarini yoritish, chor Ros-siyasining Buxoroga nisbatan harbiy harakatlarining bosh-lanish sabablari va uning salbiy oqibatlarini ochib berish hamda chor Rossiyasining Buxoro amirligi hududida olib borgan mustamlaka siyosatining tub mohiyatlarini kompleks holatda o'rganish va ilmiy xulosalar chiqarish bosh maqsad qilib belgilandi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda monografiyada quyi-dagi vazifalarni hal etish asosiy masala qilib belgilandi:

- chor Rossiyasi bosqini arafasida Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli va iqtisodiy hayoti hamda davlat boshqaruv tizimi holatini yoritish;

- chor Rossiyasi bosqini arafasida Buxoro amirligining hududiy tuzilishi va aholisi masalasini yaxlit holatda o'r-ganish;

- XIX asrda O'rta Osiyo masalasi bo'yicha Rossiya-Angliya manfaatlarining to'qnash kelishi va siyosiy vaziyatning' o'ta murakkablashganligini tahlil qilib berish;

- XIX asr ikkinchi yarmiga kelib Rossiya-Buxoro munosa-batlarining keskinlashuv sabablari va chor Rossiyasi tomoni-dan Buxoroga nisbatan harbiy harakatlarning boshlanishi, chor Rossiyasining bosqinchilik maqsadidagi harbiy harakat-lariga qarshi milliy-ozodlik harakatlarining ko'tarilishi va uning natijalarini tahlil qilish;

- Buxoro amirligining chor Rossiyasining vassaliga ayla-nishiga olib kelgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sabablarni hamda o'sha davrdagi Buxoro davlatining boshqaruvidagi mavjud nuqsonlarni uzviy bog'liqtik doirasida yoritish;

- vassallik davrida Buxoro amirligida markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblarini va sharq davlatchiligi an'-analarining saqlanib qolganligi hamda ularning mohiyatini ko'rsatib berish;

- chor Rossiyasi hukmron doiralarining Buxoro amirligi davlat tizimi, uning siyosatiga, iqtisodiyotiga va davlat boshqaruv tartiblariga o'tkazgan ta'sir darajasini ko'rsatish;

- O'rta Osiyo masalasi bo'yicha Rossiya-Angliya mustamla-kachilik manfaatlarining o'zaro to'qnashuvi va Buxoro davlat-chiligining chor Rossiyasiga bo'lgan vassallik, tobelik mavqyei-dan amirlikning XX asr boshlaridagi holati va umuman, uning taqdiri uchun kelib chiqqan salbiy oqibatlarni tahtil etish, uni yoritish va ilmiy xulosalar qilishdan iborat.

I. BOB. BUXORO AMIRLIGINING XIX ASR O'RTALARIDAGI MA'MURIY-SIYOSIY VA IQGISODIY AHVOLI

I.1. Buxoro amirligida davlat boshqaruv tizimi

O'tmish tariximizga nazar salsak milliy davlatchiligimizning turli davrlardagi kjsalishi va inqirozi, fojialariga daxldor tarixiy voqyea va jarayonlar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotiga qanchalik ta'sir etganligi yanada ravshanroq namoyon bo'ladi.

Buxoro xonligi tarixida (1885yil amir Shoh Murod davridan boshlab amirlik) mang'itlar sulolasi hukmronligi alohida ahamiyatga molik davlat boshqaruv tizimiga egaligi bilan ajralib turadi.

Buxoro amirligi tarixida mang'itlar sulolasi hukmronligi tarixi 1756 yilda boshlanib, 1920 yilga qadar davom etdi. Mang'itlarning hokimiyat tepasiga kelishi bilan davlat boshlig'i avval xon, so'ngra yuqorida aytganimizdek amir deb yuritila boshlandi, xonlik esa amirlik deb atala boshlandi.

1756 yili Muhammad Rahimbiy o'zini «xon» deb e'lon qiladi va shu yildan boshlab Buxoro xonligi tarixida rasman mang'itlar sulolasi hukmronligi boshlanadi.¹

O'zining qattiqqo'lligi bilan markazlashgan davlat apparatini saqlanib turishida katta ahamiyatga molik bo'lgan shaxs Muhammad Hakim otaliq² 1743 yilda vafot etgandan so'ng, taxt tspasida turgan ashtarxoniylarning so'nggi vakili Abulfayzxonning doimiy ravishdagi mansabparastligi va ichkilikka berilib ketganligidan va markaziy hukumatning zaiflanishidan foydalanib o'zbek urug'lari boshliqlari, ya'ni o'zbek amirlari mamlakatning turli joylarida hukumatga qarshi isyon va g'alayonlar ko'tarishdi hamda o'zlarini mustaqil deb e'lon qila boshladilar.

Miyonkol vohasida 1745 yilning aprelida xitoy urug'i boshlig'i Ibodullo boshchiligida qo'zg'olon ko'tarildi va qo'zg'olonchilar Buxoro ostonalarigacha borib, katta o'lja bilan qaytishdi.

Buxoroda bo'lib o'tayotgan g'alayonlar va tartibsizliklar Eron shohi Nodirshohni e'tiborsiz qoldirmadi, balki choratadbirlar ko'rishga majbur etdi, chunki Buxoro xoni Abudfayzxon Eron shohi Nodirshohga vassal edi. Nodirshoh Abulfayzxonga mamlakatda osoyishtalikni o'rnatish to'g'risida maxsus ko'rsatma yuborgan bo'lishiga qaramay, Buxoroda ahvol nihoyatda notinchligicha qolaverdi. Shundan so'ng Nodirshoh Muhammad Hakim otaliqning o'g'li Muhammad Rahim rahbarligida 1745 yilda Buxoroga katta qo'shin jo'natdi. Nodirshoh tomonidan Muhammad Rahimga Buxoroda tinchlik o'rnatish va vaziyatni yaxshilash uchun juda katta huquqlar berildi.

¹ Шодмон Воҳид. Қўқон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. –Т., 1996, 226. Яна қаранг.: Ражабов Қ. Муҳаммад Раҳимхон. // Ўзбекистон Миллий Эшдиклопедияси. Т.6. 191бет; Шу муаллиф Муҳаммад Раҳимхон манғитлар сулоласи асосчиси. // Бухоро мавжлари. 2005, 3 соп. 36–37бетлар; Шу муаллиф, Муҳаммад Ҳақимбий оталиқ.// Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, т.6. 185 бет.

² Муҳаммад ҳақимга «оталиқ» унвонини берилиши ҳақидаги срлик нусхаси Абу Райхон Бериуний номидаги ШИ ҳазинасида сак^ланаётган Алитер Навоийнинг „Ҳамса«си ичида ёпиштирилган. Мазкур ёрликда Абулфайзхон Муҳаммад Раҳимхонга «отатик» унвонини берилгани ҳақида фармон бериб, унинг отасини ҳам „оталиқ» сифатида тилга олади. Муфассал қаранг: Собрание восточних рукописей ИВ АН Узбекской ССР Т.П.с. 203 (№ 1236).Янақаранг.: ЭркиновА.С. Алишер Навоий «Ҳамса»си нусхаларининг XV–XX аср манбалари. –Т., 1998, 566бет.; Семенов А.А. Описание рукописей «Хамсн» Алишера Навоий в Государственной публичной Библиотеке, 19. с.

Erondan katta qo'shin bilan chiqib Buxoro sari yo'l olgan Muhammad Rahimxonga Marvda shohning o'g'li Rizoquli o'zining qizilboshlar otryadi va artilleriyasi bilan, Chorjo'yda esa ko'p sonli turkman otryadlari kelib qo'shilishdi.

Ko'p sonli qo'shinlar bilan Buxoroga kirib kelgan Muhammad Rahimxon dastlab otasiga taallukli bo'lgan G'aznobod qishlog'ida to'xtadi. Abulfayzxon Muhammad Rahimxon Buxoroga kirib kelganda unga amirlar amiri (amir ulumaro) uivonini berdi. Muhammad Rahimxon Buxoroda vaziyatni yumshatish borasida katta ishlarni amalga oshirdi. Eronliklarning yordami bilan Ibodulloxitoy boshchiligidagi qo'zg'olonni bostirishga muvaffaq bo'ldi. Ibodulloxitoy mag'lubiyatga uchragach Miyonkolni tashlab Toshkentga qochishga majbur bo'ldi va keyinchalik shu yerda o'ldirildi. Shahrisabzdag'i qo'zg'olon ham bostirildi. Muhammad Rahimxon davlat apparati tizimi ishlari va hukumat amaldorlarini almashtirish ishlariga jiddiy kirishdi. Deyarli barcha yirik davlat amallariga o'zining yaqin qarindoshlarini va maslakdoshlarini qo'ydi. Aynan ana shularga tayangan holda Muhammad rahimxon poytaxtda o'zining mavqeyini mustahkamlab olishga muvaffaq bo'ldi.

1747 yili Nodirshoh o'ldirildi. Shundan keyin oz vaqt o'tmay Abulfayzxon ham o'ldirildi. Muhammad Rahimxon bu davrga kelib o'zining sadoqatli va mustahkam qo'shinini tuzishga muvaffaq bo'lgan edi. Nodirshoh vafotidan so'ng uning lashkarlari Buxoroga hujum qildilar va bir oy mobaynida uni qamal qilib turdilar. Muhammad Rahimxon o'z qo'shinlari bilan Buxoroni mardonavor himoya qildi. Uning bu ishiga poytaxt hunarmandlari yaqindan yordam berishdi. Eronliklar poytaxtni ololmagach, sulhparvar elchilarni yuborishdi va ikkala tomon o'zaro asirlarni almashishgach, ular ketishga majbur bo'ldilar.

Ushbu g'alabadan so'ng Muhammad Rahimxon to'laqonli davlat boshlig'iga aylandi. Ammo u xonlik taxtini egallashga oshiqmadi va taxtga Abulfayzxonning yosh o'g'li Abdulmo'minni xon deb e'lon qildi, aslida esa davlatning barcha boshqaruv ishlari uning qo'lida edi. O'zining qizini Abdulmo'minga nikohlab berdi. 1748 yil Abdulmo'min o'ldirildi. Uning o'rniga Muhammad Rahimxon Abdulmo'minning nihoyatda yosh bo'lgan ukasi Ubaydulla sultonni nomiga xon deb e'lon qildi.

1756 yilga kelib esa yirik amaldorlar, ruhoniylar va urug' oqsoqollarining roziligi bilan Muhammad Rahimxon xon unvoni bilan taxtga to'la va rasmiy egalikni e'lon qildi.¹

Muhammad Rahimxon Buxoro taxtiga o'tirgan davrdan boshlab Buxoro davlati amirlik deb yuritila boshlandi.

Muhammad Rahimxon (1756–1758 y.y.) taxtga o'tirgan kundan boshlab markazlashgan davlat tizimi tuzish siyosatini olib bordi. Dastlab, u barcha viloyatlar va shaharlar hokimlari, barcha urug' oqsoqollarini to'plab, mamlakatdagi vaziyatni tushuntirib berdi va barchaga markaziy davlat qonunlariga to'la amal qilishini hamda kimdakim bo'ysunmasa qattiq jazolanishini aytdi.

Muhammad Rahimxon yirik mulkdorlarni davlat ishlarini boshqarishga aralashtirmagan holda o'zi mustaqil davlat ishlarini olib bordi. U barcha o'zbek urug'larini o'ziga bo'ysundirish va Buxoro hududida yagona markazlashgan davlat tizimini vujudga keltirish sohasida katta ishlarni amalga oshirdi. Bo'ysunmagan urug'larni o'z yurtidan badarg'a qildirdi. Jumladan, yuz, kenegas, burkut, bahrin, saroy

¹ Саъдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов У., Норкулов Н. Узбекистон тарихи: Давлат ва жамият тараккисти, – Т.: Академия, 2000, 193б. Яна қаранг: Ражабов Қ. Муҳаммад Раҳимхон // Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 6жилд. 191бет. Шу муаллиф. Муҳаммад Раҳимхон – манғитлар сулоласи асосчиси. // Бухоро мавжлари. 2005, 3-сон. 36–37бетлар.

urug'larini Hisorga ko'chirib yubordi. Muhammad Rahimxon qisqa muddat ichida juda katta hududni birlashtirgan markaziy davlat tizimini yuzaga keltirdi. 1758 yilga kelib Toshkent, Qo'qon, Marv, Balx, Qunduzdan elchilar kelishib, Muhammad Rahimxonni Buxoroning qonuniy hukmdori deb tan olganliklarini bildirishdi¹.

Muhammad Rahimxon vafotidan so'ng, uning o'g'li bo'lmaganligi sababli, qizidan bo'lgan balog'atga yetmagan Fozilto'ra ismli nevarasi taxtga o'tqizildi. Unga Muhammad Rahimxonning amakisi Doniyolbiy «otaliq» deb e'lon qilindi. Aslida esa barcha davlat ishlari Doniyolbiy tomonidan olib borildi.

Viloyatlar Muhammad Rahimxon vafoti haqidagi xabar yetib borgandan keyin markazlashgan davlat siyosatiga qarshi g'alayonlar va qo'zg'olonlar ko'tarildi. Miyonkol vohasi, Shahrisabz va Kitob, Sherobod va Boysun, Hisor viloyatlarida kattakatta xalq g'alayonlari va chiqishlari boshlanib ketdi.

Muhammad Rahimxon tomonidan Hisorga badarg'a qilingan yuz, keneges, burkut, bahrin, saroy kabi o'zbek urug'lari amirlari 1758 yili uning vafotini eshitishlari bilanoq, 10 mingdan oshiqroq aholini to'plab, Buxoroga qarab yurish boshladilar. Amirlar mang'itlar sulolasini ag'darish rejasini ilgari surishdi. Mang'itlar sulolasining bosh vakili bo'lmish Doniyolbiy tomonidan tezlik bilan ko'rilgan choratadbirlar vaziyatni bir oz yumshatishga imkon berdi.

Doniyolbiy, eng avvalo, ark himoyasini mustahkamladi. Shu bilan birga, qo'zg'olonchi amirlarni tinchlantirish va murosaga keltirish maqsadida ular oldiga Mahdumi A'zam avlodiga mansub bo'lgan eshon Is'hoqxo'jani yubordi. Eshon Is'hoqxo'janing tinchlik va murosaga to'g'risidagi targ'ibotiga faqat bahrin urug'i boshlig'i G'aybullabiy rozi bo'ldi, boshqa urug' boshliqlari ochiqdanochiq kurashni davom ettirishlarini bildirishdi. Shundan so'ng Doniyolbiy qo'zg'olonchilar ustiga qo'shin jo'natdi va shahar hunarmandlarining katta yordami bilan qo'zg'olonni bostirishga muvaffaq bo'ldi. Qo'zg'olon bostirilgach, Doniyolbiy qo'zg'olon ishtirokchilaridan qattiq o'ch oldi. Qo'zg'olonchi urug'larning boshliqlaridan ko'pchiligini qatl ettirdi. Ammo bu choratadbirlar yirik mulkdorlar va o'zbekurug'larining Doniyolbiyga qarshi harakatini to'xtatishga ijobiy ta'sir ko'rsatmadi.

Qo'zg'olon bostirilgandan bir oz vaqt o'tgach, Doniyolbiyga qarshi yuz urug'ining boshlig'i Fozilbiy qo'zg'olon ko'tardi. Fozilbiy Xo'janddan chiqib O'ratepani egalladi. Qamaldan so'ng esa Samarqandni ham qo'lga kiritdi. Samarqanddan Miyonkol tomonga qarab yurdi. Bu yerda unga mang'itlar sulolasi hukmronligidan norozi bo'lgan xitoyqipchoqlar qo'shilishdi va Buxoroga qarab yurishdi. Ularga qarshi Doniyolbiy katta qo'shin bilan Buxorodan Karmanaga qarab yurdi. Doniyolbiy katta harakatlar evaziga qo'zg'olonni bostirishga muvaffaq bo'ldi.

Muhammad Rahimxon davrida vujudga kelgan markazlashgan davlat siyosati Doniyolbiy hukmronligi davrida ancha bo'shashib qolgan edi. U ko'p masalalarni bevosita o'zbek urug'lari oqsoqollari ishtiroki va ruxsatisiz hal qila olmas edi. Bu esa o'zo'zidan markazlashgan davlat siyosatiga moslashgan shahar hunarmandlari va savdogarlarining noroziligiga sabab bo'ldi. Doniyolbiyning mana shunday siyosatiga qarshi 1784 yili Buxoroda katta qo'zg'olon ko'tarildi va ushbu qo'zg'olon davomida mingdan oshiq kishi o'ldirildi. Qo'zg'olonning yanada alanga olishidan cho'chishgan shaharning yirik savdogarlari va mulkdorlari davlatni boshqarishni Shohmurodga

¹ Саъдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов У., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: Давлат ва жамият тараққиёти. 193-бет.

topshirishni talab qilishdi. Doniyolbiy mana shu voqyealardan so'ng taxtni o'g'li Shohmurodga topshirishda majbur bo'ldi.

Shunday qilib, Buxoro taxtiga birinketin Amir Shohmurod (1785-1800 y.y.), Amir Haydar, (1800-1825 y.y.), Amir Husayn (Amir Haydarning o'g'li bo'lib, bor yo'g'i 2,5 oy hukmronlik qilgan), amir Umar (amir Haydarning o'g'li bo'lib, bor yo'g'i 4 oy hukmronlik qilgan), Amir Nasrulloh (1827– 1860 y.y.), Amir Muzaffar (1860–1885 y.y.), Amir Sayyid Abdulahad Bahodirxon (1885–1910 y.y.) va nihoyat Amir Sayyid Olimxon (otasi vafotidan so'ng 19(0 yildan to 1920 yilga qadar) egalik qildilar.

Shohmurod (saroy ahli unga Bekjon deb murojaat qilardilar)¹ otasi hukmronligi davrida bir muddat Samarqand shahri hokimi edi. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda, u hijriy 1153 yoki 1154 (mutobiqan 1740–1742 y.y orasida) yilda dunyoga kelgan. 1785 yili taxtga ega bo'ldi. Otasi davrida u Karmana va keyinchalik Qarshi viloyatining hokimi bo'lgan. Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda unga qushbegi unvoni ham berilgan ediki, bu eng oliy davlat unvonlari sirasiga kirar edi. Otasi vafotidan so'ng, Amir Shohmurod chingiziylardan bo'lgan Abulg'ozini taxtdan haydab, o'zi mutlaq hukmron sifatida taxtga o'tiradi. U o'zining darvishlik oqimiga va dinga qiziqishi nihoyatda katta bo'lishiga qaramay, shaharni boshqarish sohasida olib borgan ishlari bilan shahar aholisi ichida katta hurmat qozongan edi.

Shohmurod Buxoro amirligi taxtiga o'tirgandan so'ng, u shaharlar taraqqiyoti va obodonchiligiga, sug'orish va qishloq xo'jaligini rivojlantirish ishlariga alohida e'tibor berdi. O'zining hukmronligi davrida olib borgan ishlari va ko'rgan tadbirlari hamda xalqqa nisbatan tutgan mavqeiga qarab uni amiri ma'sum, ya'ni gunohsiz amir deb atashgan. Shohmurod o'z hukmronligi davrida Zarafshon vodiysi sarhadidan yirikyirik sug'orish inshootlari majmuasini qayta tiklashga katta e'tibor berdi. Shahar hunarmandlari ahvolini yaxshiladi. Ulardan olinadigan qo'shimcha soliqlarni maxsus farmon bilan bekor qildi.

Shohmurod o'z hukmronligi davrida to'rtta eng muhim islohotlarni, ya'ni pul, sud, harbiy va ma'muriy yo'nalishlardagi islohotlarni amalga oshirdi. Amir Shohmurod 1785 yili Abulg'ozini nomidan mamlakatda pul muomalasini yaxshilash maqsadida katta pul islohotini o'tkazdi. Chunki shu davrga qadar amirlikda ikki xil pul, ya'ni nomi kumush, ammo yarmi misdan va boshqa elementlardan iborat bo'lgan kumush tanga hamda tilla tanga muomalada bo'lgan.

Shohmurod esa 1785 yildan boshlab, to'la holatda kumushdan iborat bo'lgan va 0,7 misqolga (3,36 gr) teng bo'lgan kumush tanga va yirik savdo muloqotlarida ishlatishga mo'ljallangan, oldingilaridano'zining qiymati, sifati vatashqi ko'rinishi bilan farq qiladigan sof tilla tangalarni zarb ettirdi. Shu bilan birga Shohmurod erkin pul zarb qilish huquqini yaratib berdi. U davlat zarbxonalarida odamlarning o'z shaxsiy jamg'armalaridan olib kelgan kumush va oltinlardan bir xil o'lchamdagi kumush va tilla tangalarni zarb qilishlariga keng ruxsat berdi. Bunga zarb qilib berilganligi uchun davlatga ma'lum miqdorda xizmat haqi to'lanardi. Bu esa o'zo'zidan davlat xazinasini boyitishga va mamlakat ichida yagona miqdorda va qiymatdagi pul muomalasini tashkil qilishga olib keldi. Bunday siyosat mamlakatda pul muomalasining sifat darajasini yaxshilashga keng yo'l ochib berdi.

¹ Қаранг: Анке фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их историков. с. 83. прим. 114.; Яна кар.: Ражабов К. Шохмурод. // Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, т. 10. – СПбет; Ўша муаллиф. Амир Шохмурод схуд Амири Маъсум. (Туроп тарихида у>шнг туттап ўрни) // Бухоро мавжлари, 2006, 1-сон.

Shohmurod adliya sohasida o'tkazgan islohoti bilan Buxoro sud ishlarini olib borishni birmuncha erkinlashtirdi. Mamlakatdagi sud hay'ati ishlarini Shohmurod bevosita o'zi boshqardi. Sud ishlarini olib borish uchun maxsus sudlov qonunlari majmuasi (traktat) tuzib chiqildi. Barcha viloyat va tuman qozilari (sudyalari) aynan mana shu qonunlar majmuasi asosida ish olib borishardi. Oliy sud palatasi tashkil etildi. Unda Amirshohmurod boshchiligida 40 ta huquqshunos qozilar fuqarolik va jinoiy ishlarni ko'rib chiqishgan. Sud jarayoniga ayblanuvchi va ayblovchi hamda guvohlik beruvchilarning shaxsan ishtirok etishi majburiy bo'lgan. Yer egalari, savdogarlar, hunarmandchilik korxonalari egalarining huquqlarini muhofaza qilish maqsadida shaxsiy mulkka nisbatan tajovuz qilinishiga qarshi nihoyatda qattiq choralar ishlab chiqilgan va qo'llanilgan.¹

Bu esa, o'z navbatida, Buxoroda jinoyatning kamayishiga, hamda ishlab chiqarishning rivojlanishiga imkon berdi.

Shohmurod markazlashgan davlat tizimini yanada mustahkamlash va uni qo'lda saqlab turish sohasida ham katta ishlarni amalga oshirdi. Shohmurod davrida ham amirliqda bir qator urug'lar va ayrim viloyatlarning noroziliklari sodir bo'lib turdi. 1786 yili Karmana aholisi ochiqdanochiq Buxoro amiriga bo'ysunishdan bosh tortishdi. Shohmurod Karmana aholisini bo'ysundirish uchun bir necha marotaba harbiy yurish uyushtirishga majbur bo'ldi. Karmana bo'ysundirilgach, Shohmurod itoat etmay qo'ygan Shahrisabz va Xo'jandni bo'ysundirish borasidagi harbiy yurishlarini amalga oshirdi va ularni muvaffaqiyat bilan yakunladi.

Mamlakatda amalga oshirilgan katta islohotlar va muvaffaqiyatli harbiy harakatlar natijasida ancha mustahkamlanib olgan Shohmurod qo'shni Afg'oniston va Eronga qarshi harbiy yurishlar uyushtirdi. Doimiy ravishda Markaziy Osiyoga xavf tugdirib turgan va bu davrga kelib ancha kuchsizlanib qolgan Eronga qarshi yurish boshlashni o'z oddiga asosiy vazifa qilib qo'ydi.

Shuningdek, Shohmurod Amudaryoning o'ng qirg'og'idagi oldingi Buxoro yerlarini qaytarib olish uchun Afg'on hokimi Temurshoh ibn Ahmadshoh Durrioniya (1772–1792 y.y.) qarshi urushlar olib bordi. XVIII asrning boshlarida ushbu yerlar, ya'ni Balx, Maymana, Andxuy Afg'on davlati asoschisi Ahmad shoh Durroniy (1743–1773 y.y.) tomonidan bosib olingan edi. Qisqa muddatli janglardan so'ng (Oqchi degan mavzega yaqin joyda) Shohmurod bilan Temurshoh o'rtasida sulh tuzilib, ushbu sulhga muvofiq Amudaryo ikkala davlat, ya'ni Buxoro bilan Afg'oniston o'rtasida chegara deb belgilandi. Maymana va Andxo'y Buxoro tobeligiga va Balx bilan Badaxshon afg'onlar itoatiga kirdi.² Shuni ta'kidlashimiz lozimki Amir Shohmurod davrida O'ratepa va Xo'jand doim Buxoro va Qo'qon o'rtasida urush manbaiga aylandi.³ Urgut va Hisor bekligi esa bir muddat o'z mustaqilliklariga erishdilar. Shahrisabz har yili ikki marotaba Buxoro hujumiga duch kelsa ham o'z mustaqilligini saqlab qolishga erishgan edi.

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, Amir Shohmurod davriga kelib Buxoro iqtisodiyoti ancha mustahkamlandi va ishlab chiqarish rivojlandi. Bu esa Buxoro

¹ Amir Шохмурод даврида толиб уилими (мадраса талабаси)га «сепсираб» мурожаат қилгани учун «сазойи» қилинган бир киши устидан чиқарилган фатво ҳақида Ш. Воҳидоя маълумот берган. Қаранг: Боҳидов Ш. Интересный документ конца XVII века. // Хўжалик ва ҳуқук. 1999, 4-сон.

² Шу қарамақаршиликларнинг тафсилоти турли манбалар маълумоти асосида Анке фон Кюгельген ўз китобида яхши таҳлил қилиб берганини таъкидлашим лозим. Қаранг: Алке Фон Кюгельген, кўрсатилган асари. 83–85 бетлар. Айниқса, 123 изоҳга қаранг.

³ Мухоморов А. Очерк истории Уратюбинского владения в XIX в. Душанбе, 1964. с.186.

amirligining ham iqtisodiy, ham siyosiy jihatdan mustahkamlanganligi va markazlashgan davlat tizimining ba'zi tomonlarining vujudga kelganligi natijasi edi.

Amir Shohmurod hijriy 1215 yil rajab oyida (noyabrdekabr 1800 yil) vafot etdi. Uning o'rniga o'g'li Amir Haydar valiahd sifatida taxt tepasiga keldi. Amir Haydarning onasi Abulfayzxonning qizidan tug'ilgan edi. Otasi davrida Qarshining hokimi bo'lgan Amir Haydar oq kigizga o'tqizilib, xon ko'tarildi. Amir Haydar xon unvonini emas, balki amir almo'minin unvonini oldi. Xutba uning nomiga o'qilgan bo'lsa ham, tangalar ham uning nomidan, ham otasi va bobosi (amir Doniyol) nomidan zarb etildi.¹ U otasi siyosatini davom ettirishga harakat qildi.

Amir Haydarning taxtga ko'tarilish marosimi Samarqandda bo'lib o'tgan. 1216 hijriy yili uning muhrida tarixxonogramma sifatida aks ettirilgan.² Amir Haydar o'z hukmronligining dastlabki yillarida Buxoro hududining yakdilligini saqlash, Zarafshonning yuqori oqimi sarhadlari, Shahrisabz, Miyonkol yerlarini qo'lda saqlab qolish uchun kurash olib bordi. O'ratspani vaqtincha o'ziga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi.

Xiva xonlari amir Haydar hukmronligi davrida Buxoroga qattiq tajovuz qilishib, xonlik yerlarini talab ketishdi.

1806 yili Amir Haydar butun Buxoro ahlini qurollanishga va Xiva xoni Eltuzarga qarshi kurashga chaqirdi hamda ularni xonlik hududlaridan haydab chiqishga va mag'lubiyatga uchratishga muvaffaq bo'ldi.

Ushbu urush tugartugamas O'ratepa uchun Buxoro bilan Qo'qon o'rtasida urush harakatlari boshlanib ketdi.

1807 yili Qo'qon xoni Olimxon O'ratepaga hujum qildi va shahar hokimini asir qilib, katta o'lja bilan Qo'qonga qaytdi. 1810 yil Olimxon yana O'ratepaga hujum qilib, bu safar ham katta boylikni o'lja qilib ortga qaytdi. Ushbu xarakterdagi harbiy yurishlar Qo'qoi xoni tomonidan Jizzax, Zomin kabi shaharlarga ham uyushtirilib turildi.

Doimiy ravishda olib borilgan urush harakatlari mehnatkash omma ahvolini og'irlashtirib qo'ydi. Urush harakatlarini qoplash maqsadida Amir Haydar turli xil qo'shimcha solikdar yig'ishga ko'rsatmalar bergan edi. Bu esa shusiz ham nochor hayot kechirayotgan mehnatkashlar ahvolini yanada og'irlashishiga va Amir Haydar hamda u olib borayotgan siyosatga qarshi chiqishlariga olib keldi. Mana shunday xalq qo'zg'olonlaridan biri 1821 – 1825 yillarda Miyonkolda sodir bo'ldi. Miyonkol qo'zg'olonini Amir Haydar nihoyatda qiyinchilik bilan qo'zg'olonchilarga katta va'dalar berish bilangina bostirishga muvaffaq bo'ldi. Miyonkol qo'zg'oloni Buxoro amirligining siyosiy hayotiga ham chuqur ta'sir qildi.³ Miyonkoldan keladigan katta miqdordagi soliqparning to'xtashi o'zo'zidan Buxoro xazinasini salmog'ini kamayishiga olib keldi. Buxoro qo'shinlarining katta qismi doimiy ravishda qo'zg'olonni bostirish bilan mashg'ul bo'lganligidai foydalangan qo'shni davlat uning chegara hududlariga dambadam hujumlar uyushtirib turishdi. Miyonkoldan tashqari, Samarqand va Urgut

¹ Қаранг: Григорьев В. О некоторых событиях, с. 62. прим. 16; Бурнашева Р. Монеты Бухарского ханства при мангитах (середина XVIII начало XX в.) // Эпиграфика Востока, 1967, № 18, с. 123. ВельяминовЗернов В. В. Монеты Бухарские и Хивинские. // Записки императорского археологического общества. Т. 8. –Спб., 1859. с. 414–426.

² Қаранг: Хумулий. (Таърихи Хумулий). // Қўлёзма, ЎзРФА ИШИ фопди, 37 сон. //VI. 272»–273й бетлар; Ражабов К. Ҳайдар //Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Т – 11 ва б.

³ Қаранг: Иванов П. П. Восстание Китайчикчаков в Бухарском ханстве 1821 – 1825 гг: Источники и опмт их исследования. –М., 1937. с.36–43: 53–81, 84–86; Семенов А. А. Очерк устройство центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени.//Материалы таджиков и узбеков Средней Азии. Вып. 2.Сталинабад, 1954, с.14.

aholisi ham turli sabablardan qo'zg'olon ko'tardilar. Katta qiyinchiliklar bilan amir Haydar bu hududlarni qisqa muddatga o'ziga qayta bo'ysundirdi. Shahrisabz ham Amir Haydarga qisqa muddatga tobe bo'ldi, xolos.¹ Shuning uchun bo'lsa kerak Amir Haydar Shahrisabz kenegesarini o'z xatlarida Buxoro hukmronlarining dushmani deb aytadi.²

Amir Haydar uchun Marv vohasining aholisi ham ancha mashaqqatlarni tug'dirdilar. Buning sababi vohaning suvsizlik muammosi edi. Shohmurod hukmronligi davrida Murgob to'g'oni buzilgan edi. Buning ustiga Xiva xoni Muhammad Rahimxon (1806–1825 y.y.) 1819 yildan boshlab vohaga ketma-ket yurishlar tashkil qilib, nihoyat 1822 yili uni o'z tasarrufiga kirgizdi.³

Amir Haydar hozirgi Afg'onistonning shimoliy viloyatlarida ancha muvaffaqiyatlarga erishdi. Maymana, Badaxshon va Qunduz bilan birga Balx viloyati ham (1850 yilgacha) Buxoro tasarrufida bo'lgan. O'z navbatida Amir Haydar Shujo' almulk Temurshoh Durroniyning o'g'li bilan (u 1803–1809 y.y. hukmronlik qilgan) do'stlik aloqalarini o'rnatgan edi. Ammo Qo'qon va Xiva xonlari bilan Amir Haydarning munosabatlari ancha taranglashib qoldi. Shu sharoitda Amir Haydar hatto Turkiya sultoni Mahmud II ga yordam so'rab murojaat qilib uning itoatiga o'tishga tayyor ekanini ham ma'lum qildi.

Bu voqyealar Amir Haydar hukmronligining oxirgi yillari Buxoro uchun naqadar og'ir bo'lganligini ko'rsatadi. Amir Haydar vafotidan so'ng taxtga uning uchinchi o'g'li Nasrulloh o'tirdi (1826–1860 y.y.). Amir Nasrulloh hukmronligi, eng avvalo, Buxoro amirligidan feodal tarqoqlikka barham berish uchun olib borilgan kurash bilan xarakterlanadi. U harbiylar va lashkarga katta e'tibor berdi. Mana shuning uchun ham uning kuch va qudratiga tayangan holda o'zining asosiy harakatini, eng avvalo, mamlakatdagi mulkdor kuchlarning beboshligi va parokandaligini tugatishga sarfladi va bu borada katta yutuqlarni qo'lga kiritdi. Amir Nasrulloh hokimiyatni boshqarishda nihoyatda qattiqqo'llik siyosatini olib bordi.

Amir Nasrulloh o'z otasi hukmronligi davrida Buxoroga bo'ysunmay qo'ygan viloyatlarni yana qaytadan bo'ysundirish va kuchli markazlashgan Buxoro davlatini tiklash borasida qattiq kurash olib bordi. Bu borada Shahrisabz Buxoroga bo'ysunmay qo'ygan eng yirik mustaqil viloyat hisoblanardi. Amir Nasrulloh taxtga kelgan vaqtdan boshlab Shahrisabz hokimlari o'zlarini to'la mustaqil deb e'lon qildilar. Amir Nasrulloh siyosatidan norozi bo'lgan ko'plab mulk egalari Shahrisabzga qochib panoh topdilar.

Amir Nasrulloh Shahrisabzni bo'ysundirish uchun bir necha bor harbiy yurishlar uyushtirdi. Faqat 1856 yildagina Amir Nasrulloh Kitob va Shahrisabzni egallashga muvaffaq bo'ldi.

Mamlakat ichkarisidagi feodal guruhlarining ichki noroziliklarini ayovsiz bostirgach, Amir Nasrulloh qo'shni Xiva va Qo'qon xonliklari hududiga ham hujumlar uyushtirdi.

1842 yil Amir Nasrulloh Qo'qonga hujum qildi va ma'lum muddat uni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi.⁴ Nasrulloh Qo'qonga hujum uyushtirgan paytda Xiva xoni

¹ Каранг: Анке Фон Кюгельген. Кўрсатилган асари, 88-бет

² Вяткин В. Л. Каршинской округ. Организация в нем войска и события в период 12151217 (18001803) годов//Известия СреднеАзиатского отдела государственного русского географического общества.Т. 18. 1928. с. 12.

³ Материалы по истории туркмен и Туркмении//XVI–XIX вв. Иранские, Бухарские и Хивинские источники /Под ред. В. В. Струве, А. К. Боровкова, А. А. Рамашкевича и П. П. Иванова. Т.2. –М., Л., 1938. с.414-418, 423-425.

⁴ Кукон ва Бухоро ўртасидаги мазкур фожиялар ҳақида бир қатор адабиётлар мавжуд. 1842 йил Кўкон юриши Мадалихонга муҳолиф бўлган қучлар ташаббуси билан (машҳур Муҳаммад Ҳақимхон

Olloqulixon Buxoroning chegara rayonlariga hujum boshladi. Xivaliklarning Marvga hujum qilganliklarini eshitgan Amir Nasrulloh Qo'qonni tashlab, darhol Buxoroga qaytdi va Xiva qo'shinlariga qarshi katta kuch to'pladi. Baxtga qarshi, aynan mana shu paytda Olloqulixonga qozoq urug'larining Xiva yerlariga hujum qilganliklari to'g'risidagi xabar yetib keldi va u ham ortga, Xivaga qaytishga majbur bo'ldi. Bir oz vaqt o'tmay u Xivada vafot etdi. Uning vorisi Rahimqulixon buxoroliklarga qarshi Marvga katta qo'shin yubordi. Amir Nasrulloh o'z qo'shinlari bilan hujumga o'tib, Hozaraspni qattiq qamal qildi, ammo uning ostonalarida Xiva qo'shinlari tomonidan mag'lubiyatga uchradi va o'z yurtiga qaytdi. U Buxoroga yo'l olar ekan, turkmanlar unga tobe ekanliklarini bayen etgach, u o'z vakillarini Marvda qoldirishni lozim topdi.

Amir Nasrulloh o'z hukmronligi davrida O'ratepa va Xo'jand uchun Qo'qon xonligi bilan to'xtovsiz urushlar olib bordi. Buning natijasida shaharlar qo'ldanqo'lga o'tib turdi. Amir Nasrulloh pirovard natijasida O'ratepa va Xo'jandni o'z hukmronligiga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi.

Amir Nasrulloh doimiy ravishda o'z mustaqilligi uchun kurashib kelgan Kitob va Yakkabog'ni o'z ichiga olgan Shahrisabz bekligini ham o'ziga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi. U Shahrisabzga 32 marta harbiy yurish uyushtirdi va ularning oxirida uni bo'ysundirishga erishdi.

Amir Nasrulloh hukmronlik qilgan davr, eng avvalo, Buxoro amirligi hududini mustahkamlash va markazlashgan davlat barpo qilish maqsadida chegara shaharlarni va yerlarni o'z tasarrufida saqlash uchun Xiva va Qo'qon xonliklariga qarshi olib borilgan hamda Shahrisabz bekligini bo'ysundirishga qaratilgan kurashlar bilan xarakterlanadi.

Buxoro amirligi tarixida so'nggi hukmdor hisoblanmish Amir Sayyid Olimxon 1927 yil sentyabrda o'zining mutlaq vakili bo'lmish general hoji Yusufbiy Muqimbiy orqali Millatlar ittifoqiga taqdim qilgani yuborgan «Buxoro xalqining hasrati tarixi»da Buxoro amirligining siyosiy va idoraviy tashkilotlari hamda davlat boshqaruvi ustida to'xtalib, qo'yidagilarni yozadi:

«Buxoroning islom ulamolari amirni payg'ambar xalifasi–o'rinbosari, usul va shariat himoyachisi deb bilardi.

Amirning tirikchiligi butunlay shariatga mos bo'lardi, uni buzishi mumkin emas edi.

Buxoro xonlari butunlay mang'itlarning o'zbek toifasidan bo'lgan.

Buxoro podshohlarining mo'g'il odatlariga ko'ra, to'shakcha ustiga tabarrukona o'tqizilib, sayyidlar, xo'jalar va mullolar uni yerdan ko'tarardilar».¹

Davlat hukm surarkan, albatta, uni ijtimoiysiyosiy va iqtisodiy masalalarini hayotga tadbiq etuvchi amaldorlar va davlat lavozimlari bo'lib, ularda faoliyat ko'rsatuvchi shaxslar bo'lishi muqarrar.

Amallar va lavozimlar har bir davlatda mavjud bo'lgan va bo'ladi. Shu bilan birga, turli xil davlatlarda amallar va lavozimlar turli xil vaqtlarda turlicha bo'lib turgan. Ushbu lavozim va amallar har bir davlat o'z nomiga ega bo'lib, egallab turgan va bajargan ish darajasiga qarab turlicha nomlangan. Jumladan, quyida biz XIX–XX asr boshlarida

рахбарлигида) амалга оширилди. Натижада Қўкон хони уз оиласи ва онаси шоира Нодира– Моҳдаройим билан бирга қатл этилади. Мазкур воқеалар тафсилоти ҳақида қаранг: Воҳидов Ш. XIX аср – XX асрнинг бoshларида Қўкон хонлигида тарихпависликпигривожапашиси. Тарихфан.док.дисс. –Т., 1998. 165–175бетлар.; Воҳидов Ш. Сангирова Д. Шоҳ ва шоир тақдири // Фан ва турмуш, 1999, 4сон, 24–25бетлар.; Бобобеков Х. Қўкон тарихи.–Т.: Фан, 1996. 48бет ва кейингилари.

¹ Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. –Т.: Фан, 1991, 26 бет.

Buxoro amirligida davlat boshqaruv tizimida faoliyat ko'rsatgan amal va lavozimlar hamda unvonlar to'g'risida fikr yuritamiz.

XIX asr oxiri, XX asr boshlarida Buxoro amirligida davlat boshqaruvi, oldingi davrlarda bo'lgani kabi, asosan, ikki bosqichli bo'lgan. Jumladai, u amir, saroy amaldorlari, o'zbek urug'lari va qabila boshliqlari xmda e'tiborli din peshvolaridan tashkil topgan. Markaziy davlat boshqaruvi va mahalliy boshqaruvdan iborat edi.

Buxoro amirligidagi unvon, mansab va amallarga tegishli adabiyotlarda berilgan ma'lumotlar juda ham chalkash va qaramaqarshidir. Ko'pincha ma'lumotlar yuqori mansabdorlarga oid bo'lgan. Mazkur mavzuga oid manbalardan Mirzo Badi' Devon, qozi Vafo va Muhammad Sharif, Muhammad Sharifjon Sadri Ziyo, Mirzo Olim hoji, olimlardan, A.A.Semenov, A.B.Vildanova, Yu.Bregellarni tilga olish mumkin. Yuqoridagilardan Yu.Bregelning «Mang'itlar davrida Buxoro ma'muriyati», nomli asarining ahamiyati beqiyosdir.

Buxoroda eng yuqori unvon (mansab) va amallar «32 o'zbek qabilalari» namoyandalariga, sayyidlarga, xo'jalarga (najib attaraf) va ulamolarga berilgan. Amir Shohmurod davrida ulamolar (islom ruhoniylari)ning martabalari juda yuqori bo'lgan. Amir Haydarni ham taxtga chiqishini birinchi bo'lib ulamolar tabriklagan.

Shunday qilib, ma'lum bo'ladiki, Buxoro mamlakatida eng yuqori unvon bu amir alumaro, otaliq, hokim (voliy, bek), qo'shbegi vadevonbegi bo'lgan. «Otaliq» shahzoda, xonzoda (asosan, taxt vorisi)ga homiy va murabbiy bo'lgan shaxs. Vaqt o'tishi bilan (bu mansab Oltin O'rdada joriy qilingan edi) bu amalning vakolati va zimmasida bo'lgan vazifalar o'zgarib mang'itlar davrida «otaliq» otaliqqa olingan shaxsning maslahatchisi va ishonchli vakili, harbiy va ma'muriy ishlarda asosiy namoyandasiga aylandi.

Mang'itlar hukmronligiga (sulola hukmronligi Doniyolbiydan boshlanadi) asos solinganda Muhammad Hakimbiy Muhammad Rahimbiyniig otasi Abulfayzxon davrida «otaliq» bo'lgan. U bu mansabdan tashqari amir alumarodek faxriy unvonga ham ega bo'lgan. Yu.Bregelning aniqlashicha unga yana «umdat almulk», «umdat ala'yon», «umdat alumaro», «amiri kabir» sifatlari bilan murojaat qilishgan. Qabila peshvolari ham amir unvoniga sohib bo'lib, yurish va urush paytida o'z qabiladoshlaridan muayyan miqdorda qurollangan askar ajratishlari lozim bo'lgan.

Muhammad Rahimxon «otaliq» bo'lganida u allaqachon harbiy, fukarolik va solih ishlarini o'z qo'lga olib bo'lgan edi. Faqat Amir Shohmurod davrida «otaliq»ning vakolati cheklandi, hatto uning davrida biror bir «otaliq» tilga olinmagan. Har holda mutlaq hokimiyatni qo'lga kiritgan Shohmurod kimga ham «otaliq»lik kilardi. Va o'zi amir alumaro, Amir atmo'minin sifatida qaysi «otaliq» homiyligiga muhtoj bo'lishi mumkin edi.

Mirzo Badi' Devon Amir Shohmurod davridagi «otaliq» mansabi haqida gapirib, uning vazifasiga Zarafshon daryosi suvining taqsimotini nazorat qilish, Buxoro kanali (rudi shahr) va dorug'alik vazifasi yuklanganini ta'kidlaydi.¹

Mang'itlar hukmronligi davrida qo'shbegi² eng oliy mansab hisoblangan. Aslida bu mansab egasi bosh vazir vazifasini bajargan.

¹ Мирза Бадий Диван, Маджмаъ аларкам, 95бет ва кейингшари. Матн. 901'–91йбетлар; Семснова А. Бухарский трактат, с. 145–147.

² Биз кўшбетини ҳарбий кўрноқ, кўш, ставка ва лагерь (кароргоҳ) бошлиғи сифатида талкин қилиш тарафдоримиз. Бундан ташқари қўшбегги мансаби ҳам бўлиб, у ов ва ов асбобукуналари, ов қўшлари, қайвонларига масъул бўлган мансабдор, Бу ҳақда қаранг: Ражабов Қ. Бухоро қўшбегилар// Бухоронома, 2005 й. 15 октябрь.

Saroyda yana devonbegi mansabi bo'lgan. Buxoroda XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida bu mansabdor vazir vakolatlariga ega bo'lgan. Devonbegi moliya ishlari daromad va xarajatlar hakida soliq yig'ish ustidan to'la nazorat qilish ishlariga javob berar edi. Diniy unvon va mansablar qozilar, muftiylar, muhtasib va rais, mudarrislar bo'lib, ularga, asosan, sayyidlar, xo'jalar va ulamo ichidan tayinlanar edi. Diniy mansablarning eng yuqorisi shayxulislom bo'lgan.¹

Mahalliy boshqaruv, o'z navbatida, viloyat (bekliklar) hokimlari – beklar va ularga bo'ysunuvchi amaldorlardan tashkil topgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida, ilgari bo'lganidek, davlat amalda va rasman deyarli cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan davlat boshlig'i – amir tomonidan boshqarilar edi. Davlat Buxoro amirining va uning avlodlarining mulki hisoblanib, undagi davlat boshqaruvi usullari o'rta asr musulmon davlatlaridan deyarli farq qilmagan.

Amirlikda qimmatbaho narsalar va amir savdo qiluvchi mollar saqlanadigan «yuqori omborxona» (omborxonayi bolo) mavjud bo'lib, uni «yuqori qushbegi» (qo'shbegiyi bolo) boshqargan. Zakotdan tushgan narsalar saqlanadigan omborxona «quyi omborxona» deb atalgan bo'lib, uni «quyi qo'shbegi» (kushbegiyi poyon) boshqargan.

Buxoro shahridagi jamoat tartibini saqlash mirshablarga topshirilgan bo'lib, odatda ular shahar mirshabboshisiga bo'ysunishgan.² Shu narsani ta'kidlash kerakki, Buxoro shahri mirshabboshisiga bir vaqtning o'zida amirlikdagi boshqa barcha shaharlar mirshablari ham bo'ysunishgan.

Buxoro shahrida odamlar harakati xufton nomozidan so'ng, ya'ni qorong'u tushgandan ozgina vaqt o'tgach to'xtagan. Aynan shu paytda Buxoro shahrining 11 (o'n bir) darvozasi vato'pchiboshi o'tirgan ark darvozasi qulflangan va barcha darvozalar kaliti qo'shbegiga tonshirilgan. Shaharning har bir darvozasiga ikki qo'riqchi darvozabon qo'yilgan. Shahar mirshabboshisi kechasi shaharni aylanib yurib, o'z odamlaridan shaharning qaysi mavzesi va qaysi uyda bazm va man etilgan o'yinlar o'ynalayotganligi to'g'risida ma'lumotlar olib, ushbu ma'lumotlar asosida o'z xizmatchilari bilan borib gunohkorlarni ushlab, ularga nisbatan jarima belgilab jazolashgan. Jarima tO'lashga qurbi yetmaganlar qamoqqa tashlangan. Shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, Buxoroda hatto to'y va ruxsat berilgan bazmlar ham belgilangan vaqtda tugashi shart bulgan va ayrim sabablar bilan ushlanib qolgan to'y yoki bazm ishtirokchilari shu xonadonda tonggacha qolishlari shart edi.³

Buxoro amirligidagi markaziy davlat boshqaruvida amirlik poytaxti hisoblanmish Buxoro shahri alohida o'rin tutgan. Jumladan, Buxoro shahri hokimi amirning biriichi vaziri va boshqa viloyat boshliqlari boshqaruvchisi hisoblangan. Buxoro shahri mirshablari boshlig'i esa, o'z navbatida, barcha bekliklardagi mirshablar ishini boshqargan. Poytaxt oliy qozisi, ya'ni qozikalon–amirlikning barcha qozilari boshlig'i hisoblangan. Mana shu holat asosida Buxoro amirligida juda katta markazlashuv vujudga kelgan.

¹ Мухаммад Али Балжувоний. Тарихи Нофеий, Мирза Бадиъ Диван. Маджмаъ аларкам, 96 бет; Семенов А.А. Бухарский трактат, с.147; Анке Фон Кюгельген, кўрсатилган асари, 100–102 ва кейинги бетлар.

² Кисляков Н. А. Патриархальнофеодальные отношения среди оседлого ссльского населения Бухарского ханства в конце XIX–начале XX века., –М. –Л., 1962., с.37. Яна қар.: Холиқова Р. Марказий давлат бошқаруви тарихига бир назар. // Мулоқот, 2004, 1 сон, 41–42 бетлар

³ Кисляков Н. А. Патриархальнофеодальные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX – начале XX века. –М., – Л.; 1962., с. 37.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, Buxoroda o'sha davrda qo'shbegi, qozikalon, bosh rais va Buxoro shahri mirshabboshisini birgaliqda «chor hokim», ya'ni «to'rt hokim» deb yuritilgan.¹

P. Shubinskiy ma'lumotlariga qaraganda² amir huzurida o'sha davrda din, fuqarolik va harbiy sohalar vakillaridan iborat kengash faoliyat ko'rsatgan. Ushbu kengashda qo'shbegi, bosh zakotchi, to'pchiboshi va boshqa oliy amaldorlar ham ishtirok etishgan. Ushbu kengash doimiy ravishda faoliyat ko'rsatmagan bo'lsa kerak, negaki birorbir arxiv hujjatlari yoxud mahalliy tarixchilar asarlarida va boshqa manbalarda ushbu kengash to'g'risida deyarli ma'lumotlar uchramaydi va fikr bildirilmaydi. Bizningcha, ushbu kengash birorbir muhim islohot o'tkazilayotgan paytda va o'ta muhim masala yechimi qidirilgan paytda chaqirilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy hayotida, davlat boshqaruvidaharbiyma'muriy vadin peshvolariningtutgan o'rni ham o'ziga xos bo'lgan.

Buxoro amirligida din vakillari juda ko'p bo'dgan va ular ta'sirli kuchga ega bo'lishgan. Din vakillari aksariyat hollarda imtiyozli guruxlardan—sayyid va xo'jalardan tashkil topgan edi.

Amirlikdagi yuqori diniy amaldorlardan biri hisoblangan shayxulislom XVII–XVIII asrlarda davlatda eng oliy toifali din vakili hisoblangan. Ammo biz ko'rib chiqayotgan davrda uning vazifalari ancha torayib, asosan, arzlar va Payg'ambar hamda uning xalifalari bilan bog'liq muammolarga bag'ishlangan masalalarni ko'rib chiqishdan iborat bo'lib qolgan.

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida shayxulislom o'rnini qozi kalon egallaydi.

Amir huzuridagi kengashda din vakillaridan qozikalon, shayxulislom, naqib va rais (muhtasib) qatnashgan.³

Buxoro amirligi tarixi, davlat tuzumi to'g'risida tadqiqot olib borishgan ko'p olimlar diniy unvonlar to'g'risida tuxtalishganda ba'zan muftiy, qozi va boshqalarni ham ko'rsatib o'tishgan. Aslida bu noto'g'ri. Boshqacha qilib aytganda, ular unvon bilan amalni chalkashtirib yuborishgan.

Aslida esa Buxoro amirligida rasman uchta diniy unvon: 1) o'roq, 2) sudur va 3) sadr mavjud bo'lgan.

Tarixiy ma'lumotlar shundan guvohlik beradiki, madrasani tugatgan shaxs mulla, qozi, rais amadparini egallashlari mumkin bo'lgan. Yuqoridagi amallarda bir necha yil ishlagandan so'ng, fiqh sohasida qo'lga kiritgan yutuqlari asosida unday shaxslarga dastlab o'roq, keyin sudur va so'ngra sadr unvonlari beriltan.⁴

Eng oxirgi – yuqori diniy unvon sohibi bo'lgan shaxs qozi kaloi, muftiy a'lam, oxun kabi diniy amallarni egallashi mumkin bo'lgan.

Buxoro amirligida din vakillarining kuchi va ta'siri ancha salmoqli bo'lgan. Bu to'g'rida A. A. Semenov to'xtalib o'tib, «din vakillari ko'p holatlarda amirning u yoki bu qarorlariga o'z e'tirozlarini bildirib, ularni o'zgartirishga majbur qilganlar, bu esa amirni

¹ Холикова Р. Марказий давлат бошқаруви тарихига бир назар. // Мулоқот, 2004, 1-сон, 42 бет.

² Шубинский П. Очерки Бухарм. // Исторический вестник, 1892. №8, с. 140-141.

³ Кисляков Н. А. Патриархально-феодальные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX–начале XX века. с 42. Яна қаранг: Холикова Р. XIX асрда Бухоро амирлиги. // Жамият ва бошқарув, 2000, 3-сон, 70–71 бетлар.

⁴ Холикова Р. Амирликда амалуунвонлар.//Фан ва турмуш, 2000, 4-сон, 14-бет.

noqulay ahvolga solib qo'ygan»¹, deb ko'rsatib o'tgan. Buxoro amirligida din vakillari sudni, odamlar xulqini, ta'limni nazorat qilib, uni boshqarishga mas'ul hisoblangan.

Buxorodagi barcha fuqaro sudi (mahkamasi) shariat bo'yicha boshqarilgan va bu boshqaruv «qozi»deb ataluvchi shaxslar qo'lida bo'lgan.

Bosh qozi, ya'ni qozi kalon poytaxt bosh qozisi va ayni paytda amirlikdagi boshqa barcha qozilar boshlig'i hisoblangan.²

Amirlikda harbiylar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar va ularning shikoyatlarini shu masala bo'yicha shug'ullanuvchi maxsus amaldor, ya'ni qozi askar ko'rib chiqqan. Ushbu turdagi jinoyatlarga fatvo tayyorlash muftiy askar zimmasida bo'lgan.

Bundan ko'rinib turibdiki, amirlikdagi harbiylar va fuqarolik jinoyat ishlari alohidaalohida mahkamalar tomonidan ko'rib chiqilgan.

Buxoro amirligi boshqaruv tizimida o'ziga xos o'rinni «rais» egallagan. Ushbu amal yarim diniy, yarim tartibotchi usulida edi.

Buxoro amirligida bosh rais odatda eshon rais yoki rais ushshariat deb atalgan. Bosh raisga barcha mahalliy raislar bo'ysungan. Bosh rais ularni amir oldida tekshiruvdan o'tkazib turgan.

Amir Muzaffar (1860–1885 y.y.) mang'itlar sulolasida taxtga o'tirgan oltinchi amir hisoblanadi. Ushbu davrga kelib mang'itlar hukmronligi asosida davlat boshqaruvi siyosiy tuzumining o'ziga xos bo'lgan tizimi yuzaga kelib bo'lgan edi.

Davlat rahbari – Amir Muzaffar cheksiz hokimiyat egasi hisoblangan. Amirlikda ijro hokimiyati amirlik tomonidan tayinlangan quyidagi lavozimlardagi amaldorlar tomonidan amalga oshirilgan.

Amirning birinchi vaziri, ya'ni qo'shbegiyi bolo eng katta lavozim bo'lib, amir oshxonasi boshlig'i – bo'vurchiboshi devonbegi, xazinachi, miroxo'rboshi, shogirpesha, amir oshxonasining nazoratchisi, bakovulboshi, mahramboshi, saroydagi ozodalik, osoyishtalik va tartibga javobgar farroshboshi, zakotchi mirzaboshi bevosita uning tasarrufida va nazorati ostida bo'lgan.

Bosh vazir ularning ishini borishini nazorat qilish va tashkil etish bilan shug'ullangan.

Amirning ikkinchi vaziri – qo'shbegiyipoyon ba'zan mirpoyon deb atalgan bo'lib unga yasovulboshi, miroxo'rboshi, xazinachi, mirzalar, bakovulboshi, zakotchi bo'ysungan.

Undan keyingi yirik amal – bu to'pchiboshiyi askar hisoblanib, u amirlikning harbiy qo'mondoni hisoblangan. Unga yasovul boshi, mirza, mahramboshi, bakovulboshi, devonbegi, o'n ikkita sarkarda, sarkardalarga bo'ysunuvchi sarbozboshilar bo'ysungan.

Davlat tizimidagi keyingi amaldor bu artilleriya boshlig'i to'pchiboshiyi askar hisoblangan. Uning qo'l ostida shogirdpesha, mirza va merganlar bo'lgan.³

Keyingi amaldor amirlikda bosh qozi – qozi kalon hisoblangan. Qozi kalon devoniga devonbegi, olamiyon, tergovchi,* mahramboshi, miroxo'rboshi, tarakachi, muharrir, mulozimlar, mirzalar, shotirlar, tilmoich va dahboshi (o'nboshi) kirgan.

Qozi kalondan keyin turadigan amaldor raisi kalon hisoblangan. U eshonrais deb ham yuritilgan. Uning apparatiga vaqtincha o'rinbosarlik qiluvchi xalifa, noib, durradast,

¹ Семенов А. А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени. с.66.

² Холикова Р. Amirlikda amal-uynvonlar. // 4son. 14 bet.

³ Шодмон Вохидов. Қўкон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. 23-27бетлар

mulozimlar, mirzalar, miroxo'rboshi, devonbegi, tarakachi, tergovchi, shahar mirobi kirgan.

Shuningdek, ijro hokimiyatini amalga oshiruvchi lavozimlar qatoriga shahar xavfsizligiga javobgar bo'lgan mirshab va uning qo'l ostidagilar, suv ta'minotiga javobgar shaxs bo'lgan mirob va uning qo'l ostida ishlaydiganlar kirgan.

Mirshab qo'l ostida yasovulboshi, devonbegi, mahramboshi, mirzalar, dahboshi, tungi qorovul hisoblangan shabgardlar, farroshboshi va miroxo'rboshi faoliyat ko'rsatgan.

Mirob tasarrufida esa mahram, mirzalar, bakovullar, miroxo'rlar, suv tarmoqlari nazoratchilari, arboblar, mahalla, mavze va qishloq oqsoqollari bo'lishgan.

Amir Muzaffar huzurida yuqorida keltirilgan yuqori mansabdorlar bilan birga quyidagi amaldorlar ham xizmat qilishgan. Amir farmonlarini yetkazuvchi parvonachi, amirga doimo hamroh bo'lib yuruvchi hidoyachi, amir maslahatchisi va xorijiy mehmonlarni kutib oluvchi shig'ovul, amir osoyishtaligi va tinchligini muhofaza qiluvchi tongotar, amirga qaratilgan barcha salom va ta'zimlarni qabul qiluvchi va javob beruvchi salom og'asi, amir dasturxoniga javobgar dasturxonchi, amir safari chog'ida namozga chorlovchi – imomi jilov, amir safari chog'ida qonun bilan shug'ullanuvchi – mufti jilov, amir maslahatchilari guruhi-jam'g'a shular jumlasidandir.

Buxoro amirligida qo'shin tuzilmasi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan. Shu narsani aytish joizki, Buxoro amirligida amir Nasrullohga (1828–1860 y.y.) qadar doimiy (muntazam) qo'shin bo'lmagan.¹

Amir Muzaffar davrida amir qo'shinlariga amirilashkar, ya'ni askarboshi rahbarlik qilgan. Qo'shinda mufti askar mansabi mavjud bo'lgan. XIX asrning 60 yillarida amir qo'shinlarining amirilashkari Usmonbek degan shaxs bo'lgan. U rus armiyasidan qrchib kelgan kazaklardan bo'lgan. Buxoro qo'shinlarining asosini «otliq»lar tashkil etgan. Piyodalar ozchilikni tashkil etgan. Amir qo'shinining eng yaxshi qismi bu yollangan afg'onlar bo'lgan.

Amir Muzaffar davrida ham amirlik bekliklarga bo'lingan bo'lib, beklar amir tomonidan tayinlangan. Bekliklarning eng yaqin yordamchilari yasovulboshi rahbarligida yasovullar bo'lgan. Beklik hududidagi qo'shinlarga beklar o'zi rahbarlik qilishgan. Beklarning qushini bir necha yuz kishidan iborat otliqlardan iborat bo'lib, ular har oyi bek hisobidan 20 tangadan maosh olishgan.

Bek qo'shinida yuzaboshi, ellikboshi, o'nbooshi unvoniga taqlid qilingan holdagi bo'linish mavjud bo'lgan. Bek qo'shinida miroxo'r lavozimi bo'lib, u butun bek qo'shiniga rahbarlik qilish huquqiga ega bo'lgan.

Bekliklar o'z navbatida, quyi ma'muriy boshqaruv tizimlariga bo'lingan bo'lib, ularni oqsoqollar boshqarishgan, qishloq joylarda esa amin lavozimi joriy etilgan bo'lib, ular beklikning suv xo'jaligini boshqargan.

Davlatni boshqarish, uni rivojlantirish xalqning farovonligini ta'minlash, ularning osoyishta hayotini ta'minlab berish ko'p jihatdan shu davlat tizimiga, unga rahbarlik qilgan tarixiy shaxsga, davlat boshqaruvining to'g'ri tashkil etilganligi va ushbu tizimning kimlar tomonidan va qanday usulda boshqaruviga bevosita bog'liqdir.

¹ Кисляков Н. А. Патриархальнофеодалные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX – начале XX века. М., Л., 1962.; Холикова Р. XIX асрда Бухоро амирлиги. 70–71 бетлар; Вохидов Ш.Х. Холикова Р. Ўрта Осиё хонликларида давлат бошқаруви. – Т.: Янги аср авлоди, 2006. 35 бет.

I.2. Buxoro amirligi hududi va aholisi

O'rta Osiyo xonliklari ichida Buxoro amirligi alohida mavqyega ega bo'lgan davlat bo'lib, u juda katta hududga ega edi.

XVIII asrning o'rtalariga kelib Buxoro amirligining hududlarida birmuncha o'zgarishlar sodir bo'ldi. Bu davrda Buxoro xonlari o'z qo'llarida Buxoro shahri va uning atrofidagi tumanlar bo'lmish Vobkent, G'ijduvon, Qorako'l, Vardonze, Qashqadaryo viloyati hamda Miyonkol vohasini saqlab qola olgan edi.

Xo'jand, Toshkent, Hisor vaqtvaqti bilan esa Xuzor, Shahrisabz, Nurota, shuningdek, Amudaryoning o'ng sohilidagi Balx, Andxoy, Maymana, Badaxshon va Shibirg'onlar ham Buxoroga vassal bo'lishiga qaramay, unga itoat etmay qo'yishdi. Bu davrga kelib Buxoro amirligida iqtisodiy, siyosiy va hududiy parokandalikning yuzaga kelishining bosh sababi – bu so'nggi ashtarxoniylar davriga kelib Buxoro xonligida hukm surgan o'zaro feodal janjallar va kelishmovchiliklar edi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, ya'ni mang'itlar sulolasi hukmronlikni o'z qo'lga olgach, Buxoro amirligi astasekinlik bilan yana mustahkamlana boshladi. Albatta, bu davrda ham hali Buxoro amirligida o'zaro feodal tarqoqlik tugashiga chek qo'yilgan emas edi. Hali hamon Buxoro amirligiga bo'ysunmagan Shahrisabz, Jizzax, O'ratepa kabi mustaqil va yarim mustaqil shaharlar va tumanlar mavjud edi.

XVIII asrning 70–80 yillariga kelib, Buxoro amirligining markaziy hududini Samarqand va Buxoro shaharlarini o'z ichiga olgan Zarafshon vohasi tashkil qilardi.

XIX asrning boshiga kelib, Buxoro amirligi hududiga Zarafshon hamda Qashqadaryo vohasidan tashqari Surxon vohasi sarhadi, Hisor, Xo'jand, O'ratepa, Panjikent kabi aholi zich joylashgan tumanlar, Zarafshon daryosining yuqori oqimi, Janubiy Turkistonning katta qismi, shuningdek, Chorjo'ndan tortib to Murg'ob daryosigacha bo'lgan sarhadlar ham qarar edi.

XIX asrning boshlariga kelib, Buxoro amirligi hududini kengayishining bosh sababi – bu eng avvalo Mang'itlar sulolasining markazlashgan davlat barpo etishga intilishining natijasi edi. Shunday qilib, XIX asr boshlariga kelib, Buxoro amirligi bir tomondan Eron va hozirgi Afg'oniston, ikkinchi tomondan Xiva xonligi, uchinchi tomondan qozoq juzlari va nihoyat to'rtinchi tomondan Qo'qon xonligi hududlari bilan chegaradosh edi.

XIX asrning 20 yillariga kelib esa Buxoro amirligi tasarrufidagi O'ratepa va Xo'jand Qo'qon xonligi tomonidan bosib olindi va Qo'qon xonligi hududi deb e'lon qilindi. Bu hududlar Buxoro bilan Qo'qon o'rtasidagi doimiy o'zaro nizolarning kelib chiqishiga sabab bo'ldi, bir necha marotaba navbatmanavbat Buxoro va Qo'qon hukmronligiga tobe qilindi.¹

XIX asrning 50 yillariga kelib, uzoq vaqt davomida Buxoro vassali bo'lib kelgan Balx, Andxoy, Maymana, Shibirg'on va Janubiy Turkistonning boshqa viloyatlari Angliya hukumatining bevosita yordami bilan afg'on amirlari tomonidan batamom egallab olindi.

Shunday qilib, XIX asrning 50 yillarida Buxoro amirligi bir necha viloyatlardan tashkil topgan bo'lib, ulardan Buxoro va Samarqand o'z navbatida tumanlarga bo'lingan edi. Har bir viloyatga hukmron boshliq qo'yilgan bo'lib, u hokim deb atalgan. Keyinchalik viloyatlar o'rnida bekliklar vujudga kelgach, ularning hukmronlari bek deb atagan.

¹ Мухторов А. Очерк истории УраТюбинского владения в XIX в.с. 10-16.

Buxoroning so'nggi amiri Sayyid Olimxon tomonidan 1927 yili ta'kidlanishicha XX asr boshiga kelib «Buxoro mamlakati Amudaryoning sharqiy sohillaridan, ya'ni Rossiya Pomiridan to Xivaning keng davlatlarigacha cho'zilib boradi.

Buxoro shimol tarafdin Qizilqum sahrosi bilan chegaradosh, g'arb tarafdin Sirdaryo bilan hamda Qo'qon xonligi bilan, janubda esa Afg'oniston, Sharqdan turkman o'lkasi hamda Xiva dashti bilan chegaradosh».¹

XX asr boshida, «Buxoro aholisi uch yarim million nafardan iborat. Uning maydoni 225.000 km² keladi, ya'ni taxminan Italiya maydoni bilan teng. Uning aholisining asosiy qismi o'zbek, turkman, qirg'iz, qozoq, tojik, yahudiy va arablardan iborat»² deb yozadi amir Sayyid Olimxon.

XIX asr o'rtalarida Buxoro amirligi Jizzax, Samarqand, Panjikent, Chelak, Nurota, Payshanba, Karmana, Kattaqo'rg'on, Xatirchi, Ziyovuddin, Buxoro, Qorako'l, Qarshi, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Shaar (Shahrisabz-ta'kid bizniki), Chiroqchi, Sherobod, G'uzor, Matcho, Fon, Falg'ar, Yaxnaob (Yag'nob), Qo'shtut, Boysun, Dehnov, Yurchi, Hisor, Baljuvon, Ko'lob, Qo'rg'ontepa, Qabodiyon kabi jami 44 ta beklidan iborat bo'lgan.

«Tarixi Nofeyi» asarida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, alohida viloyatlarga tobe bo'lgan shahar va nohiyalar ham bo'lgan. Masalan: Mo'minobod Ko'lobga; Xovaling va Qo'ng'irot Boljuvonga; Dushanbe va Qoratog' Hisor hokimiga; Romitan, Haydarobod, Bahovaddin, Xo'ja Bo'ston, Xo'ja Ubon, Xo'ja Orif, Vobkent va Zandana Buxoro shahriga tobe bo'lgan ekan.³

«Majma' ularqom» asaridagi ma'lumotlarga qaraganda, amirlik yana quyidagi ma'muriy hududiy bo'laklarga bo'lingan bo'lgan. Chunki aynan mana shu tartibda bo'linish bo'yicha xiroj, zakot va boshqa turdagi soliqlarni yig'ish va olish qulay bo'lgan.

100 ming tanobdan iborat sug'oriladigan yer tumanga, 50 ming tanobdan iborat sug'oriladigan yer hazora (minglik)ga, 25 ming tanob sug'oriladigan yer nimhazoraga, 10–15 ming tanob sug'oriladigan yer biror bir anhor (ariq)ning obxo'ri (sug'oriladigan)ga, 400 tanobga sug'oriladigan yerga ega bo'lgan mulk qariyaga va 300 tanob sug'oriladigan yerni mazraa (ekinzor)ga bo'lingan.⁴

Aksariyat tumanlar aholi yashaydigan eng katta mahallalar nomi bilan ham atalgan. Masalan: G'ijduvon-Xarqonrud, Komot-Vobkand, Somjan-Romiton⁵ nomlari bilan ham tilga olinganligi manbalarda⁶ ham qayd etilgan.

Olimlarning xulosalariga qarag'anda, mahalliy ma'muriyat namoyandalari mavzeni qishloq va masjidlardan kattaroq hududiy bo'linma deb ta'riflaganlar.⁷ Karki viloyati mavzelarga bo'linsa ham, ular o'z navbatida, bekchalarga, bekcha esa, o'z navbatida, qishloqtardan iborat bo'lgan bekchaxonlardan tashkil topgan.⁸

Nurota guzarlardan, ular esa qishlokdardan iborat bo'lgan. Qorategin rabovaga (rahoba so'zidan), u esa, o'z navbatida mavze va qishloqlardan iborat bo'lgan.

¹ Амир Саййид Олимхон. Бухоро халкининг хасрати тарихи. 25-бет.

² Ўша асар, 25 бет.

³ Муҳаммад Али Балжувоний. Тарихи Нофеий. 32 бет.

⁴ Мирзо БадийДиван. Мажмаъ уларком, 18 бет.

⁵ Бартольд В. В. Сочинение, Т.1, с.172; Т.3, с.200.

⁶ Тамкин Абдурахмон Бухорий. Матолий ал-фохира ва матолиб ат-тариха. // Қўлёзма ЎзФАШИ жамғармаси. 8245-сон, 2076 – 208а бетлар.

⁷ Населенные пункты Бухарского эмирата.,–Т.: Университет, 2001. с.5.

⁸ Ўша асар. 5-бет.

Pomir viloyatlaridagi Rushon va Shugʻnon maʼmuriy nohiyalari oqsoqollik deyilgan. Aholi yashaydigan joylar hujjatlarda uchta atama – qishloq, mavze, daha orqali qayd etilgan.¹

Buxoro amirligi Oʻrta Osiyo hududidagi feodal davlatlar, yaʼni xonliklar ichida eng kuchli va aholi koʻp yashaydigan davlatlardan edi.

Buxoro amirligi aholisi XVIII asrning ikkinchi irmidap boshlab tez surʼatlar bilan koʻpaya boshladn. XIX asrning boshlariga kelib aholi soni 2 mln dan oshiq, 50yillarga kelib esa 2,5 mln dan ortiq kishini tashkil qilgan. Buxoro shahrida 60 mingdan, Samarqand shahrida 50 mingdan oshiqroq aholi istiqomat qilishgan.²

XIX asrning 50yillarigacha butun Buxoro amirligi aholisi oʻtroq va koʻchmanchi hayot kechiruvchi aholidan iborat boʻlgan. Oʻtroq aholi tarkibiga, asosan, tojiklar hamda qadimiy turkiy xalklar, iʼni qarluqlar. turklar kirishgan. Koʻchmanchi va yarim koʻchmanchi aholilar tarkibiga esa asosan Zarafshon, Qashqadaryo va Surxondaryo vohasiga kelib joylashib qolgan koʻchmanchi oʻzbek urugʻlari vakillari kirganlar. Shuningdek, bu guruh tarkibiga qisman mahalliy turkiy qabila vakili boʻlmish xitoyqipchoqlar va markitlar hamda qozokdar va turkmanlar ham kirishgan.

Oʻrta Osiyo xududidagi boshqa davlatlarda boʻlgani kabi Buxoro amirligida XX asr boshlariga qadar hyech qachon aholini roʻyxatga olish jarayoni amalga oshirilmagan. Faqatgina chor Rossiyasi hukumati tazyiqi ostida 1914 yilda Buxoroning sharqiy hududlaridagi bekliklardagi aholi, ekin maydonlari, aholi (punktlari) manzilgohlari va chorva sonlari toʻgʻrisidagi maʼlum bir holatda maʼmuriy yoʻl orqali hisobkitoblar amalga oshirildi. Keyinchalik, aniqrogʻi 1917 yilda shu holatdagi roʻyxatga olish yana bir marotoba amalga oshirildi.³

Ushbu holatlar boʻyicha shuni aytish lozimki, roʻyxatdan oʻtkazish jarayonida toʻla va aniq maʼlumot olingan deb boʻlmaydi. Ayniqsa aholi soni masalasida. Chunki oʻsha davrda aholi soni aniqhisobkitob qilinmagan. Odatda, oʻsha davrdagi hujjatlar tahlili shuni koʻrsatadiki, aholi soni oddiy soʻrov usuli orqali va har bir xonadonda oʻrtacha son, yaʼni besh kishidan iborat tarzda hisobkitob qilingan. Aholining umumiy sonlari deyarli barcha holatda taxminiy tarzda berilgan. Boshqa koʻrinishdagi hisobkitoblar ham shu holatda berilgan. Ushbu holatdan kelib chiqqan holda xulosa qilish mumkinki, 1914 yilda ham, 1917 yilda ham Buxoro amirligi hududida aniq aholi sonini roʻyxatga olish jarayoni umuman amalga oshirilmagan, balkim mavjud bekliklardagi amaldorlar orqali taxminiy maʼlumotlar olinib, hisobkitob qilingan. Ushbu xulosaga kelishimizga bir necha obyektiv sabablar mavjud.

Eng avvalo, oʻsha davrda barcha Oʻrta Osiyo davlatlarida boʻlgani kabi, shu jumladan, Buxoroda ham, bekliklar hududining aniq chegarasi, uning xaritasi tuzilmagan edi.

Ikkinchidan, aholi migrasiyasi deyarli hyech qachon hisobga olinmagan edi.

Va nihoyat, uchinchidan har bir beklikda mahalliy boshqaruv maʼmurlari soliqlar, turli xil yigʻinlarni toʻlashni amalga oshirish jarayonida oʻz manfaatlari nuqtai nazaridan kelib chiqib, hyech qachon aniq maʼlumotlar berishdan manfaatdor boʻlishmagan. Mana shuning uchun ham deyarli barcha adabiyotlarda berilgan XIX–XX asr boshlaridagi

¹ Населенные пункты Бухарского эмирата, с.5.

² Тўхтаматов Т. Г. Русско-Бухарские отношения в конце XIX–начале XX в., с. 14; Хотамов Н. Свержение эмирского режима в Бухаре. – Душанбе,

³ Пославский Ю. И. Экономический очерк Таджикистана. – Таджикистан // Сборник статей, –Т., 1995, с. 179.

Buxoro amirligi aholisi soni bizningcha taxminiy tarzda berilgan deb qabul qilinishi kerak.

Eng muhimi shundaki, barcha adabiyotlarda amirlikdagi aholining umumiy soni berilgan bo'lsada, ammo bironbir adabiyotda ularning hududlar bo'yicha taqsimi, yirik shaharlar bo'yicha joylashuvi to'g'risida umuman ma'lumotlar keltirilmagan.

Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, juda ko'plab mualliflar¹ tomonidan yaratilgan asarlarda aholi soni asosan 1924 yilda o'tkazilgan O'rta Osiyodagi rayonlashtirish Komissiyasi ma'lumotlari asosida berilgan.²

XIX asrdagi Buxoro amirligi tarixiy geografiyasiga nazar tashlasak, Markaziy Buxoro hududlarida, asosan, aholi yashaydigan manzilgohlar, shaharlar va qishloqlar, asosan, yirik daryo o'zanlaridagi tekisliklarda, suv taqsimoti mavjud bo'lgan hududlarda qaror topganligi ko'zga tashlansa, Sharqiy Buxoro hududida esa aholi manzilgohlari, asosan, daryolarningtog'oldi qismida, ya'ni boshlanish qismida shakllanganligini ko'rish mumkin.

Amirlik aholisining katta qismini o'zbeklar tashkil qilgan bo'lib, ular juda ko'plab urug'lar vakili hisoblangan. O'sha davrda Buxoro amirligida o'zbeklarning umumiy soni 1,5 mln kishi deb ko'rsatilgan.

O'zbeklar, ya'ni o'zbek urug'lari va qabilalari to'g'risida so'z ketganda adabiyotlarda turli xil fikrlar, g'oyalar ilgari surilgan. Jumladan, XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida yashagan aholining o'zbek qatlami deyarli barcha adabiyotlarda uchga bo'lingan. Aynan mana shu uch guruhni atash, ularni nomlash bo'yicha turli xil fikrlar bildirilgan va ilgari surilgan. O'zbeklarning birinchi turiga olimlar, asosan, o'troq aholi qismini, umuman urug'qabilaviy jihatdan bo'linmagan qismini kiritganlar. Ularga chig'atoylar, xo'jalar va qarshiliklar kiritilgan. Professor M. G. Vahobov ularni ilmiy jihatdan atash uchun «Turkiy tilli sartlar» degan ilmiy atamani qo'llashni taklif etgan bo'lsa,³ B. Karmisheva «o'troq aholi» degan atamani qo'llagan. Ikkinchi toifaga mansub bo'lgan o'zbeklarni B. Karmisheva «ilk qabilalar» deb atab, ularga, asosan mo'g'illar kirib kelgunga qadar bo'lgan turkiy qabilalarning tarixiy vorislarini, ya'ni turklar, qarluqlar, xalachlar, mirishkorlar va boshqalarni kiritadi.⁴

M.Vahobov esa ushbu ikkinchi toifaga mansub o'zbeklarni «Movarounnahr turklari» deb atashni ilgari surgan.⁵

Va nihoyat, o'zbeklarni uchinchii toifasini B.Karmisheva «so'nggi qabilalar», ya'ni XV asr oxirida Dashti Qipchoqdan Movarounnahrqa ko'chib kelgan o'zbek qabilalari avlodlari deb atagan holda, ular tarkibiga qo'ng'irotlar, yuzlar, loqaylar, semizlar, kesamirlar, qatag'onlar, do'rmonlar va boshqalarni kiritgan.⁶ M. Vahobov esa ushbu uchinchii toifa o'zbeklarni «ko'chmanchi o'zbeklar,, atamasi orqali ifodalashni ilgari surgan.»⁷ Umuman olganda ushbu ikkala fikr har bir tadqiqotchini chuqur mulohaza yuritishga majbur qiladi. Ilmiy tahlil va bevosita o'zbek qabilalarining kelib chiqishi va kelib o'rnashishi tarixi ushbu masalaga haqiqatan ham ilmiy asosda jiddiy yondashish lozimligini ko'rsatadi. B. Karmisheva o'z tadqiqotlarida ko'proq aholi

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи: 1 китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. –Т.: Шарқ, 2000.; Турсунов Х. Т. Восстание 1916 года в Средней Азии и Казахстане. – Т., 1962.

² Зарубин И. И. Список пародностей Туркестанского края // Труды комиссии по изучению племен составляющих населения России и сопредельных стран. № 9, – Ленинград, 1925. с. 12–34.

³ Каралсин: Вахабов М. Г. Формирование узбекской социалистической нации. –Т., 1961. с. 30-34, 44, 46.

⁴ Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана, с. 86–87.

⁵ Вахабов М. Г. Формирование узбекской социалистической нации. с. 45-47.

⁶ Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. с. 72–73.

⁷ Вахабов М. Г. Формирование узбекской социалистической нации. с. 46, 51-52, 56.

turmush tarzini o'rganish va ularning joylashuvi, ya'ni etnografiya va tarixiy geografiya fanlari maqsadidan kelib chiqqan holda, ko'proq o'zining XX asrning 60–70 yillarida olib borgan «so'rov» ekspeditsiyalari natijalari xulosasi asosida o'z fikrini ilgari surganligini ko'rish mumkin. M. Vahobov esa o'z ilmiy tadqiqotlarida bevosita yozma manbalarni chuqur bilishi va ularni ilmiy tahlil etishi asosida o'zbek urug'larining har bir toifasini kelib chiqishi va o'zbek millatining shakllanishi nuqtai nazardan kelib chiqqan holda fikr yuritganligi, har bir etnik jarayonni ilmiy asoslash zahirida tarixiylik va tadrijiylik mezonini bilan nomlaganligini ko'rsatish mumkin.

Buxoro amirligi aholisi tarkibida son jihatdan o'zbeklardan so'ng ikkinchi o'rinda tojiklar turishgan. Ularning umumiy soni 500 ming deb berilgan. Boshqa bir manbada ularning soni 650 ming deb ko'rsatilgan.

Buxoro amirligida tojiklar asosan kompakt (zich) holatda amirlikning yirik shaharlari Samarqand, Buxoro, Kitob (Ko'htog'), Urgut hamda tog'li hududlarida, jumladan, Panjikentda, Dushanbeda va Vaxsh bo'ylarida, amirlikning janubisharqiy qismida esa, asosan, Afg'oniston bilan chegaradosh bo'lgan yerlar HisorDarvoz, Qorategin, Ko'lob, Baljuvon, Qabodiyen va Yakkabog' bekliliklarida, Zarafshonning yuqori qismida esa Falgar, Matcho, Yakkatut va Fon bekliliklarida, hamda Kshutut (Qo'shtut) va Mog'iyenda istiqomat qilishgan.¹

Turkmanlar ham Buxoro amirligi aholisining son jihatdan katta qismini tashkil etgan.

Turkmanlar Buxoro amirligiga qarashli bo'lgan Amudaryoning ikki qirg'oq'ida joylashgan yerlarda, ya'ni amirlikning janubiy va g'arbiy hududlarida istiqomat qilishgan.

Ersari, ata, alieli va hoji qabilalarining katta qismi ko'chmanchilikni tark etib o'trokdashgan va dehqonchilik qilishgan. Qolgan qismi esa ko'chmanchilikni davom ettirib, chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Ularnig aksariyati Chorjo'y, Burdaliq, Karki, Sherobod va Qo'rg'ontepa bekliliklariga qarashli yerlarda dehqonchilik va chorvachilik bilan mashg'ud bo'lishgan.

Ma'lumotlarga qaraganda, Buxoro amirligida yashagan turkmanlar soni taxminan 200 ming kishi deb ko'rsatilgan.²

Buxoro amirligi hududida amirlik aholisining kichik qismini arablar tashkil qilgan bo'lib, ular asosan Qarshi va Sherobod hududlarida istiqomat qilishgan.³

Shuningdek, Buxoro amirdigi hududida forsiylar, yahudiylar, hindlar, lo'lilar, afg'onlar, qoraqalpoqlar, qozoqlar va qalmiklar ham yashashgan. Qalmiklar Buxoro shahrida qoraqalpoqlar esa Zarafshon, Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimlarida, qozoqlar esa Buxoro amirligining shimolisharqiy qismida istiqomat qilishgan.

Buxoro amirligida istiqomat qilgan nomahalliy xalqlar, jumladan, hindlar, yahudiylar huquq jihatdan to'la huquqqa ega emas edilar va ular alohida mavzelerde yashashgan.⁴

Buxoroda nihoyatda oz miqdorda Rossiya fuqaroligiga mansub bo'lgan va, asosan, savdo ishlari bilan mashg'ul bo'lgan tatarlar ham istiqomat qilishgan.

¹ Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана, с. 41–45.

² Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустанлакачилиги даврида. –Т., 2000, 464 бет; Яна қарарнг : Сухарева О. А. Бухара: XIX–начало XX в. (Позднеефеодальный город и его население). М., 1966, с. 120–122.

³ Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана, с. 111 – 112.

⁴ Ўша асар, 116–119-бетлар.

Aholining aksar qismi yirik shahar va qishloqlarda istiqomat qilgan bo'lib, ularning aniq miqdori deyarli yo'q.

XIX asrda Buxoro hududida bo'lgan rus fuqarolari tomonidan yozib qoldirilgan turli xil manbalar va esdaliklarda aholi soni emas, balki ko'pincha aholi yashaydigan xonadonlar soni berilgan.

Buxoro amirligi aholisi ijtimoiy-siyosiy tuzilishi ham turlicha bo'lgan. Ularning tarkibi ham nihoyatda xilmaxil bo'lgan. O'zbek urug'lari ichida qo'ng'iro't, saroy, mang'itlar ko'pchilikni tashkil etishgan. Shuningdek, jabg'u, qorluq, qalmiq, nayman, xitoy, qipchoq, qirq kabi urug'lar ham salmoqli urug'lardan hisoblanishgan.

Chig'atoylar O'zbekiston hududidagi qadimiy elatlardan hisoblangan. Chig'atoylar ikki tilda gaplashganligi uchun o'zbek chig'atoylari va tojik chig'atoylariga bo'lingan. Chig'atoylar asosan Buxoro amirligi hududida istiqomat qilishgan.

O'zbek urug'iga mansub bo'lgan chig'atoylar, asosan, Buxoro amirligining Sharqiy Buxoro hududida istiqomat qilishgan. Jumladan, chig'atoylar Sheroboddaryoning yuqori (Yuqori Machay) qismida Sheroboddaryoning o'rta oqimi (Laylagan, Qarabog', Poshxurd)da hamda Sheroboddaryoning quyi oqimi— Sherobod vohasida (Chig'atoy, Qishloqbozor), Seplon, Navbog', Gaurdak (Gegirdak, Chuyanchi) Surxondaryoning quyi oqimida (Manguzar, Sallibod, Chig'atoy), Dehnov yaqinidagi Cho'liboyir tog'lari etagida (Katta Vaxshivor, Kichik Vaxshivor), Hisor tog'lari etagida (Gazarak, Dashnabod) hamda Boljuvon bekligi va Ko'lob bekliklarida istiqomat qilishgan.¹

Buxoro amirligining Sherobod bekligida asosan qo'ng'iro't urug'lari va chig'atoylar yashagan bo'lib, ular ushbu beklik aholisining katta qismini tashkil etgan.

Hisor bekligida barloslar, musabozorlar, laqaylar va yuzlar beklik aholisining katta qismini tashkil etishgan.²

Dehnov bekligida esa ko'proq qo'ng'iro'tlar bilan turkman juzlar aholi asosini tashkil etgan.

Qabodiyon bekligidagi aholining katta qismi o'zbek chig'atoylari, xo'jalar va do'rmonlardan iborat bo'lgan.

Qo'rg'ontepa bekligi aholisi, asosan, qatag'onlardan iborat bo'lgan bo'lsa, Boljuvon bekligida esa loqaylar ko'proq bo'lgan.³

Qo'shbegi devonxonasining 1915 yilgi yozishmalar jurnalida Buxoro amirligi 1915 yilga kelib 27 ta viloyat va 11 ta tumandan iborat deb qayd etilgan.⁴ Deyarli barcha tumanlar Buxoro shahri atrofida joylashgan bo'lgan.

Buxoro amirligining viloyatlari, asosan, daryolar vodiysi bo'ylab joylashgan. Masalan, Zarafshon vodiysida Karmana viloyati, Xatirchi viloyati, Ziyovuddun viloyati, Nurota viloyati, Qashqadaryo vodiysida, Qarshi viloyati, G'uzor viloyati, Yakkabog' viloyati, Chiroqchi viloyati, Kitob viloyati va Shahrisabz viloyati, Surxondaryo vodiysida Sherobod viloyati, Boysun viloyati, Dehnov viloyati va Sarijo'y viloyati joylashgan.

Amudaryo daryosi bo'ylab esa Chorjo'y viloyati, Usti viloyati, Karki viloyati, Kalif viloyati va Burdaliq viloyati (bular, asosan, hozirgi Turkmaniston hududida), Sharqiy Buxoroda (hozirgi Tojikiston hududida) Qabodiyon viloyati, Qo'rg'ontepa

¹ Кармышева Б. Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. с. 68–69.

² Ўша асар, 70-71, 78–79 бетлар.

³ Ўша асар. 110-112.

⁴ ЎЗРМДА. И. 126-жамғарма, 1-рўйхат, 51-иш, 43 бет.

viloyati, Hisor viloyati, Qorategin viloyati, Ko'lob viloyati, Boljuvon viloyati, Darvoz viloyati va Shug'on viloyati joylashgan.¹

Aholi yashaydigan manzilgohlar soni jihatdan sharqiy viloyatlar eng ko'p va eng katta hudud hisoblangan. 1914–1916 yilgi ro'yxatlarga qaraganda, Boljuvon viloyatida 1420 ta aholi manzilgohlari, Hisorda 1200 ta aholi manzilgohlari, Qorategin viloyatida 700 ta aholi manzilgohlari, Ko'pat viloyatida 635 ta aholi manzilgohlari borligi qayd etilgan.²

Turkman viloyatlari ancha kichik bo'lgan. Masalan, Usti viloyatida 15 ta aholi yashaydigan manzilgoh, Burdaliq viloyatida 14 ta aholi yashaydigan manzilgoh, Kelif viloyatida 24 ta aholi yashaydigan manzilgoh bo'lgan.

Buxoro amirligida doimiy ravishda viloyatlar va tumanlar yo qo'shilib turgan, yo ajralib chiqqan.

Ma'lumki, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatorligi aholisi to'g'risida tarix fanida aniq doimiy ma'lumotlar ma'lum, chunki ushbu hududda bir necha bor aholini ro'yxatga olish tadbirlari o'tkazilgan. Ammo ushbu davrga oid Xiva xonligi va Buxoro amirligi aholisi to'g'risida hozirgi kunga qadar fanda aniq bir doimiy ma'lumot yo'q. Buxoro amirligi aholisi tarkibi to'g'risida turli xil adabiyotlarda turli xil ma'lumotlar ilgari surilgan.

Masalan, 1962 yil nashrdan chiqqan X.Tursunovning «Vosstaniye 1916 goda v Sredney Azii i Kazaxstane» nomli monografiyasida «XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida 5 mln 995 ming 796 kishi, Xiva xonligida 460 ming aholi, Buxoro amirligida esa 1 mln 500 ming kishi istiqomat qilgan» degan ma'lumot berilgan.³

2000 yilda nashrdan chiqqan «O'zbekistonning yangi tarixi. 1 kitob: Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida» nomli kitobida esa Buxoro amirligi aholisi to'g'risida to'xtalib, «XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligida 2 mln atrofida aholi nstiqomat qiladi.

Aholining katta qismi amirlikning sersuv vohalarida yashar edi. Zarafshon vodiysida 300–350 miig, Kdshqadaryo vohasida 500 ming, Surxondaryo vohasida 200 ming, Sharqiy Buxoroda 500 ming aholi yashagan» degan ma'lumot keltirilgan.⁴

Turli yillarda chop etilgan ushbu adabiyotlarda Buxoro amirligi aholisi to'g'risida turli xil doimiy ma'lumotlar berilganligining o'zi tarixchi olimlar tomoiidan ushbu masalaga aniqlik kiritishni taqozo etadi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi aholisi to'g'risida haqiqatga yaqin bo'lgan doimiy ma'lumotlar Moskva shahridagi Rossiya Davlat Harbiy Tarix Arxividagi jamlamalarda ilk bor muallif tomonidan aniqlandi.

Rossiya davlat Harbiy tarix arxivi jamlamalarida saqlanayotgan Buxoro qo'shbegisi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga qaraganda, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi aholisining umumiy soni 2 mln 153 ming 240 kishini tashkil etgan ekan.

Ushbu davrda Buxoro amirligi poytaxti Buxoro bilan bir qatorda 20 ta beklik va 9 ta mustaqil tumanlardan iborat bo'lgan. Buxoro amirligining beklklar va tumanlari bo'yicha aholi sonini arxiv hujjatlari asosida quyidagi jadval bo'yicha havola etish mumkin.

¹ Населенные пункты Бухарского эмирата с. 4–5.

² Населенные пункты Бухарского эмирата. с.5.

³ Турсунов Х. Восстание 1916 года в Средней Азии и Казахстане. с. 48.

⁴ Ўзбекистоннинг янги тарихи: Туркiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. –Т.: Шарк, 2000

**Buxoro amirligi beklklari, ularning aholisi soni, beklklar
daromadi va aholining xo'jalik yuritish shakli**

Beklik nomi va tumanlar	Ahol i soni	Siyosiy agentlik ma'lumoti bo'yicha daromad ko'rsatkichi, rubl hisobida	Beklik va tuman aholisining asosiy xo'jalik yuritish shakli
Buxoro shaxri	60.000	—	Dehqonchilik
Shahrisabz bekligi	150.000	45.000	Dehqonchilik
Kitob bekligi	100.00	75.500	Deqqopchilik
Yakkabog' bekligi	20.00	15.00	Dehqonchilik
Chiroqchi bekligi	30.000	30.00	Chorvachilik

Ushbu jadvalda muallif tomonidan amirlikning Buxoro shahri beklklari va tumanlari aholisi soni bilan bir qatorda, aholidan olingan soliq yig'implari qiymati ham ko'rsatildi. Shuningdek, beklk va tuman aholisining xo'jalik yuritish holati ham ushbu jadvalda berildi.

Buxoro amirligi yuqorida aytganimizdek, aholisi jihatdan mahalliy aholining turkiy xalqlaridan (o'zbeklar, sartlar, turkmanlar, qirg'izlar, qozoqlar va boshqalar) va eroniy xalqlardan (asosan, tojiklar) hamda boshqa elatlar (yahudiylar, ruslar, afg'onlar, forslar, hindlar, armanlar, tatarlar va boshqalar)dan iborat bo'lgan.

Turkiy xalqlar butun aholining 85 % ga yaqinini (1 mln 830 ming 254 kishi), eroniy xalqlar 12 % ga yaqinini (258 ming 389 kishi) va boshqa xalqlar esa 3 % ni (64 ming 597 kishi) tashkil etgan. Uni jadval tarzida quyidagi holatda ko'rsatish mumkin (2 jadval).

Qarshi bekligi	200.000	150.500	Dehqonchilik/ chorvachilik
G'uzor bekligi	50.000	40.000	Dehqonchilik/ chorvachilik
Hisor bekligi	150.000	400.000	Dehqonchilik
Dehnov bekligi	23.525	45.000	Dehqonchilik
Boysun bekligi	28.000	18.750	Chorvachilik
Sherobod bekligi	75.000	50.000	Dehqonchilik/ chorvachilik
Kalif bekligi	10.000	6.000	Chorvachilik
Karki bekligi	62.100	15.000	Chorvachilik
Chorjo'y bekligi	167.115	225.000	Dehqonchilik/ chorvachilik
Burdaliq bekligi	15.000	5250	Chorvachilik
Norazm bekligi	10.000	3250	Chorvachilik
Qabodiyon bekligi	12.500	6.000	Chorvachilik
Qarotsgin bekligi	51.000	30.000	Chorvachilik
Boljuvon bekligi Ko'lob	300.000	100.000	Dehqonchilik/ chorvachilik
Darvoz			Chorvachilik/ mavsumiy

Tumanlar			
Nobkent		60.000	Dehqonchilik
G'ijduvon		135.000	Ds'hqonchilik
Zandane		60.000	Dehqonchilik
Vang'she	640.000	80.000	Dehqonchilik
Qorako'l		105.000	Chorvachilik
Karmana		185.000	Dehqonchilik
Ziyovuddin		150.000	Ds'hqonchilik
Xatirchi		75.000	Ds'hqonchilik/ chorvachilik
Nurota		22.5000	Ds'hqonchilik/ chorvachilik
Jami:	2153.240	2.083.253	

2-jadval.

Buxoro amirligi aholisiniig etnik tarkibi

Guruh nomi	Butun aholiga iisbatan foiz hisobida	Butun aholi soni bo'yicha miqdori
Turkiy xalqlar	85%	1 mln 830 ming 454 kishi
Eroniy xalqlar	12%	258 ming 389 kishi
Boshqa etnik guruhlar	3%	64 ming 597 kishi
Buxoro amirligi bo'yicha, jami:	100%	2 mln 153 mipg 240 kishi

Buxoro amirligi aholisining hududiy joylashishi nihoyatda turli xil darajada bo'lgan.

Aholining eng ko'p qismi, ya'ni 700 mingga yaqini Zarafshon daryosi bo'ylaridan vodiylarda, 500 mingga yaqini Qashqadaryo vohasida, 225 mingga yaqini Qizilsuv va Yaksuv vohalarida, 300 mingga yaqini Surxon daryosining quyilish joyidan Chorjo'ygacha bo'lgan Amudaryoning har ikkala tomonida nihoyatda tor hudud bo'ylab borgan vodiya joylashgan. Qolgan 430 ming aholi esa amirlikning juda katta va keng hududi bo'yicha tarqoq holda istiqomat qilishgan. Ushbu holatni 3jadval bo'yicha quyidagi tarzda ko'rsatish mumkin.**3-jadval.**

Buxoro amirligi aholisining hududiy joylashuvi

№	Hududlar (vodiy va vohalar) nomi	Istiqomat qiluvchi aholi soni (tahminan)	Foiz hisobida
1	Zarafshon vohasida	700.000	32,5%
2	Qashqadaryo' vohasida	500.000	23,2%
3	Qizilsuv va Yaksuv bo'yidagi vohalar	225.000	14%
	Amudaryo bo'ylab yoyilgan vohalarda (Surxon daryosi quyilishidan to Chorjo'ygacha bo'lgan hududlar)	300.000	14%
4	Qolgan hududlarda	430.000	20%
5	Buxoro amirligi bo'yicha	2 mpn 155ming	100%

XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Buxoro amirligi aholisini ularning yashash tarziga qarab o'troq, yarim ko'chmanchi va ko'chmanchi guruhlariga bo'lish mumki. Aholining 65 foizini o'troq aholi, 15 foizini yarim ko'chmanchi va 20 foizini ko'chmanchi aholi tashkil etgan. Ushbu ko'rsatkichni 4jadval bo'yicha quyidagi tarzda ko'rsatish mumkin.

4-jadval.

Buxoro amirligi aholisining yashash tarzi bo'yicha taqsimoti

№	Aholining yashash tarzi bo'yicha nomlanishi	Aholi soni	Foiz miqdorida
1.	Utroq aholi	1 mln 399 ming 606	65%
2.	Yarim ko'chmanchi aholi	322 ming 986	15%
3.	Ko'chmanchi aholi	430 ming 648	20%
Jami:		2 mln 153 ming 240	100%

Buxoro amirligi aholisining xo'jalik yuritishida dehqonchilik va chorvachilik asosiy o'rin tutgan. Dehqonchilik va chorvachilik bilan mashg'ul bo'lgan aholi qatlami umumiy aholi sonining 85% ini tashkil etgan. 10% aholi savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullangan. 5% aholi esa doimiy ish yuritish sohasiga ega bo'lmaganligi sababli ular mavsumiy ish bilan shug'ullanishgan. Shahar aholisi va beklilik markazlarida aholi savdo sotiq, hamda hunarmandchilik bilan shug'ullangan. Aholining bu yo'nalishi bo'yicha umumiy taqsimotini jadval bo'yicha quyidagicha ko'rsatish mumkin (5jadval).

5-jadval.

Buxoro amirligi aholisining xo'jalik yuritish bo'yicha taqsimoti

№	Aholining yashash tarzi bo'yicha nomlanishi	Aholi soni	Foiz miqdorida
1.	Dehqonchilik va chorvachilik	1 mln 830 ming 254	85%
2.	Savdo va hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi aholi	215ming324	10%
3.	Doimiy xo'jalik ishi yuritishga ega bo'lmagan aholi	107 ming 662	5%
Jami aholi:		2 mln 153 ming 240	100%

Rossiya davlat Harbiy tarix arxivi manbalarida muallif tomonidan qayd etilgan va ilmiy muomalaga olib kiritilgan ushbu ma'lumotlar Buxoro amirligi aholisi, uning soni, joylashuvi hamda ularning xo'jalik yuritishi to'g'risida qimmatli ma'lumotlarni berishi bilan muhim hisoblanib, tariximizdagi ko'plab savollar yechimini topishga imkon yaratadi.

II.3. Buxoro amirligining iqtisodiy ahvoli

XIX asr o'rtalari – XX asr boshlarida Buxoro amirligida dehqonchilik va chorvachilik, hunarmandchilik, savdosotiq mamlakat iqtisodining asosiy tarmoqlari hisoblanardi. Dehqonchilik sohasida bug'doy, arpa, jo'xori, poliz va sabzavot ekinlari yetishtirishga ancha katta e'tibor berilgan. Uzunchilik hamda bog'dorchilik ham yaxshi rivojlangan. Qarshi, Kattaqo'rg'on hududlarida tamaki yetishtirishga alohida e'tibor qaratilgan. Amirlikda sholikorlik ham yaxshi rivojlangan. Jumladan, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on kabi vohalarda ko'plab sholi yetishtirilgan. Rossiyaga paxta tolasining

ko'p miqdorda sotilishi tufayli, XIX asr boshidan boshlab paxtachilikni rivojlantirishga e'tibor ancha kuchaytirilgan.

D.N.Logofetning ma'lumotlariga qaraganda, Buxoro amirligining «Qashqadaryo vohasi, Surxondaryo vohasi, Yakkabog', Kitob, Chiroqchi, Qarshi, Shahrisabz, G'uzor, Termiz tumanlarida paxta katta miqdorda yetishtirilgan».¹

Ayniqsa, Rossiya bilan O'rta Osiyo xonliklari o'rtasida aloqaning o'zaro yaxshilanishi tufayli, XVI asrdan boshlab XIX asr ikkinchi yarmiga qadar Buxoro amirligida paxta yetishtirishga katta e'tibor berila boshlandi. Xalqaro maydonda va jahon bozorida paxta narxining ancha oshishi aynan paxta yetishtirishning ko'payishiga sabab bo'lgan edi.

A. Kostenkoning ma'lumotlariga qaraganda, O'rta Osiyo xonliklari ichida Buxoro paxtasi alohida diqqatga sazovor bo'lib, u ancha qimmat turgan.²

P. I. Demezoning yozishicha, Buxoroda sholi yetishtirishga katta e'tibor berishgan. Eng yaxshi guruch Miyonkol hududlarida va Samarqand atroflarida yetishtirilgan.

Buxoro shahrining o'ziga, odatda, Shahrisabz va Hisordan ko'plab guruch olib kelingan.

Buxoroda bug'doy (gandum), jo'xori, oq jo'xori, makkajo'xori, kunjut, arpa (javdar(i)), tariq, mosh, no'xat, loviya kabi poliz ekinlari ko'plab yetishtirilgan.

Qishda (1834 yili) Buxoroda bug'doyning bir botmoni 12–Ntanga miqsorida, kunjutning bir botmoni 18–19tanga, arpa (javdar(i))ning bir botmoni 10,5 tanga, no'xatning bir botmoni 20 tanga miqdorida sotilgan.³

Qarshi va Miyonkol hududlarida juda ko'p tamaki yetishtirilgan. Qarshi tamakisi eng yaxshi sifatli tamaki hisoblangan.

Shuningdek, Buxoroda juda katta miqdorda uzum yetishtirilardi. Uzunning husayni, sohibi, toifi, ishburxoni, siyohi, kishmish navlari ko'p. Mayiz qilishga e'tibor juda katta bo'lgan, soyada quritilgan kishmish–soyaki deyilgan. Oftobda quritilgani esa oftobi deyilgan.

Buxoroda bog' yaratishga katta e'tibor berilgan. O'rik, bodom, gilos, olcha, yovvoyi gilos, tog' olchasi, pista, shaftoli, nok, olxo'ri, olma, yong'ok, behi, anor hamda tutlarning kattakatta bog'lari mavjud bo'lib, ulardan ko'plab hosil olinadi.

Buxoroda ipakchilik rivojlanishiga katta e'tibor qaratilganligi tufayli ipak savdosi ancha katta ahamiyatga molik bo'lgan. Ipakchilik rivojlanishining asosiy manbai bu – tut daraxtlarining yetarli miqdorda bo'lishidir. Tut daraxti O'rta Osiyoda keng tarqalgan daraxt turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, Buxoro vohasi, Zarafshon vodiysi, Karmana, Miyonkolda, umuman suv ko'p bo'lgan barcha hududlarda tut daraxtlari nihoyatda ko'p o'stirilgan.

P.I.Demezoning ma'lumotlariga qaraganda, «Buxoro atrofi va Karmanada yetishtirilgan ipak eng yaxshi hisoblangan».⁴

Buxoroda ipak xom ashyosi, ya'ni pillasining bir pudi⁵ 13–14 tilla, ipakdan yigirilgan ipning bir pudi esa 30–32 tilla turgan.¹

¹ Логофет Д. Н. На границах Средней Азии: Путевые очерки. В 3х кн. СПб., 1909, с. 116-117.

² Костенко А. Ф. Туркестанский край. Опыт военно-статистического обозрения Туркестанского военного округа, СПб., 1880, с. 33.

³ Записки о Бухарском ханстве (Отчёты П. И. Демезона и И.В.Виткевича). М.: Наука, 1983, с.76.

⁴ Записки о Бухарском ханстве. с.74.

⁵ Бухорода бир пуд 16 кг. га тенг бўлган.

Buxoroda toza ipak va yarim ipakdan turli xil matolar tayyorlangan. Jumladan atlas, beqasam, adras va hokazolar. Buxoroda ko'k, yashil, sariq va eng ko'p miqdorda qizil rangli matolar tayyorlashga e'tibor juda katta bo'lgan.

P. I. Demezoning ma'lumotlarida Buxorodagi paxtachilik masalasiga to'xtalib, shunday fikrlar bildirilgan. «Paxta Buxoro atroflarida, Miyonkolda, Karmanada va Samarqandda muvaffaqiyatli yetishtiriladi va u ancha yaxshi sifatli hisoblanadi. Qarshi va Chorjo'y paxtalari sifat jihatdan past hisoblanadi».²

Buxoroda bir chorik³ paxta chigiti (odatda, undan yog' olingan) 4 puldan –10 pulgacha turgan.⁴ Buxoro paxtasi (chanoqlisi)ning bir botmoni 48–52 tanga turgan bo'lsa, Qarshi paxtasining bir botmoni⁵ 42–46 tanga turgan. Tozalangan paxtaning bir botmoni 6–8,5 tilla turgan. Paxta kalavasi (ipi)ning bir botmoni esa 15–25 tilla turgan.

Buxoro amirligi hududida cho'l va dashtlarning ko'pligi hamda uning tog'oldi tumanlari chorvachilikning rivojlanishiga qulay sharoit va imkoniyat yaratgan. Mana shuning uchun ham cho'l zonalarida, ayniqsa, Buxoro va Qarshi hududlarida quychilik yaxshi rivojlangan. Shuningdek, amirlikda yilqichilikka ham katta e'tibor qaratilgan. Chorvachilik rivoji asosida sifatli teri va shu kabi mahsulotlar tayyorlanib, ulardan gilamlar, sholchalar, namatlar, turli xil arqonlar tayyorlangan va bozorlarga olib chiqilgan.

Hunarmandchilik sohasida to'qimachilik uning asosiy tarmoqlaridan biri hisoblangan. U, asosan mahalliy xom ashyo manbalari – paxta, jun, ipakning yetarli miqdorda bo'lganligi uchun ham yaxshi rivojlangan.

XVIII–XIX asrlarda Buxoro amirligining Qashqadaryo vohasida hunarmandchilik yaxshi rivojlangan bo'lib, uning to'qimachilik, kulolchilik, duradgorlik, ko'nychilik va temirchilik turlari voha va amirlikning xo'jalik hayotida salmoqli o'rin egallagan. Vohaning Qarshi, Shahrisabz, Kitob shaharlarida hunarmandchilik yaxshi rivojlangan.

To'qimachilik voha hunarmandchiligida yetakchi tarmoq hisoblangan. Ayniqsa, bo'z, chit, olacha ko'p miqdorda tayyorlangan.

Qarshi va Shahrisabzda ipak matolar tayyorlashga katta e'tibor qaratilgan.

Voha hunarmandchiligida kulolchilikning mavqeyi ancha yuqori bo'lgan.

Qarshi shahri Buxoro amirligidagi mis va kumush buyumlar ishlab chiqaruvchi yirik markazlardan biri bo'lgan.⁶

Vohaning Qarshi va Shahrisabz shaharlaridagi zargarlar tomonidan tayyorlangan zargarlik buyumlari, metall va turli xil shishalardan yasalgan taqinchoqlar O'rta Osiyo hududida katta qadriyatga ega bo'lgan.

Ko'nychilik ham yaxshi rivojlangan tarmoq hisoblangan. Charmgar ustalar tomonidan yaxshi ishlov berilgan terilardan turli xil oyoq kiyimlari, bosh kiyimlar, po'stin va nimpo'stin, turli xil meshlar tayyorlangan.

¹ Бухоро тилласи ўша даврда рус пулига 15 руб 12 копейка тенг бўлган. Бир Бухоро тилласи 21 тангадап иборат бўлган. Қаранг: Федоров М. Н. О ценах на рынках Бухарм XIX рубежа XX века // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1977, 9-10-11-бетлар, 72–76 бетлар; Яна қаранг: Сангирова Д. XIX аср охири – XX аср бошларида Туркистонда пархнаволар (Фарғона вилояти мисолида) // Ўзбекистон тарихи ва археология фанларининг муаммолари. Республикалий конференцияси материаллари. 2003 йил, 27-28 ноябрь. Самарқанд, 2003. 123-127 бетлар.

² Записки о Бухарском ханстве. с. 75.

³ Бухорода бир чорик тўрт нимга ски беш фунта тенг бўлган.

⁴ Бухорода бир пул рус пулига нисбатан бир грошдан сал кўп бўлган.

⁵ Бухорода бир ботмон 8 пуд, яъни 131 кг га тенг бўлган.

⁶ Холикулов А. Хунармандчилик ва савдо марказлари. // Жамият ва бошқарув. 2003 й, 1-сон, 54–56 бетлар.

Vohada yog'och o'ymakorligi yaxshi rivojlangan bo'lib, turli x¹l binolar qurilishida undan unumli foydalanilgan.

XIX asrda amirlikning Buxoro, Samarqand, G'ijduvon, Denov va boshqa ko'plab hududlarida kulolchilik ancha yaxshi rivojlangan va sifati yaxshim mahsulotlar tayyorlangan.

Hunarmandchilik turlari ichida zargarlik ham aicha kuchli rivojlangan.

Buxoro amirligi va uning aholisi savdosotiq ishlariga katta e'tibor qaratgan.

Buxoro o'z qo'shnilari bo'lgan Xiva xonligi, Qo'qon xonligi hamda Afg'oniston bilan hamda o'ziga yaqin bo'lgan davlatlar Eron, Qashqar, Hindiston bilan va yirik shaharlar hisoblangan Hirot, Mashhad va Kashmir¹ bilan juda katta va doimiy savdo ishlarini olib borishgan.

Buxoro amirligida hunarmandchilikning rivojlanishi bevosita savdo munosabatlarini kengayishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, bu ichki savdo rivojlanishiga keng yo'l ochdi. XVIII asrning ikkinchi yarmida Buxoro hududiniig juda ko'l shaharlarida karvonsaroylar qurilishiga katta e'tibor berildi. Aynan mana shu davrda Buxoroning qo'shni davlatlari va Rossiya, Eron, Hindiston davlatlari bilan savdo aloqalari tez sur'atlar bilan rivojlanib borgan.

Ichki bozorda Buxoro, Samarqand, Qarshi, G'uzor shaharlari amirlikning yirik savdo markazlari hisoblangan. Ushbu shahar bozorlarida pulning qiymati va mahsulotlar tannarxi belgilangan. Masalan, G'uzor chorva mollari sotish va sotib olishda eng katta bozorlarga ega bo'lgan.

Boshqa shaharlar va aholi yashaydigan manzilgohlarda haftaning malum kunlarida bozor bo'lgan. Ichki bozorlarda avvalo kundalik ehtiyoj mollari, oziqovqat mahsulotlari, hunarmandlar ishlab chiqargan mahsulotlar, paxta matolari, jun va ipak matolariga talab katta bo'lgan.

Buxoro bozori nafaqat shaharliklar, balki uning atrofidagi qishloqaar aholisining talablarini qondirishda ham, alohida ahamiyatga ega bo'lgan eng yirik savdo markazlaridan hisoblangan. Buxoro bozorida ko'chmanchi chorvadorlar o'z mahsulotlarini Buxoro hunarmandlari mahsulotlariga ayirboshlashgan. Buxoro bozorida parcha, duxoba, har xil chitlar, ipak matolar, temir, tilla, kumush, mis, cho'yan idishlar, qog'oz, igna, turli xil iplar yaxshi savdo qilingan.

Buxoroda yanvar oyidan may oyigacha savdo yaxshi bo'lgan. Bu davrda savdo yarmarkalari tashkil qilingan. Bu savdo yarmarkalariga Eron, Afg'oniston, Hindiston, Xitoy, Rossiya va amirlikning barcha viloyatlaridan savdogarlar tashrif buyurishgan. Bu savdo mavsumida nihoyatda ko'p mahsulotlar ortgan savdo karvonlari Buxoroga kelishgan. Savdo karvonlari ular uchun mo'ljallangan maxsus karvonsaroylarda to'xtashgan. XIX asrning boshida Buxoroda chet ellik savdogarlar uchun mo'ljallangan 10 ta karvonsaroy bo'lgan. XIX asrning 40yillariga kelib esa 24 ta toshdan qurilgan va 14 yog'ochdan yasalgan, jami 38 ta karvon saroy mavjud bo'lgan. Buxoro shahrining bosh bozori Registonning markaziy maydonida joylashgan bo'lgan.²

Buxoro savdogarlari qo'shni davlatlar va xalqlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirishga katta e'tibor berganlar. Ko'chmanchi qozoqlar Buxoro amirligiga cho'l mahsulotlari, ya'ni palaslar, namatlar va o'troq aholi uchun kerakli bo'lgan muhim xom ashyo – jun va terini ko'plab keltirishgan.

¹ ХаныковН. В, Описание Бухарского ханства, –СПб., 1843. с. 171-176.

² Михалева Г. А. Торговые и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами через Оренбург. –Т., 1992, с.41.

Buxoro dehqonlari va hunarmandlari esa, o'z navbatida, qozoq dashtlariga non, oziqovqat mahsulotlari, sabzovotlar, kiyimkechaklar paxta matolari yetkazib berishgan.

Buxoroda turkman gilamlari nihoyatda katta talabga ega bo'lgan. O'z navbatida turkmanlar Buxorodai kiyimkechak uchun kerak bo'lgan bo'z va boshqa matolarni olib ketishgan.

Buxoro savdogarlari Balx va Badaxshonda ham katta savdo ishlarini olib borishgan. Bu yerda buxoroliklar qozon, buxoro matolari, Rossiyadan keltirilgan igna, oyna, qaychi va shu kabi boshqa mahsulotlarni olib kelishgan. U yerdan Buxoroga kumush, oltinlar olib qaytishgan.

Buxoro savdo karvonlari Kobul va Hindistonga ham borib savdosotiq ishlarini amalga oshirishgan. Hindistondan buxorolik savdogarlar qimmatbaho toshlar, doridarmonlar va kashmir matolarini sotib olishgan. Hindistonlik savdogarlar ham, o'z navbatida, Buxoroga tashrif buyurishgan va ko'plab hind matolarini olib kelishgan.

Buxoro savdogarlari Xitoy, Sharqiy Turkiston bilan ham savdo aloqalarini olib borishgan. Xitoy bilan savdo aloqalarini Qo'qon xonligi orqali olib borishgan. Xitoyga paxta, qorako'l teri, Buxoro hunarmandlarining turli xil mahsulotlari olib borilgan. Xitoydan esa, epg avvalo, ko'p miqdorda ipak matolar va chinni bugomlar olib kelingan.

Buxoro o'zining savdo aloqalarini olib borishda Rossiya bilan bo'lgan savdo munosabatlarini rivojlantirishga katta e'tibor bergan.

Buxoro bilan Rossiya o'rtasidagi savdo aloqalari Orenburg orqali olib borilgan. Orenburgda juda katta savdo markazi qurilgan bo'lib, u yerda doimiy ravishda yarmarka tashkil qilib turilgan.

XVIII asrning 80–90 yillarida Buxoro bilan Rossiya o'rtasidagi savdo aloqalari ancha tez rivojlandi. Bu davrda. Buxorodan Rossiyaga ipak matolar, ipak xom ashyosi, tsri xom ashyosi, teri qayishlar, paxta, ip, qorako'l kabi mahsulotlar va oltin hamda kumush olib borilgan. Rossiidan esa mix, oyna, igna, qand, shakar olib kelishgan. Ayrim hollarda xonning iltimosiga binoan ma'lum miqdorda temir olib kelingan. Chunki 1800 yilga qadar Rossiyadan Buxoroga temir sotish man qilib qo'yilgan edi. 1801 yildan boshlab esa temir, cho'yan, mis sotishga ruxsat berildi. XIX asrning birinchi yarmida Buxoroga ko'plab temir, mis, cho'yan, hatto oltii va kumush ham olib kelina boshlandi.¹

Bu esa Rossiya bilan Buxoro o'rtasidagi savdo aloqalarini yanada rivojlantirishga katta imkon berdi.

Ayniqsa, Markaziy Rossiya hududdari hamda Sibir bilan savdo aloqalari juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Ushbu yo'nali[.]da Buxoro savdogarlari qizg'in savdoni yo'lga qo'yishga muvaffaq bo'lishgan. Jumladan, Buxorodan ushbu hududdarga paxta, ipak, turli xil buyoqlar, quritilgan mevalar va hatto ayrim tayyor mahsulotlarni ham olib borib sotishgan.² Chor Rossiyasi bosqiniga qadar paxta va paxtadan ishlangan tovarlar Buxoro savdosining asosini tashkil etgan. Masalan, 1801 yili Buxoro savdogarlari tomonidan Rossiyaga olib borilgan savdo mollarining 75% ini paxta va undan ishlangan mollar tashkil etgan.³ Buxoro savdogarlari 1801 yili Rossiyaning Orenburg shahriga 718,9 ming rubl qiymatidagi tovarni olib kelishgan bo'lsa, Orenburgdan Buxoroga 504,7 ming rubl qiymatidagi tovar olib ketishgan. 1811 yilda esa ushbu ko'rsatkich Buxorodan Orenburgga olib kelingan mollar qiymati 3.224 mingrublni, Orenburgdan Buxoroga olib

¹ Михалева Г. А. Торговые и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами через Оренбург. с.42-43.

² Бунаков Е. В. К истории сношений России со среднеазиатскими ханствами вXIXв., //Советское востоковедение, Т2, 1941, –М., –Л., с. 21.

³ История Узбекской ССР.ч.1. кн-2.Т., 1956, с. 28-29.

ketilgan mollar qiymati esa 1.792 ming.rublni tashkil etgan.¹ O'z navbatida esa Rossiya hududlaridan Buxoroga, asosan, zavod-fabrikalarda ishdab chiqilgan tayyor mahsulotlar olib kelingan.

Buxoro amirligi bilan Rossiya o'rtasidagi savdo aloqalari ayniqsa, Rossiyaning Napoleon bilan olib borgan 1812–1814 yilgi Batan urushi davrida ancha rivojlangan.

Jumladan, 1812–1814 yillarda Buxorodan Rossiyaga 3.272.081 rubl mikdorida (kumush hisobida) mol olib kirilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1819 yilda 1.004.946 rublni (kumush hisobida) tashkil etgan.²

Ushbu ko'rsatkichlar to'g'ri Rossiyasi bosqiniga qadar o'sib borganligi Rossiya bilan Buxoro o'rtasida savdo aloqalari yaxshi yo'lga qo'yilganligini ko'rsatadi.

P.Nebolsinning ma'lumotlariga qaraganda 1858 yilda Rossiya bilan Buxoro o'rtasidagi savdo aylanmasi 11 mln rublni, 1862 yilda esa 15 mln.rublni tashkil etgan.³ Tahlil shuni ko'rsatadiki, savdosotiqishlari aylanmasidagi katta ulush Buxoro amirligi hissasiga to'g'ri kelgan. Bu davrda ham Buxorodan Rossiyaga, asosan paxta va undan tayyorlangan mollar olib borilgan.

Amirlikning Buxoro, Samarqand, Qarshi, Kattaqo'rg'on, Shahrisabz, Dehnov kabi yirik shaharlari asosiy savdo markazlari hisoblangan.

XIX asr o'rtalaridan boshlab Buxoro amirligining ishlab chiqarish munosabatlarida katta o'zgarishlar yuz berdi. Bu, eng avvalo, O'rta Osiyo xonliklariga, jumladan, Buxoro amirligiga nisbatan Rossiya va Angliya davlatlarining o'ta qiziqishining kuchayishi tufayli sodir bo'ldi. Jumladan, XIX asr o'rtalaridan boshlab Angliya kapitalistlari Buxoroga nisbatan o'z ta'sir doiralarini kuchaytirishga va Buxoro bozoridan rus tovarlarini siqib chiqarish siyosatini ishlab chiqdi hamda uni amalga tadbqiq eta boshdadi. Pirovard natijada ushbu siyosat o'rta Osiyo masalalari bo'yicha AngliyaRossiya o'rtasidati raqobatni yuzaga keltirdi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, XIX asr boshlarida boshlangan va uning 40–50 yillaridan boshlab jiddiy ravishda kuchaygan O'rta Osiyoga, jumladan, Buxoroga nisbatan rossiya va Angliyaning qiziqishi, amirlik iqtisodiy hayotiga ularning kirib kelishi, o'z navbatida, Buxoro amirligida ishlab chiqarish munosabatlarining jadal sur'atlar bilan o'sishi va ishlab chiqarishning keski rivojlanishiga olib keddi. Eng muhimi, mahalliy hunarmandlar, savdogarlar, umuman ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan barcha tarmoq egalari ishlab chiqarishga nisbatan bo'lgan o'z munosabatlarini keskin ravishda tubdan o'zgartirdilar.

P. P. Ivanovning ta'kidlashicha, xalqaro maydonda, jumladan, Rossiya bozorlarida «O'rta Osiyo xom ashyosi va uning ba'zi bir mahsulotlariga talab kuchaya boshladi. Bundan rag'batlangan mahalliy ishlab chiqarish tarmoqlari imkoniyatlari boricha o'z jamoalarida ishlab chiqarish munosabatlarini qayta qurishga harakat qildilar».⁴

O'rta Osiyo xonliklarida, shu jumladan, Buxoro amirligida tovar ishlab chiqarishning jonlapishi va chet mamlakatlar bilan savdo aloqalarining rivojlanishi natijasida o'lkada xalqaro kapitalizm, birinchi navbatda, ingliz kapitalizmining ta'siri tobora kuchli sezila boshladi. Buxoro amirligi va Xiva xonligida ta'sir doirasi tobora kuchayib borgan Angliya vakillari rus tovarlarini bu hududlardan siqib chiqarish

¹ Михалева Г. А. Торговля и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами через Оренбург. с. 43.

² Ўша асар. 44–45 бетлар

³ Небольсин П. П. Очерки торговли России со Средней Азией. // Записки Русского географического общества. Т.Х. –СПб., 1856, с. 22–23.

⁴ Иванов П. П. Очерки по истории Средней Азии (X\Тсередина ХГХвека).М, 1958, с. 113.

harakatiga tushdilar. Inglizlar ta'sirida bo'lgan O'rta Osiyo hukmdorlari esa, o'z navbatida, rus tovarlariga solinadigan bojni oshirib qo'ydilar.

XIX asr o'rtalariga kelib talabdan ortiqcha tovar ishlab chiqarilishi natijasida turkistonlik savdogarlar chet mamlakatlar bilan savdo aloqalarini kuchaytirdilar. Masalan, buxorolik savdogarlar Rossiyaga ko'proq paxta va ipgazlama mahsulotlarini olib borib, u yoqdan temir va mis keltira boshladilar. Ushbu metallardan Buxoroda mehnat quoldari va ro'zg'or buyumlari yasaldi, tangalar zarb qilindi. Xonliklar hududlarida qimmatbaho metallar, birinchi navbatda, oltin va kumush qazib olinsada, biroq u tobora oshib borayotgan talablarni qondira olmasdi. Shuning uchun ham qimmatbaho mexallarning katta qismi Hindiston, Eron va Xitoydan keltirilgan.

Buxoro amirligida metallga ishlov berish ancha yaxshi yo'lga quyilgan. 1841 yili Buxoroga kelgan K. F. Butenev bu yerda 6 ta cho'yan quyish qozonlari bo'lganini yozadi.¹ O'lkada qurilgan dastlabki metall quyish qozonlarida to'plar uchun o'qlar, harbiy va dehqonchilik qurollari yasalgan. Mis noyob va qimmat bo'lganligi uchun Buxoro amirligida to'p yasashda mis o'rniga ko'proq cho'yandan foydalanilgan. Bu ishda mohir Shahrisabz ustalari amirlikda eng yirik to'p stvolini quyishgan, uni o'rnatish uchun maxsus o'n ikki g'ildirakli qurilma yasalgan.² Biroq K. Butenev Buxoro amirligida metall ishlab chiqarish sanoatiga deyarli e'tibor berilmaganligini yozadi: «Buxoroda hatto hunarmandchilik ham mukammallikning quyi bosqichida turadi, zavodchilik ishi yo'q, agar hukumat bundan keyin ham hozirdagidek harakat qilsa o'zgarish bo'lishi qiyin. Nihoyatda johil bo'lgan hukumatning zavodlar qurishi haqida so'z bo'lishi ham mumkin emas, chunki u bunday zavodlar haqiqiy foyda keltirishini ko'rmaydi. Bundan tashqari, zavodlar qurish uchun mablag' ham, bilimdon kishilar ham yetishmaydi».³

Bundan ko'rinib turibdiki, Buxoro amirligida XIX asrning 40yillarida ham sanoat tarmoqlarining shakllanishi, uning ko'rinishlari deyarli ko'zga tashlanmagan.

XIX asrning o'rtalariga qadar Buxoro amirligi konlaridan qazib olingan qazilmalardan mis va qo'rg'oshinlar nihoyatda sodda qurilgan o'choqlarda ajratib olingan. Mis buyumlar, qo'rg'oshindan o'qlar tayyorlashda haddan tashqari ortiqcha isrofgarchilikka yo'l qo'yilgan.

XIX asr o'rtalaridan boshlab Buxoro amirligi hududida aholining ko'payishi,⁴ shaharlarning kengayishi, amirlik iqtisodining tubdan o'zgarishiga ta'sir ko'rsatgan.

Buxoro amirligi aholisining ko'payishi, shaharlarning kengayishi, o'z navbatida, tovarpul munosabatlarini ham rivojlantirdi. Aholining hunarmandchilik mahsulotlariga bo'lgan talablarini oshib borishi va xom ashyo yetishtirish imkoniyatlariga qarab tumanlar turli sohalarga ixtisoslasha boshladilar. Masalan, Buxoro atroflarida ipgazlama mahsulotlari, Samarqandda qog'oz, Toshkent va Kattaqo'rg'onda poyafzal ishlab chiqarish, Hisorda metallardan turli xil ro'zg'or buyumlari, taqinchoqlar yasash yaxshi yo'lga qo'yilgan edi.⁵

XIX asrning 50–60 yillariga qadar amirlikdagi korxonalarining ishlab chiqarishi nihoyatda sodda usulda bo'lganligiga qaramay, ular Rossiyadan kirib kelayotgan tayyor sanoat mahsulotlariga nisbatan qisman bo'lsada qarshi tura olgan.

¹ Бутенев К. Заводское дело в Бухаре. // Горный журнал, ч.У, книга XI, СПб., 1842, с.144.

² История таджикского народа. Т. II, кн. II, –М., 1964, с. 95.

³ Бутенев К. Заводское дело в Бухаре. с.148-149.

⁴ Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. 25 бет.

⁵ Якунин А. Ф. Народн Средней Азии и Казахстана во второй половине XIXвека. Присоединение Средней Азии к России. –М.. 1954, с. 6; Яна каранг: Мухторов А. Ҳокимони Ҳисор. –Душанбе. 1996, 22–24 с.

Buxoro amirligi iqtisodiy hayotining asosini qishloq xo'jaligi tashkil etgan. Jumladan, amirlikda dehqonchilik, chorvachilik va tomorqa ishlovi qishloq xo'jaligining muhim yo'nalishlari hisoblangan.

Buxoro amirligida dehqonchilik texnikasi oddiy va an'anaviy holatda bo'lgan. Yerlarga asosan, omoch,¹ mola,² ketmon va bel bilan ishlov berilgan.

Buxoro amirligida dehqonlar bug'doy, arpa, suli, guruch, makkajo'xori, oq jo'xori, mosh, loviya, kunjut yetishtirishga katta e'tibor berishgan.³ Poliz ekinlaridan ayniqsa, qovuntarvuz, qovoq ekishda katta tajribaga ega bo'lishgan. Qovuntarvuzning nihoyatda ko'p turlari yetishtirilgan.

Buxoro amirligining agrar munosabatlari tarixida eng muhim muammolardan biri – bu yerga egalik masalasi hisoblangan.

XIX asrda Buxoro amirligida mavjud bo'lgan yer egaligining quyidagi uch kategoriyasi mavjud bo'lgan:

1. Davlatga taalluqli bo'lgan yerlar (mulki sultoniy).
2. Xususiy yer egalarga taalluqli bo'lgan yerlar (mulk).
3. Musulmon diniy muassasalari ixtiyorida bo'lgan yerlar (vaqf).

Buxoro amirligida davlat yerlari amlok yerlar, sulton yerlari, podshoh yerlari kabi nomlar bilan ham atalgan.

Shu narsani ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasi MDAning Qo'shbegi jamg'armasida mamlok (amluk) yoki mamloki (amluk) sultoiy kabi atamalar bilan atalgan davlat yerlari bilan bir qatorda, mulki xiroji, ya'ni xiroj yerlari atamasi ham keng uchraydi.⁴

Buxoro amirligi hududida eng ko'p tarqalgan yer egaligi– bu podshoh mulki (mamlokiyi podshohi) yoki sulton mulki (mamlokiyi sultoni) atamasi bilan atalgan yer kategoriyasi hisoblangan.⁵

Buxoro amirligida davlat boshlig'i hisoblangan amir eng katta yer egasi hisoblangan. Davlat yerlarini rasmiy ravishda sotish, sovg'a qilish va vaqfga berish mumkin bo'lmagan. Ammo rasmiy hujjatlar bilan tanishish va ularni o'rganish shuni ko'rsatadiki, faktik jihatdan yer ham sotilgan, ham sotib olingan. Ushbu holatning eng qiziqarli tomoni shundaki, musulmon qonunshunoslari ushbu holatlarda yer emas, balki ushbu yer egasi tomonidan o'sha yerda ekilgan yoki qurilgan inshootlar sotilgan deb izohtashgan.

Amluk yerlar miqdori doimiy ravishda o'lik yerlar yoki bo'sh yotgan yerlarni o'zlashtirib sug'orish orqali ko'paytirilib turilishi mumkin bo'lgan.

Ushbu yerlarni o'zlashtirib sug'organ dehqonlar bir necha yil davomida davlat tomonidan soliqlarni to'lashdan ozod qilingan, keyin barcha qatori belgilangan tartibda soliq to'lashgan.

¹ Омоч – барча Ўрта Осиё хонликларида бўлгани каби, Бухоро амирлигида ҳам ерни хайдаш учун ишлатиладиган асосий иш қуроли ҳисобланган.

² Мола – ерни омоч билан хайдагандап сўнг, унинг катта кесакларини майдалаш ва экин экишга ерни текислаш учун ишлатиладиган егочдан ясалган иш қуроли.

³ Ханыков Н. В. Описание Бухарского ханства, – СПб., 1843, стр. 144-147.

⁴ ЎзРМДА. И-126-жамғарма, от. 1-рўйхат, 944-иш, 39–41 бетлар.

⁵ Иванов П. П. Хозяйство джуйберских шейхов. К истории феодального землевладения в Средней Азии XVI–XVII вв. –М., –Л., 1954. с. 32: Яна қаранг: Абдураимов М. Вопросы феодального землевладения и феодальной ренты в письмах Эмира Хайдара Т., 1961; Ахмедов Б. А. Роль джуйберских хожей в общественно-политической жизни Средней Азии XVI–XVII веков // Духовенство и политическая жизнь на Ближнем и Среднем Востоке в период феодализма. –М., 1985. с.16-31.

Shuningdek, amlok yerlar amir oldida gunohkor bo'lib qolgan yirik yer egalardan urg'umusodara qilingan yerlar hisobiga ham kengayib borgan. Amluk yerlarning ko'payishiga yana bir holat, ya'ni merosxo'r bo'lmagan va vafot etgan shaxslarning mulklari to'g'ridanto'g'ri davlatga o'tishi ham sabab bo'lgan.

Davlat yerlarining ko'payishining yana bir muhim manbalaridan biri, bu yirik zamindorlar tomonidan o'ziga taalluqli hisoblangai yerning uchdan ikki (2/3) qismini davlatga o'tkazib, uchdan bir qismini (3/1) o'zida qoldirib va buning evaziga o'zida qolgan qismdan davlat tomonidan olinadigan barcha soliqturlaridan to'la ozod qilinishiga erishish bo'lgan.

Amluk yerlardan olinadigan soliqlar miqdori to'g'risida turli xil fikrlar mavjud. Jumladan, L. I. Sobolev¹ va M. N. Rostislavovlar² amlok yerlardan doimiy mavjudbo'lgan yer solig'i – xiroj olingan degan fikrni bildirishgan bo'lsa, A. A. Semenov³ esa amlok yerlardan olinadigan soliklar nihoyatda yuqori bo'lganligini va u hosilning 40–50 foizini tashkil etganligini qayd etgan.

Buxoro amirligida mavjud bo'lgan yer egaligining ikkiichi turi mulk yerlari, bu eng avvalo qo'zg'almas mulk hisoblanib, u erkin meros qilib qoldirilishi mumkin bo'lgan.

Mulk to'g'risidagi masala doimo murakkab hisoblangan va olimlar olib borgan o'z tadqiqotlari, ilmiy ishlarida ushbu masala to'g'risida turli xil fikrlarni bildirishgan. Masalan, A. A. Semyonov⁴ mulk yerlari uch toifadan iborat deb, uning mulki hurri xolis, mulki xiroji va mulki ushr formalarini ko'rsatgan. M. N. Rostislavov⁵ esa mulk yerlarining ikki shakli borligini qayd qilib, ular mulki hurr yoxud hurri xolis va mulki xirojdan iborat deydi. O'z navbatida mulki xirojni u ushr va dahyaklarga bo'ladi. L. N. Sobolev,⁶ esa Zarafshon vohasida «amluk, vaqf, mulki xiroji, mulki ushr va mulki hurri xolis» kabi yer kategoriyalari bor deb ko'rsatadi.

Mulki hurr yoxud mulki xolis ayrim olingan yirik yer egalarga taalluqli bo'lgan yer egaligi hisoblangan. U yer solig'idan ozod hisoblangan. Mulki hurr egasi doimo amaldagi amir tomonidan berilgan yorliqqa ega bo'lishi shart bo'lgan va aynan shu yorliq tufayli u yer solig'idan ozod qilingan.

Mulki xiroj esa dehqon ahli foydalanayotgan yerlarga nisbatan ishlatilgan atama hisoblangan. Ushbu yer egaligiga ega bo'lgan yer egalari bemalol, erkin holatda o'z yerlarini sotish, uni meros qoldirish va sovg'a qilish huquqiga ega bo'lishgan. Ushbu yer egalardan yer solig'i esa yerdan olingan hosilning uchdan bir (U3) qismiga qadar olinishi belgilangan. Ammo amirlikning turli hududlarida olinadigan yer solig'i miqdori bir xil bo'lmagan (har bir hududda o'rnatilgan va belgilangan urfodat va tartibga ko'ra yer solig'i miqdori hosilning 1/3 dan to 1/5 qismiga qadar bo'lgan va u tarixda taamuli qadim deb yuritilgan).

Mulki ushr yerlari va dahyak yerlardan hosilning o'ndan biri (10/1) hisobida ulamo va ruhoniylar foydasiga soliq olingan. Dahyaqdan olingan soliq, asosan, madrasa

¹ Соболев Л. Н. Географические и статистические сведения о Зарафшанском округе // Записки Императорского Российского географического общества. Т. VI. – СПб., 1874, с. 317.

² Ростиславов М. Н. Очерк видов земельной собственности и поземельных вопросов в Туркестанском крае. // Труды III международного съезда ориенталистов, 1876, –Т.СПб., 1879-1880 с. 331.

³ Семёнов А. А. Очерк поземельноподатного и налогового устройства Бухарского ханства. –Т., 1929, с. 25

⁴ Семёнов А. А. Очерк поземельноподатного и иалогового устройства Бухарского ханства. с.26.

⁵ Ростиславов М. Н. Очерк видов земельной собственности и поземельных вопросов в Туркестанском крае. с. 332.

⁶ Соболев Л. Н. Географические и статистические сведения о Зарафшанском округе. с. 317.

talabalari uchun nafaqaga, amir saroyida qur'on o'quvchini ta'minlash va boshqa xayriya tadbirlariga sarflangan.

Vaqf yerlari, asosan, ayrim diniy muassasalar– machitlar, mozorlar, xonaqoh, madrasalarga yer uchastkalarini meros qoldirish va xayrehson qilish natijasida vujudga kelgan bo'lib, u yer egaligining alohida bir kategoriyasini tashkil etgan.

Ushbu yerlardan kelgan foyda mutavalli ixtiyoriga kelib tushgan. Mutavalli, asosan, vaqf egalari avlodlaridan tayinlangan. U vaqf hujjatlariga asoslangan holda foydani taqsimlab chiqishi lozim bo'lgan.

Rasmiy ravishda vaqf yerlarini sotish taqiqlangan, ammo manbalar va hujjatlarning guvohlik berishicha amirlik tarixida vaqf yerlar ham sotilgan, ham sotib olingan. Vaqf yerlardan davlat foydasiga soliqlar undirilgan.

XIX asr ikkinchi yarmiga kelib Buxoro amirligida hokimiyatni markazlashtirish yanada kuchaydi.

Amir Nasrulloh o'ziga bo'ysunmagan urug'oqsoqollari va namoyandalari mulkini musodara qilishga kirishdi. Musodara kilingan yerlardan o'z tarafdorlariga xizmat qilib turish sharti bilan vaqtincha egalik qilish huquqi bilan yerlar in'om etdi. Odatda, ushbu in'omlar maosh o'rniga yoki oladigan haqiga nisbatan qo'shimcha (ulufa) o'rniga berilgan.

Amir Muzaffar davrida Sharqiy Buxoro qo'shib olingach, tanho ushbu tog'li hududlarga ham keng yoyildi.

Odatda amaldorlar va harbiylar yangi ishga o'tishi bilanoq amirga tanho so'rab murojaat qilishardi. Tanho berilishida eng oddiy navkarlarga kichik yerlarni hadya etilishi (odatda, bu saxm–ya'ni qism deb atalgan) bilan bir qatorda, katta miqdordagi yerlarning tanho qilib berilishini ham uchratish mumkin.

Turli hujjatlarda bir xil amaldagi shaxslar turli xil hajmdagi tanhoga ega bo'lganligi qayd etilgan. Masalan, bir holatda bir amaldor 250 tanob tanhoga ega bo'lgan bo'lsa, boshqa bir holatda esa boshqa bir amaldor 100 tanob yerga ega bo'lganligi ko'rsatilgan.¹

O'sha davrda tanhoning berilish miqdori eng avvalo yerning sug'orilishi, uning unumdorligi hamda amaldorning egallagan mavqeyi va ta'siriga ham bog'liq bo'lgan.

Buxoro amirligida yer o'lchovi sifatida tanob va qo'sh kabi o'lchov birliklari ishlatilgan. (Bir qo'sh yer 43 tanob yerga teng bo'lgan.)

Tanho olgan shaxs, amaldor va boshqalar o'z xizmatini tugatgan zahoti tanho qaytarib olingan.

Buxoro amirligidagi yer egaligi to'g'risida² fikr yuritganda, Sharqiy Buxoro bilan G'arbiy Buxoro hududlarida katta farq borligini e'tirof etish lozim. Jumladan, Sharqiy Buxoroda davlat yerlari zamini shohi yoki zamini miri deb atalgan. Ushbu yerlar mahalliy hokim bek yoki mir va amlodkor tasarrufida bo'lgan. Bundan kelib chiqqan holda soliqlar ham mahalliy hokim va qisman amlodkorlar foydasiga yig'ilgan. Mir yoki shoh yerlari asosan, eng hosildor va unumdor yerlardan tashkil topgan.

¹ ЎзР МДА. И-126-жамғарма, 1-рўйхат, 2005-иш, 15, 35, 36-бетлар.

² Фитрат. Три документа по аграрному вопросу в Средней Азии/ Пер. с перс. Ф. Б. Ростоптин //Записки института востоковедения Академии наук СССР. Выш. 2. Т.2. –Л., 1933; Чехович О. Д. Бухарские поземельные акты ХУІ-ХІХ //Проблемы источниковедения. 1955, № 4, с. 223-242.

II. BUXORO AMIRLIGINING XIX ASR IKKINCHI YARMI XX ASR BOSHLARIDAGI IJTIMOIIY-SIYOSIY TUZUMI VA DAVLAT BOSHQARUVI

II. 1. Buxoro Amirliği devlet boshqaruvidagi va ma'muriyhududiy tizimidagi o'zgarishlar va unga chor Rossiyasi siyosatining ta'siri

Chor Rossiyasi bilan Buxoro Amirliği o'rtasidagi 1866– 1868 yillar oralig'ida bo'lib o'tgan qattiq janglardan so'ng Buxoro mag'lubiyatga uchrab, o'z hududining katta qismidan mahrum bo'ldi. Jizzaxdan tortib Kattaqo'rg'onga qadar bo'lgan hududlar Rus hukumati tobeligiga o'tdi. Rossiya-Buxoro o'rtasidagi janglarda zabt etilgan hududlar hisobiga Turkiston general-gubernatorligining Samarqand viloyati tashkil etildi.

Shunday qilib, Buxoro Amirliği 1868 yilga kelib Xo'jand, O'ratepa, Jizzax, Samarqand, Kattaqo'rg'on kabi o'zining yirik aholi manzilgoxdaridan va Zarafshon vohasining yuqori hamda o'rta oqimidagi hududlardan to'la mahrum bo'ldi. Buxoro hukmdori Amir Muzaffar o'z hududining katta qismidan ajralib qolishi bilan bir qatorda, chor Rossiyasiga o'ta katta miqdorda tovon to'lashga ham majbur bo'ldi.

Mana shu holatda, Buxoro Amirliği XIX asrning 70yillaridan to 1920 yilga qadar rasman o'z davlatchiligini sakdab qolgan holda tarix sahnasida faoliyat ko'rsatib turdi. Ushbu davrda Buxoro Amirliğida Amir Muzaffar (1860–1885 y.y.), Amir Abdulahad (1885–1910 y.y.) va Amir Olimxon (1910–1920 y.y.) davlat boshlig'i sifatida ish olib borgan bo'lsalarda, amalda rus hukumatining itoatkor xizmatkorlariga aylanib bo'lgan edilar.

Ko'p asrlar davomida shakllangan davlatchilik tizimidagi bir qator o'ziga xos jihatlar XIX asr oxiri – XX asr boshlarida, ya'ni Buxoro Amirliği amalda Rossiyaga vassal davlatga aylanganda ham saqlanib qoldi. Bu xususiyat mang'itlar davridagi davlat boshqaruvi butun o'rta asr o'zbek davlatchiligining uzviy davomi ekanligini ko'rsatadi.

Chor Rossiyasi bosqinidan keyin ham Buxoro Amirliğida davlat boshqaruvi oldingi davrlardagidek, asosan, ikki bosqichli bo'lib, Amir, saroy amaldorlari, o'zbek qavmlari boshliqlari va e'tiborli din peshvolaridan tashkil topgan markaziy davlat boshqaruvi hamda mahalliy boshqaruv (viloyat hokimlari, beklar va ularga bo'ysunuvchi amaldorlar)dan iborat edi.

Davlat amalda va rasman deyarli cheklanmagan huquqlarga ega bo'lgan davlat boshlig'i – Amir tomonidan boshqarilardi. Davlat Buxoro Amirining va uning avlodlarining mulki hisoblanib, boshqaruv usullari o'rta asr musulmon davlatlaridan aytarli darajada farq qilmagan. Biz ko'rib chiqayotgan davrda davlat boshlig'i – Amir bo'lib, u mang'it urug'ining hukmron sulolasi oilasiga mansub bo'lgan.

Buxoro Amirliğidagi markaziy davlat boshqaruvining mohiyatini to'laroq anglash uchun XIX asr oxiri–XX asr boshlarida mamlakatdagi ijtimoiy tabaqalar va ular yetishib chiqqan ijtimoiy tizimga nazar solib, tahlil etib chiqish lozim bo'ladi. Bu yerda shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu ijtimoiy tizim biz ko'rib chiqayotgan davrda ham o'rta asrlarga xos ko'pgina xususiyatlarni o'zida sakdab qolgan edi.

Yetakchi o'zbek urug'larining zodagonlari Buxoro Amirliğining oliy tabaqasining o'zagi, poydevori bo'lib xizmat qilgan. O'zbeklar orasida hatto XIX asrda ham urug' va qabilalarga bo'linishlari va urfodatlari saqtanib qolinganligi uchun, hukmron sinf orasida kurash urug'lararo kurash tusini olgan edi. Bunga misol tariqasida, bir necha asr davom etgan mang'itlar va shahrisabzlik kenegas qabilalari orasidagi kurashni aytib o'tish mumkin. Bu kurash o'z mohiyati bo'yicha ikkala aytib o'tilgan qabila zodagonlarining xonlikdagi hokimiyat uchun kurashi edi va u mang'itlarning g'etabasi bilan yakunlandi.

Bu kurashning mohiyati ko'pgina o'zbek qabilalarining so'nggi to'rt asr davomida Movarounnahrda o'troqlashuvi va asta-sekin ko'chmanchi chorvadorlardan o'troq dehqonlarga aylanib borganligi sababli juda kam o'zgardi.

Buxoro Amirligidagi hokimiyat va unga o'z ta'sirini o'tkazish uchun bo'lgan kurashni tasvirlab o'ttan ba'zi mutaxassislar «markaziy hokimiyat beqaror bo'lib turgan paytda, o'zbeklarning yirik urug'lari – biylari o'z urug'i egallagan hududda anchagina va hatto ba'zi hollarda butunlay mustaqillikka ega bo'lar edi. Shu sababli markaziy hokimiyat doimo o'ziga kuchli va yirik biylarni yaqinlashtirishga harakat qilardi, agar bu qo'lidan kelmasa, unga qarshi o'z tarafdorlaridan birini qo'yishardi»¹, deb e'tirof etgan edilar. P. P. Ivanov o'z asarida o'zbeklarning harbiymulkdor zodagonlari Buxoro Amirligidagi hukmron sinf bo'lganini to'g'ridanto'g'ri ko'rsatib o'tadi.²

XIX asrning so'nggi choragida Amirlikda bo'lgan V. V. Krestovskiy ham yuqoridagiga o'xshash fikrlarni bildirib o'tadi.³ Lekin bu muallif Buxoro tabaqalari haqidagi fikrni N. V. Xanikovdan olgan bo'lishi ham mumkin. V.V.Krestovskiy shuningdek, «urug'dor o'zbeklar» so'zini ishlatadi.

N. V. Xanikov, undan so'ng V. V. Krestovskiy ham urug'dor tabaqasiga barcha tojiklar, forslar, shuningdek, ozod qilingan qullar va barcha past, quyi tabaqadan chiqqan kishilar qaramaqarshi qo'yilishiga alohida urg'u berib o'tganlar.⁴ Boshqachasiga aytganda, XIX asrning o'rtalarida Buxoro Amirligida urug'qabilaviy bo'linishga ega o'zbeklar bunday bo'linishga ega bo'lmagan boshqa barcha millat vakillaridan hukmron tabaqaga mansubliklari bilan ajralib turar edilar.

Uzbeklarning urug'qabila zodagonlari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ham Buxoro Amirligidagi hukmron sinfnings asosini tashkil qilgan edi.

Bu jarayon jamiyat oliy tabaqasining o'zbeklar mang'it urug'ining zodagonlaridan bo'lmagan, balki quyi qatlam va hatto fors qullaridan bo'lgan amaldorlar va davlat mahkamasi xizmatchilari shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Odatda, Buxoro Amirlari o'z shajaralarini payg'ambar Muhammad (s.a.v.)dan boshlaganliklari sababli musulmon Sharqida barcha zoti oliy kishilar payg'ambar avlodidan bo'lgan qizlarga uylanishga harakat qilganlar, lekin shu bilan birga, ko'p hollarda bu kishilarning payg'ambar bilan qarindoshligini isbotlash qiyin edi.⁵ Ular o'z unvonlaridan oldin «sayyid» so'zini qo'shib aytardilar.⁶

P. Shubinskiy Amirni musulmon huquqi – Qur'on va shariat bilangina cheklangan davlat boshlig'i deb ataydi.⁷ Ammo Buxoro tarixining bilimdoni A. A. Semenov Amirda cheklanmagan hokimiyat bor edi, deb ta'kidlaydi.⁸

¹ Иванов П. П. Восстание китайкипчаков в Бухарском ханстве в 1821-1825 гг. – М., Л., 1937, с.24.

² Иванов П. П. Кўрсатилган асар, 33 бет.

³ Крестовский В. В. В гостях у Бухарского эмира. – СПб., 1887, стр.108, 285-286

⁴ Хаников Н. В. Описание Бухарского ханства, стр. 182; В.В.Крестовский. В гостях у Бухарского эмира, стр. 285–286.

⁵ Мангитлар сулоласи намоёндалари ҳокимиятининг генеалогик легитимацияси ҳақида. Қаранг.: Анкс фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии мангитов в произведениях их истоков (XVIII– XIX вв.) Алмат: Дайк-Пресс, 2004. стр.212246 (Часть Б.Ш.) Тарихчиларга Қўкон амири Умархон ваАамир Ҳайдар ўртасидаги «насабталашлик», ҳукмронликда қайсилари олдину, қайсилари иккинчи даражада эканликлари ҳақидаги бахслари маълум. Қўкон тарихнавислигида бу масалада Минг сулоласининг ҳукмронлигини оқлаш учун кескин фикр ва мулоҳазалар мавжуд.

⁶ Семсннов А. А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени.–Сталинабал, 1954, стр.20.

⁷ Шубинский П. Очерки Бухары. // Исторический вестник, 1892, №8,стр.125

⁸ Семенов А. А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени., стр.21.

Manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda, Amir barcha sharq hukmdorlariga o'xshab, dabdaba va xokisorlik e'zosi bilan o'rab olingan edi. Amirning huzurida hyech kimning o'tirishga haqqi yo'q edi, kirib kelganlar Amirning yoniga deyarli emaklaganday bukilib kirib kelishi va ketayotganda Amirga yelkasini ko'rsatmaslik uchun unga yuzini qilgan holda orqasi bilan bukilgan zaylda chiqib ketishi kerak edi. Buxoro Amirligidagi qabul marosimlari, V. V. Krestovskiyning yuqorida ta'rif berib o'tilgan «V gostyax u Buxarskogo emira» kitobida ham muallifning shaxsiy qarashlari asosida batafsil tavsiflab o'tilgan.¹

Endi Buxoro Amirligidagi markaziy hokimiyat muammosiga, markaziy, ma'muriy mahkama tavsifiga o'tamiz.

A. A. Semenovning so'zlariga ko'ra, Amirlikda deyarli barcha narsa Amirning ruxsatisiz bo'lmas edi. Unga mahkama va xo'jalikning barcha mayda narsalari haqida ham axborot berishgan. Amir o'z yonida muntazam o'z shaxsiy yozishmalarini olib boradigan ikkita kotibga ega edi. Ularning birinchisi munshiy bo'lib, u barcha ish bo'yicha ko'rsatmalarni yozib borar va Amirga kelgan axborotlarga, shuningdek, ma'muriy vakillardan, alohida odamlardan bo'lgan iltimoslarga va shikoyatlarga javob berar edi. Ikkinchi kotib mushrif – sarupo berish, qurolyarog' va boshqa narsalarni berish haqidagi ko'rsatmalarni yozardi. Odatda, haftada bir marta Amir huzuriga barcha beklilar beklari va qozilaridan axborot bilan chopar navkarlar yuborilar edi. Amirning javob xatlari muboraknoma deb atalardi.²

Davlatni boshqarishda Amirning asosiy va birinchi yordamchisi qo'shbegi edi. Qo'shbegining davlatning birinchi amaldori darajasiga ko'tarilishi aynan mang'itlar sulolasi hukmronligi davrida ro'y berdi va u davlatning bosh vaziriga aylandi.³ N. Stremouxov fikricha XIX asrning 70yillarida davlat boshqaruvi Buxoro shahrida qo'shbegi qo'lida to'plangan edi.⁴ V. V.Krestovskiyning yozishicha, qo'shbegi saroydagi saroydagi birinchi unvon bo'lib, u o'z mansabiga ko'ra davlatda Amirdan so'ng turardi.

V. V. Krestovskiy qo'shbegining majburiyatlari ustida alohida to'xtalib, quyidagilarni aytib o'tadi. «Qo'shbegi Buxoroda davlat muhri o'rnida bo'lgan Amirning shaxsiy muhrini saqllovchi, boshqa davlatlar bilan aloqalarni nazorat qiluvchi va shuningdek, moliya ishlarini boshqaruvchisi bo'lgan. Savdodan olinuvchi barcha bojxona to'lovlari boshqaruvi ham uning qo'lida bo'lib, shuningdek, u yer solig'ini yig'ish va amlokni, yermulklarni berishni nazorat qilgan. Unga yana Amir saroyini xavfsizligini nazorat qilish topshirilgan, shuning uchun u doimo Buxoroda yashagan. Amir shahardan ketgan paytda esa u saroyning darvozaxonasida maxsus, u uchun qilingan joyda, Amir qaytguncha o'tirgan. Unga har kuni kechqurun shaharning kechasi qulflanadigan o'n bir darvozasi kalitini keltirib beradilar. Ertalab esa yana kalitlar darvozabonlar boshlig'iga topshirilgan. Agar qo'shbegi bironbir sababga ko'ra Amir ketganda darvozaxonada o'tira olmasa, unda uning o'rniga uning yordamchisi – to'pchiboshi o'tirgan. Buxoro shahri va uning atrofi uchun qo'shbegi bek huquqlaridan foydalanadi. Xuddi shuningdek, qo'shbegi o'z majburiyatlari ko'pligini hisobga olib, shahar va uning atrofi boshqaruvini bironbir yordamchisiga topshirishi ham mumkin bo'lgan. O'z unvoniga, ya'ni Buxoro

¹ Крестовский В. В. В гостях у Бухарского эмира. Путевой дневник. стр.285-286.

² Муфассал қаранг: Холиқова Р. Марказий давлат бошқаруви тарихига бир назар. // Мулоқот, 2004, 1-сон, 41-бет.

³ Семенов А. А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени. стр.54.

⁴ Стремоухов Н. Посадка в Бухару. стр.685

begi unvoniga ko'ra qo'shbegi shahar chegaralarida yura olgan holda, shahar tashqarisida uzoq vaqt qolishi mumkin emas edi».¹

Manbalarga qaraganda, qo'shbegining Arkda alohida uyi, hovlisi bo'lgan. Agar Amir uzoq muddatga safarga ketgan bo'lsa, qo'shbegi deyarli asirga o'xshab qolardi. Shuningdek, qo'shbegi faqat Buxoro viloyati hokimi bo'lib qolmasdan, barcha qolgan beklarning ham oliy boshlig'i edi. Amir nomiga kelib tushgan barcha xabarlar va shikoyatlarni ko'rib chiqish unga topshirilgan.²

Ko'pincha qo'shbegi darajasiga, bu amaldagi kishilarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki darajasi yuqori bo'lsa ham o'zbek urug'iga tegishli bo'lmagan kipshlardan, ba'zida esa hatto fors qullari orasidan ham tanlangan. Bundan kelib chiqqan V. V. Krestovskiy «Qadimgi Buxoro hokimiyatining asoschilari o'zlaridan keyin hokimiyatni bironbir o'zbek urug'iga mansubligiga qarab emas, avvalo aqlzakovati, bilimi va shaxsiy sifatiga qarab meros qoldirishgan va bu davlat ishiga nihoyatda to'g'ri yondashishdir»,³ – deb xulosa qilgan edi.

Haqiqatda esa bu yerda boshqa jihatlariga e'tiborni qaratish lozim. Xususan, quyi tabaqadan bo'lgan kishilar va hatto qullarning qo'shbegi amaliga qo'yilishi Amirning siyosiy vaziyatni hisobga olishidan kelib chiqqan edi. Chunki Amir davlatdagi bu yuqori amalni katta ta'sirga ega bo'lgan va ko'nincha Amirga qarshi bo'lgan o'zbek urug'lari vakiliga berishdan ko'ra, bu amalda quyi qatlamdan Amir orqali ko'tarilgan va shu sababli unga butunlay sodiq bo'lgan odam bo'lishini istar edi.

Buxoroning Bosh qo'shbegisi yuqori ko'shbegiqo'shbegiyi bolo deb atalgan. Undan farq qilgan holda quyi ko'shb'tqo'shbegiyi poyon deb atalgan amaldor ham bo'lgan bo'lib, u davlatning bosh zakotchisi edi. Butun Amirlikdan zakot yig'ib olishni boshqargan bu amaldor saroy poyidagi xonada o'tirgan (shu yerdan quyi qo'shbegi – qo'shbegiyi poyon nomi kelib chiqqan). Qo'yi qo'shbegi devonbegi unvoniga ham ega edi. Bu unvondagi amaldorlar odatda bekliliklarda ham mavjud bo'lib, xo'jalik va moliya ishlarini boshqarishardi. Quyi qo'shbegi yeki Buxoro devonbegisiga bekliliklardagi barcha devonbegilar bo'ysungan.⁴

Buxorodagi jamoat tartibini saqlash yuqorida aytganimizdek mirshablarga topshirilgan bo'lib, ular mirshabboshiga bo'ysunar edi. Unga shu paytning o'zida Amirlikning barcha boshqa shaharlari mirshablari ham bo'ysunishgan. A.A.Semenov Buxorodagi mirshablar ishining tashkil etilishiga oid quyidagi ma'lumotlarni keltiradi. Butun shahar ikki dahaga, ularning har biri o'z navbatida, olti jaribga bo'linadi; dahani dahaboshi deb atalgan kishi boshqargan, jaribni esa bobo boshqargan, uning mahkamasi boboxona deyilgan. Uning ixtiyorida faqat tunda ishlaydigan maxsus qo'riqchilar – shabgardlar bo'yagan. Ular kechasi shaharni kezib, barcha shubhali shaxslarni, shuningdek, hyech bir ehtiyojsiz shaharda yurganlarni ushlaganlar. Ushlab olingan kishilar ijtimoiy ahvoli va unvoniga qaramasdan, shahardagi hammom va o'choqlarni tozalashga jo'natilgan, ertalab esa ular o'z uylariga qo'yib yuborilgan.⁵

Qo'shbegi, qozikalon, bosh rais va Buxoro mirshabi Buxoroda birgalikda chor hokim – «to'rt hokim» deb nomlanganini aytib o'tgan edik.

¹ Крестовский В. В. В гостях у Бухарского эмира. Путевой дневник. стр. 286-287.

² Муфассал каранг: Холикова Р. Марказий давлат бошқаруви тарихига бир назар. 41– 42 бетлар.

³ Крестовский В. В. В гостях у Бухарского эмира, стр.285.

⁴ Семенов А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени. стр. 54,57.

⁵ Холикова Р. Марказий давлат бошқаруви тарихига бир назар. 41–42 бетлар.

Amir huzurida din, fuqarolik va harbiy vakillardan iborat bo'lgan kengash ushbu davrda ham qisman faoliyat yurgizgan. Kengash bironbir muhim islohot o'tkazilayotgan paytdagina chaqirilgan. Bu kengashda qo'shbegi, bosh zakotchi, to'pchiboshi va boshqa oliy amaldorlar ishtirok etgan.¹

Amir saroyida harbiy ishlarni va to'pchilar qo'shinini boshqargan to'pchiboshi deb atalgan amaldor ham bo'lgan. Bu amaldor, odatda, harbiy vazir vazifasini bajarar edi.

To'pchiboshi, shuningdek, Amir ketgan paytda qo'shbegi bironbir sababga ko'ra saroyda bo'lmasa, uning o'rnini bosuvchi kishi ham hisoblangan.² Ammo A. A. Semenovning aytishicha, Buxoroda ikkita to'pchiboshi bo'lgan. Ulardan biri „to'pchiboshiyi lashkar“ deb atalgan, u Buxoro shahri qo'shini boshlig'i edi va xuddi harbiy vazirdek edi (uni ko'pincha «vaziri harbiy» ham deyishgan), chunki unga barcha qo'shin bo'linmalari boshliqlari bo'ysungan.

Boshqa to'pchiboshi poytaxt arki qo'mondoni edi va shuning uchun «to'pchiboshi darvozayi arki oliy» ya'ni «oliy ark darvozasi to'plari boshlig'i» deb atalgan. Xuddi shu to'pchiboshi kerak bo'lganda saroy va Arkni nazorat qilishda qo'shbegining o'rnini bosgan.³

Biz ko'rib chiqayotgan davrda, Buxoro harbiy qo'shinlari soni Turkiston general-gubernatori va Buxoro Amiri o'rtasidagi kelishuvlarga asosan 15 000 kishidan oshmasligi lozim edi. Bu davrda ilgarigi harbiy unvonlar, amallar deyarli to'liqligicha saqlanib qolindi. Bu Buxoro armiyasida o'rta asrlarga xos xususiyatlar saqlanib qolganligidan dalolatdir.

Buxoro Amirigidagi harbiy amaldorlar, unvonlar va harbiy boshqaruv, harbiy amallarga tayinlanish, unvonlarga ega bo'lish holatlarini ko'rib chiqish bizni nihoyatda muhim xulosalarga olib keladi.

Avvalo Amirlikdagi sof harbiy unvonlar deyarli yo'qligini, harbiy va ma'muriy unvonlar birbiridan aytarli ajratilmasligini, bironbir amaldor, ma'muriy rahbar bir paytning o'zida harbiy soha vakili ham bo'lganligini aytib o'tish kerak.

Buxoro Amirigida hukmron sinfga tegishli har bir harbiy unvon bevosita Amir orqali beriladigan yoki agar unvon kichik bo'lsa, Amirning viloyatlardagi o'rinbosarlari orqali beriladigan unvonlarga bo'linar edi. Unvonga ega bo'lmaganlarning barchasini sipoh deb, u yoki bu unvonga ega bo'lganlarni esa amaldor deb atashardi. Ko'rinishiga qaraganda, oldin «sipoh» unvoni faqat harbiy mazmunda bo'lib, faqat harbiylarga berilgan. «Amaldor» esa «amal egasi» ma'nosida, «ish», «harakat» va «xizmat»ni bildiradi.

Buxoro Amirigidagi XIX asrga mansub harbiy unvonlar haqida N. V. Xanikov ham qiziq ma'lumotlar berib o'tadi. N. V. Xanikovning yozishicha, «harbiy unvonlar qo'shinda yoki Amirning yonida xizmat qilayotganlarga berilgan. Birinchi quyi harbiy unvon olomon yoki oddiy askar edi. Amir atrofidagi a'yonlardan dahboshi (o'nboshi) yoki panjohboshi (ellikboshilar) tayinlanardi. Undan so'ng yerliqlarga qarab beriladigan unvonlar, ya'ni: cho'g'ra og'asi (chehra og'osi) mirzaboshi, qorovulbegi, miroxur, eshikog'asi, chig'atoybegi, to'qsabo, dodxoh, inoq, parvonachi, devonbegi va otaliq keladi».⁴

¹ Шубинский П. Очерки Бухарн. // Исторический вестник, стр.140– 141.

² Шубинский П. Очерки Бухарь., с. 140; В. В. Крестовский. В гостях у Бухарского эмира. стр.287.

³ Семенов А. А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени. стр. 59.

⁴ Ханников Н. В. Описание Бухарского ханства, стр. 183–185.

V. I. Vyatkin Buxoroning XX asrning 20yillariga mansub hujjatlarni o'rganib, N. Xanikov keltirib o'tgan ba'zi unvonlarni—jevachi, chug'raog'asi, miroxur kabi unvonlar ustida to'xtalib, ularni quyidagi tartib bo'yicha aytib o'tadi: qorovulbegi, miroxur, to'qsabo, dodxoh, inoq, parvonachi, devonbegi. Shuningdek, uning alohida belgilab o'tishicha, navkarlarning xizmat pillapoyalaridan ko'tarilishi imkoniyati deyarli yo'q edi. Chunki zodagon odamlar darhol yuqori unvonlar bilan taqdirlangan va amal unvon bilan bog'liq bo'lmaganligi sababli yuqori unvonlarning quyi unvondagilar qo'l ostida xizmat qilishi hollari ham uchrab turgan. V. L. Vyatkin «devonbegidan tashqari, barcha aytilgan unvonlar qo'mondonlikunvoni hisoblanishini aytib o'tadi».¹

XIX asrning oxirgi choragida Amirlikda bo'lgan V. V. Krestovskiy ham Buxoroda mavjud unvonlarni, asosan harbiy unvonlar sifatida ko'rsatib o'tgan. Uning yozishicha, masalan, dodxoh harbiy unvon bo'lib, rus qo'shinidagi generalmayor unvoniga tengdir. Biy unvoni esa brigadir unvoniga teng deb ko'rsatib o'tgan. V. V. Krestovskiy, miroxur va undan yuqori unvondagilar Amir saroyi hududiga otda kirib kelishi mumkin bo'lgan holda quyi unvondagilar esa albatta otdan tushishi va piyoda kirishi shart edi, deb qo'shib o'tadi.²

Buxorodagi va bekliklardagi harbiy unvonlar haqida P. Gayevskiy va M. A. Variginlar ham ma'lumot berib o'tadilar. Ular ham Buxoro Amirlikdagi unvonlarni rus harbiy unvonlariga tenglashtirib o'tishadi. Masalan, to'qsabo unvonini podpolkovnikka, dodxoh unvonini esa general mayorga teng deyishgan. P. Gayevskiyning ko'rsatib o'tishicha bekliklarda jevachi, mirzaboshi, qorovul begi, miroxur, to'qsabo kabi unvonlarga bo'lgan, undan yuqorisi beklikda yo'q edi. Shuningdek, Amirlikdagi harbiy va fuqarolik xizmatlarida unvonlar bir xil edi.³

M. A. Variginning ma'lumot berishicha, Ko'lob begining saroyida bir nechta miroxur, qorovulbegi, jevachi (jibachi) va boshqa amaldorlar bo'lgan. Muallif Buxoroda unvonlar savodi yoki xizmati uchun emas, bironbir mashhur urug'ga mansubligiga karab yoki e'tiborli kishiga qarindosh bo'lgani uchungina ham berilishi mumkin edi, deb qo'shib o'tadi.

Harbiy unvonlar davlat amaldorlariga Amirning qarori orqali berilgan holda, joylarda mahalliy beklar ma'lum pul evaziga hatto qorovulbegigacha bo'lgan unvonlarni sotishardi.⁴

A. A. Semenov biz ko'rib chiqayotgan davrda Buxoro Amirligi harbiy ma'muriy unvonlari haqida quyidagi ma'lumotlarni berib o'tadi: «hammasi bo'lib Buxoroda 15 ta dunyoviy (fuqaro) unvonlar yoki amallar bor edi. Ulardan birinchisi bahodir; ikkinchisi chug'raog'asi (chehra), yoki og'aboshi (saroy xizmatchilari boshlig'i; muallifning so'ziga qaraganda, oxirgi paytda bu unvondagi kishilar aniq bir ishga ega bo'lmagan); uchinchisi — mirzaboshi (bu unvondagi kishilar har xil muhim bo'lmagan ishlarni bajarishgan); to'rtinchisi — jibachi, yoki jevachi (sovutbardor); beshinchisi — qorovulbegi (qorovullar boshlig'i); oltinchisi — miri oxur yoki miroxur (otxona boshlig'i); yettinchisi — to'qsabo (o'z tug'ibayrog'iga ega bo'lgan harbiy bo'linma boshlig'i); sakkizinchisi eshikog'aboshi (oliy dargohning bosh qo'riqchisi); to'qqizinchisi — biy\ o'ninchisi— dodxoh (adolatpanoh); o'n birinchisi — inoq (mamlakat hukmdoriga juda yaqin odam); o'n ikkinchisi — parvonachi (yozilgan shoh farmonini uzatuvchi); o'n uchinchisi — devonbegi

¹ Вяткин В. Л. Каршинский округ, организация в нем войска и события в период 1215–1217 (1800–1803) годов. // Известия Среднеазиатского отдела Русского географического общества, Т. XVIII. 1928, стр.17–20.

² Крестовский В. В. В гостях у Бухарского эмира..., стр.100

³ Гаевский П. КурганТюбинское бекство..., стр.59–61.

⁴ Варигин М. А. Опыт описания Кулябского бекства., стр..796.

(devon boshlig'i yoki moliya ishlari boshqaruvchisi); o'n to'rtinchisi – kulli qo'shbegi; o'n beshinchisi – otaliq (ya'ni ota o'rnini bosuvchi).¹

Dastlabki sakkizta unvonga muborazatpanoh, ya'ni «urushdan himoya», keyingi beshtasi – amoratpanoh, ya'ni «hokimiyathimoyachisi» (ularni viloyathukmdorlaribek yoki mirlar olardilar), oxirgi ikkitasi – vazoratpanoh, ya'ni «vazirlar hukmi himoyachisi» degan sifatlar bilan berilgan yorliqtarga ega edilar.

A. A. Semenov ma'lumotlarida ta'kidlanishicha, u yoki bu unvon olgan odam, shu bilan birga, hadya etiladigan maxsus kiyim – sarupo, shuningdek, parvonachi orqali silliqlangan Qo'qon qog'oziga yezilgan Amirning maxsus farmoni – yorliqni olgan. Bu farmon unvon olgan kishi sallasiga qistirib qo'yilardi va u shu qistirilgan farmon bilan hamma ko'rsin va bilsin uchun uch kun davomida yurishi shart edi.²

XX asr boshiga oid manbalardagi ma'lumotlarga qaraganda, Amirlikda harbiy unvonlar beshta edi: dahboshi, chug'raog'asi, yuzboshi, sarkarda va lashkarboshi; yuzboshi odatda qorovulbegi yoki miroxur kabi dunyoviy unvonga, sarkarda esa to'qsabo, eshikog'aboshi yoki biy unvoniga ega bo'lgan.

Buxoro Amirligidagi qo'shinlar tuzilishi haqidagi masalada chop etilgan asarlarda deyarli aniqlik yo'q. Ko'p tadqiqotchilarning ko'rsatishicha qo'shin, asosan, ikki turga, ya'ni doimiy qo'shin – askariya va favqulotda holatlarda to'planadigan qo'shin – navkariyaga bo'lingan.³

Rossiya Davlat Harbiy Tarix Arxivi hujjatlarida qayd etilishicha, 1892 yilda Buxoro Amirligi qo'shinlari tarkibi 11 ming 400 ta piyoda askarlar, 400 ta otliq askarlardan iborat bo'lgan. Shuningdek, Amirlikda 2070 ta mirshab va 620 ta to'pchilar bo'lishgan bo'lib, ular ham harbiy xizmatchi hisoblanishgan. To'pchilar qo'lida 151 ta to'p va zambaraklar mavjud bo'lgan. Ularni saqlash uchun bir yilga 1 mln. 308 ming rubl miqdoridagi mablag' sarflangan.

Arxiv hujjatlarida qayd etilishicha, Amirlikda qo'shinlar soni yildanyilga kamayib borgan. Masalan, 1874 yilda harbiy qo'shin soni 10 ming 840 kishidan iborat bo'lgan.

1908 yilda Buxoro harbiy qo'shinlari 12 ta piyodalar bataloni (uning tarkibida 52 ta ofiser, 12 ta batalon komandiri, 3200 quyi lavozimdagi harbiylar bo'lgan), 2 ta eskadron kavaleriyasi (uning tarkibida 5 ta ofiser, 1 ta komandir va 600 ta quyi lavozimdagi harbiylar bo'lgan) artilleriya bo'linmasi (uning tarkibida 3 ta ofiser va 300 ta quyi lavozimdagi harbiylar bo'lgan), hamda umumiy ahamiyatga ega bo'lgan 60 ta ofiser boshchiligidagi 9100 ta qo'yi lavozimdagi harbiylardan tashkil topgan.

Buxoro qo'shinlarining harbiy qurol zaxirasi nihoyatda past darajada bo'lgan. Harbiylarning tayyorgarlik darajasi ham past bo'lgan. Ular asosan, berdankalar va qilichlar bilan qurollanishgan. Deyarli harch biri harbiy bilim va zamonaviy taktika ko'nikmalariga ega bo'lishmagan.

¹ Семенов А. А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени. стр.64.

² Семенова А. А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени. стр.65; Оталиқ амали ҳақида муфассал қараиғ: Анке фон Кюгельген. Легитимация, 94 ва ксийинги бетлар; Ражабов К. Бухоро оталиқлари сулоласи. // Бухоро окшоми, 2005 й.. 28 октябрь

³ Бухоро амирлигидаги амал ва унвонларни Хива мамлақатида жорий этилган вазифа ва унвонлар билан солиштириш учун қараиғ: Сабурова С. Хива хонлигидаги давлат бошқаруви. Тарих фан.ном.дисс. –Т., 2001, 95– 102бетлар. Иловадаги «Хива хонлигидаги амал ва унвонлар рўйхати». Яна қараиғ: Воҳидов Ш. , Сабурова С. Хива хонлигида амал ва унвонлар ва уларнинг вазифалари. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1998, 10, 11 сон, 37–42 бетлар

Buxoro Amirligida din vakillari juda ko'p bo'lgan va ular ta'sirli kuchga ega tabaqani tashkil etar edi. Din vakillari ko'p hollarda imtiyozli guruhlardan – sayyid, xo'ja va mirlardan tashkil topgan bo'lgan.

U yoki bu majburiyatlarni bajaruvchi va «ulamo» deb umumiy nom ostida birlashtirilgan din vakillari diniy unvonlar olishgan. N.V.Xanikov o'tgan asrning 40yillaridagi ko'pchilik unvonlarni aytib o'tadi va uning so'zlariga qaraganda, bu unvonlarning ba'zilari faqat xo'jalarga, ba'zilari esa oddiy odamlarga berilgan. Ammo bu muallif diniy unvonlar qatorida muftiy, qozi va boshqalarni ham sanab o'tadi,¹ lekin aslida bular unvon emas, balki amal hisoblanadi.

Diniy maktabmadrasani tugatganlar mulla, qozi yoki rais amalini olishi mumkin edi. Amalda bir necha yil ishlaganidan so'ng, unga avvat o'rok, keyin sudur va hatto sadr unvoni berilardi. Oxirgi, eng yuqori diniy unvon olgan kishi qozikalon, muftiy a'lam, oxun kabi diniy amallarni egallashi mumkin edi.²

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan diniy unvondagilar dunyoviy harbiy ma'muriy amaldorlar qatorida tanho olishardi.

Buxoro Amirligida din vakillari sudni, odamlar xulqini va ta'limni nazorat qilib, ularni boshqarishga ham mas'ul edilar.

Buxorodagi barcha fuqaro sudi, musulmon mamlakati bo'lgani uchun, shariat bo'yicha boshqarilgan va bu boshqaruv «qozi» deb ataluvchi diniy sudyalari qo'lida edi. Qozining vazifalari va huquqlari haqida manbalarda, ilmiy adabiyotlarda ma'lumotlar juda ko'plab uchraydi. Bosh qozi yoki qozikalon poytaxt bosh qozisi va shu bilan bir paytda Amirlikdagi boshqa barcha qozilar boshlig'i ham edi. Qozikalon shariat qonunlari asosida sud ishlarini boshqarish uchun Buxoroda o'ziga yordamchi tayinlash huquqiga ega edi. Qozikalon «shariatpanoh» – «shariat himoyachisi» unvoniga zga edi va barcha amaldorlar ichida faqat uning Amir oldiga belbog' o'ramagan holda kelishga haqqi bor edi.³

Shuni aytib o'tish kerakki, Amirlikning oxirgi yillarida barcha oliy qozidar asli Ko'lobdan va bir oiladan edi. Ularni madrasada o'qiyetgan, yuqorida eslatib o'tilgan «ko'histoniy» deb ataluvchi guruh qo'llabquvvatlardi.⁴

Qozilar asosan fuqaro ishlarini hal qilgan. Lekin shu paytning o'zida jinoiy ishlarga taalluqli masalalarni tekshirish Amir mahkamasi va u shunga tayinlagan kishilarning, joylarda esa beklarning qo'lida bo'lgan.

Bosh qozi shahar aholisining barcha ishlari va shikoyatlarini ko'rib chiqishiga mas'ul hisoblangan. Agar ish juda jiddiylashsa, unda bu ish qo'shbegiga o'tgan. Bosh qozi va aholi o'rtasida o'zaro ularni birbiriga bog'lovchi bo'lib mavze boshliqlari – oqsoqollar turgan.

Qozilar oldida odatda «muftiy» deb ataluvchi kishilar bo'lgan. Bu kishilar musulmon huquqini (fiqh), musulmon sunnatini (hadisni) bilishda alohida bilimga ega bo'lgan kishilar edi. Poytaxtdagi muftiylar 14 kishi bo'lib, Amir yoki qozikalon tomonidan tayinlanardilar. Ular shariatga asoslangan qarorlar–fatvo yoki rivoyat tuzardilar va uni bosh qoziga berardilar va qozi shunga asoslanib qaror chiqarar edi.

¹ Ханьков Н. В. Описание Бухарского ханства..., стр.189–193

² Шюдмон Вохид. Кўкон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. 26-бет.; Яна қаранг; «Тарихи Нофеий», 43-бет.

³ Семенов А. А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени. стр.30–31;

⁴ Кисляков Н. А. Очерки по истории Каратегина. К истории Таджикистана. –Ленинград, 1941. стр.48.

Buxoro Amirligida davlat boshqaruv tizimida o'ziga xos o'rinni «rais» egallagan.¹ Bu amal yarim diniy, yarim tartibotchi tusda edi. Buxoroda bosh rais, viloyatlarda esa mahalliy raislar bor edi. Raisning majburiyati aholining yurishturishi va xulqini nazorat qilish edi. U din buyurgan barcha qoidalar bajarilishini va nomozlar o'qilishini kuzatar edi. Uning yana bir vazifasi bozordagi savdosotiqni nazorat qilib, sotuvchilar xaridorlarni aldashiga yo'l qo'ymaslik edi. Raislar doimo shahar bozorlarini kezib yurishar hamda tarozilar va boshqa o'lchov asboblari to'g'ri ishlayetganini tekshirishar, aholining ko'chadagi yurishlarini nazorat qilardi. Rais ko'chada uchratgan odamiga birorbir din haqidagi savol berib, javob talab qilishi yoki Qur'onning biron bir surasini o'qib berishni so'rashi mumkin edi.

V. V. Krestovskiyning yozishicha, «rais kuniga ikki marta ertalab va kechki payt shahar bozorlarini aylanib chiqardi. U istagan kishisini to'xtatib, imtihon qilishi, Qur'ondan bironbir surani o'qishga majbur qilishi mumkin edi va so'ralayotgan odam bu narsalarni bilmasa yoki qoniqarsiz javob bersa, rais o'z yigitlariga uni 39 zarbadan oshmagan holda tayoq bilan urish jazosiga buyurishi mumkin».²

Rais o'z vazifalarini, odatda, kunduzi bajarar, kechasi esa aytib o'tganimizdek, tartib va tinchlikni saqlash mirshab lar qo'lida edi. Bosh rais – eshon rais yoki raisushshariat deb ham nomlangan. Bosh raisga mahalliy raislar bo'ysungan, u ularni Amir oldida tekshiruvdan o'tkazgan.³

Harbiylar sodir etgan jinoyatlarni maxsus amaldor–qozi askar ko'rib chiqqanligini ta'kidlab o'tish kerak. Bunday jinoyatlarga fatvo tayyorlash esa mufti askar zimmasida edi. Shu tariqa Amirlikda harbiylar va fuqarolik ishlari alohida mahkamalar tomonidan ko'rib chiqilardi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, 1886 yildan boshlab Buxoro Amiri va uning amaldorlari o'z faoliyatlarida Rossiya imperiyasi siyosiy agentligining bevosita maslahati bilan ish olib boradigan bo'lishdi. Hatto amallarga qo'yish kabi masalalar ham ushbu agentlik roziligi bilan amalga oshiriladigan bo'lib qoldi.

Buxoro Amirligining XIX asr oxiri – XX asr boshlarida davlat boshqaruvidagi o'ziga xos xususiyatlarini, harbiyma'muriy va diniy amaldorlarning vazifalari, huquq va burchlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, garchand Buxoro Amirliги o'z huquqlarini boy bergan bo'lishiga qaramasdan, bu davrda Amir Temur va temuriylar, shuningdek shayboniylar va ashtarxoniylar davrida qaror topgan davlat boshqaruvi tartiblari deyarli o'zgarishsiz qolgan. Bu xususiyat, vassallik davrida ham Buxoro Amirliги davlat boshqaruvida o'rta asr o'zbek milliy davlatchiligi an'analari davom ettirilgan ligini ko'rsatadi.

Buxoro Amirliги ba'zi manbalarda viloyat deb nomlanuvchi bir nechta beklklarga bo'lingan edi. Har bir viloyat yoki beklk boshida hukmdor – hokim, mir yoki bek deb ataluvchi amaldor turardi. Shuning uchun rus ilmiy adabiyotlarida bu ma'muriy bo'linmalar ko'pincha beklklar nomi bilan atalgan.

Buxoro Amirliги ma'muriy jihatdan Chorjo'y, Karmana, Ziyevudsin, Nurota, Xatirchi, Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi, Yakkabog', G'uzor, Boysun, Qorategin, Denov, Hisor, Darvoz, Baljuvon, Shug'nonRushon, Qabadiyon, Ko'lob, Qo'rg'ontepa, Qarshi, Sherobod, Kalif, Karki, Burdaliq, Kabaliq, Sarijo'y kabi 28 ta beklk va Konimex,

¹ Каралсин: Холикова Р. Марказий давлат бошқаруви тарихига бир назар. 41–42 бетлар.

² Крестовский В. В. В гостях Бухарского эмира, стр.180

³ Семенов А. А. Очерк устройства центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени. стр.46.

Qorako'l, Pirmast, G'ijduvon, Vang'oze, Vobkent, Shofirkon, Yortepa kabi 9 ta tumanlikka bo'lingan.

Amirlikdagi beklilar soni ham, hududi ham doimo bir xil bo'lmagan vabeklilninghajmi mahalliy sharoitga, aholiyepshg soniga, shuningdek Amirning ixtiyoriga bog'liq bo'lgan. U xohlasi beklilni kattalashtirishi yoki kichikroq qilib qo'yishi mumkin edi.

Ko'rib o'tilayetgan davrda eng yirik beklilar Shahrisabz, Hisor va Qarshi beklilari hisoblangan. Ularni Amirning qarindoshi yoki to'la ishongan kishisi boshqaradi. Kichikroq beklilarga Denov, Sherobod, Chiroqchi, Kitob va boshqa beklilar kirar edi. Nihoyat ba'zilar, masalan, Kelif bekligi shaharcha va uning atrofidagi bir nechta qishloqlardan tashkil topgan edi.¹

Qarshi beklilini va keyinchalik Karmani viloyatini boshqarish, odatda, valiahdga topshirilar edi.

P. Shubinskiy «XIX asrning 90 yillari boshida barcha beklilar ichida 11 tasi asosiylaridir, ulardan eng boyi bu Hisor bekligidir, u Amir xazinasiga har yili yarim mildion so'm daromad keltirardi, eng kambag'allari – Kalif va Ucho'choq beklilardir, ular yiliga faqat 8000–10000 so'm to'lashardi xolos»², deb yozgan edi.

Beklilar soni biz ko'rib chiqayotgan davrda yigirmatadan ortiq edi. Ba'zi manbalarda ularning soni 28 ta deb ko'rsatiladi. A.Gubarevich-Radobilskiy esa XX asr boshida Buxoro Amirligida 24 beklil, 7 alohida amlokдорlik va 10 tuman bo'lgan deb hisoblaydi.³ 1920 yili Buxoro Amirligining mavjud bo'lgan oxirgi yilida, Buxorodagi RSFSR muxtor vakilining bergan ma'lumotlariga qaraganda, deyarli rus boshqaruvida bo'lgan Shugnon va Rushon kabi Pomiroidi tumanlarini hisoblamaganda, Amirlikda 28 ta beklil bo'lgan.⁴

Amirlik shimolida, Nurota tog'larida–Nurota; Zarafshon havzasi quyi oqimining o'ng sohilida–Xatirchi va Bog'ikalon, chap sohilida Ziyovuddin va Karmana, qo'yi oqimida–Buxoro; Amudaryo vodiysida (Surxon quyiladigan joydan quyiroqsa) oqim bo'ylab–Kalif, Karki, Burdaliq, Chorjo'y, Usti; Qashqadaryo havzasi yuqorisida–Kitob, Shahrisabz, Yakkabog'; G'uzardaryoda–G'uzor; Qashqadaryo oqimi bo'ylab qo'yida–Chiroqchi va Qarshi; Sheroboddaryo havzasida–Sherobod va Boysun; Surxon va Kofirnihon havzasida–Hisor; Qabodiyon, Denov, Sarijo'y; Panj havzasida – Darvoz, Qorategin, Baljuvon, Qo'rg'ontepa, Qo'lob beklilari joylashgan.

Ko'pgina manbalarda ta'kidlanishicha, Hisor bekligi xonlikning ma'muriy boshqaruvida maxsus o'rinni egallagan bo'lib, u Amirning Sharqiy Buxorodagi o'rinbosari qarorgohi sifatida ham muhim o'rin tutgan.

V. V. Krestovskiyning yozishicha «Buxoro Amirligidagi beklar rus gubernatorlariga teng bo'lishgan, faqat beklarning huquqlari ko'proq bo'lgan», deb ta'kidlaydi. Amir bekka o'lim jazosi tayinlashdan boshqa barcha huqukdarni berardi. Bek amirga har hafta o'z ishlari haqida yozma hisobot jo'natardi. U faqat fuqaroviy emas, balki harbiy hokimiyatga ham ega bo'lib, solikdar yig'ar, shuningdek, urush paytida qo'shinga odam to'plardi.⁵

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, o'z hududi va aholisi soniga hamda o'zining ahamiyatiga ko'ra barcha beklilar bir xil emas edi. Yirik beklilarda, odatda, hukmdor

¹ Галкин А. Краткий очерк Бухарского ханства, стр.414.

² Шубинский П. Очерки Бухары стр. 140.

³ Қаранг: Материаль1 по районированию Средней Азии. стр. 64.

⁴ Ўша асар. 64–65бетлар.

⁵ Крестовский В. В. В гостяхбухарского эмира, стр. 100.

Amirga qarindosh yoki yaqin kishi bo'lgani uchun ba'zi bir dabdababozlik bor edi va mahalliy hukmdor barcha narsada Amirdan o'rnak olishga harakat qilardi. Poytaxtdan uzoq bo'lgan va kambag'alroq hisoblangan bekliklarda ko'p narsalar oddiy bo'lib, ortiqcha dabdaba bo'lmagan, bek a'yonlari kamroq va kichik unvonlarda bo'lgan. Ammo shunga qaramasdan, deyarli barcha bekliklarda boshqaruv tizimi aytarli bir xil edi.

Amirlikdagi Bek mahkamasi ta'rifiga kelganda shuni ko'rsatmoq zarurki, bekning huzurida doimo yasovulboshi bo'lardi. Bu kishi bekning eng yaqin, ishonchli odami hisoblangan.

V. V. Krestovskiy yasovulboshini bekning axborotchisi deb ataydi va bu amal o'z ichiga qisman mirshablik, qisman bek yordamchisi vazifalarini, bekka ariza topshirish va bek buyruklarini bajarishni olgan edi, deb ta'kidlaydi. Uning so'zlariga ko'ra, har bir bekda ikkita yasovulboshi bo'lgan.¹

Yasovulboshi bekning shaxsiy qo'riqchilari boshlig'i ham bo'lib, u ko'pincha bek qarorlarini amalga oshirishga bevosita rahbarlik qilgan. Odatda yasovulboshiga qorovulbegi yoki miroxur kabi kichik amal va unvon ham berilgan.²

Bekliklardagi muhim amaldorlardan biri qozi hisoblanardi. Qozi amali bekdan mustaqil bo'lgan. Qozi to'g'ridanto'g'ri Buxorodan tayinlanar va o'sha yerdan kelgan buyruq bilan almashtirilardi. Qozi odatda bekning harakatlarini kuzatar va maxfiy ravishda Buxoroga xabar berib turar edi. Qozi beklikdagi fuqaro ishlarini hal qilardi. Qoziga maosh tayinlanmas, odatda, u tortishayotgan taraflardan olgan yig'imlar va notarial tusdagi har xil bitimlar hisobiga kun ko'rar edi.³

Buxoro Amirigidagi har bir beklik kichik ma'muriy birliklarga – amlodkorliklarta bo'lingan. Bu so'z bilan aslida Amirga yoki davlatga qarashli, lekin dehqonlar ixtiyorida bo'lgan alohida yerlar nazarda tutilardi. Amlokning o'zi nafaqat ma'muriy, balki ma'muriysoliq birligi edi. Amlok boshqaruvchisi bo'lgan ma'muriy shaxsning, ya'ni amlodorning eng muhim vazifasi amlok yerlaridagi dehqonlardan soliq yig'ib olish edi.

Amloklar xuddi bekliklar kabi hududlari bilan bir , biridan farqlangan bo'lib, ularning beklikdagi soni esa doimiy bo'lmagan va teztez o'zgarib turgan.

Buxoro Amirishdagi eng katta Hisor bekligi ma'lumotlarga ko'ra 23 ta amlodkorlikka bo'lingan bo'lgan. Ba'zi manbalarda ko'rsatilishicha esa u yerda 27 amlodkorlik bo'lgan. Rus zobiti kapitan Liliyental Hisor bekligi 21 amlodkorlikka bo'lingan deb quyidagilarni: Romit, Varzob, Fayzobod, Cho'rtan, Kofirnihon, Dushanbe, Hisor, Shurion, Xonaqo, Ikkinchi Xonaqo, Alibegi, Qoratog', Regar, Sarjo'y, Sariosiyo, Ikkinchi Sariosiyo, Norak, Yavon, Laqay, SultanRovot va G'ozi Maliklarni ko'rsatib o'tadi.⁴ Shu paytning o'zida, xuddi shu tadqiqotchi so'zlariga ko'ra, ancha kichik bo'lgan Qabodiyon bekligi atigi ikki amlodkorlik–Beshkent va Bosh-Charvonga bo'lingan.⁵ Qo'rg'ontepa bekligi uchta amlodkorlikdan – Qo'rg'ontepa, Jiliko'l va Saroydan iborat edi.⁶ Sherobod bekligi olti amlodkorlik – Talashkon, Saliobod, Jarqo'rg'on, GilamBog', Talimoron, Saitobodga bo'lingan.

¹ Ўша асар. 104– 109-бетлар.

² Кисляков Н. А. Очерки по истории Каратсгина, стр.133.

³ Қаранг: Семенов А. А. Очерк устройства., стр.32; Гаевский П. Курган-Тюбинское бекство. стр. 42.

⁴ Лилиенталь. Гиссарское и Кабадианское бекства. стр.315-316

⁵ Бендерский Н. А. О Гиссарском крае, 155–156-бетлар; Административное устройство Гиссарского бекства; Лилиенталь. Гиссарское и Кабадианское бекства, стр.-316.

⁶ Гаевский П. Курган-Тюбинское бекство, стр 22–27.

Boysun bekligi to'rtta amlokдорlik–Boysun, Yavmchi, Poshxurd va Darbanddan tashkil topgan.¹ Qarshi bekligida XX asr boshlarida 15 ta amlokдорlik: Qamashi, Jeynov, Kasbi, Maymaiak, Koson, Po'lati, Parvoza, Fayzobod, Beshkent, Potron, Fazli, Jumabozor, Xonobod, Chim, Qorabog' bo'lgan.

Ko'lob bekligining ma'muriy bo'linishi o'ziga xos edi. Bu yerda 8 ta – Mo'minobod, Ko'l, Sari-Chashma, Quvray, Chubek, Sayot, Girdiqo'rg'oni bolo va Girdiqo'rg'oni poyon kabi amlokдорliklar bo'lgan. Sanab o'tilgan amlokдорliklardan tashqari yana shyhuda to'qqizta ma'muriy birlik – Davlatobod, Tog'nov, Kishti, Poyondaryo, Bolodaryo, Rog'i, Sari-Gol, Vari, DuOba bor edi. Ularni badaxshonliklar egallagan bo'lib, ular yuqorida ko'rsatib o'tganimizdek, Buxoro hukumati tomonidan berilgan imtiyozlar va yengilliklardan foydalanar edilar.² Bu ma'muriy birliklar boshida merosxo'r hukmdorlar – sho (shoh)lar turardi. Bu so'z ilgari, odatda, Qorategin, Darvoz va Tog'li Badaxshondagi mayda mustaqil hukmdorlarga nisbatan ishlatilgan.³

Bevosita beklilarga tobe amlokдорlardan tashqari Amirga to'g'ridanto'g'ri bo'ysinuvchi amlokдорliklar ham bo'lgan. Lekin ushbu holat doimiy emas, balki vaqtincha bo'lgan. Masalan, N. A. Mayev XIX asrning 70 yillarida Hisor o'lkasi beklilari haqida gapirar ekan, Darband, Sarijo'y va Fayzobod amlokдорliklari mahalliy bekka bo'ysunmagan va bu amlokдорlarni bevosita Amir tayinlaydi, deb ko'rsatadi.⁴ Lekin, keyingi davr mualliflari ushbu ko'rsatilgan amlokдорliklarni beklilar tarkibida deb aytib o'tishgan.

Amirlikdagi amlokдорliklar, o'z navbatida bir necha kichik ma'muriyhududiy bo'g'inlarga bo'lingan. G'arbiy Buxoroda u kentlar deb atalgan. Sharqiy Buxoroda esa u turlicha atalgan. Masalan Qorateginda miri hazor, Hisor va Qabadiyonda saod deyilgan.

Kentlar bir necha qishloqlardan (arboblik) tashkil topgan bo'lib, ularni oqsoqollar (arboblar) boshqarishgan.

Buxoro atrofida joylashgan amlokдорliklar yoki tumanlar to'g'risida alohida to'xtalib o'tmoq zarur deb hisoblaymiz.

Ba'zi manbalarda Buxoroga bo'ysunuvchi 7 ta amlokдорlik, ba'zilarida esa 9 ta nomlari keltiriladi. Buni tuman markazining bir qishlokdan boshqasiga ko'chirilishi bilan ham tushuntirish mumkin. Chunki tumanning nomi uning markazi bo'lgan qishloq nomidan olingan. Shuningdek, bir tuman yoki amlokдорlikning bir nechta nomga ega ekanligi kabi holat ham uchraydi. Masalan, eng yirik tumanlardan bo'lgan G'ijduvon, shuningdek, Xo'jai Jahon nomiga ham ega bo'lgan va bu nom maqbarasi G'ijduvonda bo'lgan Xo'ja Abdulholiq G'ijduvoniy sharafiga qo'yilgan bo'lishi mumkin. Biz bu masalaga oid barcha ma'lumotlarni o'rganib chiqib, Buxoro tumanlari soni to'qqizta bo'lganini aniqlashga muvaffaqbo'ldik. Xususan, Buxoro shimolisharqida Pirmast, Vobkent, G'ijduvon va Vang'oze shimol va shimolig'arbda Shofirkon, Zandane va Romiton, g'arbda Xayrobod (Jondor) va janubig'arbda Qorako'l joylashgan bo'lgan.⁵

¹ Васильев. Статистический материал для описания Бухары бекство Шерабадское и часть Байсунского, 1889. / Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии, вып. 57, 1894, стр. 399-402.

² Варьгин М. А. Опыт описания Кулябского бекства, с. 770–771.

³ Кисляков Н. А. Очерки по истории Каратегина, стр. 45.

⁴ Маев Н. Географический очерк Гиссарского края и Кулябского бекства. // Известия Русского Географического общества, т. XII, 1876, стр. 360.

⁵ История Узбекской ССР. т.1, 2 китоб. –Тошкент, 1956, 134– 139бстлар. Биз саиаб ўтган амлокдорликларда Хайробод ва Ромитон йўқ, улар ўрнига Конимех ва Ёртепа кўрсатилган. А. А. Семеновда ҳам амлокдорликлар рўйхати фарқ қилади. (Садриддин Айнийнинг. «Ҳотиралар» китобида унинг „К прошлому Бухарн“ қисмига қаранг). Семенов А. А. «Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях

Buxoro amlokдорliklari yoki tumanlari xonlik poytaxtiga yaqin bo'lganliklari sababli katta ahamiyatga ega edi. Bu yer amlokdorlari deyarli bekka teng bo'lgan va Amir tomonidan tayinlangan. G'ijduvon kabi yirik tumanda to'qsabodan tortib, biygacha bo'lgan unvondagi amaldorlar ham bor edi. Agar G'ijduvon amlokdorlari amalga ko'tariladigan bo'lsa, ular, odatda, biror yerga bek sifatida jo'natilgan. Bu amlokдорliklarda bekliklardagi kabi qozi, rais, mirshab kabi amaldorlar bo'lgan va ular amlokдор bilan birgalikda chor hokim deyilgan. Bu amaldorlarning barchasini bevosita Amir tayinlangan. Har bir amlokдорlikda zakotchi ham bo'lib, uni qo'shbegi tayinlangan.

Buxoroga yaqin qishloqlar «qishloqi atrofi shahar» deyilgan. Ular yuqorida sanab o'tilgan bironta ham ma'muriy birlikka kirmagan. Bu qishloqlar Buxoro bosh raisi yordamchilari – noiblari boshqaruvidagi bir nechta mayda ma'muriy birlikni tashkil etganlar. Buxoro noibliklari qatoriga Buxorodagi bosh ziyoratgoh – shayx Bahovuddin maqbarasi va unga tegishli yerlar kirgan.

Ma'muriy zinapoyaning keyingi pog'onasi qishloq ma'muriyati hisoblangan. Shu bilan birga, qator tumanlarda yanada mayda ma'muriy birliklar ham bo'lgan.

Sharqiy Buxorodagi tog'lik bekliklarni tadqiqot qilgap mutaxassislar shuni ko'rsatishadiki, ba'zi bekliklarda, masalan, Qorateginda amlokдорliklar qator hollarda, ammo har doim emas, yanada kichikroq miri xazor nomli ma'muriy birliklarga bo'lingan, ba'zilarida esa miri hazorliklar bironbir amlokдорlikka kirmay, to'g'ridanto'g'ri bekka bo'ysungan.

Bunday turlituman ma'muriy bo'linish mahalliy urfodatlar va o'ziga xosliklar natijasida tarixan shakllangan bo'lib, u biz o'rganayotgan davrgacha yetib kelgan.

Buxoro Amirligi quyi ma'muriy bo'linishida biz uchratgan miri xazor va sad atamalari eski ma'muriy bo'linish – yuz (sad) va ming (xazor) qoldiqlari edi. Mingboshi so'zining kelib chiqishini ham shunday tushuntirish mumkin.

Ko'rsatilgan quyi ma'muriy bo'linishlar shuni ko'rsatadiki, Buxoro Amirligining turli tumanlarida ular turlicha bo'lgan. Shu narsa kishi e'tiborini o'ziga tortadiki, qator hollarda qishloq ma'muriyati qishloq boshqaruvchisi (oqsoqoli) va bir guruh qishloqlarning boshqaruvchilariga bo'lingan. Bu oxirgilar amlokдор va qishloq oqsoqoli orasidagi oraliq bog'lovchi hisoblangan. Bu oraliq bog'lovchi har doim va har yerda ham bo'lavermagan. Ammo bu bo'linish ham shartlidir. Yirik qishloqlar mavzelarga bo'lingan bo'lsa, har bir alohida mavze yoki masjid jamoasini ko'pincha oqsoqol boshqargan. Bu holda qishloqni boshqaruvchi amaldor ixtiyorida bir nechta oqsoqollar bo'lardi. Aksincha, qishloqlar kichik bo'lsa, bir oqsoqol ulardan bir nechtasini jamdagan holda boshqarardi.

Shunday qilib, Buxoro amlokдорliklari qishlokdarida oqsoqollar quyi ma'muriyat vakillari edi, har bir qishloqda, katta qishlokdarda esa har mavzeda (masjidda) – bir oqsoqol bo'lardi.

Endi tadqiqotchilar diqqatini Rossiya Davlat Harbiy Tarixiy Arxivida saqlanayotgan bir hujjatga tortmoqchimiz. Rossiya tashqi ishlar va harbiy vazirligining negizida maxfiy tarzda tuzilgan mazkur hujjatlar Buxoro xonligining Rossiya tarkibiga qo'shilib olgandan so'ng ma'muriy tuzilish va boshkdruv tartibini ko'rsatadi. Rossiyaning Buxoro bilan olib borilgan siyosatining ikkiyuzlamachiligi, xohlagan vaqtida Amir hukumatini ag'darib tashlashi mumkin bo'lganini ko'rsatadigan bu hujjat

носителей и их в среднее вековой Бухарс» номли ишида (Советское востоковедение, т V, 1948) бсгилайдики, кадимда Вобкент тумани Комот, ВангозеКоми Абу Муслим, ЗандансХитфар, РомитонСамжин деб номланган. 146 бет.

3895 yildan keyin tuzilganini taxmin qilish mumkin. Bu yillar Buxoro Amiri Abdulahad har qadamda Rossiya imperatori va Turkiston general-gubernatoriga sadoqatini ko'rsatayotgan bir vaqtda uning orqasidan shunday xiyonat tayyorlanayotganidan bexabar edi.

Biz tahlil qilayotgan hujjat «Zapiska»ning nomi «Amir hukumati bekor qilingandan so'ig Buxoro xonligining bosib olinishi va xonlikni Rossiya imperiyasiga qo'shib olinishi» deyilgan. Unda 7 ta «Ilova» lar berilgan. Ilovalarda Buxoro Amirligini bosib olgan holda ma'muriy tuzilishi va boshqaruv tartibi ko'rsatiladi. Unga binoan Buxoro mamlakati ikki viloyatga, Hisor va Buxoro viloyatlariga bo'linishi rejalashtirilgan edi. Hisor viloyatiga (660.000 aholi) G'arm, Hisor, Ko'lob va Sherobod uyezdlari (9 ta mavjud beklik o'rnida) tashkil etilishi lozim edi. Buxoro viloyatida Karki (5 ta beklik o'rnida), Shahrisabz (5 ta beklik o'rnida), Buxoro uyezdi (Buxoro shahri, Vobkent, G'ijduvon, Zandane, Vang'oze/Vardonze amloqdorliklari o'rniga), Chorjo'y (3 ta beklik va Qorako'l amlokdorligi o'rnida), Karmana uyezdi (4 ta amlokdorlik o'rnida) tuzilishi rejalashtirildi.

Shu bilan birga, rus ma'murlari va harbiylari Buxoro xonligining yangi ma'muriy tuzilishi uchun ikkinchi variantni ham tuzib, «Zapiska»ga ilova qilganlar. Unga binoan, Buxoro mamlakatining bir qism xududlari Samarqand viloyatiga (Samarqand, Karmana, Buxoro, Chorjo'y uyezdlari tashkil qilinadi) qo'shib, Hisor viloyati, ya'ni yana ikkita viloyat tuzilishi rejalashtirildi. Hisor viloyatida Ko'lob, Qaratoy, Sherobod (Sherobod, Boysun, Kalif, Hisor, Shahrisabz, Kitob, Yakkabog', Chiroqchi bekliklari hisobidan) va Karki (Karki, Qarshi va Burdaliq bekliklari o'rnida) uyezdlari tuzilishi lozim edi. Mazkur hujjatda yangi tuzilgan viloyatlar aholisining soni Samarqand bo'yicha 1.376.109 nafar, Hisorda 1.297.000 nafar ko'rsatilgan.

Bizningcha, yuqoridagi hujjat Rossiya va Angliyaning Afg'oniston bo'yicha mojarolarining hal etilishi oldidan tuzilgan bo'lishi mumkin. 1895–1896 va keyingi yillarda Rossiya-Angliya chegaralari masalasidagi kelishuv va shartnomalarga binoan, Buxoro mamlakatining hududiy o'zgarishlari Amirning o'zini boshqacha tutish holatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan. Shunda Rossiya ma'murlari Buxoroda «kutilmagan vaziyat» yuzaga kelganda oldindan ehtiyot choralarini tuzib quygandilar. Har holda mazkur «loyiha» amalga oshmagani bizga ma'lum. Undan biz yana mustamlakachilarning «bo'lib hukmronlik qilishi» g'oyasini ko'rishimiz mumkin.

Buxoro Amirligining quyi ma'muriy tuzilishi va mahalliy boshqaruv tartiblari bo'yicha xulosa sifatida shuni aytish kerakki, Buxoro Amirligi bekliklarga, ular esa, o'z navbatida, amlokdorliklarga va quyi ma'muriy birlik sifatida qishloqlarga bo'lingan edi. Ularning boshida arbob va oqsoqollar turardi, qator joylarda yana amin, arbob (qishloqniki emas) va miri xazorlar kabi oraliq bo'ginlar ham mavjud bo'lgan.

II.2. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro hukmdorlarining tarixiy portretlari

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro Amirligi o'z tarixida juda og'ir va ziddiyatli tarixni boshidan kechirdi. Chor Rossiyasi bilan olib borilgan harbiy urushlar natijasida o'zining katta hududdaridan mahrum bo'lish bilan birga, ushbu davrda garchi qonuniy uz milliy davlatchiligini saqlab qolgan bo'lsada, rasman u davlat boshqaruvida ham siyosiy, ham iqtisodiy hukuqni qo'ldan boy berib bo'lgan edi. U deyarli har bir amalga oshirgan ishipi bevosita Rossim hukumati vakili bo'lmish Turkiston general-gubernatorligi bilan kslishgan holda amalga oshirishga majbur edi.

Buxoro tarixining aypan mana shu davrda Amirlikni boshqargan Amirlar faoliyati va ularning tarixiy portretlari olimlar tomonidan deyarli tatbiq etilmay qolgan. Ayrim holatlarda, qisman ular faoliyatiga to'xtalganda noxolis, noobyektiv yondashuvlar bo'lganligi ko'zga yaqqol ko'rinadi. Zamonaviy asarlarning deyarli aksariyatida Buxoro Amirligi tarixida hukmron bo'lg'an Amirlar faoliyati deyarli umuman yoritilmagan. Qisman ushbu davr tarixiga oid voqyealar tasvirlanganda esa ushbu hukmdorlar faoliyati faqat bir tomonlama talqin etilgan. Aslida ularning hukmronligi, ularning tarixiy portretlari qay tarzda bo'lgan, degan savol ko'pchilik yurtdoshlarimizni doimo qiziqtirib kelgan. Mana shuning uchun ham XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro Amirligi hukmdorlari tarixiy portretlarini o'sha davr tarixiy manbalari va arxiv hujjatlari asosida o'rganishga, uni yoritishga va ilmiy tahlil etishga jazm etildi.

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro Amirligi tarixida davlat boshlig'i – hukmdor sifatida Amir Muzaffar (1860-1885 y.y.), Amir Abdulahad (1885-1910 y.y.) va Amir Olimxon (1910–1920 y.y.)lar davlatni idora etishgan.

Amir Muzaffar, Amir Abdulahad va Amir Olimxon juda ko'plab mahalliy tarixchilar tomonidan o'ta berahm, o'ta zolim hukmdor va o'ta rahmsiz davlat rahbari sifatida talqin etilgan. Xo'sh, aslida ularning asl qiyofalari qay tarzda bo'lgan?

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Sayyid Muzafariddinxon (1860–1885 y.y.), Sayyid Abdulahadxon (1885–1910 y.y.) va Sayyid Olimxon (1910–1920 y.y.) tomonidan Buxoro Amirligini idora qilish va davlatni boshqarish siyosati, ularning o'zlari va shaxsi aksariyat olimlar tomonidan, ayniqsa sovet totalitar tuzumi davrida berahm davlat rahbari, qonxo'r, zolim shaxs sifatida tasvirlangan.¹ Xuddi shu holatdagi baholarni Yevropa olimlari asarlarida ham uchratish mumkin. Jumladan, Bekker o'z asarlarida Buxoro hukmdorlarini ashaddiy zolim va despotik hukmdor sifatida talqin qilgan. Yevropalik barcha olimlar ushbu masalaga aynan shu holatda salbiy baho berishgan degan umumiy xulosadan biz yiroqmiz. Chunki, ayrim olimlar ushbu shaxslar to'g'risida boshqacha ta'rif berishgan. Jumladan, XIX asrda Buxoroga tashrif buyurgan Hyerman Vamberi Buxoro hukmdorlariga obyektiv baho bergan.²

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Buxoro hukmdorlari Abdulahadxon va Olimxonlarning har ikkalasi ham Sankt-Peterburg shahrida kadetlar maktabida tahsil olishgan bo'lib, o'z hukmronlik faoliyatlarida dastlab ijobiy ishlarni amalga oshirishga, davlat boshqaruv ishlarida turli xil ijobiy islohotlarni amalga oshirishga harakat qilishgan. Bu tarixiy haqiqat. Uni inkor etib bo'lmaydi. Masalan, Abdulahad o'z hukmronlik davri boshida sudhuquqtuzilmasini isloh qilishga harakat qilgan bo'lsa, Olimxon esa mamlakatda poraxo'rlik va tamagirlikni oldini olishga harakat qildi. Hatto o'z hukmronligi davrida Amir Olimxon ta'lim tizimini ba'zi bir jihatlarini islohetishga qat'iy harakat qilganligi va intilganligi ma'lum. Bu borada u ba'zi bir ishlarni amatga oshirdi ham. Quyida ushbu hukmdorlar avtoportretini bevosita o'sha davrda yashagan va ijod etgan adiblar, muarrixlar – Muhammad Siddiq (Hashmat), Nasriddin To'ra, Mirza Abdul Azim Somiy, Mirza Muhammad Salimbek, Fitrat, Ahmad Donish, Sadri Ziyo,

¹ Абдурауф Фитрат ва Садриддин Айний асарларида шундай баҳо берилган.

² Ражабов Қ. Бухорога кизил армия босқини ва унга қарши кураш.—Т.: Маънавият, 2002; Холиқова Р. Бухоронинг сўнгги ҳукмдорлари. // Жамият ва бошқарув. 2004, 2сон, 54–57 бетлар. Бухоро ҳукмдорлари ҳақида Қ. Ражабовнинг ҳам бир қатор мақолалари мавжуд. Қаранг: Ражабов Қ. Муҳаммад Раҳимхон — манғитлар сулоласи асосчиси. // Бухоро мавжлари. 2005, 3 сон, 36–37 бетлар. Шу муаллиф, Муҳаммад Дониёлбий оталик: бийлик мансабидан амирлик рутбасигача. //Бухоро мавжлари, 2005. 4сон, 37–339 бетлар; Ўзбекистон Миллий энциклопедиясидаги Амир Шохмурод (10жилд), Амир Насруллоҳ (6жилд), Амир Музаффар (6жилд), Амир Олимхон (6жилд) Муҳаммад Ҳакимбий оталик, Муҳаммад Раҳимхон (11 жилд) ва б. амирлар ҳақидаги мақолалар ҳам Қ. Ражабов қаламига тегишли.

Sadriddin Ayniy, Po'lat Soliyev asarlari hamda Moskva shahrida joylashgan Rossiya davlat Harbiy tarix arxivi hujjatlari asosida bayon etishga harakat qilamiz.¹

Buxoro Amiri Sayyid Muzaffariddin Bahodirxon 1860– 1885 yillarda Buxoroda hukmronlik qilgan.² U mang'itlar sulolasidan bo'lgan to'rtinchi amir bo'lib, Amir Nasrullohning o'g'li hisoblanadi. U 1819 yili olamga kelgan. Yoshlik yillari Qarshida o'tgan. Venger sayohatchisi H.Vamberining aytishicha: «U o'zining qobiliyatligi bilan juda erta ko'zga tashlangan». Shuningdek, Vamberi Amir Muzaffar va uning otasi Amir Nasrulloh o'rtasidagi o'zaro munosabatlar to'g'risida to'xtalib, shunday deb yozadi: «Muzaffariddinning shunday qobiliyatligiga qaramasdan, u otasining ko'ziga balo qazoday ko'rinardi, chunki Amir Nasrulloh o'z bolasini taxt uchun talashadigan xavfli raqiblardan biri deb o'ylardi. U doimo Qarshi tomondan o'ziga nisbatan suiqasd uyushtirilishi mumkin deb qo'rqardi. Bu qo'rquvdan xalos bo'lish va o'g'lini nazorat qilish uchun upi Karmanaga noib qilib tayinladi».³ 20 yoshida Karmanaga noib etib tayinlangan Muzaffar bu lavozimda 19 yil, ya'ni otasining o'limiga qadar tanholikda, badarg'a qilingan holda yashadi va faoliyat ko'rsatdi. Qizig'i shundaki, bo'lajak Amir na otasini kelib ko'rdi, na otasi Karmanaga keldi, na o'g'lini ko'rish uchun uni Buxoroga chaqirtirdi. Amir Nasrulloh bir yil kasal bo'lib yotib, 1860 yil 20 oktyabrda vafot etadi. Muzaffar otasining vafoti haqidagi xabarnomani eshitib, Buxoroga keladi va otasining janozasida ishtirok etdi. Bir necha oy o'tgach, u Samarqandga keladi va Buxoro Amirligi taxtiga ko'tarilib, Amirlikni qabul qilish marosimlariga o'tkaziladi. Mana shunday qilib, u Buxoro taxti egasiga aylandi.

Amir Muzaffariddinning 25 yillik hukmronligi davrida juda ko'p voqyealar sodir bo'ladi va Amir shaxsiga uning zamondoshlari turlicha, ba'zan juda qaramaqarshi baho berishadi. Masalan, tarixchi Mirza Abdulazim asSomiy Amir Muzaffarni «maqtovg'a loyiq faoliyat ko'rsatgan, xushmuomalali bo'lgan»⁴ desa, Ahmad Donish «Amir tabiatan ahmoq va cheklangan», «axloqsiz va zo'ravon shaxs bo'lgan»⁵ deb ko'rsatdi.

1883 yili Amir Muzaffar Rossiyaning I darajali «Muqaddas Anna» ordeni bilan taqdirlanadi. Bu orden olmos (brilliant)lar bilan bezatilgan edi, Bu Amir Muzaffarga bejiz berilmagan edi. Bu orden Rossiya imperatori Aleksandr III ga Buxoro yulduzi ordenini taqdirlash evaziga kelgan edi. Mukofotni Buxoroga generalmayor, knyaz Vitgenshteyn boshchiligidagi maxsus elchilar olib kelishgan.

Amir Muzaffar o'z hukmronligi davrida ulamolar bilan deyarli ishi bo'lmadi va ularga e'tibor bermadi, hatto ular bilan bironbir masala yuzasidan hyech qachon maslahat

¹ Мухаммад Сидик (Хашмат) ибп Амир Музаффар. Зайли Тарихи Муқимхони. (Баёни ахволи салотини узбакийи). // Қўлёзма ИВАН РУз. Инв № 2663/III; Носириддин Тўра алХанафий алХусайний алБухорий. Осор ассалотин.//Қўлёзма ИВАН РУз. Инв№ 1422.; Мирза Абдул Азим Сомий. Тарихи салатини Манғитийа. Мирза Мухаммад Салим Бек. Тарихи Салимий. // Қўлёзма ИВАН РУз. Инв № 2016. (Қаралсип. Н. Норкулов «Тарихи Салимий»); Фитрат. Давраи ҳукмронии Амир Олимхон. Душанбе 1991; Аҳмад Дониш. Рисола ё мухтасаре аз тарихи салтанати хонадони Манғитийа.; Мирза Мухаммад Шарифжон Садри Зиё. Силсилаи хони гетиситон Чингизхон ва байани ахволоти салотини ааюди он. // Қўлёзма ИВАН РУз. Инв № 2193 –Х.; Садриддин Айний. Тарихи Амиропи манғитийаи Бухоро; Булат Салийиф. Манғитлар салтанати даврида Бухоро улкаси – Т., 1920.

² Қаралсин: Холикова Р. XIX асрда Бухоро амирлиги, // Жамият ва бошқарув. 2000, 3сон, 70 бет; Музаффархон//Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, т.6.–Т., 2003, 112113 бетлар.

³ Вамбери Х. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи, –Т., 1991, 11 – 13_бетлар.; Яна қаранг, Юсупов Ш. Машъум хато ёки гап канизакда эдими. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2005, 10 июнь. 24-сон, 5–6-бетлар

⁴ Қаранг: Мирзо Абдал Азим Соми. Тарихи салотиби манғитийа (История мангитских правителей). Перевод, издание текста и примеч. Л. М. Епифоновой, –М., 1962.

⁵ Дониш А. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салотини манғития, 20–25 бетлар.

ham qilmadi. Ulamolar esa uniig nihoyatda qattiqqo'lligini bilishganligi uchun ham, hyech qachon uning ishiga aralashishni o'zlariga ep ko'rishmadi.

Amir Muzaffar Maydayulg'un yaqinida ruslardan mag'lubiyatga uchragach, u ruslar bilan urushishdan butunlay voz kechishga majbur bo'ldi. Aynan mana shu yerda, doimo uning ichki va davlat ishlariga umuman aralashmagan ulamolar siyosiy maydonga chiqishdi. Ular xalqni ruslarga qarshi ko'tarishdi va din uchun, imon uchun ruslarga qarshi xalqni qo'zg'atishga muyassar bo'lishdi. Aynan mana shu yerda Amir Muzaffar ulamolarga yon bosishga majbur bo'ldi.

Chor Rossiyasi bilan bo'lib o'tgan urushlar, 125 ming tilla miqdoridagi o'lpon to'lovi va doimiy ichki nizolar Amir Muzaffar xazinasini bo'shab qolishiga sabab bo'ldi. Amir o'z xazinasini to'ldirish uchun kumush va tilla hamda qimmatbaho bezaklar to'plashga ko'rsatma berdi. Ushbu ishni amalga oshirishda ulamolar Amirga yaqindan yordam berishdi. Masalan, qozi Sadriddin Ko'lobiy (qozi Badriddinning otasi) juda katta miqdordagi vaqf yerlarini davlat foydasiga musodara qilishni hamda bozorga sotishga olib kelingan dondan davlat yig'imi – aminona olishni o'rnatishni tavsiya etdi. Shuningdek, ushbu davrda qozilar tomonidan Amir Muzaffar davrida turli xil sovg'alar olib kelinishining odatga aylantirilishi ham Amirga, davlat xazinasini to'ldirish uchun yangi bir imkoniyat sifatida qo'l keldi.

Amir Muzaffar qozilar va raislarga o'z qo'l ostidagilaridan turli xil yig'imlar to'plashga ruxsat etdi. Chunki, bu yig'imlarning ma'lum qismi turli xil sovg'a va in'om tariqasida Amir xazinasiga kelib tushardi. Mana shuning uchun ham rais va qozi lavozimlari Amir Muzaffar davrida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Mullalar turli xil yo'llar bilan ushbu lavozimlarni egallashga harakat qilishgan. Bu esa, o'z navbatida, ulamolar bilan Amir saroyi o'rtasidagi aloqalarning birmuncha yaxshilanishga xizmat qilgan. Mana shunday qilib, Amir Muzaffar bir tomondan ulamolarni o'zining qo'l ostidagi doimiy ravishda xazinasini to'ldirib beruvchi itoatkor xizmatkorlarga aylantirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan Amir ulamolarni to'la o'ziga itoatkor kuchga aylantirib oldi va ularni o'zi xohlagan usulda boshqara boshladi. Shuni ochiqaytish lozimki, barcha ulamolar ham bir xil itoatkor emas edi. Ular orasida qat'iyatli ulamolar ham bor edi. Ularning aksariyati Amir siyosatidan cho'chib, mamlakatdan chiqib ketishga majbur bo'lishdi. Ba'zilar esa Amir saroyida xizmat qilib, o'z fikrlarini ochiq bildirishga jur'at etishdi. Mana shunday jur'atli ulamolardan biri Ahmad Donish, XX asrning boshlarida esa domullo Ikrom(cha) hisoblanardilar.¹ U o'zining kuchli siyosati, ustomonligi va hozirjavoblighi bilan shuhrat qozonib, Amir saroyida ishlashga muyassar bo'ldi.

Ahmad Donish nafaqat ulamo, balki yirik matematik olim, kuchli astronom ham edi. Ahmad Donish uch marotaba Buxoro elchilari tarkibida Rossiyada bo'lib qaytgan shaxs.

Amir Muzaffar 1882 yili o'ziningo'g'li Abdulahadni taxt merosxo'ri deb e'lon qildi va o'sha yili Rossiya imperatori Aleksandr Shning taxtga o'tirish marosimi tantanasiga qatnashish uchun Moskvaga jo'natdi. U yerda Abdulahad haqiqiy taxt vorisi sifatida Rossiya tomonidan tasdiklandi.

Amir Muzaffar 25 yil Buxoro taxtida hukmronlik qildi.² Amir Muzaffarning jami 13 ta o'g'li bo'lgan. Ulardan ikkitasi Amir hayotligida vafot etgan. Bir o'g'li –

¹ Аҳмад Дониш. Наводир ул – вкоеъ. – Душанбе, 1988.; XX асрнинг бошларида ўзининг катъятлиги билан шуҳрат қозонган Домулло Икромча ҳасти ва фаолияти етарлича ўрганилмаган. Бу ҳақда қаранг; Ҳаёт Неъмат Самарқандий. Домулло Икромчайи ҳақ гўй ки буд? // Овози тоҷик, 2004, 1 декабрь.

² ХоликоваР. Бухоронингсўнгги куқмдорлари. 54–55бетлар.

Abdulmalik To'ra otasiga qarshi qo'zg'olon ko'targanligi uchun chet elga qochib ketgan. Bir o'g'li esa doimiy ravishda garov sifatida Rossiyada istiqomat qildi.

1885 yil avgustda Amir o'z hududini aylanib yurganda Qarshida «yuqumli bezgak» kasaliga chalinadi. U o'z yo'lini davom ettirmay, Buxoroga qaytadi va o'zining shahardan tashqaridagi qarorgohi Shirbudunga kelib, u yerda deyarli 2 oy bo'ladi. Kasallik o'tib ketdi, endi yaxshi bo'ldi deb o'ylaganda, 28 sentyabrda kasal yana qaytadan xuruj qiladi. Amirga yaqin bo'lgan Ostonaqulbek biy¹ va Muhammad biy qo'shbegi Amir ahvolini ko'rib, uni Buxorodagi Arkka olib kelishni lozim topishadi. Xuddi ana shu Arkda 1885 yil 13 dekabrda Amir Muzaffar bu dunyodan ko'z yumdi va Buxoro Eshon Imlo mozoriga dafn etildi.

Buxoro amiri Amir Sayyid Abdulahad Bahodirxon 1885– 1910 yillar davomida Buxoroda hukmronlik qilgan.² U 1857 yil 26 martda Karmanada tug'ilgan. Uning onasi Amir Muzaffarning sevimli xotini, fors kanizagi Shamshod ismli ayol bo'lib, o'z zamondoshlarining aytishicha u, juda aqlli ayol bo'lgan. U 1879 yil Karmanada vafot etgan. U o'g'li bek etib tayinlangan kundan boshlab, umrining to oxiriga qadar o'g'li bilan Karmanada birga yashagan. O'g'lidan tashqari uning Soliha ismli qizi ham bor edi. Amir Muzaffar bu qizini jiyani Omonullohga uzatgan edi. 14 yoshidan boshlab (ba'zi manbalarda 18 yoshdan) Abdulahad Karmana beki etib tayinlangan edi. U bilan uchrashgan rus sayyohlari uning oddiy hayot kechirishini aytib o'tganlar. 1882 yilga qadar uning xotini bitta bo'lgan. Haramni esa faqat ko'rgazma uchungina saqlagan. 1882 yil uning oyog'i jg'gddiy kasallanadi va ko'p yillar davomida og'rib yuradi. Ayniqsa, bu og'riq qishda kuchayardi. Uning oyoq og'rig'ini 1892 yil rus shifokorlari davolashadi. Abdulahad bilimli kishi edi. U tojiktilida, ozginarus va arab tilida ham gaplashardi. 1882 yil Abdulahad otasining ixtiyeri bilan Moskvaga jo'natildi va u yerda Buxoro taxti vorisi deb tan olindi. Bu haqda keyinchalik imperator Aleksandr III Amir Muzaffarga yozma ravishda bildiradi. Bo'lajak Amirni Rossiyaga eshik og'asi Ostonaqulbek biy qo'shbegi kuzatib bordi.

1885 yil oktyabr oyida otasi vafotini eshitgach Abdulahad 1000 chavandoz bilan Karmanadan Buxoroga otlandi. Yo'lda Malik degan joyda Rossiya hukumatining vakili generalleytenant Annenkov bilan uchrashdi. Annenkov unga taxt borasida Amir Muzaffarning boshqa o'g'illari bilan siyosiy jihatdan qaramaqarshiliklar yuz beradigan bo'lsa, u Rossiya hukumati ko'magiga tayanishi mumkinligini bildirdi. Amir Abdulahad Buxoroga kirishdan oldin Bahovuddin Naqshband mazoratiga borib, Qur'on o'qib, ziyorat qiladi. Keyin otasining janozasida qatnashadi. 1885 yil 4 noyabrda Buxoro Arkida Amirni oq kigizga o'tqizib, taxtga o'tqazish marosimi bo'lib o'tadi.³ Shu tariqa Buxoro hayotida muhim voqyealar va o'zgarishllarning bevosita guvohi bo'lgan Amir Abdulahad faoliyati boshlanadi.

O'z hukmronligining dastlabki yillarida Amir poytaxt Buxoroda yashadi. U shaharda yarim yilcha bo'lardi, qishda Shahrisabz va Qarshiga ketardi. Iyun va iyul oylarida Karmanada yashardi. Buxoroga qaytishda Arkka to'xtamasdan, shahardan tashqaridagi o'z qasri Shirbuddinda to'xtardi. 1894 yili Buxoro dindorlari bilan teskari bo'lib qolgan Amir Karmanaga kelib yashay boshladi va hayotining oxiriga qadar shu yerda yashadi.

¹ У ҳақда қаранг; Ражабов Қ. Остонакул кушбеги. // Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 6жилд, 590-бет.

² Холикова Р. Бухоронинг сўнгги хукмдорлари, 54–55 бетлар. Яна қаранг: Иноятов С, Тўраев Х. Ҳайитова О. Амир Абдулахадхон лаврида Кармана. Т.: Шарқ, 2004. 1418 бетлар.

³ Холикова Р. Бухоронинг сўнгги хукмдорлари. 55-бет.

Amir sayohat qilishni juda yaxshi ko'rardi. Amir Abdulahad Moskva va Sankt-Peterburgda bir necha marta bo'lgan. U 1893 yili Rossiya imperiyasining poytaxtiga o'z o'g'li Olimxonni olib bordi. Keyinchalik imperator Nikolay II ning taxtga chiqish marosimida va so'nggi marta o'z o'limidan oldin Sankt-Peterburgga o'zining Buxoro taxtiga o'tirganining 25 yilligini nishonlash uchun bordi. Bundan tashqari, u Kiyevda, Odessada, Yekaterinoslavda, Bokuda, Tiflisda, Batumida, Sevastopolda, Boqchasaroyda ham bo'lgan edi. Har yozda Abdulahad Kavkazda, Mineral Suvlarida yoki Krim va Yaltada o'zi qurgan qasrda dam olardi (u qurdirgan qasr o'rnida sovet davrida «O'zbekiston» sanatoriyasi bo'lgan).

Amir Abdulahad xonligi davrida qiynoqlar, o'lim hukmi va eng dahshatli jazo, Buxorodagi Minorai Kalondan tashlab yuborish man etildi. Uning hukmronlik davrida xonlikda mis, temir, oltin qazib chiqarish, telefon liniyalari va temir yo'llar qurilishi, savdo faol rivojlantirildi. Jahon bozorida Buxoro qorako'l xom ashyosini sotish bo'yicha savdo operasialarini amalga oshirish bo'yicha 3o'rinni egallaganida, unda Amirning o'zi faol ishtirok etdi. Ba'zi bir ma'lumotlarga ko'ra, Rossiyaning Davlat bankida Amirning shaxsiy hisobida 27 mln. rubl tilla hisobida, Rossiyaning tijorat bankida esa 7 million rubl oltin pul saqlangan.¹ Abdulahad xonlikdagi harbiy kuchlarga alohida e'tibor bergan. Yoshlik chogidayoq, bo'lajak Karmana begi o'z garnizonida harbiy mashqlar o'tkazib, Karmana qal'asini juda yaxshi holatda tutgan. Buni u yerga tashrif buyurgan rus ofiserlari ham bir necha bor ta'kidlashgan. 1893 yil Rossiyadan o'z Vataniga qayta yotgan Amir Ashxobodda ruslar tomonidan o'qitilgan, malaka jihatdan kazaklardan qolishmaydigan turkman polisiyasini ko'rib qoladi. Va shundan so'ng unda Buxoro poliiiyasini tashkil qilish g'oyasi paydo bo'ladi. Oradan ikki yil o'tgach, u o'ylagan ishini amalga oshirdi. 1895 yildan boshlab Buxoro Amirligida polisiya (aholi orasida mirshab) xizmati yo'lga qo'yildi. Keyinchalik Amir ham o'z qo'shinining harbiy tayyorgarligini oshirish va zamonaviy qurollantirish uchun ko'p ishlarni amalga oshirdi. Masalan, Rossiya hukumati Buxoroga o'qotar qurollarni qisman sotishni cheklaganda, Amir o'z qo'shinlariga miltiqlarni rus savdogarlari orqali sotib olishni amalga oshirdi.

Barcha rus mualliflari Amir haqida yozganlarida, uning juda izlanuvchan bo'lganligini alohida ta'kidlash bilan birga, uning yaxshi harakatlar uchun hyech narsani ayamagan qo'li ochiq odam bo'lganligini ham yozishgan.² Masalan, Amir Abdulahad 1892 yili Rossiya imperiyasining turli viloyatlaridagi qiynalgan aholiga 100 ming rubl yordam puli bergan. 1904 yilgi rusyapon urushi davrida Rossiya flotiga 1 million rubl mablag' ajratgan. Abdulahad o'zi bosh bo'lgan Orenburg kazak polkiga ham doimo yordam puli ajratgan. Turkiston arxeologiya to'garagi kolleksiyasi uchun esa bir necha qadimiy oltin tangalarni hadya etgan. Amir Turkiston xayrehson qiluvchi jamiyatning faxriy a'zosi hisoblangan. Abdulahad Hijoz temir yo'li qurilishiga bir necha ming tanga ajratgan. Uning qo'l ostidagi xizmatchilari esa shu maqsadga 150 ming rubl ajratgan. Amir uchun musulmon dini ishlariga yordam berish alohida o'rin egallagan. Uning tomonidan muqaddas Makka va Madina foydasiga vaqf sifatida berilgan mulklar yiliga 20 ming rubl yillik daromad keltirgan.

Uning hukmronlik davrida Buxoroda ulamolar soni 500 dan 150 ming kishiga yetganini mubolag'a tarzida xushomadgo'ylari ta'kidlab o'tganlar.

¹ Холикова Р. Бухоронинг сўнги хукмдорлари. 556бет

² Логофет Д . И. Страна бесправия; Его же, Бухарское ханство под русским протекторатом; Его же, В забытой стране.; Семенов А А. Очерк устройства ... ва бошқалар.

Abdulahad siymosidagi ijobiy chiziqlardan yana bir jihati shundaki, u she'riyatga juda qiziqardi. U nafaqat nafis so'z san'ati muxlisi, balki o'zi ham she'rlar yozish bilan shug'ullangan. U o'zining Rossiyada bo'lgan safarlaridan ta'sirlangan voqyealar va kayfiyatlaridan kelib chiqib, bir qator she'rlar yaratgan va ushbu she'rlari asosida «Devon» tuzgan. Amir o'z she'rlarini «Ojiz» taxallusi bilan yaratgan.

Buxoro Amiri bir qator rus saroy unvoni va ordenlari sohibi hisoblangan. Jumladan, u Rossiya hukumatining generalad'yudanti, rus xizmatidagi kavaleriya generali, Tersk kazak qo'shinlarining atamani, Orenburg polki boshlig'i unvonlariga ega edi. U rus ordenlarining deyarli barchasi bilan, jumladan, imperator ordeni hisoblangan «Svyatoy Andrey Pervozvannsh» zanjiri bilan, shuningdek, «I darajadi Italyan» ordeni bilan, fransuz ordenlari bo'lgan «Faxriy Legion» va «Katta ofiser Kresti» va boshqa bir qator ordenlar bilan taqdirlangan edi.

Ko'pchilik rus mualliflari Amir Abdulahadga baho berganda, uning to'g'risida fikr bildirganda uni «Rossiyaning haqiqiy do'sti», «Ehtiyetkor va mulohazali siyosatchi» deb aytishardi.¹

Amir 1910 yili 22 dekabrda 23 dekabrga o'tadigan kechada Karmanada buyrak kasalidan vafot etgan. Amirning o'limini 19Sh yilda shialar va suniylar o'rtasida yuz bergan to'qnashuvlar tezlashtirgan, deb taxmin qilishadi.² Chunki Amir bu borada juda qattiq qayg'urgan. Amir Abdulahadning 4 o'g'li (Sayyid Mirabdulloh, Sayyid Mir Olimxon, Sayyid Mirhusayn va Sayyid Mir Ibrohim) bor edi. Katta o'g'li 1888 yilda difteriya kasalligidan vafot etgach, taxt merosxo'ri Sayyid Mir Olimxon deb e'lon qilindi.

Amir Sayyid Mir Olimxon (To'rajon) 1910–1920 yillar davomida Buxoro Amirligida hukmronlik qilgan. Aksariyat manbalarda ko'rsatilishicha, Amir Abdulahadning ikkinchi o'gli Mir Olimxon 1881 yili tug'ilgan deyiladi.

1893 yil yanvarda Mir Olim otasi bilan Sankt-Peterburgga boradi. Amir Abdulahadning o'z o'g'lini bu yerga olib kelishdan asosiy maqsadi yosh Amirni Nikolayev kadet korpusiga o'qishga kiritish edi.

Amir shaxsan o'zi bu korpusga kelib, «oliy harbiy o'quv yurti boshliqlari» bilan tanishib, ular bilan Mir Olimxonning kelgusi tarbiyasi borasida fikrlashgan.

O'sha paytda Rossiya imperatori hisoblangan Aayeksandr Sh Buxoro taxtining yangi vorisi Mir Olim bo'ladi deb alohida fikr bildirgan edi.³

Otasi Amir Abdulahadning iltimosiga binoan, rus hukumati bilan uning Peterburgdagi o'qishini tezlashtirilgan holda amalga oshirishga, ya'ni uch yilda tugatish to'g'risida kelishildi. O'qish aslida u yerda yetti yillik edi. Yozgi ta'til chog'ida yosh Olimxon Buxoroga kelib turgan. 3 yillik o'qish tugagach, u 1896 yili Peterburgdan Buxoroga, otasi huzuriga qaytadi. Shunday qilib, Sayyid Olimxon 1893–1896 yillarda Peterburgda tahsil oladi.

Sayyid Olimxon Nasaf viloyatiga hokim etib tayinlandi. U yerda 12 yil hukmronlik qilib, Qashqadaryo ustiga ko'prik qurdirdi.

Nasafda 12 yillik hokimlikdan so'ng, Sayyid Olimxon otasi tomonidan Karmanaga hokim etib tayinlandi. Karmanada Sayyid Olimxon 2 yil hukmronlik qiladi.

¹ Холикова Р. Бухоронинг сўнгги ҳукмдорлари. 55–56-бетлар

² Шмидт А.Е. Из истории суннитскошиитских отношений // В.В.Бартольд. Туркестанские друзья и ученики и почитатели. –Т., 1927, стр. 69-107.

³ Муфассал қаранг: Ражабов Қ. Бухорого қизил армия босқини ва унга қарши кураш, 27-31 бетлар; Шу муаллиф, Олимхон.// Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, т.6. 508 бет; Холикова Р. Бухоронинг сўнгги ҳукмдорлари. 55–56 бетлар.

1910 yili otasi o'z ajali bilan vafot etgach, u Buxoro Amirligi taxtiga hukmdor sifatida o'tirdi.

Bu holatni Amir Sayyid Olimxonning o'zn shunday ta'riflaydi. «Shu bilan men 1329 hijriy yili muharram oyining o'ninchi kuni, milodiyning 1911 yili menga meros bo'lib qolgan marhum va mag'fur padarim saltanati taxtiga o'tirdim».¹

Amir Sayyid Olimxon Boloyi havz degan joyda katta madrasa qurdirdi. Shuningdek, u Buxoro minorasining pastki qismida «Dorululum» (Bilimlar uyi) bo'lmish madrasa qurdirgan. Ushbu madrasada tahsil oluvchilarning butun sarfxarajati Amir Sayyid Olimxon hisobidan bo'lgan.²

Amir Sayyid Olimxon Buxoro Amirligi taxtida 10 yil hukmronlik qidsi. 1920 yili Sovetlar hokimiyati tomonidan Buxoroda Amirlik tuzumi ag'darildi va Sayyid Olimxon Afg'onistonga chiqib ketishga majbur bo'lib, umrining oxiriga qadar 1944 yilgacha o'sha yerda yashadi. Afg'on amiri Amir Sayyid Olimxonga Kobul shahrining Fatu degan bog'ini hadya etib, unga sarfxarajatlari uchun o'n besh ming besh yuz rupiya mablag' belgilaydi. Amir Sayyid Olimxon 1944 yili Kobulda vafot etadi.³

Endi qisqacha Buxoro hukmdorlarining akaukalari to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

Amir Muzaffarning nechta farzandi bo'lganligi haqida aniq ma'lumot yo'q.

Amirning katta o'g'li Sayyid Abdulmalik Mirza – Katta to'ra (1848–1909 y.y.) to'rtta xotinlaridan biri bo'lmish, Xosa-Zumraddan dunyoga kelgan bo'lib, u afg'on Amiri Shiralixon qiziga uylangan edi. XIX asrning 60yillarida u G'uzor beki bo'lgan. 1868 yilda Amir Samarqand ostonasida ozodlik qo'zg'oloniga rahbarlik qildi, ammo muvaffaqiyatsizlikka uchradi.⁴

Otasi ruslarning harbiy kuchlaridan foydalanib, unga qarshi kurash olib bordi. U pirovard natijada otasiga qarshi bo'lib, otasini taxtdan tushirish uchun xalq harakatiga, boshchilik qiladi. Lekin mag'lubiyatga uchrab, dastlab Qarshiga,

1868 yil dekabrda Xivaga, so'ngra Qashqarga undan Yangi Hisor qal'asiga chekindi (1873 yil). 1880 yil Kobulda, so'ngra Hindistonda Angliya hisobiga yashadi. Abdulmalik ukasi Abdulahad hukmronligi davrida unga nisbatan xavfli raqib hisoblangan. Inglizlar doimiy ravishda uni qo'llabquvvatlashgan. Katta to'ra 1909 yil Peshovarda vafot etdi.⁵

Amirningikkinchio'g'li Sayyid Nuriddinxon (1851–1878 y.y) 1867–1868 yillarda Qarshi beki bo'lgan, keyinchalik Chorjo'y hokimi etib tayinlangan. Amir Muzaffar bu aqlli va qobiliyatli farzandini taxt vorisi qilish niyati bor edi, lekin u bevaqt vafot etdi.

Sayyid Mir Abdulmo'min (1852–1898 y.y. yoki 1894 y.y.)

1869 yil Qarshida bek sifatida o'zining katta akasi Nuriddin o'rnini egalladi, so'ngra 1871 yildan 1886 yilga qadar Hisor kabi yirik beklikda noib bo'lib xizmat qildi. Amir Abdulahad hukmronligi davriga kelib esa unga qarshi chiqa boshladi. Mana shuning uchun ham, u Amirning maxsus buyrug'i bilan Boysun begi etib tayinlanib, qal'ada oilasi bilan Amir agentlarining doimiy nazoratida yashadi. U nomigagina bek bo'lib, viloyat ishlarini Amirning odamlari boshqarardi, u amalda Amirning uy mahbusi edi.

¹ Amir Саййид Олимхон. Бухоро халкининг ҳасрати тарихи. 8 бет.

² Ўша асар, 8 бет

³ Холикова Р. Бухоронинг сўнгги ҳукмдорлари. 57 бет.

⁴ Чориев.З, Жўраев А. Ғузур тарихидан лавҳалар. 17–18 бетлар.

⁵ Ўша асар, 27–28 бетлар. Абдулмалик (Катта тўра) фаолиятини бадий тарзда Самар Нурий «Қора тонг» романида (Т.: Шарқ) ёритган.

1891 yil Abdulmo'min Buxoroga chaqirib olindi. Buxoroda u Arqda yashay boshladi va to vafotiga qadar uy qamog'ida saqlandi. Abdulmo'minning farzandlari esa Arkdan 1920 yilga qadar boshqa hududlarga chiqmay yashashdi.

Amir Muzaffarning sevimli o'g'li Sayyid Abdulfattoh Mirzo (1856 –1869 yy) edi va u 1869 yili Sankt-Peterburgga faxriy elchi sifatida yuborilgan edi.

Elchilarga Abdulqosim biy va uning mirzasi hamda tarjimoni Ahmad Donish boshchilik qilib borishgan. Ular Rossiya imperatoriga katta sovg'alar olib borishgan. Abdul fattoh 1869 yilning noyabr boshidan 10 dekabrga qadar Peterburgda bo'lib, imperator Aleksandr II qabulida bo'lgan.¹

Muzaffariddin mana shu o'g'lini taxt vorisi sifatida tasdiqlanishini imperatordan iltimos qilaman deb yurganida, bu o'g'li ham to'satdan vafot etadi.

Sayyid Mir Abdusamad (XIX asrning 60 yillari boshi) Amir Muzaffarning oltinchi o'g'li hisoblanadi. (Beshinchi o'g'li Abdulahad) u 1880 yili Chiroqchi begi bo'lgan. U xulqi yomonliti, buzg'unchiligi uchun otasi tomonidan mahalliy qozi nazoratiga topshirilgan edi. Amir uning betgachoparligini yoqtirmasdi. Abdulahad ham ukasini yoqtirmasdi. 1886 yil 4 sentyabr kechasi Mir Abdusamad qamoqqa olindi va Buxoroga jo'natildi. Shundan so'ng u poytaxtda Xo'ja G'afur dahasida «uy qamog'ida» sakdandi. Sayyid Muhammad Mir Siddiqxon «Hashmat» 1871 yildan Qarshi begi bo'lgan. Nuriddin vafotidan so'ng Amir Muzaffar uni 1878 yil Chorjo'y begi etib tayinladi. 1885 yishan Buxoroda Amir Abdulahad hukmronligi boshlangach, Mir Siddiqxon taqdiri ham xuddi boshqa akalari singari kechdi. U lavozimidan tushirilib, Chorjo'ydan chaqirib olindi. 1885 yil qamoqqa olindi. So'ngra qo'yib yuborildi, Buxoro Arkiga joylashtirildi va uy qamog'ida saqlandi. Buxoroda oxirgi yillari u Ravg'angaron dahasida yashadi. 1922 yili u Afg'onistonga ko'chib ketdi. U siyosiy sohadan ketgach, o'zini adabiyotga bag'ishladi. U o'rtamiyona shoir bo'lsa ham, adabiyotni juda yaxshi bilardi, uning bir necha tugallanmagan tazkiralari bizlargacha yetib kelgan. O'zbekiston Sharqshunoslik instituti xazinasida uning 30 dan oshiq qo'lyozma asarlari saqlanmoqda. Hashmatning Buxoroda ikkinchi o'rinni egallagan katta kutubxonasi mavjudligi bizga ma'lum.

Abdulahadning yana bir ukasi Sayyid Mir Akramxon bo'lib, u G'uzor begi etib tayinlangan. Mir Akramxon bu lavozimda 1908 yilga qadar ishlagan.

Sayyid Mir Mansur (1863 yil mart – 1918 y) Amir Muzaffarning tuqqizinchi o'g'li bo'lib, u o'tgan asrning 70yillarida Rossiyada, Sankt-Peterburgda yashab, Pajeskiy korpusida o'qidi. Rossiya imperiyasining poytaxtida u bilan birga, uning tarbiyachisi Mirza Abdal Vose to'qsabo bo'lgan. Mir Mansur korusga kirayotganda, unga imperator Aleksandr II tomonidan oltin soat hadya etilgan. U bu sovg'ani hayotining so'nggi damlarigacha o'zi bilan birga sakdagan. Imperatorning buyrug'i bilan 1876 yil 15 dekabrda Mir Mansur va uning tarbiyachisi uchun yiliga 500 rubl pul ajratildi, shundan 310 rubli turar joy va kundalik xarajatlarga ishlatilishi uchun shaxsan Mirza Abdal Vosega to'langan.²

1881 yil Mir Mansur Qrim va Odessada dam oddi. 1882 yil sentyabrda esa Buxoroga otasini ko'rgani bordi va u yerdan dekabrda katta sovg'alar bilan Peterburgga qaytdi. Mir Mansur Pajeskiy korpusida oxirgi yillar tahsil olayotgak davrida uning tarbiyachisi Mirza Nasrulloh biy to'qsabo bo'lib u rus tilida juda ravon gapirgan.

¹ Дониш Аҳмад Наводир улвақос. Т., 1964.

² Холикова Р. Бухорининг сунгги хукмдорлари. 54–56 бетлар.; Яна РДХТА, 1396-жамғарма, 2-рўйхат, 1485-иш, 14– 16-бетлар.

1886 yil 13 aprelda Mir Mansur Pajeskiy korpusida o'qishni tugatgandan so'ng, Moskvadagi Sumsk Dragun polkiga eng kichik ofiperlik lavozimiga tayinlandi. Ofiserlik maoshidan tashqari Mir Mansur yiliga otasidan ham 2400 rubl pul olib turardi. 1892 yil Mir Mansur poruchik unvonini oldi. 1892 yil dekabrda Moskvaga tashrif buyurgan otasi sharafiga Sumsk polki ofiserlari bilai kecha uyushtirildi. 1895 yil Mir Mansur shtabrotmistri unvoniga ega bo'ldi. 1899 yil esa u shu unvonda polkdan bo'shadi. Podsho hukumati uning qarzlarini to'lab, unga bir umrlik nafaqa tayinladi. Shundan keyin Mir Mansur bir necha yillar mobaynida Rossiyada yashadi. U knyagini Sofya Ivanovna Sereteliga uylandi, undan bir necha farzandlari bo'lgan. Uing katta o'g'li Nikolay Mixaylovich Sereteli (taxminan 1890 yilda tug'ilgan), 20-yillarda Moskvadagi Toirov Kamer teatrida eng yaxshi aktyorlardan biri bo'lib, u mashhur aktrisa Alisa Koonening partnyori bo'lgan. U 1906 yili otasi bilan Buxoroga kelib buvisini ko'rib ketgan. Mir Mansurniig ikkinchi o'g'li harbiy bo'lgan. U Rossiya harbiy qo'shinida xizmat qilgan va bir necha Rossiya ordenlari bilan taqdirlangan. 1918 yil martda Karmanaga uyushtirilgan shturm chog'ida vafot etgan. Bundan tashqari, Mir Mansurning qizi va kenja o'g'illari ham bo'lgan. Ularning ismlari Georgiy, Valeriy va Tamara bo'lgan. Mir Mansur Buxoroga qaytgach, Karmanaga bek etib tayinlandi. 1918 yil martida Kolesov voqyealari davrida Toshkentning bolshevik armiyasi Karmanani egallab olganda, Mir Mansurbek og'ir yaralandi va vafot etdi. Uning 3 ta farzandini o'qituvchisi bilan birga hamda xotini asirga olinadi. Amir Sayyid Olimxonning sa'yharakatlari bilan Mir Mansur Kattaqo'rg'onda dafn etildi. Uning molmulki (ordenlaridan tortib, to qimmatbaho qurollarigacha, oilaviy qimmatbaho buyumlari, bolalarining o'qituvchisining kitoblari – barchasi) o'g'irlab ketildi.

1918 yil sentyabrida S. I. Sereteli Mir Mansurning Buxoro hukumatidan ko'rgan talafoti hamda 3 ta yosh bolalarini katta qilishi uchun 200 ming rubl va yana uyjoylik bo'lishi uchun 100 ming rubl pul yordam oldi.

Abdulahadning qolgan ikkita ukasi haqida ma'lumot juda kam. Ularning biri Sayyid Mir Azimjon, XX asr boshlarida Buxoro Arkida yashagan va unga u yerdan bir qadam ham boshqa joyga siljishga ruxsat berilmagan. Ikkinchisi, Sayyid Mir Nosirxon (1869 yil tug'ilgan), u ham «uy qamog'i»da Arqda saqlangan. Nosirxon Arqda 1920 yilgacha yashadi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi davrida u Buxoro Tarixchilar Jamiyatining a'zosi bo'lgan. 1921 yilda yozilgan «Buxoro Arki «tarixi», asari uning qalamiga mansub. U 1922 yili Afg'onistonga ko'chib ketgan.

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Buxoro Amirligida davlat boshqaruvini olib borgan hukmdorlar faoliyatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularning aksariyati o'z hukmronligi davrida ayrim ijobiy ishlarni amalga oshirganlar va mamlakatda imkon darajasida ba'zi bir islohotlarii hayotga tatbiqetishga harakat qilishgan. Shu bilan birga, ushbu davrda jamiyat taraqqiyoti va mahalliy davlat boshqaruv tizimining chor Rossiyasi ta'sir doirasiga tushib qolishi ularning fojiasi ekanligini ham qayd etish lozim.

II. 3. Buxoroda chor Rossiyasi imperatorligi Siyosiy agentligining tashkil etilishi va uning faoliyati

Chor Rossiyasi hukumati Buxoro Amirligining katta hududlarini bosib olgach va qolgan hududlarda Amirlik tuzumini saqlanishiga imkon yaratgandan so'ng, turli xil yo'llar bilan Buxoro Amirligi ustidan o'zining ham siyosiy, ham harbiy, ham iqtisodiy hukmronligini o'rnatishga harakat qildi.

Ayniqsa, 1868 yilgi va 1873 yilgi shartnomalar imzolangandan so'ng, Buxoro hududiga rus fuqarolarining kirib kelishi kuchaygandan keyin, ushbu masalaga e'tibor yanada kuchaydi. Eng avvalo, chor Rossiyasi hukumati va uning Turkiston o'lkasidagi ma'murlari Yaqin Sharqda inglizrus raqobatini kuchayishiga imkon bermaslik, Buxoro ichki bozorlarida to'la hukmronlikka ega bo'lish va Amirlik hududidagi rus fuqarolari faoliyatini qo'llabquvvatlash uchun katta e'tibor qaratdi.

Buxoroning nomigagina o'z mustaqilligini saqlab turishi chor Rossiyasi hukumatiga juda qo'l kelardi. Chunki har bir sohada Turkiston o'lkasida islohot o'tkazish rus hukumatidan juda katta harakat va mablag'ni talab qilardi. Chorizm Amirlikni rasman ichki mustaqilligini saqlab qolgan holda sekinastalik bilan, hech qanday katta sarfxarajatlarsiz, uning iqtisodini o'zining mustamlakachilik siyosatiga to'la bo'ysundirib, o'z manfaatlariga xizmat qildirishni maqsad qilib belgilagan edi. Xullasi kalom, chorizm siyosatining asosiy vazifasi O'rta Osiyo davlatlarini astasekinlik bilan imperiya bilan birlashib ketishini ta'minlashdan iborat edi.

XIX asrning 80 yillaridan boshlab Buxoro Amirligi hududida savdo ishlarini olib borayotgan rus savdogarlari Buxoro ichki bozorlarida o'z mavqiyelarini yanada mustahkamlash va o'z huquqlarini himoya qilish, imkoniyat darajasida Amirlik ichki bozorlariga xorij savdogarlari va mahsulotlarining kirib kelishini oldini olish va uni kamaytirish borasida Rus hukumatidan hamda uning Turkistondagi amaldorlaridan choratadbirlar ishlab chiqishni talab qila boshlashdi.

Jumladan, 1883 yil 30 sentyabrda Toshkent shahridagi bir guruh savdogarlar va ishbilarmonlar Turkiston general-gubernatoriga yezma ravishda ariza bilan murojaat qilib, undan ularni qo'llabquvvatlashini va Rossiya hukumatidan Xiva, Buxoro va Kobulda savdo konsulliklarini tashkil etilishida amaliy yordam va rozilik olib berishni so'rashdi.

Ushbu xatning asl nusxasi 1883 yil 25 noyabrda Turkiston general-gubernatori generalleytenant Chernyayev tomonidan shaxsan Tashqi ishlar vaziriga jo'iatildi.

Generalleytenant Chernyayev tomonidan ushbu xatga qo'shimcha yozilgan ilovada qayd etilishicha, ushbu savdo konsullik punktlarining Buxoro, Xiva va Kobulda ochilishidan Harbiy vazirlik ham manfaatdor ekanligini va Harbiy vazirlik bunga qiziqayotganligini ma'lum qiladi, chunki ushbu konsullik punktlari ochilgan taqdirda, harbiy vazirlik doimo Buxoro va Afg'onistondan o'zi uchun aniq va to'g'ri siyosiy va harbiy xarakterdagi ma'lumotlarni olib turishiga keng imkoniyat yaratiladi deyiladi.

Xuddi shu mazmundagi xat Bosh shtab boshlig'i yordamchisi tomonidan 1884 yil 6 fevralda Tashqi ishlar vazirligining Osiyo Departamentiga yuborildi.

Ushbu yozishmalar shuni ko'rsatadiki, rus harbiy ma'murlari savdo uylari, konsullik punktlari ochilishidan eng avvalo o'zlari uchun qimmatbaxr va aniq harbiysiyosiy ma'lumotlar olishni maqsad qilib qo'yganlar.

Aynan mana shuning uchun ham, chor Rossiyasining Turkistondagi amaldorlari zo'r berib, 1873 yilgi shartnomada ilgari surilgan masaladarni, jumladan, Buxorodagi Rossiya diplomatik mahkamasini, Toshkentda esa Buxoro diplomatik mahkamasi ochilishini tezlashtirishni Peterburgdan tinimsiz ravishda so'rashdi.

Turkiston general gubernatori 1885 yil iyun oyida Rossiya Harbiy vaziri nomiga xat yo'llab, unda 1873 yilgi shartnoma shartlarini hayotga tatbiq etish maqsadida, Toshkentda Buxoro Amirligi uchun elchixona ochishga bino berish, uning o'rniga Amir beg'araz manfaat asosida Amirlik poytaxtida Rossiya diplomatik agenti faoliyati uchun bino berishga kelishilganligini inobatga olgan holda uni amalga oshirilishiga ruxsat berishni so'raydi.

Mana shu tariqa o'zaro yozishmalar va harakatlar natijasida Buxoro Amirligida Rus agentligi ochilishiga erishildi.

1873 yili Buxoro va Rossiya o'rtasida tuzilgan do'stlik shartnomasiga asosan, 1886 yildan boshlab podsho Aleksandr Sh farmoniga binoan, asosan, Buxoroda Rossiya siyosiy agentligi o'z faoliyatini boshladi. Bu tashkilotni boshqaradigan siyosiy agent esa Tashqi ishlar vazirligi tomonidan tayinlandi.

1886 yil yanvar oyida Rossiya podshohi Aleksandr Sh buyrug'i asosida Buxoroda Rossiya davlati vakolatxonasi – Rossiya imperatorligi Siyosiy agentligi tuzildi. Ushbu yangi mahkama tepasida Siyosiy agent turgan bo'lib, u Rossiya tashqi ishlar vazirligi tomonidan tayinlanib, bir vaqtning o'zida u Turkiston general-gubernatorligi hamda Harbiy vazirlik va Tashqi ishlar vazirligiga bo'ysungan.

1886 yil mart oyida generalmayor Grodekov Buxoro Amiriga xat jo'natib, unda Buxoroda Rossiya imperatorligining siyosiy agentligi ochilishi va uning siyosiy agenti tayin etilganligini ma'lum qiladi.

Generalmayor xuddi shu xatni Buxoro Amiriga jo'natgani to'g'risida Bosh shtabning Osiyo bo'limiga yozma ravishda 1886 yil mart oyida 117-son bilan qayd etilgan maktubni jo'natadi.

1886 yil 3 martda Rossiya imperiyasining Buxoro Amirligidagi birinchi siyosiy agenti qilib N.Charikov tasdiqlandi.

Shu narsani alohida ta'kidlash lozimki, chor Rossiyasi hukumati ushbu tashkilotga juda katga diqqat va e'tibor bilan qaragan. Jumladan, siyosiy agentning huquqi va vazifalari to'g'risida nizomning keyinchalik shaxsan podshoh Nikolay II tomonidan 1901 yil 5 mayda imzolanishining o'zi Buxoroda tashkil etiltan siyosiy agentlikning chor Rossiyasi siyosiy hayetida qay tarzda ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Buxoroda faoliyat ko'rsatgan Rossiya imperatorligi siyosiy agentligi nizomga ko'ra eng avvalo Buxoro hukumati bilan barcha siyosiy va iqtisodiy masalalar bo'yicha to'la muloqot olib borish huquqiga ega edi. Shuningdek, siyosiy agent Amir va uning vazirlari tomonidan Rossiyaga nisbatan olib borilayotgan barcha masalalar yuzasidan nazorat o'rnatishi lozim bo'lgan.

Siyosiy agentga, shuningdek, Pomir bekliklari bo'lgan Shug'on, Rushon va Vaxan ustidan nazorat qilish ishlarini olib borish, afg'on chegaralari, Buxoroda istiqomat qilayotgan rus fuqarolari faoliyati, qo'yiladigan teatr pyesalari ustidan nazorat olib borish, Amirlik hududidagi xristianlarning manfaatini himoya qilish, siyosiy agentlik hisobiga Buxoro hukumati tomonidan tushadigan mablag'lar hisobkitobini olib borish, Zarafshon daryosi suvini taqsimoti, shaharlarni obodonlashtirish, kasalxonalar qurilishi, pochtelegraf binolari qurish kabi vazifalar ham yuklatilgan edi.¹

Siyosiy agent, ayniqsa Pomir bekliklari masalasiga katta e'tibor berdi va ushbu masala bilan jiddiy shug'ullanib, rus hukumati uchun ijobiy natijalarni qo'lga kiritdi.

Rus hukumati Pomirga o'rnashib olgach, uning hududiy, siyosiy tuzilishi masalalari bilan shug'ullanishga kirishdi. Aynan Manu shu holatda rus hukumatining Osiyodagi o'z qaramog'idagi xududlarga nisbatan yu'lgan munosabati yaqqol ko'rinadi. Jumladan, rus xukumati ushbu masalalarda tashqi siyosiy kelishmovchiliklardan va katta sarf-harajatlardan chetlashish siyosatini olib bordi.

1889 yil 9 mayda podshoh Aleksandr Sh Davlat Kengashi fikrini tasdiqlab, siyosiy agentning sudyalik huquqi masalasini yana bir bor qayta ko'rib chiqdi. Buxoro Amirligi hududida rus fuqarolari tomonidan sodir etilgan barcha jinoiy ishlar va harakatlar hamda

¹ ЎзРМДА ИЗ-жамғарма, 1-рўйхат, 353-иш, 40-бет.

barcha fuqarolik ishlari Yangi Chorjo'y shahri sudi va Samarqand viloyati sudyasi zimmasiga yuklatildi. Siyosiy agent huquqi esa ruslar va buxoroliklar o'rtasida yuzaga kelgan nizolarni hal etish bilan cheklab qo'yildi.

1893 yil 15 martda Aleksandr III tomonidan Davlat Kengashining Buxoro Amirligida rus qoziligi bo'yicha yangi taklifi ko'rib chiqildi va tasdiqlandi. Unga ko'ra Buxoro Amirligi hududidagi barcha rus fuqarolari va buxoroliklar o'rtasida kelib chiqqan barcha fuqarolik ishlari bo'yicha javob beruvchi buxoroliklar bo'lganda, ushbu ishlarni ko'rib chiqish va jazolash, hukm chiqarish bo'yicha qozidik huquqi siyosiy agentga yuklatildi. Ushbu holatda siyosiy agent barcha ishlarni ko'rib chiqish jarayoni va hukm chiqarish holatlarida, mahalliy urfodat va xususiyatlarga amal qilgan holda, Buxoro hukumati bilan murosa va kelishilgan holatda ish yuritishi ta'kidlab ko'rsatilgan edi.

Chor Rossiyasi podshohi Aleksandr Sh tomonidan Buxorodagi siyosiy agent faoliyati to'g'risidagi nizom va tartiblarning shaxsan bir necha bor ko'rib chiqilishi va unga hatto qozilik huquqlari berilishining o'zi, Rus hukumati tomonidan Buxorodagi siyosiy agentga Buxoro Amirligi hududida Rossiya manfaatlarini va Buxorodagi rus ishbilarmonlari manfaati va huquqlarini himoya qilish borasida juda katta mas'uliyat yuklanganligidan dalolat beradi.

Siyosiy atent 1910 yilga qadar Tashqi ishlar vazirligiga bo'ysungan bo'lsa, shu yildan so'ng Turkiston general-gubernatoriga va u orqali Rossiya Harbiy ishlar vazirligiga bo'ysundirildi.

Amir hukumati Rossiya davlati bilan hal qilinadigan barcha masalalarni xuddi mana shu siyosiy agentlik orqali amalga oshirdi. Rossiyaning Buxoroda o'z siyosiy agentligini ochganligi munosabati bilan Buxoro Amirligi ham Toshkentda o'z vakolatxonasini ishtatushirdi. Lekin bu vakolatxonani Rossiya-Buxoro munosabatlariga deyarli hych qanday ta'siri bo'lmadi.

Ammo Buxorodagi siyosiy agentlik Amirlikda chorizmnipg mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishida o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishda hal qiluvchi omil sifatida xizmat qildi.

Rossiya siyosiy agentligi podsho hukumatining takliflarini amalga oshirishda Amirning eng yaqin maslahatchisiga aylandi. Siyosiy agentlik faqat bu bilan qanoatlanmasdan, Amirning ichki ishlariga ham aralashib, davlat ishlariga xodimlarni tayinlashni ham o'z qo'liga oldi.

Jumladan, XX asr boshlarida Buxoro Amirligida nafaqat yirik amaldorlar, ya'ni qo'shbegi, qozikalon kabi mansablarga tayinlash, balki Amirliqdagi bekliklar hokimlari – beklar ham bevosita Rossiya impsratorligi Siyosiy agentligi rahbarining tavsiyasi yoki ruxsati orqali qo'yilgan.¹

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Buxoro Amirligining eng so'nggi hukmdori – Amir Sayyid Olimxon ham bevosita rus hukumatining roziligi asosida taxt tepasiga kelgan.

Aynan mana shu holatlar asosida Buxoro Amirligi va uning hukumati astasekinlik bilan Rossiya hukumatining itoatkor hududiga va uning ko'rsatmalarini bekamu ko'st amalga oshiruvchi tobega aylanib qoldi.

¹ Айни С. Тарихи амирони манғитияи Бухоро. с. 130.; Яна қаранг: Ҳотамов Н. Свержение эмирского режима в Бухаре.стр. 19.

D. N. Logofet o'z asarida ta'kidlaganidek, XX asr boshiga kelib «Turkiston general-gubernatorlaridan biri tomonidan asosiy ravishda Buxoro Amirini o'zlarining eng yaxshi uyezd boshliklaridan biri sifatida», ta'riflashi bejiz emas edi.¹

Aslida esa haqiqatdan ham Buxoro Amirliği va uning hukumati XX asr boshiga kelib to'la ravishda Rossiya hukumatining itoatkor „vassali»ga aylanib bo'lgan edi.

Xulosa tariqasida aytish mumkinki, Buxoroda ochilgan Rossiya imperatorligi siyosiy agentligi Buxoro Amirini yuridik hujjatlarsiz to'la chor Rossiyasi izmiga tushirishga muvaffaq bo'ldi va Amirni chor Rossiyasi tomonidan qo'yiladigan har bir talabni to'la bajarishga va kerak bo'lganda Amirlikdagi barcha ichki ishlarni ham siyosiy agent roziligi asosida amalga oshirishga majbur qilib qo'ydi.

Bu holat bir tomondan, Buxoro Amirliği iqtisodiy hayotiga berilgan juda katta zarba bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning xalqaro huquqlari poymol qilinishi edi. Ushbu qarorning qabul qilinishi o'z navbatida Buxoro xazinasini juda katta daromaddan mahrum bo'lishiga ham olib keldi. Chor Rossiyasi hukumatining mustamlaka siyosati natijasida juda katta miqdordagi daromad hych bir mehnatsiz Rossiya xazinasiga o'tishiga keng yo'l ochildi. Bu holat xalqaro huquqiy jihatdan olib qaralganda, kuppakunduz kuni davlat xazinasini ochiqchasiga «talash» deb baholanishi mumkin.

O'sha paytdagi ba'zi bir hisobkitoblarga qaraganda, mana shu qarorning (1895 yil 1 yanvardagi) qabul qilinishi va uning kuchga kirishi natijasida, Buxoro Amirliği bir yilda Amirlik xazinasiga kelib tushadigan taxminan ikki million rubl miqdoridagi tushumdan mahrum bo'ldi.²

Ikkinchi tomondan olib qaralganda, ushbu holat natijasida Buxoro bozori Rossiyaning ichki bozorlaridan biriga, ya'ni uning tarkibiy qismiga aylanib qoldi. Va nihoyat, uchinchi tomondan rus burjuaziyasi tomonidan buxoroliklarni yanada siqib qo'yishga yana ham keng yo'l ochib berildi. Endi buxoroliklar o'zlariga kerak bo'lgan mol va tovarlarni rus burjuaziyasi aytgan va xohlagan narxda, ya'ni qimmat narxda olishga majbur edi.

Mana shu tariqa Rus hukumati 1895 yildan boshlab Buxoro Amirliğini deyarli to'la ravishda faqat rus sanoati tovarlarini oluvchi va rus sanoati uchun xomashyo manbai sifatidagi hududga aylantirib qo'ydi.

Buxoroning yagona Rossiya bojxona hududiga olib kiritilishi Buxoro bozorlarida rus sanoat tovarlarining to'la monopoliyasini qo'lga kiritishiga olib keldi.

1894 yil oxiri 1895 yili boshlarida Karki, Kalif, Kushka, G'uzor, Pattakssar, Hisor va Ayvajda yangi bojxona idoralari tashkil etildi.

Rus hukumatining olib borgan mustamlaka sissati natijasida astasekinlik bilan Buxoro Amirliği hukumati o'z davlat chegaralarini qo'riqlashdan ham ozod etildi. Ushbu vazifani ham chor Rossiyasi o'z qo'liga oldi. Amirlik hududidagi chegaralar Rossiya imperiyasining chegaralariga qo'shildi. Chor Rossiyasining Amirlikda joylashtirilgan 8 minglik qo'shinlari nafaqat Rossiyaning janubiy chegaralarini, balki Buxoro Amirliği chegaralarini ham qo'riqlashardi. Nomigagina saqlanib qolgan Rossiya-Buxoro chegaralari aslida hych qanday qo'riqlashga muhtoj emas edi.

Mana shu tariqa Buxoro Amirliği o'zining siyosiy-iqtisodiy, harbiy mustaqilligini yuqotish bilan bir qatorda XIX asr oxiriga kelib tashqi siyosiy aloqalar mustaqilligini ham yo'qotdi.

¹ Логофет Д. Н. Страна бесправия. –Спб., 1909, стр.5.

² ЎЗРМДА. И-3-жамғарма, 1-рўйхат, 170-иш, 14–18-бетлар.

III.BOB. XIX ASRNING OXIRI XX ASR BOSHLARIDA BUXORO AMIRLIGINING IQTISODIY AHVOLI

III.1. Buxoro iqtisodiyotiga chor Rossiyasi kapitalining kirib kelishi va uning oqibatlari

Chor Rossiyasi O'rta Osiyoga, jumladan, Buxoro amirligi hududlariga uyushtirgan harbiy harakatlardan nafaqat siyosiy, harbiy strategik maqsadlarni, balki iqtisodiy maqsadlarni ham ko'zlagan edi.

Jumladan, u Buxoro amirligi bilan tuzmoqchi bo'lgan ilk shartnoma loyihalarida, so'ngra 1868 yil may oylarida ikki tomonlama imzolangan sulh shartnomalari va 1873 yil imzolangan do'stlik shartnomasida¹ Buxoroga nisbatan o'zining iqtisodiy talablarini ilgari surganligi ham bejiz emas edi. Chunki Rus hukumati dastlabki kunlardan oq, Buxoro amirligi iqtisodiyotiga kirib borish va imkon darajasida unga aralashish, uni o'z izmiga tushirib olish, kerak bo'lganda uni to'la ravishda o'z manfaatlari asosida rivojlanishiga erishishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ygan edi.

Eng muhimi, O'rta Sharqdagi inglizrus raqobatini yechishda, harbiystrategik sohada yangi yutuqlarni ta'minlashda Buxoro iqtisodiyoti Rossiya harbiy kuchlari uchun o'ziga xos bir plasdarm va xom ashyo bazasi sifatida xizmat qiladigan regionga aylanishi nazarda tutilgan edi. Mana shuning uchun ham, Rus hukumati astasekinlik bilan qadambaqadam Buxoro iqtisodiyotiga o'z ta'sirini o'tkazib, uni o'z izmiga tushirib olish siyosatini olib bordi.

Bizga ma'lumki, Kattaqo'rg'on va Zirabuloq tepaligidagi janglardan so'ng, Buxoro amirligining asosiy suv manbai hisoblangan Zarafshon daryosi yuqori qismi hamda uning suv bo'ladigan havzasi 1868 va 1873 yillardatuzilgan ikkitomonlama sulh shartnomasiga binoan Rossiya tasarrufi ostiga o'tgan edi. Aynan mana shu holat XIX asrning 70 yillaridan boshlab Buxoro amirligi iqtisodiy hayotida, ayniqsa, qishloq xo'jaligi taraqqiyotida juda katta iqtisodiy muammolarni keltirib chiqara boshladi.

Zarafshon daryosining yuqori qismi Turkiston o'lkasi hududi hisobida bo'lganligi uchun chor hukumatining Samarqanddagi ma'murlari undan Buxoroni iqtisodiy jihatdan o'ziga qaram qilish maqsadida foydalana boshlashdi. Ular turli xil vajlar va bahonalar bilan amirlik hududidagi aholiga deyarli suv bermay qo'yishdi. Buxoro axdi ba'zan oylab Zarafshon suvidan mahrum bo'lishar, ularning ekin maydonlari esa suvsizlikdan qurib, qaqrab qolardi. Bu esa, o'z navbatida, hosilsizlikni keltirib chiqarib, aholi yashashini og'irlashtirib qo'yardi.

XIX asrning 90-yillariga kelib, ushbu holat nihoyat keskin ravishda kuchayib, katta muammolarni keltirib chiqardi. Natijada Buxoro hukumatining qat'iy talabi bilan ushbu masala bo'yicha ikkala tomon o'rtasida bir necha bor muzokaralar bo'lib o'tdi.

Zarafshon daryosi suvini taqsimlash va undan oqilona, kelishgan holda foydalanish bo'yicha Rossiya bilan Buxoro ma'murlari o'rtasida davom etgan uzoq muzokaralardan so'ng, 1894 yil 27 mayda quyidagi bir to'xtamga kelishildi. 15 noyabrdan 10 martga qadar Samarqand viloyati aholisi ichimlik suvi va ba'zi bir hayetiy masalalar bilan bog'liq joylarga beriladigan suvdan tashqari, barcha suv amirlik hududiga berilishiga, 10 iyundan 15 avgustga qadar esa Zarafshon daryosi suvining 60 foizi

¹ Сборник действующих трактатов, конвенций и соглашений. Издание второе. Т. 1. –Спб., 1902. с. 421–425. Сводзаконов Российской Империи. Кн. первая. Т. 2, –Спб., 1912. с. 452–453

Zarafshon vohasining ruslar tasarrufidagi hududlariga, qolgan 40 foizi esa Buxoro hududlariga berilishiga kelishildi.¹

Ikkala tomon o'rtasida shunday kelishuv haqida bitim imzolangan bo'lsada, Samarqanddagi rus ma'murlari unga amal qilishmadi va Buxoroni iqtisodiy jihatdan aynan mana shu suv ta'minoti masalasi bilan ochiqdanochiq o'zlariga bog'lab qo'yish, boshqacha qilib aytganda, o'zlariga tobega aylantirish ishlarini davom ettiraverishdi.

Chor hukumatining Samarqand viloyatidagi ma'murlari aynan mana shu Zarafshon daryosi suvi taqsimoti orqali Buxoro iqtisodiyotini to'la o'zlariga tobe qilib qo'yishdi. Buxoro qishloq xo'jaligi ko'p holatlarda suv tanqisligi tufayli rivojlana olmay, og'ir ahvolga tushib qoldi. Biroq, shunisi ajablanarliki, Peterburgdagi rus hukumati ma'murlari rus burjuaziyasi Buxoro paxtasiga nihoyatda muhtoj ekanligini yaxshi bilar va suv ta'minotini baribir ijobiy hal etish lozimligini tushunar va aynan shuning uchun ham joylardagi o'z ma'murlariga ushbu masalaga to'g'ri yondashishni tavsiya etishardi.

XIX asrning oxirlaridan boshlab chor Rossiya hukumati astasekinlik bilan Buxoro amirligi ichki bozorlarini to'la egallab, uni o'z mollari bilan to'ldirish sissatiga ham katta e'tibor qaratib boshladi.

XIX asrning 70yillaridayoq Buxorodagi barcha ichki bozorlar paxtadan tayyorlangan rus tovarlari bilan to'ldirildi. Zng muhimi, aynan mana shu davrga kelib, bozorlarda ushbu tovarlarni oldingidek tatarlar emas, balki Buxoro ichki bozorlarini endi aynan rus millatiga mapsub bo'lgan savdogarlar² egallab olib, o'zlari savdo qilishmokda edi.

Qisqa muddat ichida, ya'ni XIX asrning 70–90yillarida Buxoro iqtisodiy hayoti uchun muhim bo'lgan deyarli barcha sanoat mahsulotlari jumladan temir, mis, latun, qalay, cho'yan qozonlar, misdan yasalgan mollar, qog'oz, qo'rg'oshin, bo'yoqpar, ipaklar, shamlar, chinni buyumlar va boshqa ko'plab hayotiy tovarlar chor Rossiyasidan olib kelinadigan bo'lindi.³

Rus burjuaziyasi turli xil yo'llar orqali Buxoro bozorlaridan o'zlarining doimiy raqiblari bo'lgan xorijiy savdogarlar ularning g'arbiy yevropaliklar hamda afg'onistonlik va hindistonliklarni. ularning tovarlarini siqib chiqara boshlashdi.

Bir so'z bilan aytganda, Buxoro iqtisodiyotining ichki bozorlarida iqtisodiy sohada hukmronlikni qo'lga kiritish uchun avjga chiqqan RossiyaAngliya raqobati ularning o'zaro keskin kurashlariga olib keldi va ushbu kurashni bevosita boshlagan ruslar bunda astasekinlik bilan to'la ustunlikka ormshishga va Buxoro ichki bozorlarining to'la nazoratini o'z qo'llariga kiritishga muvaffaqbo'lishdi. 1881 yilga kelib, Buxoro bozorlarida ruslar va rus tovarlari to'la gegemonlikni qo'lga kiritib, yagona monopol hukmronlik qilish huquqiga ega bo'ldi.

Ushbu holat yuzaga kelganligining isbotini o'sha paytda Rossiya hukumatining yirik ma'murlardan biri hisoblangan diplomatamaldor Charikovning⁴ quyidagi so'zlaridan ham yaqqol ko'rishimiz mumkin. «Rus tovarlari amirlikda boshqa davlat tovarlariga qaraganda ancha ustunlikka ega. U astasekinlik bilan xorijiy davlatlar tovarlarini birinketin siqib chiqarib, ularni o'rnini juda tez progressiv usulda egallab

¹ ЎзРМДА. И-1-жамғарма, 27-рўйхат, 1585-иш. 8–13-бетлар.

² ЎзРМДА. И-1-жамғарма, 27-рўйхат, 1503-иш, 3–5-бетлар.

³ ЎзРМДА. И-1- жамғарма, 27-рўйхат, 1503-иш, 4–5-бетлар.

⁴ Чариков пафакат катта дипломат бўлган, балким у кейинчалик Бухоро амирлигида Россия императорлигинингСиёсий агенти вазифасида ҳам ишлаган.

olmoqda. O'zga davlat tovarlarini esa Amudaryo orti va Hindikushga chiqib ketishiga erishdi».¹

Chor Rossiyasi hukumati, eng avvalo uning Turkiston o'lkasidagi ma'murlari Buxoro amirligining ichki va tashqi iqtisodiy masalalari va hayotiga to'g'ridanto'g'ri aralashib, dastlabki yutuqlarga erishgach amirlik ichki bozorlarini deyarli to'la qo'lga kiritib, savdo oboroti ko'rsatgichlarini oshirib olgandan so'ng, zo'r berib bu ko'rsatgichlarni ko'paytirishga harakat qila boshlashdi. Ushbu yutuqlarni yanada mustahkamlash uchun yangidanyangi imkoniyatlar qidira boshlandi. Eng muhimi, ushbu yutuqlardan rus hukumati bilan bir qatorda, undan rus burjuaziyasi ham katta manfaatdor edi. Mana shuning uchun ham, XIX asrning 80–90yillarida bu borada rus burjuaziyasi ham rus hukumati oldiga o'zining yangi talablarini qo'ya boshladi. Natijada O'rta Osiyoda temir yo'llar qurilishi va flotiliya shakllanishiga erishildi.²

Kaspiyorti temir yo'li qurilgandan so'ng va Amudaryoda kemalar qatnovi yo'lga qo'yilgach, chor Rossiyasining butun O'rta Osiyo bilan, shu jumladan, Buxoro amirligi bilan ham rus sanoati ishlab chiqargan mollar bilan savdo qilish aylanmasi (oboroti) juda tez sur'atlar bilan oshib borishiga keng imkoniyatlar yuzaga keldi.

1890 yili Buxoro amirligiga Rossiyadan un, shakar, manufaktura, choy, kerosin, bo'yoqlar, arpa, chinni idishlar va boshqa turdagi olib kelingan tovarlarning umumiy qiymat miqdori 2 mln 119 ming 862 nudni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 1891 yilda 2 mln 480 ming 277 pudni tashkil etdi.

O'z navbatida, chor ma'murlari Buxoro amirligidan eng sifatli va xaridorgir tovarlarni arzon bahoda olib, o'z yurtlariga – Rossiyaga olib ketishdi.

A. I. Remezning bergan ma'lumotlariga qaraganda, 1880– 1881 yillarda Buxoro amirligidan Rossiyaga 4 ming pud qorako'l teri, 410 ming pud paxta, 6 mln 100 ming pud sitrar urug'i, 4 ming pud qog'ozdan eshilgan ip va 0,8 ming pud xalatlar olib ketilgan.³ Ushbu keltirilgan raqamlar faqat Rossiya markaziga olib ketilgan mollar ko'rsatkichi hisoblanadi.

I. A. Remez ushbu olib ketilgan mollar hisobiga Sibir, Kaspiyorti viloyati va Turkiston o'lkasi shaharlariga olib ketilgan mollar yig'indisini qo'shmagan.

Shuni ochiq aytish lozimki, deyarli aksariyat mualliflar o'z asarlarida⁴ Buxorodan olib ketilgan mollar to'g'risida fikr yuritganda, faqat Rossiyaga olib ketilgan tovarlar qiymatini hisobga olishgan. Ular negadir Rossiya tasarrufiga o'tgan Turkiston general-gubernatorligi, Sibir hududlariga, Kaspiyorti viloyatiga olib o'tilgan mollar yig'masini qo'shib hisoblamaslikka uringanlar. Vaholanki, Turkiston general-gubernatorligi chor Rossiyasining bo'linmas bir qismi deb e'tirof etilgan va ushbu o'lka o'sha davrda Rossiya qonunqoidalari asosida idora etilgan. Aynan mana shu jihatlar ushbu masalaga yanada jiddiyroq yondashishni talab qiladi. Buxoro amirligidan Turkiston general-gubernatorligi hududiga olib ketilgan barcha mollar chor Rossiyasiga olib ketilgan mollar sifatida qaralishi lozim. Zero, ana shunda aniq raqamlar asosida chor Rossiyasining talonchilik siyosatini aniq ko'rsatish imkoniyati yuzaga keladi.

Arxiv ma'lumotlariga qaraganda, Buxorodan Turkiston o'lkasi shaharlariga, ayniqsa Kaspiyorti viloyatiga juda ko'plab tovarlar olib ketilgan. Masalan, 1890–1891

¹ ЎзРМДА. Изжамгарма, 1-руйхат, 10-иш, 27–28–29-бетлар.

² Бухорода темир йўллар қурилиши ва унинг амалга оширилиши ҳамда ундан қўзлапган мақсадлар тўғрисида монографиянинг IV. 2 § ида батафсил тўхталган.

³ Ремез И. А. Внешняя торговля Бухарм до мировой войнм. с. 49.

⁴ Тўхтаматов Т. Г. РусскоБухарское отношения в конце XIX-начале XX в. –Т., 1966; Ремез И. А. Внешняя торговля Бухарь до мировой войнбг. с. 52.

yillar davomida Buxoro amirligidan Turkiston o'lkasi va Kaspiy orti viloyatiga juda katta miqdorda qoplar, ko'k choy, indigo, turli xil quruq va ho'l mevalar olib ketilgan.

Chor Rossiyasining markaziga esa xuddi mana shu yillari amirlikdan paxta, jun, qorako'l teri, ipak olib ketish ancha kuchaygan. Shu bilan bir qatorda, o'sha yillari quruq mevalar, qovun, tarvuz olib ketishga ham alohida e'tibor qaratishgan.

1890 yili Buxoro amirligidan Rossiyaga taxminan 1 mln. 841 ming 178 pud miqdoridagi tovarlar olib ketildi.

Rus hukumati o'z tovarlarini Buxoro amirligi hududiga olib kirib, xorijiy davlatlar tovarlarini Buxoro bozorlaridan deyarli to'la siqib chiqarganligiga qaramay, 1890–1895 yillar davomida chet el davlatlari, ayniqsa, Angliya zo'r berib yana Buxoro iqtisodiyotiga kirib kelishga harakat qildi. Va, ochig'ini aytish kerakki bu borada birmuncha yutuqlarni qo'lga ham kiritdi. Ushbu holat Rossiya hukumatini, uning burjua vakillarini qattiq tahlikaga solib qo'ydi. Natijada, ushbu holatning oldini olish bo'yicha rus hukumati tomonidan shoshilinch choralar ko'rildi. Peterburgda ushbu masalaga bag'ishlangan bir necha rasmiy darajadagi yig'ilishlar bo'lib o'tdi. Shunday yig'ilishlardan birida rus hukumati ma'murlari Buxoroni yagona Rossiya bojxona tizimiga kiritishni ma'qul deb topdi va Buxoro amirligi ishtirokisiz bu masalani 1895 yili bir tomonlama hal qilib qo'yildi.

Shunday qilib, 1895 yil 1 yanvardan boshlab, Buxoro Rossiyaning yagona bojxona hududi hisobiga kiritildi.¹

Tarixdan ma'lumki, to chor Rossiyasi bosqini va uning Buxoro amirligi ichki ishlariga aralashuvi jarayoniga qadar, aniqrog'i XIX asrning 50 yillariga qadar, Buxoro amirligida qog'oz pul umuman muomalada bo'lmagan. Amirlik hududida doimo tanga pullar muomalada zorgan. Jumladan, XIX asrning 70–90yillarida ham shu holat davom etgan. Buxoro tangalari odatda oltin, kumush va misdan quyilgan. Bir Buxoro tillasi o'sha paytdagi Rossiya pul birligi qiymati bo'yicha taxminan 4 rublga teng bo'lgan.² Kumush tanga esa 15–20 kopeykaga teng bo'lgan.

Hatto ayrim holatlarda, bir kunning o'zida tanganing qiymati bir necha bor tushibko'tarilib turgan. Ushbu holat rus kredit lullari qiymatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Mana shuning uchun ham rus tadbirkorlari va savdogarlari bir necha marotaba ushbu holatning oldini olishni so'rab rus hukumatiga murojaat qilishgan. Ayniqsa, arxiv hujjatlarida qayd etilishicha, 1890–1891 yillarda shunday murojaatlar nihoyatda ko'p bo'lgan. Ular rus hukumatidan Buxoro ichki bozorlaridan Buxoro tangasini muomaladan chiqarilishini vauning o'rniga rus rublini kiritishni so'rashgan.

1901–1903 yillari rus hukumati amir tomonidan oldindan Peterburgdagi hukumat a'zolari bilan kelishilganligi sababli, 1902 yilda zarb etilgan 24 mln dona tangalarni. sotib oldi.³

Mana shu tariqa rus hukumati Buxoro iqtisodiyotining eng katta belgisi va eng muhim ko'rsatkichi hisoblangan hamda davlatning oliy belgilaridan biri bo'lgan – pul masalasiga ham o'z ta'sirini o'tkazishga va uni Buxoro iqtisodiy hayotidan umuman olib tashlashga muvaffaq bo'ldi. Natijada, Buxoroda rus hukumatining qattiq tazyiqi va siquvi

¹ Бухоро амирлигини ягона Россия божхона тизимиға киритилиши тўғрисида монографиянинг III боби. 28-ида фикр юритилган.

² Тилла танга қиймати вақт ва бозорнинг ҳолатига, нархнавонинг ўсишига қараб ўзгариб турган. Масалан, танганинг қиймати баҳорда анча кўтарилган, чунки бу даврда рус савдогарлари ва буржуазияси қорақўл тери сотиб олишган, ҳамда дехқонларга «булак» пули беришган. Ёзда тапга қиймати бир оз тушган, кузда эса пaxта терими бошланиши билан яна танга қиймати кўтарилган.

³ ЎЗРМДА. И-3-жамғарма, 1-рўйхат, 210-иш, 250-бет.

ostida pul islohoti amalga oshirildi. Bir necha yuz yillar davomida muomalada bo'lgan Buxoro tangasi muomaladan olib tashlandi. Buxoro pul tizimi amalda yo'q qilindi. Buxoroda pul islohoti rasman amalga oshirilgandan so'ng, juda katta miqdorda rus kredit pullari, rus tilla va kumush tangalari olib kelindi va Buxoro ichki bozorlarida muomalaga kiritildi.

Rus burjuaziyasi va rus savdogarlari, eng avvalo, rus hukumati manfaatlarini hisobga olib, juda qattiq tazyiq va siquvlar asosida chor Rossiyasi tomonidan Buxoro amirligida o'tkazilgan pul islohoti to'la ma'noda mustamlaka mohiyatni va mazmuniga ega edi. Ushbu islohotni amalga oshirishdan ko'zlangan eng katta maqsad – bu Buxoro iqtisodiyotini, uning ichki bozorlarini, amirlikning barcha iqtisodiy tizimini to'la o'z izmiga tushirib olish va uni o'z xohishi asosida idora qilishni yo'lga qo'yishdan va shu bilan birga, Buxoro bozorlarida rus sanoati mollari va rus burjuaziyasi gegemonligini yanada mustahkamlashdan iborat edi. Buxoroda pul islohotining o'tkazilishi amirlikni Rossiyaga nisbatan iqtisodiy qaram qilish g'oyasining amalda joriy etilishi namunasi hisoblanadi. Ushbu yo'l orqali Rossiya Buxoro amirligi mustaqilligiga juda katta siyosiy va huquqiy zarba berishga muvaffaq bo'ldi.

III.2. Buxoro amirligi iqtisodiyotida temir yo'llar qurilishining ahamiyati

Chor Rossiyasi hukumati O'rta Osiyo xonliklarining katta hududlarini bosib olgach, u yerlarda o'z hukmronligini to'la o'rnatib, XIX asrning so'nggi choragidan boshlab o'z mavqeyini yanada mustahkamlashga katta e'tibor qarata boshladi.

Aynan mana shu borada olib borilgan ishlar jumlasiga chor Rossiyasining O'rta Osiyoda temir yo'llar qurish siyosati ham katta o'rin tutadi. O'rta Osiyo hududlarida rus hukumati tomonidan temir yo'llar qurish siyosati uning Turkiston o'lkasida o'z mavqeyini mustahkamlash borasida olib borgap ishlari ichida eng muhimlardan biri edi.

Turkiston o'lkasida temir yo'llar qurish masalasi eng avvalo siyosiy, harbiystrategik va iqtisodiy masalalar yechimi nuqtai nazaridan kun tartibiga olib chiqilgan edi.

Chor Rossiyasi hukumati turli xil yo'llar bilan Turkiston o'lkasi, Buxoro amirligi va Xiva xonligi aholisi ustidan o'rnatilgan o'z hukmronligini yanada kuchaytirish bilan bir qatorda, Sharqda o'z mavqeyini mustahkamlashdan o'ta manfaatdor bo'lganligi sababli ham, barcha vositalar bilan inglizlarning O'rta Osiyoga suqilib kirishining oldini olishga harakat qila boshladi.

Bizga ma'lumki, Qo'qon xonligining to'la chor Rossiyasiga qo'shib olinishi, Buxoro va Xiva xonliklarini qisman bo'ysundirilishi inglizrus aloqalarining, ayniqsa, Yaqin Sharq masalasi bo'yicha raqobatni yanada keskinlashuviga olib keldi.

Ushbu kelishmovchilik hatto Angliya bilan Rossiya o'rtasida o'zaro shartnoma imzolangandan so'ng ham to'xtamadi.

Har ikkala tomon, inglizlar ham, ruslar ham O'rta Osiyoda o'z mavqelarini va ta'sir doirasi hududlarini zo'r berib kengaytirishga harakat qilishdi.

Angliya bilan Rossiya o'rtasidagi raqobatlar, ayniqsa, XIX asrning 70 yillari oxiriga kelib yanada kuchaydi va keskinlashdi.

1878–1880 yillarda inglizlar ruslar bilan tuzilgan shartnoma va kelishuvni buzib, Afg'onistonda ikkinchi urushni boshlab yuborishdi. Bu esa inglizrus raqobatini yanada kuchayishiga olib keldi.

Rus hukumati ham ushbu holatga qarshi, o'z navbatida, shoshilinch choralarni ko'rdi. Turkistonda o'z mavqeini yanada mustahkamlashga katta e'tibor qaratdi. Aynan mana shu holatda, Turkiston bilan Rossiyani bog'lovchi temir yo'l naqadar muhimligi rus hukumatiga yaqqol sezildi.

Rossiya bilan Turkiston o'rtasida temir yo'l qurilishi kerakligi va uning o'ta muhimligi, eng avvalo, siyosiy va harbiystrategik nuqtai nazardan kelib chiqqan edi. Shu bilan birga, ushbu temir yo'lning qurilishini qator iqtisodiy sabablar ham taqozo etmoqda edi. Chunki rus burjuaziyasi Turkiston o'lkasiga o'ta muhim xom ashyo o'lkasi va o'z mollarini sotish uchun juda katta ichki bozor sifatida qaragan. Aynan mana shu jihatlarni to'g'ri hisobga olgan rus burjuaziyasi temir yo'l qurish tarafdori sifatida, XIX asrning 80-yillaridan boshlab rus hukumatidan ushbu ishlarni amalga oshirishni qat'iy talab qila boshladi.¹ Chunki karvon yo'llari orqali mol olib kelish va olib ketish juda uzoq vaqtni egallardi hamda u juda katta miqdordagi sarfxarajatni talab etardi.

Masalan, Orenburgdan Toshkentga qadar bo'lgan yo'lda karvon 90–100 kun yurishi lozim edi. Toshkentdan Orenburgga qadar esa karvon eng kamida 3 oy yo'l yursa, Moskva va Nijniy Novgorodga qadar karvon 5–6 oy yo'l yurishi kerak edi. Bundan tashqari, har bir tuyani yollash uchun 9–12 rubl mablag' sarf etilgan.² Har bir tuyaga esa 16 pud yuk ortish mumkin bo'lgan. Iqtisodiy jihatdan olib qaralganda har bir pud yukni tan narxi 56–57 kopeyekka to'g'ri kslgan. XIX asrning 80-yillariga kelib karvon yo'llar orqali mol olib kelish birinchidan tannarx, ikkinchidan tezkorlik nuqtai nazaridan, uchipchidan, rus burjuaziyasining talablari, to'rtinchidan, rus harbiylari talabini va nihoyat beshinchidan, o'sha davr talabini to'la qondira olmaganligi yaqqol ko'zga tashlanib qoldi.

Aynan mana shu holatlar, ya'ni tovar tannarxining balandligi, uning ta'siri kabilar ham tezroq tsmir yo'l qurilishi lozimligini kun tartibiga olib chiqdi.

Shunday qilib, O'rta Osiyo hududlariga temir yo'llar kirib kelishini, eng avvalo, siyosiy, harbiystrategik va nihoyat iqtisodiy sabablar majbur qildi.

O'rta Osiyoda temir yo'l qurish g'oyasi chor Rossiyasi ushbu hududlar zabt etilgunga qadar ham bir necha bor ko'tarilgan edi. Jumladan, 1850–1860 yillarda Rossiyada temir yo'llar qurishning loyihasi tuzilayotgan paytda O'rta Osiyo hududida ham temir yo'l qurish masalasi ko'tarilgan edi. Ammo u o'sha paytda g'oyaligicha qoldi.

O'rta Osiyoda temir yo'l qurilishidan eng avvalo Turkiston o'lkasidagi rus ma'murlari manfaatdor edi, mana shuning uchun ham, ular bir necha bor rus hukumatiga murojaat qilib, ushbu masalani ijobiy hal etishni so'rashgan.

1873 yili Turkiston general-gubernatori general fon Kaufman chor hukumatidan O'rta Osiyoga temir yo'l o'tkazishii iltimos qilib yozma ravishda murojaat qiladi. Ushbu masala bo'yicha murojaat qilishning asosiy sababini Kaufman o'z xatida inglizrus raqobatining keskinlashganligi ekanligini ochiq bayon qiladi.

Jumladan, general Kaufman ushbu temir yo'l qurilishini eng avvalo inglizlarning O'rta Osiyoga bo'lgan qiziqishini oldini olish va uni susaytirish uchun, hamda ular tomonidan O'rta Osiyoda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan har qanday harbiy harakatlarning oldini olish va uni tezkor ravishda bajarish uchun o'ta muhim masala ekanligini e'tirof qiladi. 1880 yili general Kaufman harbiy vazirga telegramma jo'natib,

¹ Железные дороги в Среднюю Азию // Сборник статей и проектов по проведению железных дорог в Среднюю Азию. –СПб., 1890, с. 3.

² Ахмеджанова З. К. К истории строительства железных дорог в Средней Азии (1880-1917 гг.).Т., 1965, стр. 18.

ushbu ishni jadallashtirish eng avvalo harbiy strategik jihatdan muhim ekanligini ta'kidlab, shunday deb yozadi: «Siz, hazrati oliylaridan Temir yo'l vazirligi tomonidan tasdiqlangan va qo'llabquvvatlangan loyiha bo'yicha, O'rta Osiyo temir yo'l qurilishi loyihasini jadallashtirish bo'yicha bevosita aralashuvingizni va uni amalga oshirishni qat'iy ravishda talab qilishingizni o'tinib so'rayman. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu temir yo'l qurilishi nafaqat o'lka iqtisodiyoti rivojini ta'minlashi (vaholanki, unga aynan temir yo'l asosiy sabab bo'ladi), uni imperiyaning eng samarali ishlab chiqarish markazlaridan biriga aylantirishi mumkin, balki ushbu temir yo'l qurilishining harbiy-siyosiy ahamiyati o'ta muhimdir. Agar mana shu temir yo'l qurilishi amalga oshirilmasa, biz ushbu regionda qo'lga kiritgan foydali va Osiyodagi mustahkam tayanch hamda ta'sir kuchimizdan mahrum bo'lishimiz mumkin».¹

General Kaufmanning ushbu asosli taklifi Harbiy vazirlik tomonidan to'g'ri tushunildi va qo'llabquvvatlandi. Hukumat oldiga ushbu masala yuzasidan o'z takliflarini qo'yishga asos bo'ldi.

Shuni ta'kidlash joizki, aynan mana shu harakatlardan so'ng, 1873 yili Peterburgda Temir yo'l vazirligi qoshida temir yo'l qurilish loyihalarini ko'rib chiqish va muhokama qilish uchun maxsus komissiya tashkil etildi.

Ushbu maxsus komissiyaga O'rta Osiyoni Rossiya bilan bog'lovchi temir yo'l qurilishi to'g'risidagi loyihalar ham rossiyalik injenerlar, ham xorijlik fuqarolar tomonidan ko'plab taqdim etila boshlandi. Faqatgina 1865 yildan 1880 yilga qadar shu mazmundagi 40 dan oshiq loyiha taklif etildi. Eng ko'p loyihalar XIX asrning 70 yillarida taqdim etilgan.²

Chor Rossiyasi hukumati pirovard natijada O'rta Osiyoda temir yo'l qurilishini qo'llabquvvatlashga va uni boshlashga majbur bo'ldi. Dastlab Orenburgdan Toshkentga qadar bo'lgan temir yo'l qurilishi rejalashtirildi.

Afg'oniston bilan O'rta Osiyo chegaralarida inglizrus munosabatlarining keskinlashuvi OrenburgToshkent temir yo'l qurilishini vaqtincha to'xtatishga va rus hukumatining asosiy e'tiborini Kaspiyorti viloyati temir yo'li qurish ishlariga jalb etishga majbur etdi.

1880 yili 11–12 fevral kunlari harbiy Vazir rahbarligida maxsus kengash chaqirilib, unda Kaspiyorti masalasi va u yerda temir yo'l qurilishi chuqur muhokama qilindi va temir yo'l qurilishini boshlash to'g'risida qaror qabul qilindi.

Kaspiyorti temir yo'li qurilishining birinchi navbati (Mixaylovsk qo'ltig'idan Qizil Arvatgacha bo'lgan 217 vyorstlik yo'l) juda qisqa muddat ichida, 8 oyda qurilib, foydalanishga topshirildi. Ushbu yo'lning qurilishi chor Rossiyasi hukumatiga nafaqat uning katta masshtabdagi iqtisodiy masalalarni, balki eng avvalo, yiriktemir yo'l qurilishini yechishga qodir ekanligini, hamda ushbu temir yo'l qurilishi uning harbiy strategik pozitsiyasini O'rta Osiyoda yanada mustahkamlashiga xizmat etishiga to'la ravishda ishonch hosil qilishiga imkon berdi.

1886 yil 18 va 22 aprel kunlari Vazirlar Qumitasi Kaspiy orti temir yo'lining yangi tarmog'ini qurishni muhokama qildi va uni to Samarqandga qadar davom ettirishga qaror qabul qildi va o'sha qaror asosida temir yo'l qurilishi boshlanib, u 1888 yili tugallandi. Yangi temir yo'l «Kaspiyorti harbiy temir yo'li» deb ataldi.

¹ ЎзРМФ.А И.1-жамғарма, 16-рўйхат, 1524-иш, 7-бет.

² Железные дороги в Среднюю Азию // Сборник статей и проектов по проведению железных дорог в Среднюю Азию. стр.32.

Mana shu tariqa O'rta Osiyoda temir yo'l qurilishiga keng yo'l ochildi va keyingi yillarda Rus hukumati uni jadal suratlar bilan rivojlantirib, uning yangi tarmoqlarini qurib, ishga tushira boshladi.

XX asr boshlariga kelib chor Rossiyasi hukumati oldida iqtisodiy, siyosiy va eng muhimi, harbiy nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, Buxoro amirligining janubigarbiy va janubisharqiy hududlarini temir yo'l orqali O'rta Osiyo magistrali bilan bog'lash masalasi paydo bo'ldi. Ushbu yo'l chor Rossiyasini Buxoro yoki Samarqand orqali amirlikning eng janubiy qismida joylashgan Termiz bilai bog'lashi lozim edi.

Shuni ta'kidlash joizki, O'rta Osiyo magistral temir yo'li, asosan, Buxoro amirligining shimoliy qismidan, Zarafshon daryosi bo'ylab o'tgan edi. Amirlikniig janubig'arbiy va janubisharqiy qismlari esa temir yo'ldan chetda qolgan edi.

Buxoro amirligining janubiy qismi tabiiy boyliklarga boy hudud hisoblanardi. Bu yerlarda turli xil daraxtlar, oltin, qalay, oltingugurt, neft, temir, ko'mir, marmar, lazurit, rubin kabi bebaho boyliklar behisob bo'lgan. Aynan mana shu bebaho boyliklarga ega bo'lgan hududlarda aholi yashaydigan Qarshi, Kitob, Yakkabok, Chiroqchi, G'uzor, Sherobod, Sarijo'y (Sariosnyo), Shartuz, Qoratog', Hisor, Dushanbe kabi shaharlar tashkil topgan edi.

Ushbu hududlar bo'yicha temir yo'llar o'tishi eng avvalo, rus burjuaziyasi uchun bebaho boyliklarni o'zlashtirishga va uning evaziga katta sarmoya olishiga imkon bersa, ikkinchi tomondan rus hukumatining Buxoro bozorlarini tezroq to'la egallab olishiga keng imkoniyat yaratar, uchinchi tomondan esa ushbu hududda temir yo'l qurilishi ruslarga tashqi dune bilan savdo olib borishni yanada kengaytirishga keng yo'l ochib berib, qisqa vaqt ichida tezroq Afg'oniston va Hindiston bozorlariga chiqish uchun yangi imkoniyatlarni yaratib berardi. Va nihoyat, eng muhimi, yangi quriladigan Buxoro temir yo'li Rossiya uchun ham siyosiy, ham harbiystrategik jihatdan muhim ahamiyat kasb etib, uning inglizrus raqobatida o'ziga xos yutuqni qo'lga kiritishga xizmat qilishi muqarrar edi. Aynan mana shu jihatlarni to'la hisobga olgan holda, rus hukumati Buxoro temir yo'li qurilishini qo'llab quvvatladi.

Kogondan Qarshi orqali Termizga qadar bo'lgan yangi temir yo'l qurilishi afg'on chegarasi bo'ylab o'tkazilishi rejalashtirilgan edi. Chunki aynan mana shu holat rusafg'on va inglizrus munosabatlariga kuchli ta'sir ko'rsatishi va O'rta Sharqda Rossiya mavqeyini yanada mustahkamlashga xizmat qilishi nazarda tutilgan edi.

1904 yidi 13 martda temir yo'llar qurish boshqarmasi qo'mitasi Buxoro-Qarshi-Kalif-Termiz va Samarqand-Qarshi (jami 567 vyorst) hamda Qarshi-Sherobod-Termiz (jami 269 vyorst), yo'nalishlari bo'yicha texnik tadqiqot ishlari olib borish to'g'risida qaror qabul qildi.

1904 yili mart oyida harbiy Vazirlik Turkiston harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondoniga Buxoro amiri bilan ushbu yo'lning texnik tadqiqot ishlarini olib boruvchilarga ruxsat berish va ularni qo'riqlash masalasi bo'yicha o'zaro kelishishni iltimos qildi.

Rus hukumati birinchidan, Buxoro iqtisodiyotiga bo'lgan qiziqishi, ikkinchidan esa harbiy strategik jihatdan zarur bo'lganligi uchun ham temir yo'lni qurishga kirishadi. Temir yo'l qurilishidan kutilgan asosiy maqsadlardan yana biribu Turkiston bilan Afg'oniston chegarasini bog'lash edi.

1904 yil 19 aprelda Aloqa Yo'ldari Vazirligi temir yo'l qurilishi boshqarmasi texkik bo'limining Turkiston general-gubernatoriga yo'llagan xatida, ushbu temir yo'd qurilishi bo'yicha amaliy ishlar boshlanganligini ma'lum qilib, shunday xabar beradi: «O'rta Osiye Temir yo'lining Buxoro va Samarqand nuqtalarini Amudaryo yoqasidagi

Termiz shahri bilan bog'lash uchun materiallar yig'a boshlashni rejaga kiritilganligini, KdrshiKalif, QarshiG'uzor va Sherobod yo'nalishlarini o'rganish uchun kollej maslahatchisi, aloqa yo'llari muhandisi Goliembiovskiy boshliq etib tayinlandi».¹

1904 yilning bahoriga kelib, Buxoro temir yo'li qurilishi bo'yicha texnik tadqiqot ishlari nihoyasiga yetkazildi. Shundan so'ng, Turkiston general-gubernatori Harbiy vazirlikka murojaat qilib, Buxoro temir yo'lini qurishni 1906 yil rejasiga kiritishni so'radi.²

Ammo, boshlanib ketgan rusyapon urushi natijasida, ushbu temir yo'l qurilishi bir oz orqaga surildi.

Buxoro temir yo'li qurilishi bo'yicha bir necha loyiha tayyorlandi.

1910 yilda chor hukumati va Amir Abdulahad o'rtasida Buxoroda temir yo'l qurish haqida muzokaralar olib borildi.

Turkiston general-gubernatori mahkamasi boshqaruvchisi tomonidan Turkiston general-gubernatoriga hisobot taqdim etilib, unda Kogon stansiyasidan Qarshi orqali Termizga temir yo'l kurish taklifi tushadi. Keyinchalik bu masala Harbiy va Tashqi ishlar vazirliklari tomonidan bir necha marotaba muhokama qilinadi va bir qancha tortishuvlarga sabab bo'ladi.

Turkiston general-gubernatorligi tomonidan Buxoro temir yo'l qurilishining birinchi bosqichida BuxoroQarshi yo'nalishini qurish, buning uchun xususiy tadbirkorlarni jalb qilish g'oyasi taklif qilinadi.³

Chor hukumati ma'murlari QarshiKogon temir yo'lini xususiy kapital bilan qurish ishlari juda uzoqqa cho'zilib ketishi mumkinligini hisobga olib, tor izli temir yo'l qurish fikrini bildiradi va bu loyihani o'rganib chiqish uchun ushbu hujjatlar to'plamini harbiy injener kapitan fon Shulsga topshiradi. Lekin fon Shuls loyihani o'rganib chiqib, o'z hisobotiga ko'ra oddiy tor izli temir yo'l qurish foyda bermasligini, tor izli temir yo'l strategik jihatdan ham umuman to'g'ri kelmasligini aytadi.⁴ O'z navbatida tor izli temir yo'lning qurilishiga Buxoro hukumati tomonidan ham e'tiroz va qarshiliklar biddiriladi.

1910 yili aprel oyining oxirida bo'lib o'tgan Vazirlar qo'mitasi majlisida bu masala yana o'rtaga tashlanadi va KogonTermiz yo'lining naqadar ahamiyatli ekanligi gapirib o'tiladi, lekin loyihani amalga oshirish uchun yana mablag' yo'qligi ro'kach qilib ko'rsatiladi.⁵

1907 yilda Angliya qiroli Eduard VII va chor hukumati o'rtasida O'rta Osiyo masalalari bo'yicha inglizrus bitimi imzolaniadi. Lekin qiroli Eduardning o'limidan keyin, taxtga Georg V ning chiqishi, chor hukumatidan Buxoroning chegara qismini mustahkamlash uchun ham ushbu temir yo'l qurilishi zarurligini xalqaro vaziyat yana bir bor kun tartibiga qo'yishni taqozo etdi.⁶

O'sha vaqtda Georg V haqida chet el matbuotlarida ma'lumotlar berilib, ularda Angliya o'z mustamlakalarini mustahkamlamoqda, degan gaplar ilgari surilgan edi. Bundan chor hukumati tahlikaga tushib, inglizafg'on to'qnashuvi yuzaga kelishi mumkinligini hisobga olib, ushbu temir yo'l qurilishini imkoni boricha tezroq qurib tugatishga harakat qiladi. Harbiy vazirning 1910 yil 30 yanvarda Tashqi ishlar vaziriga yo'llagan maxfiy xatida quyidagilar bayon etilgandi: «Turkiston frontining operativ

¹ ЎзРМДА. И-2-жамғарма, 1-рўйхат, 188-иш, 5-бет.

² ЎзРМДА. И-2-жамғарма, 1-рўйхат, 277-иш, 15-бет.

³ ЎзРМДА. И-2-жамғарма, 1-рўйхат, 277-иш, 15-бет.

⁴ ЎзРМДА. И-2-жамғарма, 1-рўйхат, 277-иш, 16-бет.

⁵ ЎзРМДА. И-2-жамғарма, 1-рўйхат, 277-иш, 17-бет.

⁶ ЎзРМДА. И-2-жамғарма, 1-рўйхат, 277-иш, 18-бет.

harakat rejasiga ko'ra ushbu temir yo'lga bo'lgan ehtiyoj kelib chiqadi. U bizning O'rta Osiyo temir yo'limizni BuxoroAfg'on chegarasi bilan bog'laydi, Ushbu temir yo'lsiz operatsiyalar olib borilishi taxmin qilinayotgan Kobul yo'nalishida (TermizMozori SharifKobul) qo'shin va harbiy yuklarni joylashtirish qiyin bo'ladi».¹

1910 yil 25 aprelda Tehrondan chiqadigan «Novoye vremya» ro'znomasida Novaskiyning bergan axborotida temir yo'l qurilishi afzalligi bayon qilinadi. Jumladan, unda: «Temir yo'llar qurilishi bilan Termizga afg'on mollarining nafaqat Afg'oniston shimolidan, balki uning ichki hududlaridan ham ko'plab kelishi mumkinligi aytiladi. Chunki Mozori Sharif orqali Kobulni O'rta Osiyo bilan bog'lovchi qadimiy yo'l o'tadi. To'g'ri hozirda bizning Afg'oniston bilan bojxona orqali mol ayirboshlashimiz nihoyatda past. Shubhasiz, temir yo'l Termizdan o'tishi bilan tabiiy ravishda mol almashishi yildanyilga o'sadi va biz ham Shimoliy Afg'oniston bozorlarini egallaymiz».

Termiz yo'nalishi bo'yicha loyihalashtirilayotgan temir yo'l nafaqat strategik ahamiyatga ega, balki iqtisodiy tomonlan ham qulay bo'lib, u Amudaryoorti davlatlarini Afg'oiiston va Shimoliy Hindiston viloyatlari bilan bog'lab, savdoni rivojlantiradi. Shu temir yo'l orqali bizning mahsulotlar inglizhind hududlarida yaxshi sotiladi, hatto hozir ham bizning mahsulotlar inglizlarnikiga qaraganda ko'proq olinadi. Albatta, yo'l dastlab xarajat qilishnn talab qiladi, ammo u shubhasiz O'rta Osiyoda bizning fuqaroviy va harbiy mavqyeimizni yanada kuchaytirishga olib keladi. Ikkinchidan, ertamikechmi sodir bo'luvchi rus temir yo'llari inglizhind yo'llari bilan bog'lashda birinchi bosqich bo'ladi. Bu bog'lanish orqali Rossiya dunyoda yagona bo'ladigan va G'arbiy Yevropani Janubiy Osiyo bilan bog'lovchi tranzit yo'lini nazorat qiladi, Shu bilan birga, Rossiya sanoati g'oyat rivojlanadi, o'shanda Rossiya o'z mollarini ingliz mustamlakalariga Angliya arzonroq narxlarda sotish imkoniga ega bo'ladi, degan fikrni aytadi.² Termiz yo'lining qurilishi haqida Gubarevich Radobilskiy ham o'zining «Buxoro va Tunisning iqtisodi» deb nomlangan ocherkida (SPb., 1905 y) to'xtalib, jumladan, quyidagilarni aytib o'tadi: «Hozircha KogonTermiz temir yo'li bizning Buxorodagi va afg'on chegarasidagi mavqyeimizni musta\kamlaydi. Bu bilan bizning harakatlarimiz asosida O'rta Osiyodagi hududlarimiz mudofaasi Rossiya mudofaasi bilan uzviy bog'liq bo'lishi lozim. Bizning bu yerdagi harbiy va iqtisodiy tayyorgarligimiz orqali bu yerdagi O'rta Osisning rivojlanish muammosi yechilishi va Turkistonga sarf qilingan yuz millionlab ketgan so'mimiz o'zini oqlashi mumkin. Umuman olganda, biz Markaziy Osiyoda muvaffaqiyat qozonishimiz uchun nafaqat mudofaaga, balki hujumga ham tayyor bo'lishimiz lozim.

Shuningdek, Buxoroning iqtisodi uchun ham bu yo'l muhimdir. Uning janubisharqiy qismidagi mineral boyliklar o'zlashtiridadi va sotiladi. Bu yerda hosildor hududlar mavjud bo'lib, hozirda ozroq hajmda bug'doy, sholi va paxta ekiladi. Temir yo'l qurilishi amalga oshirilsa, ziroat ekin yerlarining kengayishiga olib keladi. Bu temir yo'l harbiy harakatlarning tez rivoji va yirik qo'shin qismlarinitezto'plash lozim bo'lganda katta ahamiyatga ega bo'ladi. Faqat KogonTermiz temir yo'li qurilishi bizning Afg'oniston va Angliyaga nisbatan bo'lgan siyosatimiz talablarini qondirishi mumkin».³

Yuqorida ko'rsatilgan axborot va hisobotlarni hamda ma'lumotlarni chor hukumati to'liq o'rganib chiqib, Buxoro xukumati bilan olib borilgan muzokaralar natijasida KogonTermiz temir yo'lini keng liniyali qilib qurishga kelishdi. Bu qaror 1910

¹ ЎзРМДА. И-2-жамғарма, 1-рўйхат, 277-иш, 19-бет.

² ЎзРМДА. И-2-жамғарма, 1-рўйхат, 277-иш, 19–20-бетлар.

³ ЎзРМДА. И-2- жамғарма, 1-рўйхат, 277-иш, 21-бет.

yil aprel oyida Rossiya Bazirlar qo'mitasida Stolipin boshchiligida ko'rib chiqiladi va tasdiqlanadi.

1912 yili bahorda Buxoro temir yo'li loyihasi va uning to'laqonli bayonnomasi to'g'risidagi ma'lumotnoma Kovalevskiy tomonidan tayyorlanib, muhokamaga taqsim etildi. Ushbu taqdimnomada Turkiston o'lkasi to'g'risida umumiy ma'lumotlar, 1880–1912 yillar davomida qurilgan temir yo'llar va ularning rivojlanish tendensiyasi, Urta Osiyo va Turkiston temir yo'llari qurilishi munosabati bilan kutiladigan iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar, o'lkada bog'lovchi ikkilamchi yo'llarning qurilishi to'g'risida muhim ma'lumotlar berildi. Ushbu ma'lumotnomada Buxoro amirligi to'g'risidagi muhim ma'lumotlar, jumladan, uning boy tabiiy boyliklari, ayniqsa, Buxoroning tog'li va janubiy hududlari imkoniyatlari, amirlikdagi paxtachilik va qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlari holati, amirlik sanoati va uning holati, aholining etnik tarkibi to'g'risida ham muhim ma'lumotlar berildi.

Eng muhimi, ushbu taqdimnomada temir yo'l o'tadigan hududlardagi manzilgohlar, ularning aholisi to'g'risida aniq raqamlar, temir yo'l yo'nalishi va uning uzunligi, u yerlardagi foydalaniladigan yerlar to'g'risida har tomonlama keng va atroflicha ma'lumotlar berilgan edi.

Kovalevskiy tomonidan ushbu taqdimnomada quriladigan temir yo'ldan qaysi turdagi tovarlar olib o'tilishi, undan keladigan daromad va temir yo'lning umumiy qiymati to'g'risida ham aniq raqamlar berilgan edi.

Kovalevskiy hisobkitoblariga qaraganda, ushbu temir yo'l qurilishi taxminan 26 mln 534 ming 467 rublga to'g'ri kelishi belgilangan.

1912 yilning aprel oyida temir yo'llar departamenti Harbiy vazirlik va Tashqi ishlar vazirligiga murojaat qilib, Kovalevskiy loyihasi bo'yicha o'z fikrlarini bildirishini so'radi. Natijada, har ikkala vazirlik Buxoroda temir yo'l qurilishi o'ta muhimligi va keraklitini ta'kidlashdi, ammo Buxoro mustaqil davlat bo'lganligi uchun, temir yo'l bevosita uning hududida qurilishini hisobga olgan holda, ushbu temir yo'l qurilishi uchun konsessiyaga ruxsat berish huquqi Buxoro amirida borligi ta'kidlandi.

1912 yil 5 may kuni Bosh shtab temir yo'llari qurilishi vazirligi tomonidan Kovalevskiy loyihasini 1912 yil ichida muhokama qilib chiqishni so'radi.

Buxoro amiri 1912 yil 8 iyunda ushbu Buxoro temir yo'li qurilishini qo'llabquvvatladi va Kovalevskiyga temir yo'l qurilishini amalga oshirish uchun 600 desyatina yerni belul ajratishga ruxsat berdi.¹

Buxoro amiri qo'shbegisi Rossiya imperatorligi siyosiy agenti nomiga yezgan xatida: «Ushbu temir yo'lning o'ta muhimligini nazarda tutib, olipano Buxoro amiri ushbu yo'lni qurish uchun konsessiyani rus fuqarosi Aleksandr Nikolayevich Kovalevskiyga berishga qaror qildi», – deb ma'lumot beradi.

Kovalevskiy va boshqa shaxslar tomonidan taqdim etilgan Buxoro temir yo'li qurilishi bo'yicha loyihalar 1912 yili 18 va 25 sentyabrda maxsus o'rganilib chiqildi. Komissiya bir ovozdan Kovalevskiy loyihasi bo'yicha Buxoro temir yo'li qurilishini qo'llabquvvatladi.

1913 yili 28 mayda Vazirlar qo'mitasi, Temir yo'llar qurilishi vazirligi va Moliya vazirligi ushbu masalani atroflicha muhokama qilib, injener Kovalevskiyga Buxoro temir yo'lini qurish va uni ekspluataiya qilish uchun maxsus jamiyat tashkil etishiga ruxsat berildi.

¹ Ахмеджанова З. К. К истории строительства железных дорог в Средней Азии (1880-1917 гг.). стр. 60.

Buxoro temir yo'li qurilishini boshlashga yuqorida ta'kidlanganidek, 1913 yili ruxsat berilgandan so'ng, uni amalga oshirish bo'yicha juda katta tashkiliy ishlar amalga oshirildi.

1913 yil oktyabr oyida Buxoro temir yo'l jamiyati rayon direktori M. M. Sluskiy Buxoroga keldi. Uning zimmasiga barcha tayyorlov ishlarini amalga oshirish mas'uliyati yuklatilgan edi. Eng avvalo, u ishchi kuchi masalasini hal etishi lozim edi. M. M. Sluskiy 1913 yil oktyabrdan 1914 yil apreliga qadar, Buxoro hukumati bilan yer ishlarini bajaruvchilar masalasi bo'yicha o'zaro kelishuv to'g'risida muzokaralar olib bordi. Buning o'ziga xos sabablari bor edi. O'shadavrdan Buxoro ahli o'z fuqarolarini qo'shni davlatlar va boshqa shaharlarga borib ishdashini taqiqlab qo'ygan edi. Aynan mana shuning uchun ham, Buxoro hukumati va shaxsan amir bilan ushbu masala yuzasidan muzokara olib borishga to'g'ri keldi va amirning roziligi olindi.

1914 yilning aprel oyi o'rtalariga kelib, tuproq ishlarini bajaruvchi dastlabki 400 buxoroliklar qurilish hududiga kelishdi.¹ Tuproq ishlarini bajarish uchun yollangan mahalliy ishchilarga eng past maosh belgilandi. Ularga belgilangan maosh shunchalik darajada past ediki, hatto o'sha davrda qurilgan bironbir boshqa temir yo'l qurilishiga jalb etilganlarga ushbu qiymatdagi maosh berilmas edi. Ish haqqining o'ta kam darajada belgilanganligi, o'z navbatida, ishning samaradorligiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Ikkinchi tomondan, ularga nisbatan bo'lgan muomala ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Qarshidan jalb etilgan dastlabki 400 kishilik yollangan mahalliy ishchilar o'zlariga nisbatan ko'rsatilgan «marhamat»dan norozi bo'lganliklari uchun ishga sovuqqonlik bilan qaradilar va rus muhandislari kutgan ko'rsatkichlar bo'yicha ishlashni xohlashmadi. Ular ishga jalb etilgandan 28 kun o'tgach, Buxoro hukumati 1914 yil 8 may kuni ularni chaqirtirib olishga majbur bo'ldi va ular o'rniga boshqa hududlardan ishchi kuchi berildi.

1914 yilning may oyi boshiga kelib, buxorolik ishchilar soni ming (1000) kishiga yetkazildi. Ishchilarning asosiy qismi Qorategin hududidai ishga yollangan edi. Ushbu ishchilarning aksariyati majburiy ravishda yollangan edi. Ularga hyech qanday sharoit yaratilib berilmadi. Hatto ish joyiga ham o'zlari yetib kelishi belgilandi. Ish joyiga yetib kelguncha, ovqatlanishni ham o'zlarining bo'yniga qo'yishganligi uchun, ishchilar yo'lda rosa qiynalishdi. Qurilish maydoniga yetib kelgan ishchilar ishlashni xohlamasliklarini, sharoit og'irligini ochiqdanochiq temir yo'l boshqarmasi departamenti rahbariyatiga bildirishdi. Natijada, muhandis I.E.Tannerning barcha xatti-harakatlariga qaramay, barcha 800 kishidan iborat ishchilar ish joylarini tashlab ketishdi.

Bu temir yo'l qurilishi rahbarlariga ular xohlaganchalik, ya'ni arzon ishchi kuchi evaziga, temir yo'lning tuproq ishlarini bajarish bo'yicha o'ylagan niyatlari amalga oshmasligini ko'rsatdi.

Qurilish avj olgan bir paytda, Buxoro hukumati 1914 yilning aprel, may va iyun oylari uchun har bir ishchiga tuproq ishlarini bajarganliklari uchun 0,75 kopeyekdan emas, balki boshqa temir yo'l qurilishlarida belgilangan 1 rubl 50 kopeyekdan to'lashni talab qildi. Uzoq tortishuvlardan so'ng, temir yo'l qurilishi rahbarlari qarshilik ishchilarga 1 rubl 20 kopeyekdan, buxorolik ishchilarga esa 1 rubldan haq to'lashga majbur bo'ldi.

Mana shu holatlar temir yo'l qurilishi rahbarlaridan malakali, yangi ishchi kuchlarini qidirib topish muammosini hal etishni ko'ndalang qilib qo'ydi. Natijada, temir yo'l qurilishi rahbarlari Rossiya, Boku hatto Eron hududlaridan ishchi kuchi qidirishga va

¹ Ахмеджанова З. К. К истории строительства железных дорог в Средней Азии (1880-1917 г.г.). стр.81.

ularni ishga jalb etish bo'yicha shoshilinch choralarni amalga oshirishga majbur bo'lishdi.

Ayniqsa, eronlik ishchilarni Buxoro temir yo'li qurilishiga jalb etish masalasiga katta umid qilishdi. Ammo bu harakatlar ham zoye ketdi. Vaholanki, Erondan 2000 (ikki ming) ishchi jalb qilish rejalashtirilgan va shartnoma tuzilgan edi. Ammo Buxoroga 1914 yili boryo'g'i 226 eronlik ishchilar kelishdi. 1914 yilning avgust oyiga kelib, ulardan 116 tasi qoldi.¹

Temir yo'l qurilishi rahbarlari turkmanlardan ishchi kuchi yig'ishga harakat qildi va boryo'g'i 400 kishini ishga jalb etishga muvaffaq bo'ldi. Shundan so'ng, temir yo'l qurilishi rahbarlari o'z agentlarini Kavkaz va Sibirga, Rossiyaning markaziy rayonlariga jo'natishdi. Shuncha sa'yharakatlarga qaramay, temir yo'l qurilishida ishchi kuchi yetishmasligi baribir muammoligicha qolaverdi.

Vaziyatdan chiqishning hyech bir ilojini tona olmagach, temir yo'l qurilishi rahbarlari turmalar boshqarmasi boshlig'iga murojaat qilib, Buxoro temir yo'li qurilishida qamoqxonadagi «bandi»lar mehnatidan foydalanishga ruxsat berishini so'radi. Ushbu harakat ham hyech bir ijobiy natija bermadi. Shundan so'ng, temir yo'l qurilishi rahbarlari boshqa temir yo'llari qurilishi rahbarlariga murojaat qilib, ulardan ishchi kuchi borasida yordam berishlarini so'radi.

Aynan mana shu murojaatlardan so'ng, Buxoro temir yo'li qurilishida ishchilar soni bir oz miqdorda ko'paydi. 1914 yilning oktyabr oyi oxiriga kelib, ishchilar soni yana biroz ko'payishiga erishildi.

1915 yilning fevraliga kelib, Buxoro temir yo'li qurilishida yana ishchilar soni kamayib qoldi. Chunki juda ko'plab rus ishchilari ham ish joylarini tashlab, Rossiyaga qaytib ketishdi. Rossiya imneratorligining Buxorodagi siyosiy agenti va Turkiston general-gubernatori Buxoro temir yo'li qurilishini ishchi kuchi bilan ta'minlashning yangi manbai sifatida chet ellik harbiy asirlar kuchidan foydalanishga katta e'tibor berishdi.

Harbiy asirlar hisobiga Buxoro temir yo'l qurilishidagi ishchilar sonini 6 ming (olti) kishiga yetkazishga muvaffaq bo'lindi.

Temir yo'l qurilishi vazirligi Buxoro temir yo'l qurilishi rahbarlari oldiga temir yo'lni muddatidan bir yil oldin, ya'ni 1916 yil iyul oyi o'rtalarigacha tugatishni vazifa qilib qo'ydi. Buning asosiy sababi, chor Rossiyasi birinchi jahon urushi frontlarida birinketin mag'lubiyatga uchray boshlagan edi. Shuningdek, urush natijasida mamlakat ichkarisida iqtisodiy ahvol va hayot tobora qiyinlashib ketgan edi. Mana shuning uchun ham, Buxoro temir yo'lining tezroq qurilishidan ba'zi bir muammolarni, ayniqsa, xom ashyo yetkazib berish masalasini tezlashtirish va Rossiya sanoati ishlab chiqarishini barqarorlashtirishga zamin yaratilishi kugilgan edi.

1916 yil iyul oyiga kelib Buxoro temir yo'li qurilishida ishlar avj oldirildi. U yerdagi temir yo'l qurilishi bilan band bo'lgan ishchilar soni 7 ming kishiga yetkazildi.²

1914 yili 20 aprelda Buxoro temir yo'li qurilishi bo'yicha tayyorlov ishlari boshlab yuborildi. 1914 yili 16 igon kuni qurilish ishlari boshlandi. Buxoro temir yo'li qurilishi mo'ljallanganidan roparosa bir yil oldin, ya'ni 1916 yil iyun oyida qurib bitkazilib, foydalanishga topshirildi.

¹ Ахмеджанова З. К. К истории строительства стр. 83.

² Ахмеджанова З. К. К истории строительства железных дорог в Средней Азии (1880-1917 г.г.) с. 87.

Bu yo'ning umumiy uzunligi 572 vyorstni tashkil etardi. Shundan 150 vyorsti afg'on chegarasi bo'ylab o'tgan edi. Bu yo'ning qurilishi chor hukumatining foydasini ko'zlab qurilgan bo'lsada, Buxoro hukumati uchun ham juda katta ahamiyatga ega edi.

III. 3. Buxoroda rus manzilgohlarining tashkil etilishi va garnizonlarining joylashtirilishi

Inglizrus raqobatining keskinlashuvi chor Rossiyasi tomonidan bir guruh muhim choratadbirlarni amalga oshirishiga olib kelgan bo'lsa, ular orasida O'rta Osiyo hududida, shu jumladai, Buxoro amirligi hududida temir yo'l qurilishi, rus manzilgohtariningtashkil etilishi va rus garnizonlarining joylashtirilishi alohida o'rin tutadi.

Buxoro amirligi hududidagi ilk rus qal'asi 1883 yili Karki shahri yonida vujudga kslidi. Rus hukumati u yerga 14turkiston liniya batalonini joylashtirdi. 1886 yili esa u yangi kelgan rus otryadi hisobiga kuchaytirildi.

Aynan o'sha yili, ya'ni 1886 yili Chorjo'y shahrida ham rus otryadi joylashtirildi.

Rus hukumati astasekin afg'on chegarasi bo'ylab rus garnizonlarini joylashtira borib, o'zining ushbu harakatlari orqali inglizlarning Afg'onistonga kirib kelishi va ularning O'rta Osiyoga suqilib kelishining oldini olish bo'yicha ishlarni amalga oshirib, o'zining harbiystrategik jihatdan pozisiyasini mustahkamlashga harakat qildi. Jumladan, rus hukumatining ushbu pozisiyasini quyidagi jumalardan ham anglab olsa bo'ladi. Tashqi ishlar vazirligi tomonidan Karki garnizoni boshlig'iga yuborilgan «o'ta maxfiy ko'rsatma»da shunday deyiladi: «Biz Afg'onistonga iisbatan hyech qanday g'araz niyatda emasmiz va uni xohlamaymiz ham. Bizning maqsadimiz inglizlarning Afg'onistoi orqali Buxoroga qarab intilishining oldini olishdan iboratdir».¹

1897 yili rus kazaklari yuzligi Termizda joylashtirildi. Shuningdek, o'sha yili Patta kesarda ham rus harbiylari va fuqarolari kelib o'rnashib olishdi.²

Karki, Chorjo'y, Termiz, Pattakesar afg'on chegarasidagi chet el kuchlari, eng avvalo, inglizlarning O'rta Osiyoga kirib kelishinint oldini olish uchun ruslarning muhim harbiy plasdarmilariga aylantirildi.

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligi hududida ruslar tomonidan temir yo'llar qurilishi munosabati bilan rus manzilgohlari shakllanishiga ham alohida e'tibor kuchaytirildi. Natijada, Yangi Buxoro (Kogon), Yangi Forob, Saroy, Amirobod kabi yangi rus manzilgohlari vujudga keldi. Ushbu rus manzilgohlarining vujudga kelishida rus tadbirkorlari, savdogarlari, amaldorlari va hunarmandlari ham hal qiluvchi o'rin tutishdi. Ayniqsa, Kaspiyorti temir yo'li va Amudaryo bo'ylab kema qatnovini yo'lga qo'yilishi rus fuqarolari va ishbilarmonlarining Buxoro amirligiga kelishini yanada kuchaytirib yubordi.³

Buxoro amirligi hududida vujudga kelgan manzilgohlar, jumladan Yangi Chorjo'y, Karki, Termiz va Pattakesar harbiy komendantlar tomonidan idora etilgan. Ular bir vaqtning o'zida o'sha yerda joylashgan rus harbiy qismlarining boshliqlari ham hisoblashishgan.

Yangi Buxoro (Kogon) shahrini boshqarish uchun esa Buxoro shahrida joylashgan Rossiya imperatorligining Buxorodagi siyosiy agenti qoshida maxsus polisiya qismi

¹ ЎзРМДА. И-3-жамғарма, 1-рўйхат, 19-иш, 45–46-бетлар.

² ЎзРМДА. И-3-жамғарма, 1-рўйхат, 19-иш, 46-бет.

³ ЎзРМДА. И-2-жамғарма, 1-рўйхат. 8-иш, 6-бет.

bo'yicha agentning yordamchisi shtati tashkil etilib, Yangi Buxoroni boshqarish masalasi va unga taalluqli barcha masalalarni hal etish uning zimmasiga yuklatildi.¹

O'z navbatida, ma'muriy politsiya munosabatlari masalalari nuqtai nazaridan, barcha rus manzilgohlari boshqaruvchilari Buxorodagi siyosiy agentga bo'ysunishgan. U, o'z navbatida, ularga ko'rsatmalar berish, yo'riqnomalar jo'natish hamda turli xil topshiriqlar berishta, u yoki bu boradagi qarorlar qabul qilishga, hal qiluvchi xulosalar chiqarish huquqiga ega bo'lgan.

Rus manzilgohlarini boshqarish bo'yicha siyosiy agent faqatgina Turkiston general-gubernatori va Harbiy vazirlikka bo'ysungan.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Buxoro hududida shakllangan rus manzilgohlari juda katta xarakterli xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan mavqeyga ega edi. Chunki amirlik hududida ruslar tomonidan bunyod etilgan deyarli barcha asosiy sanoat korxonalari aynan mana shu rus manzilgohlarida qurilgan edi.

Masalan, Yangi Chorjo'yda 1914 yilga kelib 300 dan ortiq turli xil savdo korxonalari, 10 dan oshiq zavodlar, temir yo'l masterskoylari, Amudaryo floti masterskoyi, Yangi Buxoroda (Kogonda) 7 ta paxta tozalash zavodi, yog' zavodi, tamaki fabrikasi, vino zavodi mavjud bo'lgan.²

XX asr boshiga kelib Buxoro amirligidagi rus manzilgohlarida rus harbiylarini qo'shib hisoblaganda 60 mingdan oshiqroq rus fuqarolari istiqomat qilishgan.

III.4. Rus kapitalining amirlik iqtisodiyotiga kirib kelishi va uning mustamlakachilik mohiyati

XIX asr oxiri – XX asr boshlari Rossiya-Buxoro munosabatlari taraqqiyotida o'ziga xos bir yangi bosqich hisoblanadi. Chunki, aynan mana shu davrda chor Rossiyasi siyosatida boshqa o'lkalarga faol kirib borish va kapitalistik munosabatlarni qaror toptirish yo'li bilan kagga daromad manbaiga ega bo'lish eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanardi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro hududlariga kirib kelgan chorizm bu yerda o'zining doimiy iqtisodiy va siyosiy hukmronligini o'rnatishga intildi.

Rus kapitalining Buxoro amirligi iqtisodiyotiga jadal sur'atda kirib kelishi natijasida, Buxoro qishloq xo'jaligining Rossiya sanoati uchun xom ashyo ishlab chiqaruvchi sifatida ixtisoslashuvi ro'y berdi. Ushbu holatda, ayniqsa, XIX asrning 80yillarida, ya'ni Kaspiyorti temir yo'li qurilishi amalga oshirilgandan keyin ancha kuchaydi. Shuningdek, rus kapitalining Buxoro amirligiga kirib kelishida yana bir omil, ya'ni 1887 yil 13 noyabr kuni tashkil etilgan Chorjo'y bilan Termizni bog'lovchi Amudaryo flotiliyasi ham katta turtki berdi.³

Chor Rossiyasining O'rta Osiyoga, jumladan, Buxoroga nisbatan olib borgan iqtisodiy siyosati samarasi natijasida Buxoroda paxta dalalari kengaytirildi, zavodlar qurilib, bank munosabatlari kirib kela boshladi. Chor hukumatining amirlik hududidagi tayanchi sifatida rus aholi manzilgohlari bunyod etildi. Buxoro amirligini o'ziga to'la siyosiy jihatdan bo'ysundirish maqsadida, chor ma'murlari yirik yer egalari va ayniqsa, amirni o'z tomonlariga og'dirishning turli xil yo'llarini qidirdilar.⁴ Buning natijasi o'laroq, Rossiya bozorlarida «O'rta Osiyo xom ashyosi va uning ba'zi mahsulot turlariga

¹ ЎзРМДА. И-1-жамғарма, 29-рўйхат, 838-иш, 116-бет.

² Фомченко А. П. Русские поселения в Бухарском эмирате. –Ташкент, 1958, стр. 14.

³ Логофет Д. Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. т.1, стр. 218.

⁴ Шек Л. К. Победа народной советской революции в Бухаре. –Т., 1956, стр.

talab kuchaya boshladi. Bundan rag'batlangan mahalliy ishlab chiqarish tarmoqlari egalari imkoniyatlari boricha o'z jamoalarida ishlab chiqarish munosabatlarini qayta qurishga harakat qildilar».¹

Chorizm va rus burjuaziyasi O'rta Osiyoga, jumladan, Buxoro amirligiga nisbatan yo'naltirilgan o'z iqtisodiy siyosatining dastlabki bosqichida, taxminan 1900yillarga qadar, o'zining asosiy diqqate'tiborini Buxoro amirligini Rossiya sanoati uchun arzon xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar tayyorlovchi hududga aylantirishga, rus mahsulotlari uchun esa har qanday xorij kapitalining raqobatini sindirishga yo'naltirilgan maqsadli siyosat olib borishga qaratdi. Buning uchun, eng avvalo, O'rta Osiyoni paxtachilik sanoatiga ixtisoslashtirish zarur edi.

Chor Rossiyasi harbiy ma'murlaridan biri, generalleytenant Terentyev Rossiyaning O'rta Osiyodagi iqtisodiy vazifalari haqida fikr yuritib, O'rta Osiyo Rossiya uchun qo'shimcha iste'molchi va xom ashyo hududi bo'lishi va uning beqiyos ahamiyati to'g'risida alohida to'xtalib, shunday deb yozgan edi: «U rus mahsulotlari uchun asosiy bozor bo'lib qoladi. Hadimdan Buxoro va Marv orqali Sharq va G'arb o'rtasidagi savdo yo'llari o'tib, endilikda ushbu o'lkalar o'zida markaziy savdo ahamiyatini saqlab turibdi: bu yerda xorij kapitali raqobati yo'qligidan Osiyoning barcha mamlakatlaridan savdogarlar kelishib, rus mahsulotlariga xaridor bo'lmoqdalar. Paxta, ipak – asrimizning oltin manbasiga aylangan bir vaqtda, Rossiya O'rta Osiyo qumliklari va sahrolarida o'ziga yangi Kolxida kashf etdi.»²

Chor hukumatining o'lkadagi ma'murlari Buxoro amirligi yerlarida paxta maydonlarini kengaytirishga harakat qilishi bilan bir qatorda, barcha mahalliy ma'murlar bilan hamkorlikda, amirlikda paxta navini yaxshilash bo'yicha ham tashkiliy ishlar olib borishga katta e'tibor qaratishgan. Shu bilap birga, ular paxta zkuvchilarni sanoat paxtasining yangi navlarini ekishga majbur etishardi. 1865 yilda paxta maydonlari Buxoro amirligida 32 ming desyatinani tashkil etgan bo'lsa, 1880 yilda – 50 ming desyatinaga, 1890 yilda – 62 ming desyatinaga, 1916 yilga kelib esa 115 ming desyatinaga yetdi.³

Shunday qilib, XIX asrning 60yillaridan boshlab har yili Buxoroda paxtachilik maydonlarining keskin ortishi kuzatiladi.⁴ Paxtaekishning o'zi ham dehqonlarga sezilarli daromad olib kelgan, chunki paxta sotish ortidan har bir desyatina maydondan o'rtacha 70 rubddan to 80 rublgacha foyda olish mumkin bo'lib qoldi. Vaholanki, o'shanda bir desyatina yerdan olingan paxta hosili dehqonga o'rtacha hisobda 7–10 rubлга aylanardi, xolos.⁵

Ammo paxta sotish ortida turgan sanoatchilar dehqon mehnatiga arzimagan haqto'lab, amalda ularni o'z tarmoqlariga jalb qilib, hayotlarini qashshoqlashishiga sababchi bo'ldilar. Paxta yetishtiruvchi dehqonlar savdosanoat kapitalining zulmi ostida qolib, ularning xo'jaligi to'laligicha paxta ekish va uni yetkazish uchun ixtisoslashib qoldi.

¹ Иванов П. П. Очерки по истории Средней Азии, стр. 113.

² Терентьев М. А. Экономические задачи России в Среднеазиатских владениях. – СПб., 1888, стр. 185.

³ Муфассал каранг: Холикова Р. XIX аср охири – XX аср бошларида Россия-Бухоро ўртасидаги иқтисодий муносабатлари тарихидан лавҳалар. //Татлим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар. 2003. 1– 2сонлар, 82–86 бетлар. Яна каранг: Оглоблин В. Н. – Промышленность и торговля Туркестана. –М., 1914,стр.20.

⁴ Бунаков Е. В. Кисториисношений России со среднеазиатскими ханствами. // Советское востоковедение. Выш. II. 1921, с.21.

⁵ Оглоблин В. Н. Хлопкобумажная промышленность в русских среднеазиатских владениях. –СПб., 1901, стр.24.

Chor hukumati va rus burjuaziyasining olib borgan iqtisodiy siyosati natijasida Buxoro amirligining qishloq xo'jaligi butkul Rossiya imperiyasining to'qimachilik sanoati uchun paxta tolasi yetkazib berishga mo'ljallangan sohaga aylantirildi. Ushbu fikrimizning to'g'riligini Buxorodan Rossiyaga tashib ketilgan paxta tolasi hajmidan ham bilishimiz mumkin. Masalan, Buxoro amirligidan Rossiyaga olib ketilgan paxta hajmi 1865 yilda 60 ming pud, 1877 yilda 900 ming pud, 1890 yilda 1360 ming pud, 1914 yilda 1483 ming pud, 1916 yilga kelib esa 1.731.945 pudga ko'paydi. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda Buxorodan Rossiyaning Yevropa qismiga tashib ketilgan paxta tolasi hajmi 10 barobarga ko'paygan.¹

Ma'lumki, bu vaqtda birinchi jahon urushi boshlanib ketishi munosabati bilan Rossiyaga Amerikadan paxta keltirishning imkoni bo'lmadi. Bu esa, o'z navbatida, O'rta Osiyo paxtasiga bo'lgan e'tiborni va talabni yanada kuchaytirdi. Ayni bir paytda paxtaning narxi ham oshib bordi.²

XX asr boshlariga kelib, chorizm va rus burjuaziyasining Buxorodagi faoliyati sezilarli darajada o'zgardi. Endi uping siyosatida amirlik hududlarini egallash masalalaridan ustunroq bo'lgan boshqa yangi bir yo'nalishga qiziqish paydo bo'ldi. Rus hukumati va uning burjua vakillari bu yerlarda sanoat korxonalarini tashkil etishga katta e'tibor qarata boshlashdi. Buxoroga chor Rossiyasi tomonidan tayyor mahsulotlar bilan bir qatorda, rus kapitali ham kiritila boshlandi. Ularning yordamida bu yerlarda fabrika, zavod, aksiyadorlik jamiyatlari, banklar va savdo muassasalari tashkil etildi.

1893 yilga kelib, Buxoroda birinchi paxta tozalash zavodi qurildi. Birinchi jahon urushi arafasiga kelib, ularning soni 26 taga yetdi.³ Ushbu paxta tozalash zavodlarining 19 tasi rus burjuaziyasiga, 3 tasi Buxoro amiriga, 3 tasi musulmonkapitalistlarga va 1 tasi buxorolik yirik savdogar Mirza Muhiddin Mansurovga tegishli bo'lgan. Ushbu ishlab chiqarish korxonasida jami mingdan oshiq ishchilar mehnat qilishgan. Buxoro amirligidagi qariyb 80% paxta tozalash zavodlari rus burjuaziyasiga tegishli bo'lgan.⁴ Shuningdek, Buxoro amirligida 1913 yilda 2 ta yog'moy zavodi, 3 ta Yevropa un tegirmonlari, 10 ta g'isht zavodi, Qorako'lda 2 ta tamaki sexi va Yangi Buxoroda 1 ta bosmaxona mavjud bo'lgan. Ushbu davrga kelib Buxoro amirligi hududida jami 50 dan oshiq kapitalistik ishlab chiqarishga moslashgan korxonalar faoliyat ko'rsatar edi.⁵ 1916 yilga kelib esa Buxoro hududlarida 34 ta paxtatozalash zavodi mavjud bo'lib, ularda yiliga 2565 ming pud paxta xomashyosi tayyorlangan.⁶

Buxoro amirligidagi sanoat korxonalarining qurilishi Rossiya imperatorligining Buxorodagi Siyesiy agentligi tomonidan 1912 yil 25 iyundagi farmoyishiga asosan amalga oshirilib, unga ko'ra Buxoro hududlarida korxona va tashkilotlar qurilishi va ishga tushirilishi bilan bog'liq barcha xatti-harakatlar aynan ana shu agentlik zimmasida bo'lgan.

Rus burjuaziyasi ishtirokida Buxoro amirligi xududida tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar bilan bir qatorda, bu davrda Buxoroda mahalliy yirik sarmoyadorlar vakillari tomonidan tashkil etilgan va boshqarilgan kapitalistik ishlab chiqarish

¹ Гофуров Б., Прохоров Н. Н., Падение Бухарского эмирата. Сталипабад.. 1940, с.24.

² Тарих шохидлиги ва сабоқлари. Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. –Т., 2001, 126-бет.

³ Холиқова Р. XIX аср охири – XX аср бoshларида Россия-Бухоро муносабатлари тарихида лавқалар, 84-бет.

⁴ ЎЗРМДА. 3-жамғарма, 1-рўйхат, 28-иш, 27-бет.

⁵ Рябинский А. Царская Россия и Бухара в эпоху империализма// Историкмарксист, 1941, № 4. стр.7.

⁶ ЎЗРМДА. 3-жамғарма, 1-рўйхат, 23-иш, 27-бет.

muassasalari ham faoliyat ko'rsata boshladi. Masalan, Arabov, Xo'jayev va boshqalarning Buxoro firmalari shular jumlasiga kiradi.¹

Buxoro amirligi o'zining boy xom ashyo zaxirasiga ega bo'lishiga qaramasdan, unint hududlarida tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar deyarli yo'qedi. Ochig'ini aytganda, rus hukumati buni xoxlamas edi. Chor ma'muriyati amirlikda tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar tashkil etilishiga qarshilik qilar va o'zining bu siyosatini Rossiya impernyasining bu yerdagi xom ashyo va tayyor mahsulotlar bozoriga xavf solishi mumkinligi bilan izohlardi. Masalan, Turkiston general-gubernatori Samsonovning «Samarqand aksiyadorlik jamiyati»ning Samarqandda to'qimachilik fabrikasini qurish haqidagi 1913 yilgi bildirishnomasiga javoban: «Turkistonda to'qimachilik sanoatining taraqqiyoti Moskva fabrikazavodlarining faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi» degan xulosani beradi va uning talabini rad etadi.²

Chor Rossiyasi ma'murlari XIX asrning 80–90 yillarida Buxoro rus banklari filiallarini ochishga harakat qilishdi.

Jumladan, 1887 yili Rossiya bilan Buxoro o'rtasida Buxoro amirligida Rus davlat bankining filialini ochish masalasi bo'yicha diplomatik muzokaralar olib borildi va har ikkala tomonning roziligi bilan ushbu masala ijobiy hal etildi. Natijada oradan bir necha yil o'tgach, aniqrog'i 1894 yili Buxoroda Rus davlat bankining filiali ochildi va u o'z faoliyatini yurgizib yubordi.³

Rus kapitalining yana bir tarmog'ining Buxoro amirligiga kirib kelishi, o'z navbatida, kapitalistik munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishiga katta turtki bo'ldi.

Rossiya-Buxoro diplomatik muzokaralarining ijobiy natijalari asosida XIX asr oxiri – XX asr boshiga kelib Buxoro amirligida yana rus banklarining 7 ta filiali ochildi.⁴

Ushbu davrda, Buxoro amirligida, shuningdek, ulardan tashqari turli xil jamiyatlar (obshestvo) va sherikchilik (tovarishestvo) nomlari bilan rus tayyorlov firmalari va tovarlarni jo'natuvchi rus tashkilotlari va korxonalari faoliyat olib borishgan.

Tovarlarni jo'natuvchi rus korxonalari Buxoro qishloq xo'jaligi mahsulotlarini amirlik ichkarisida to'plash va ularni Rossiyaga jo'natishni tashkil qilish masalalari bilan shug'ullangan.

Ushbu turdagi korxonalar Yangi Chorjo'y, Yangi Termiz, Yangi Buxoroda ko'plab ochilgan. Masalan, Yangi Chorjo'yda Vladikavkaz temir yo'lining transport korxonasi, Yangi Termizda esa Sharq jamiyatining tovar skladlari hamda sug'urta va tovarlarni jo'natish korxonasi, «Kavkaz va Merkuriiy jamiyati»ning Yangi Termiz korxonalari faoliyat ko'rsatishgan.

Buxoro amirligida Buxoro qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va ayniqsa, paxtaning sifatini yaxshilashdaru firmalari va korxonalari tomonidan amirlik dehqonlarini moliyaviy jihatdan ta'minlashi katta ahamiyat kasb etgan. Ushbu holdagi rus kapitalining Buxoro amirligi iqtisodiy hayotiga kirib kelishi 1889 yildan boshlangan.

1889 yili ilk bor ushbu faoliyat bilan «Poznanskiy va K» aksionerlik jamiyati shug'ullana boshladi. U ruslar Buxoroga kirib kelgan davrdan boshlab, birinchi bo'lib dehqonlarga oldindan bo'lg'usi hosil uchun mablag' berib qo'yadi. Qisqa vaqt ichida ushbu usul ruslar tomonidan butun amirlik hududida keng qo'llanila boshlandi.⁵

¹ История народов Узбекистана. – Т., 1947. Т. II. с.281.

² ЎЗРМДА. 1-жамғарма, 1-рўйхат, 945-иш, 7-бет.

³ ЎЗРМДА. И-3-жамғарма, 1-рўйхат, 21-иш, 3-бет.

⁴ ЎЗРМДА. И-3-жамғарма, 1-рўйхат, 368-иш, 28–32-бетлар.

⁵ ЎЗРМДА. И-3-жамғарма, 1-рўйхат, 166-иш, 2–4-бетлар.

Rus korchalonlari keyingi yillarda nafaqat paxta hosili uchun oldindan pul to'lash bilan, balki qorako'l teri va jun uchun ham oldindan pul to'lab qo'yishga keng kirishib ketishdi. Oldin hosilga pul to'lab qo'yish odati Buxoro amirligida «bo'nak» deb yuritilgan.

«Bo'nak» odatda bahor faslida tilxat orqali berilgan. U qozi tomonidan albatta tasdiklangan bo'lishi kerak bo'lgan. Bo'nak oluvchi, odatda, o'z yerini yoki biror mulkini garovga qo'yib, keyin uni evaziga bo'nak olgan. Bo'nak berish shunchalik keng avj olganki, natijada rus firmalari va tashkilotlari, ba'zan esa bo'nak beruvchi rus fuqarolari bo'lgan jismoniy shaxslar o'rtasida raqobat kuchayib ketgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida oltin qazish sanoati ham ancha taraqqiy etdi. Rus kagshtali kirib kelgunga qadar, Sharqiy BuxoroQorategin, Darvoz bekliklarida, Yax-Suv, Vaxsh va Panj daryolarining yuqori oqimlarida ushbu qimmatli metall qazib olinardi. Qorategin va Darvoz bekliklarida istiqomat qiluvchi dehqonlar dala ishlarini tugatganlaridan so'ng, oltin qumlarini yuvishga otlanishar edi. Ushbu mavsum ikki oydan uch oyga qadar cho'zilar. tozalangan oltin amir g'aznasiga jo'natilar edi.

Ayniqsa, amirlikdagi xom ashyo boyliklari, tabiiy yer osti va yer usti boyliklari ustidan o'z nazoratini o'rnatgan chor Rossiyasi, hatto amirlikdagi oltin ishlab chiqarish va uni qidirish ishlarini yuritish ustidan nazoratni ham o'z qo'lga kiritdi.¹ Jumladan, 1896 yil 24 fevral' kuni Turkiston general-gubernatori tomonidan tasdikdangan «Buxoro xonligida oltin sanoati» to'grisida maxsus farmoyish e'lon qilindi. Ushbu farmoyish 40 banddan iborat edi.

Ushbu farmoyishda Buxoro amirligiga qarashli erkin, hali egallanmagan yerlarda mavjud oltin konlarini barcha rus fuqarolari o'rganishi va tadqiq etishi, oltin qazib chiqarish huquqiga ega ekanligi ham qayd etildi (1-band).

Farmoyishning ikkinchi bandida ko'rsatilishicha, joylarda oltin konlarini anikdash, o'rganish va qazib olish huquqi vaqtincha foydalanish uchun beriladi. Bunday huquqni olish uchun rus fuqarolari Buxorodagi Rus siyosiy agentligiga yozma ravishda murojaat qilganlar. Buxoro amirligi bilan kelishilganidan so'ng ikki yil muddatga foydalanishga ruxsat berilgan bo'lgan. Shunday ruxsat olgan har bir kimsa, maydonning boshi va oxirida maxsus ko'rsatkichlarda, yer egasining ismisharifi, uyushma yoki tashkilotning nomi, qaysi vaqtgacha shu yer egallanganligi va shu xil ma'lumotlarni yozib qo'yishi shart bo'lgan. Ushbu holat amalga oshirilganidan so'ng, ish olib boruvchi o'sha odam hudud bekiga va Rus siyosiy agentligiga shu to'g'rida xabar berishi lozim bo'lgan. (9 va 14 bandlar).²

O'z navbatida hudud beki, yerni egallagan shaxs yoki jamoa tomonidan oltin topilganligi to'g'risida ma'lumotariza olgandan so'ng, darhol Buxoro amirligiga bu to'g'rida xabar berishi shart edi. Shu bilan birga, bek ariza bergan shaxsga, arizasini olganligi to'g'risida tilxat berishi lozim bo'lgan (15band).

Yer uchastkasi berilayotganda, albatta, har bir uchastka orasida o'tish uchun yo'l qoldirilishi shart bo'lgan (20band) va ushbu hujjatda belgilanganidek, bir shaxsga yoki jamoa va aksionerlik jamiyatiga birvarakayiga bir joyning o'zidan ketmaket ikkita uchastka ajratilishi mumkin bo'lmagan (21band).

Agar oltin izlash uchun ruxsat olingan bo'lsa, unda sanoatchi (ya'ni oltin izlovchi) 18 oy davomida ishni to'xtatishi mumkin emas edi (24band).

¹ Боскинчилар қўзини ўйнатган Бухоро олтини // Жамият ва бошқарув. 2000, 4-сон, 1–76-бетлар.

² ЎЗРМДА. И-3-жамғарма, 2-рўйхат, 1-иш, 12–12^а-бетлар

Oltin izlovchi sanoatchilar farmoyishining 7punktida ko'rsatilganidan tashqari, o'z manfaatlari uchun, ya'ni uyjoy va boshqa qo'shimcha qurilishlar uchun, qo'shimcha ravishda 5 desyatinadan 10 desyatinaga qadar yer so'rash huquqiga ham ega bo'lgan (22band), ammo ushbu qo'shimcha yer uchun alohida ijara puli to'lash lozim bo'lgan.

Sanoatchilar yoki jamiyat a'zolari yer ajratilgandan so'ng, ikki yillik muddat o'z nihoyasiga yetgunga qadar, har yili o'rtacha hisobda o'sha yerda 40 kub miqdorga teng bo'lgan oltinga ega bo'lgan qum yoki materialni qayta ishlashi lozimligi farmoyishda qayd etilgan (25band).¹

Uz yer uchastkasida oltin ishlab chiqarish ishlarini to'la nihoyasiga yetkazgandan so'ng, sanoatchi Siyosiy agentlik orqali Buxoro hukumatiga o'z vaqtida ma'lumot va xabar berishi lozim bo'lgan. Undan so'ng, unga u yerdagi barcha qurilish va yordamchi xo'jaliklarni buzib olishi uchun ikki yil vaqt berilgan (29band).

Olipanoh janobi oliylari Buxoro amiriga taalluqli bo'lgan yerlardan foydalanilganligi uchun oltin izlovchi sanoatchilar har bir desyatina yerdan 2 rubl miqdorida yer solig'i to'lashi shart bo'lgan (30band).

Oltin izlovchi sanoatchilar har bir yer uchastkasidan qazib topgan barcha oltinlar to'laligi holida Buxoro ho'kumati ixtiyoriga topshirilishi, o'z navbatida, hukumat ularga o'sha kunda Sankt-Peterburg birjasida mavjud bo'lgan narx bo'yicha kredit haq to'lashi lozim bo'lgan (31band).

Qazib olingan va topilgan hamda hukumatga topshirilgan har bir pud oltindan Buxoro hukumati foydasiga 5 foiz miqdorida to'lov ushlab qolinishi belgilangan (32band).

Qazib olingan oltinlarni yashirganlar va ularni Buxoro amiri xazinasiga to'la topshirmaganlar, o'z isbotini topgan taqdirda, ular (ya'ni javobgarlar) oltin qazishdan butunlay mahrum etilishi ko'zda tutilgan (33band).

Shuningdek, ushbu farmoyishda oltin ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan texnikalar, mashinalar, ehtiyet qismlar xonlik hududiga olib kiritilayotganda zakot to'lashdan to'la ozod etiladi, deb belgilangan edi (34band).²

Oltin ishlab chiqaruvchi sanoatchilar ushbu farmoyishda ko'rsatilishicha (36band), Buxoro hududida ish olib borish jarayonida Rossiyada chop etilgan kon ishlarini tashkil etish va nazorat qilish to'g'risidagi qonunlarga amal qilishgan.

Chor Rossiyasi Buxoro hukumatiga oltin ishlab chiqarish ishlarini nazorat qilib turish uchun o'z amaldorlarini qo'yish huquqini bergan (37band). Ushbu nazoratchi amaldorlarga oltin ishlab chiqarish bilan shug'ullanayotgan sanoatchilar o'z ishlarini ko'rsatishlari va tanishtirishlari, ish olib borilayotganda, hamda olingan oltinlarni tarozida tortib ko'rayotganda, ularning ishtirok etishlari uchun ruxsat berishlari lozim bo'lgan. Xuddi shuningdek, ular, ya'ni sanoatchilar Buxoro hukumati bilan kelishilgan holda, tashrif buyurgan Siyosiy agentlik yoki Turkiston general-gubernatori tomonidan maxsus jo'natilgan shaxslarga oltin ishlab chiqarish joylarini, binolarni ko'rish va taftish qilishlariga to'la imkon berishlari belgilangan.³

Barcha huquqiy masalalar, jumladan, sanoatchilar va Buxoro hukumati o'rtasidagi tortishuvlar, kelishmovchiliklar va nizoli masalalar maxsus sudlar (treteyskiy sud) tomonidan ko'rib chiqilishi ko'zda tutilgan (39band). Ushbu sud a'zolarining biri Buxoro

¹ ЎЗРМДА. И-3-жамғарма, 2-рўйхат, 1-иш, 13-бет

² Боскинчилар қўзини ўйнатган Бухоро олтини, 75–76 бетлар.

³ ЎЗР МДА. И-3-жамғарма 2-рўйхат, 1-иш, 13–13^а бетлар.

hukumati vakili, biri oltin ishlab chiqaruvchi sanoatchi vakili bo'lib, ular Siyosiy agentlik tomonidan tayinlangan rais boshchiligida ishni ko'rib chiqishlari lozim bo'lgan.

Mana shu tariqa Buxoro amirligi hududi ruslar tomonidan egallanib, u tobe davlatga aylantirilib, barcha siyosiy huquqlardan mahrum qilib qo'yilgandan so'ng, rus hukumati amirlikni iqtisodiy qaramga aylantirish siyosatini amalga oshira borib, uzoq yillar davomida orzu qilib kelgan (Ivan IV Grozniy davridan boshlab) yurtimiz oltiniga ham erishdi.

Shunday qilib, rus hukumati 1896 yil 24 fevral farmoyishi orqali Buxoro oltinidan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga kirishdi.

1894 yilda Buxoroga tog' injeneri, kapitalist Joravko Pokorskiy keladi. U oltin mavjud bo'lgan hududlar bilan tanishadi, hamda Yax-Suv, Safetdaryo va Mozorsuv degan manzillarda oltin qidirish ishlarini boshlashga ruxsat berishlarini so'rab murojaat qiladi. Shu tariqa, u Buxoro hududida oltin qidirish ishlari bo'yicha birinchi bo'lib ruxsat oladi.

Birgina 1896–1899 yillarda, Safetdaryo bo'ylarida qidiruv ishlariga tayyorgarlik davridayoq 2 puddan ortiq oltin qazib olingan.¹

Chor Rossiyasi ma'murlari amirliqdagi sug'orish tarmoqlari taraqqiyotiga rus kapitalistlari konsessiyalarini kiritish yo'li orqali Buxoroni Rossiya imperiyasiga bog'lab qo'yishni ham maqsad qilgan edilar.

1900–1910 yillar davomida kapitalistlar Buxoro amiridan sug'orish uchun qulay yerlar olib, Termiz, Sherobod, 1.Qarshi, 2.Qarshi, Qabodiyon, Ayvaj, Kalif, Qo'rg'ontepa sug'orish konsessiyalarini tashkil etishdi. Ularning umumiy maydoni 291799 desyatina yerni tashkil etgan.²

Konsessiyalar sug'orish uchun qulay, suv manbaiga yaqin bo'lgan yerlarda tashkil etilgan bo'lib, bu mahalliy dehqonlarning noroziligiga sabab bo'lar edi.

Rossiyaning Buxoro bilan olib borgan o'zaro munosabatlarida savdo aloqalari katta o'rin egallar edi. Karvon yo'llari orqali savdo qilish bu davrga kelib, birmuncha qiyinchiliklar va noqulaylik tug'dirardi. Eng avvalo, ushbu yo'l orqapi olib borilgan tovarlar manzilga 3–4 oylab yo'l bosgapdan so'ng yetib borardi. Boshqacha qilib aytganda, O'rta Osiyodan xom ashyolarni Rossiya ichkarisiga olib kirish va o'z navbatida, u yerdan xonliklar hududidagi bozorlarga tayyor mahsulotlarni kirib kelish muddati, eng avvalo, chor Rossiyasi ma'murlari va rus burjuaziyasini qanoatlantirmasdi. Mana shu sabab tufayli ular savdo aloqalari uchun yangi, qulay yo'llarni qidirishga kirishdilar va buning yechimi sifatida o'lkani temir yo'llar orqali bog'lash taklifini ilgari surishdi.

Temir yo'l qurilishining Rossiya uchun ijobiy tomonlari haqida Buxorodagi siyosiy agent Ignatyev 1898 yil 14 oktyabrda Rossiya tashqi ishlar vaziriga yo'llangan maktubda alohida ta'kidlab, shunday deb yezadi: «Temir yo'l Buxoroni arzon non bilan ta'minlab, u yerda paxta maydonlarining tezda keskin ko'payishiga ta'sir etadi».³

Agarda 1850 yilda Buxorodan Rossiyaga 350 ming rubllik xom ashyo olib ketilgan bo'lsa, 1910 yilga kelib, jami 20 million rubllik miqdorda mahsulot olib ketildi.

¹ Холикова Р. XIX аср ўрталарида – XX аср бошларида Бухоро амирлигида ишлаб чиқариш муносабатлари. // ЎзМУ хабарлари. 2004, 4-сон, 26-29 бетлар.

² Рябинский А. Царская Россия и Бухара в эпоху империализма // Историкмарксист. 1941, № 4. стр.12.

³ Сборник консульских донесений за 1898 г. – СПб. Вып. I. стр.17–18.

Rossiyadan Buxoroga esa 17 million rubl miqdorida xilmaxil tayyor mahsulotlar olib kelindi.¹

Yuqoridagi faktlar shuni ko'rsatadiki, Rossiyaning Buxoro bilan savdo aloqalari uning dastlabki bosqichi, ya'ni Buxoroni istilo etgan davrga nisbatan XX asr boshlariga kelib, bir necha marotaba ko'laydi. Shu bilan birga, uning qo'shni davlatlar bilan savdo aloqalari keskin darajada kamayib bordi. Bundan xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, chor Rossiyasi va rus burjuaziyasi O'rta Osiyoda, jumladan, Buxoroda xorijiy raqobatchilarni sindirish va ularni Buxoro bozorlaridan siqib chiqarishga muvaffaq bo'lib, o'ziga yangi xom ashyo bozorini yuzaga keltirdi.

¹ Холикова Р. XIX аср охири – XX аср бошларида Россия-Бухоро ўртасидаги иқтисодий муносабатлар тарихидан лавҳалар. 86-бет.

XULOSA

Buxoro amirligi XIX asrning o'rtalariga kelib, O'rta Osiyo xonliklari ichida o'z salohiyati, hududi, aholisi, ishlab chiqarishi va tabiiy resurslari jihatidan alohida mavqyega ega bo'lib, O'rta Osiyo hududidagi eng yirik monarxistik davlat hisoblangan.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Buxoro xonligida hokimiyat tepasiga mang'itlar sulolasining kelishi tufayli uzoq vaqtlar davomida hukm surib kelgan o'zaro kurashlar va urushlarga chek qo'yildi. Katta harakatlar evaziga markazlashgan hokimiyat tizimi yuzaga keltirildi va qishloq xo'jaligi, hunarmadchilik, savdosotiq, ishlab chiqarish borasida bir qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirildi.

XVIII asrning o'rtalariga kelib, Buxoro amirligi o'z hukmronligida faqatgina Buxoro shahri va uning atrofidagi tumanlar bo'lmish Vobkent, G'ijduvon, Qorako'l, Vardonze, Qashqadaryo viloyati hududlari va Miyenkol vohasi hududlarini saqlab qolgan bo'lsa, XIX asrning boshiga kelib, Buxoro amirligi hududiga Zarafshon hamda Qashqadaryo vohasi hududlaridan tashqari, Surxon vohasi hududi, Hisor, Xo'jand, O'ratepa, Panjikent kabi aholi zich yashaydigan tumanlar, Zarafshon daryosining yuqori oqimi, Janubiy Turkistonning katta qismi hamda Chorjo'ydan tortib, to Murg'ob daryosiga qadar bo'lgan sarhadlar kirgan.

XIX asrning 20–50 yillarida Buxoro amirligi hududiy tuzilishida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Buxoroda ushbu davrda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy tushkunlik natijasida, uning bir qator sarhadlari qo'ldan chiqib ketdi. Jumladan, Toshkent, Turkiston, Xo'jand va O'ratepa Buxoro amirligi tasarrufidan chiqib, Qo'qon xonligiga o'tdi. Hisor viloyati hamda Zarafshon daryosining yuqori oqimi qismlaridagi hududlar mustaqil hukmronlikni qo'lga kiritishdi. Shahrisabz va Kitob Buxoroga bo'ysunmay qo'ydi. XIX asrning 50yillariga kelib esa uzoq vaqt Buxoroga tobe hisoblangan Balx, Andxoy, Maymana, Shibirg'on va Janubiy Turkistonning boshqa viloyatlari bevosita Angliya hukumatining ta'siri va yordami tufayli afg'on amirlari tomonidan egallab olindi.

XIX asrning 50–60yillariga kelib, Buxoro 44 ta beklilikdan iborat bo'lgan bo'lsa, 1915 yilda Buxoro amirligi 27 viloyat (beklik) va 11 ta tumandan iborat bo'lgan. Buxoro amirligida viloyatlar (bekliklar) va tumanlar doimiy ravishda yo qo'shilib turgan, yo ajralib turgan.

XIX asr boshida Buxoro amirligi iqtisodiy hayotida yerga egalik masalasi muhim ahamiyat kasb etgan. Yer egaligining uch xil kategoriyasi: 1) davlatga taalluqli bo'lgan yerlar; 2) xususiy yer egalariga taalluqli bo'lgan yerlar; 3) musulmon diniy muassasalar ixtiyeridagi yerlar mavjud bo'lgan.

XIX asr o'rtalariga kelib Buxoro, Samarqand, Qarshi, G'uzor, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on, Denov kabi amirlikning yirik shaharlari Buxoro amirligining asosiy savdo markazlari hisoblangan. Amirliqda hunarmandchilikning rivojlanishi savdo munosabatlarining kengayishiga bosh sabab bo'lgan. Ushbu holat ayniqsa, ichki savdo rivojlanishiga keng yo'l ochdi. Bu davrda Buxoroning qo'shni davlatlar – Qo'qon va Xiva xonligi, Afg'oniston hamda Rossiya, Eron, Hindiston va Xitoy kabi yirik davlatlar bilan savdo aloqalari tez sur'atlar bilan rivojlanib borgan.

Rossiya-Buxoro savdo munosabatlarida paxta va undan tayyorlangan mahsulotlar hamda qorako'l teri ustuvor o'rinni egallagan.

Savdosotiqning rivojlanishi va uning bevosita ta'siri ostida, XIX asrning o'rtalaridan boshlab, Buxoro amirligi ishlab chiqarish munosabatlarida jiddiy o'zgarishlar

ro'y berdi. Ushbu holatning ro'y berishida Buxoro amirligiga nisbatan Rossiya va Angliya davlatlarining o'ta katta qiziqishining yanada kuchayishi ham katta sabab bo'ldi.

XIX asrning o'rtalaridan boshlab, Angliya hukumati Buxoroga nisbatan o'z ta'sir doirasini kengaytirish va kuchaytirishga katta e'tibor qaratib, Buxoro bozorlaridan rus tovarlarini siqib chiqarish siyosatini ishlab chiqdi va uni amalga oshirish borasida katta sa'y-harakatlarni olib bordi. Pirovard natijada, ushbu siyosat O'rta Osiyo masalalari bo'yicha Angliya-Rossiya o'rtasidagi raqobatni yuzaga keltirdi.

O'rta Sharq masalasi bo'yicha, shu jumladan, O'rta Osiyo hududlari bo'yicha, Angliya-Rossiya raqobatining kun sayin kuchayib borishi, har ikkala tomonning turli xil yo'llar– siyosiy, iqtisodiy, diplomatik va harbiy yo'llar orqali ushbu hududlarda o'z hukmronligini o'rnatish borasida jiddiy va keskin choralarni ko'rishga olib keldi. Pirovard natijada, chor Rossiyasi XIX asrning 50–60 yillarida O'rta Osiyo hududlariga nisbatan harbiy yurishlar uyushtirib, u yerlarni o'ziga bo'ysundirish bo'yicha jiddiy harakat olib bordi. XIX asrning 60 yillarida Qo'qon xonligi hududlarining katta qismi, shu jumladan, yirik shahar Toshkentning ruslar tomonidan istilo qilinishi, Rossiya-Buxoro munosabatlarining keskinlashuviga, oxiroqibat rus hukumati tomonidan 1866 yilda Buxoro amirligiga qarshi harbiy harakatlarning boshlanishiga va harbiy-strategik jihatdan ustun bo'lgan rus harbiylari tomonidan qisqa muddat ichida, ya'ni 1866–1868 yil iyun oyi ichida Buxoro amirligining juda katta hududi bosib olinishiga olib keldi. Buxoro amirligining bosib olingan hududlari Rossiya imperiyasi tarkibidagi hududlar deb rasman e'lon qilindi.

Buxoro bilan Rossiya o'rtasidagi ilk tinchlik shartnomasini tuzish to'g'risidagi taklif 1866 yil 12 sentyabrda Orenburg general-gubernatori Krijanovskiy tomonidan taklif qilingan edi. Ushbu shartnoma 10 ta bo'limdan iborat bo'lib, Buxoro hukumatiga tinchlik ta'minlanganligini isbotlovchi shartlar va majburiyatlar ko'rsatilgai edi. Buxoro amiri ushbu shartnomani belgilangan vaqtda qabul qilganligi to'g'risida ijobiy javob qaytarmaganligi sababli, ruslar yana harbiy harakatlarni boshlab yuborishdi. 1867 yil 23 sentyabrdan so'ng ruslar Buxoroning boshqa hududlari – Jizzax, O'ratepa va Yangi Qo'rg'onni bosib olishdi. Ushbu voqoyalardan so'ng Amir Muzaffar general Kaufmanga murojaat qilib, Yangiqo'rg'onni qaytarib berishini, o'z navbatida, u uning evaziga Buxoro qo'shinlarini tarqatib yuborishini ma'lum qildi. Kaufman ushbu taklifga rozi bo'lib, Buxoro amiriga 1866 yil Orenburg general-gubernatori taklif etgan tinchlik shartnomasining to'ldirilgan yangi variantini qabul qilishini va imzolashini qat'iy talab qildi. Ushbu yangi taklif etilgan shartnoma muhokamasi va muzokaralar yetti oyga cho'zildi. Amir tinchlik shartnomasini tuzishni turli xil yo'llar bilan orqaga surishga harakat qildi. U vaqtdan yutishni maqsad qilgan edi. Amir Qo'qon, Xiva, Afg'oniston va Qashqar bilan muzokaralar olib borish va ular bilan kelishgan taqdirda, kuchlarni birlashtirib Rossiyaga qarshi harbiy blok tuzishga harakat qildi. Ammo hеч bir ijobiy natija qo'lga kiritilmadi. Ruslar o'z takliflariga javob ololmagach, yana Buxoroga nisbatan keskin choralar ko'rishni va harbiy harakatlarni boshlab yuborishni ma'qul topdi. Ular katta harbiy kuch bilan 1868 yili o'z bosqinchilik harakatlarini davom ettirishdi va buxoroliklarni Cho'ponota tepaligida, Samarqand, Kattaqo'rg'on, Urgut, Qoratepa va nihoyat 1868 yil 2 iyunda Zirabuloq tepaligida batamom mag'lubiyatga uchratishga muvaffaq bo'lishdi.

Chor Rossiyasining bosqinchilik harakatiga qarshi Buxoro amirligi aholisi jonjahdlari bilan bosqinchilarga qarshi kurashdilar.

1868 yil iyun oyida Samarqand shahri aholisi rus bosqinchilariga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Samarqand shahri, uning atrofidagi manzilgohlar, Kitob va

Shahrisabz viloyatlari hamda G'uzor ahli Abdulmalik To'ra atrofida jipslashib, ozodlik kurashiga qo'zg'aldilar. Abdulmalik To'ra boshchiligida qo'zg'olonchilar Samarqandga juda katta kuch bilan hujum uyushtirib, ruslarni og'ir ahvolga solib quyishdi. Ushbu zarba Turkiston general-gubernatori Kaufmanni esankiratib qo'ydi. Aynan mana shuning uchun ham, Zirabuloq tepaligidagi jangda, uning qo'li baland kelishiga va g'alabaga erishgan bo'lishiga qaramay, amir tomonidan taklif etilgan sulh to'g'risidagi taklifni darhol qabul qilishga majbur bo'ldi va o'z qo'shinlarini Samarqandga yordamga jo'natdi.

Abdulmalik To'ra boshchiligidagi lashkar uch kechakunduz davom etgan jangdan so'ng Samarqandga kirishga muvaffaq bo'lishdi. G'alaba nashidasiga yaqin qolgan bir paytda, qo'zg'olonchilar orasida larokandalik yuz berdi. Ularning asosiy qismi jang maydonini tashlab chiqib ketishdi. Rus qo'shinlarining yordamga yetib kelayotganini eshitib, Abdulmalik To'ra ham Samarqandni tashlab chiqib, janglar bilan chekinib, Taxtaqoracha orqali Shahrisabzga qaytishga majbur bo'ldi.

Chor Rossiyasi Buxoro amirini Zirabuloq tepaligida mag'lubiyatga uchratgach, general fon Kaufman Qo'qon xoni Xudoyorxonga nisbatan 1868 yil 29 yanvarda tutgan yo'lni, ya'ni savdo shartnomasini so'zsiz imzolash yo'lini Buxoro amiri Muzaffarga nisbatan ham qo'lladi. Buxoro amiri Sayyid Muzaffar ruslar tomonidan 1868 yil 18 iyunda taqdim etilgan xuddi ana shu mazmundagi shartnoma shartlarini to'la qabul qildi. Buxoro amiri o'z mulki bo'lgan Samarqand va Kattaqo'rg'onning ruslarga tobe bo'lgan mulk sifatida tan olishga majbur bo'ldi hamda urush xarajatlarini qoplash uchun katta miqdorda o'llon to'lashni o'z bo'yniga oldi.

Chor Rossiyasi hukumati, uning Turkiston o'lkasidagi ma'murlari to'g'ridanto'g'ri Buxoro amirligining ichki ishlariga aralashib, unga o'z zulmini va ta'sirini o'tkaza boshladi.

1886 yili yanvar oyida Rossiya podshosi buyrug'i asosida Buxoroda Rossiya imperatorligi Siyosiy agentligi tashkil etildi. Siyosiy agent to'g'risidagi Nizomga muvofiq, u Buxoro amiri va uning vazirlari ustidan hamda ular olib borayotgan ishlar ustidan nazorat olib borish bilan birga, amirlikdagi shaharlarni obodonlashtirish, kasalxonalar qurilishi, pochta telegraf binolari qurish kabi vazifalar hamda Buxoroda istiqomat qiluvchi rus fuqarolari va buxoroliklarga nisbatan qozilik qilish huquqiga ham ega edi.

Amir boshchiligidagi Buxoro hukumati Rossiya davlati bilan amalga oshiradigan va hal qilinadigan barcha masalalarni aynan mana shu Siyosiy agentlik orqali amalga oshirishga majbur edi. Siyosiy agentlik rus podshosi hukumatining takliflari va xohishlarini amalga oshirishda amirga maslahat va ko'rsatma beruvchi eng katta maslahatchiga aylandi. Pirovard natijada, uning Buxoro ichki ishlariga aralashuvi kuchayib, shu darajaga yetdiki, hatto Buxoro davlati mansablariga xodimlar va amaldorlarni tayinlash ham uning qo'liga o'tdi.

Chor Rossiyasi hukumati O'rta Osiyoga, shu jumladan, Buxoro amirligiga nisbatan olib borgan harbiy harakatlaridan nafaqat siyosiy, harbiy strategik maqsadlarni, balki iqtisodiy manfaatdorlik negizidagi maqsadlarni ham ko'zlagan edi.

Chor Rossiyasi hukumati va uning Turkiston o'lkasidagi ma'murlari astasekinlik bilan Buxoro amirligi iqtisodiyotiga kirib kelib, uning ustidan to'la hukmronlikni qo'lga kiritdi. Chor hukumatining Samarqand viloyatidagi ma'murlari Zarafshon suvi taqsimoti masalasi ustidan gegemonlikni qo'lga kiritib, Buxoro hududlari suv ta'minotini o'ziga qaram qilib, ushbu yo'l orqali ham amirlik iqtisodiyotini o'ziga bo'ysundirdi va Buxoro amirligini iqtisodiy qaramga aylantirish borasida ilk qadamni ko'ydi. Rus xukumati Rossiya ichki bozorlarini egallash va u yerda ham o'z hukmronligini o'rnatish bo'yicha

siyosatni amalga oshirishga katta e'tibor qaratdi. XIX asrning 70–90 yillariga kelib, Buxoro ichki bozorlarida amirlik iqtisodiy hayoti uchun zarur va muhim bo'lgan deyarli barcha sanoat mahsulotlari Rossiyadan olib kelinadigan bo'ldi.

Rus sanoatchilari o'zlarining doimiy raqobatchilari bo'lgan yevropaliklarni va ularning tovarlarini Buxoro ichki bozoridan siqib chiqara boshladi va 1880 yilga kelib Buxoro ichki bozorlarida ruslar va rus tovarlari to'la gegemonlikni qo'lga kiritib, yagona monopol huquqqa ega bo'ldi.

Chor Rossiyasi Buxoro amirligini iqtisodiy qaram etish siyosatini XIX asr oxirlari – XX asr boshlariga kelib yanada kuchaytirishga muvaffaq bo'ldi. Rus hukumati Buxoro iqtisodiyotini o'ziga to'la qaram kilish borasida yangidanyangi imkoniyatlarni qidira boshladi va ularni amalga oshirishga kirishdi. Eng muhimi ushbu siyosatdan bevosita manfaatdor bo'lgan rus burjuaziyasi rus hukumati oldiga yangidanyangi talablarni ilgari sura boshladi. Natijada O'rta Osiyoda, shu jumladan, Buxoro hududlarida temir yo'l qurilishi va flotiliya shakllanishiga erishildi.

Rus ishbilarmonlari va savdogarlarining qattiq tazyiqi ostida, rus hukumati 1891 yildan boshlab, Buxoro amiridan ichki bozorda Buxoro tangasidan voz kechishni va moliyaviy islohot o'tkazishni qat'iy talab qildi. Rus hukumatining tazyiqlariga bardosh berolmagan Buxoro amiri 1900 yil 6 apreldan boshlab moliyaviy islohot o'tkazishga majbur bo'ldi. Chor Rossiyasi hukumati Buxoro amirligini iqtisodiy qaram etish va ushbu hududda o'zining to'la harbiysiyosiy, strategik va iqtisodiy mavqeyinn mustahkamlash borasida temir yo'llar qurilishiga o'zining alohida e'tiborini qaratdi.

Rus hukumati Buxoro amirligi hududlarida egallagan o'z mavqeyini yanada mustahkamlash hamda Buxoro ichki bozorlarini o'zi uchun katta xom ashyo o'lkasi va o'z mollarini sotish uchun muhim bozor sifatida baholagan rus burjuaziyasi talablaridan kelib chiqqan holda, temir yo'l qurilishini boshlab yubordi va 1916 yilda u foydalanishga topshirildi.

Buxoro temir yo'li qurilishidan kutilgan eng muhim natija, bu eng avvalo, harbiystrategik nuqtai nazardan olib qaralganda, Buxoro amirligining janubig'arbiy va janubisharqiy hududlarini temir yo'l orqali O'rta Osiyo magistrali bilan bog'lash hamda ushbu yo'l orqali Buxoro amirligining eng janubiy qismida joylashgan Termiz shahrini bog'lash ko'zda tutilgan edi. Ikkinchi tomondan amirlikning tabiiy boyliklarga ega bo'lgan janubiy qismida temir yo'lning qurilishi rus burjuaziyasi uchun ushbu hududlardagi bebaho boyliktarni o'zlashtirishga va utshng evaziga katta foyda olish hamda tashqi savdo munosabatlarini rivojlantirish, qisqa muddat ichida Afg'oniston va Hindiston bozorlariga chiqish uchun yangi imkoniyatlar ochib berishi ko'zda tutilgan edi.

Va nihoyat eng muhimi amirlikda temir yo'llar qurilishi Rossiya uchun ham siyosiy, ham harbiystrategik ahamiyat kasb etib, u AngliyaRossiya raqobatlarida rus hukumatiga jiddiy yutuqni qo'lga kiritishiga asos bo'lib xizmat qildi.

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida chor Rossiyasi hukumati Buxoro amirligi iqtisodiyotida to'la hukmronlikni qo'lga kiritgach, rus kapitalining jadal sur'atlar bilan amirlik iqtisodiyotiga kirishiga alohida e'tibor qaratdi. Rus kapitalining amirlik iqtisodiy hayotiga kirib kelishi bilan Buxoro qishloqxo'jaligining Rossiya sanoati uchun xom ashyo ishlab chiqaruvchi sifatida ixtisoslashuvi ro'y berdi.

Chor hukumati va rus burjuaziyasi tomonidan olib borilgan iqtisodiy siyosat va rus kapitalining olib kirilishi natijasida Buxoro amirligining qishloq xo'jaligi to'la Rossiya imperiyasi to'qimachilik sanoatiga paxta tolasi yetkazib beruvchi subyektga aylantirildi.

Buxoro amirlign hududlaridagi xom ashyo boyliklari, tabiiy yer osti va yer usti boyliklari ustidan o'z nazoratini o'rnatib olgan chor Rossiyasi ma'murlari, amirliqdagi

oltin konlarini qidirish va uni ishlab chiqarish huquqlarini ham qo'lga kiritishdi. 1896 yil 24 fevralda Turkiston general-gubernatori tomonidan «Buxoro xonligida oltin sanoati» to'g'risida 40 ta banddan iborat farmoyish chiqarilib, unda Buxoro amirligi hududlarida hali egallanmagan yerlarda mavjud bo'lgan oltin konlarini rus fuqarolari tomonidan qazib olish huquqlari qonun doirasida mustahkamlab berildi. Mana shu tariqa, Buxoro amirligi hududlaridagi Buxoro oltinlaridan rus hukumati o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga kirishdi.

Rus hukumati Buxoro amirligida o'z mavqeyini yanada mustahkamlash, inglizrus raqobatini kuchayishining oldini olish, inglizlarning Buxoro amirligi hududlariga ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham harbiystrategik jihatdan aralashuviga yo'l qo'ymaslik maqsadida Buxoro hududlarida rus garnizonlarining joylashtirilishiga va rus manzilgohlarining tashkil etilishiga katta e'tibor qaratdi.

Rus hukumati afg'on chegarasi bo'ylab rus garnizonlarini joylashtira borib, o'zining ushbu harakatlari orqali inglizlarning Afg'oniston orqali O'rta Osiyoga suqilib kirishining oldini olish bo'yicha ishlarni amalga oshirib, o'zining harbiy strategik pozitsiyasini mustahkamladi. Karki, Chorjo'y, Termiz, Pattakesarda rus garnizonlarining joylashtirilishi va Yangi Buxoro (Kogon), Forob, Saroy, Amirobod kabi rus manzilgohlarining tashkil etilishi natijasida inglizlarning Buxoroga kirib kelishiga qarshi amirlikda o'ta muhim rus harbiy plasdamlari shakllantirildi.

Turkiston o'lkasidagi chor Rossiyasi amaldorlari, harbiy vazirlikning qo'llab quvvatlashiga qat'iy ishonganliklari uchun ham, XIX asrning 80 yillaridan boshlab, ular Buxoro amirligi hududlarining qolgan qismlarini ham bosib olish va Rossiyaga bo'ysundirish talablarini bir necha bor rus hukumati oldiga ko'ndalang qilib qo'yishdi. Ayniqsa, Turkistondagi rus amaldorlari 1909–1910 yillarda Buxoro amirligini to'liq Rossiyaga qo'shib olish masalasini ko'tarib chiqib, uni Rus hukumatidan qat'iy talab etishdi.

Faqatgina, Rossiya Tashqi ishlar vazirligining qat'iy qarshiligi tufayli, ushbu masala kun tartibidan olindi. Chunki Tashqi ishlar vazirligi va Rus hukumati O'rta Sharqda vaziyatning chigallashuvi va inglizrus raqobatining yanada kuchayishidan manfaatdor emas edi. Va nihoyat, Buxoro amirligini to'la Rossiyaga qo'shib olinishi, qo'shni Afg'oniston va Eron hukumatlarida katta norozilik paydo qilishini anglagan Rus hukumati ushbu taklifni qat'iy rad etdi.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida chor Rossiyasi tomonidan Buxoro amirligiga qarshi olib borilgan harbiy harakatlar, ularning tafsilotlari hamda Rus hukumati va ularning Turkiston o'lkasidagi ma'murlari tomonidan amalga oshirilgan mustamlaka siyosati va uning asoratlari XX asr boshlaridagi jahon tarixiy jarayonining tarkibiy qismi sifatida baholanishi lozim.

Zero, O'zbekiston ayni paytda, uzoq vaqt davom etgan chor Rossiyasi mustamlaka siyosati va totalitar sovet tuzumi asoratlaridan qutulib, bugungi kunda yana qaytadan umumjahon jarayoniga mustaqil davlat sifatida kirib, o'z o'rnini va mavqeyiga ega bo'ldi.

ҲОИДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР ВА МАНБАЛАР РЎЙХАТИ.

1. Расмий ҳужжатлар.

1. Каримов И. А. Биздан озод ва обод Ватан қолсин. 2-жилд. -Т.; Ўзбекистон. 1996
2. Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6-жилд. Т.: Ўзбекистон. 1998.
3. Каримов И. А. Ўзбекистон ХХІ асрга интилоқда. – Т.; Ўзбекистон 1999.

2. Умумий ва махсус адабиётлар

1. Абдураимов М. О некоторых категориях феодального землевладения и положения крестьян в Бухарском ханстве в ХІХ-начале ХХ века. / Общественные науки в Узбекистане. №3, № 7.;
2. Абдураимов М. Очерки аграрных отношений в Бухарском ханстве в ХУІ-первой половине ХІХ века. - Т.. 1966;
3. Абдураимов М. Вопросы феодального землевладения и феодальной ренты в письмах Эмира ХайдараТ., 1961.
4. Абдурахимова Н. А. Колониальная система власти в Туркестане. Вторая половина ХІХ-начало ХХ вв. //АДД, –Т., 1994
5. Абдурахимова Н., Рустамова Г. Колониальная система власти в Туркестане во второй половине ХТХ-І четверти ХХ вв.–Т.: Университет, 1999.
6. Айни С, Таърих-и амиран-и ангити-йа-и Бухара, 1923
7. Айний С. Бухоро инкилоби тарихи учун материаллар. М., 1926.
8. Айний С. Тарихи инкилоби Бухоро. - Душанбе, 1987 (ўзбек тилидаги 1926 й. нашр асосида тожик тилида chop этилган);
9. Айний С. Чавоби ман. - Куллийет чилди II, китоби - Душанбе 1963.;
10. Айний С.. Бухара. Воспоминания. кн. 2, 4, - М., 1961.
11. Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. –Т.: Фан, 1991.
12. Ахмеджанов Г. А. Советская историография присоединение Средней Азии к России. - Т., 1989.
13. Ахмеджанова З. К. К истории строительства железных дорог в Средней Азии (1880-1917 гг.).Т., 1965.
14. Ахмеджанова Г, А. Российская империя в Центральной Азии. История и историография колониальной политики царизма в Туркестане). - Г., 1995.
15. Ахмедов Б. А. Роль джуйберских ходжей в общественно-политической жизни Средней Азии ХVІ–ХVІІ веков //Духовенство и политическая жизнь на Ближнем и Среднем Востоке в период феодализма. –М., 1985.
16. Бабаходжаев А. Х. Происки Британского империализма в Средней Азии и позиция Бухары в 1918-1920 гг. // Известия АН УЗССР. 1948 №5.
17. Баракаев Ж, Хайдаров И. Бухоро тарихи. - Т.: Ўқитувчи. 1991.
18. Бартольд В. В. История культурной жизни Туркестана. - Л., 1927.
19. Бартольд В. В. Бухара. // Сочинения. Т. III. - М.. 1965.
20. Бекмухамедов Х. Народное движение 1910 г. в Бухаре. -// Рукопись лисс. на соиск. учен. степ. канд. ист. наук., - Т., 1949.
21. Бобобеков Х. Кулон тарихи.–Т.: Фан, 1996.

22. Бунаков Е. В. К истории сношений России со среднеазиатскими ханствами в XIX в., // Советское востоковедение, Т2, 1941, –М., –Л..
23. Бурнашева Р. Монеты Бухарского ханства при мангитах (середине XVIII начало XX в.) // Эпиграфика Востока, 1967, № 18.
24. Вамбери Х. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи, –Т., 1991.
25. Варыгин М, А. Опыт описание Кулябского бегства, Известие Русского Географического Общества. Т. LII, вып 10, 1916.
26. Васильев. Статистический материал для описания Бухары бекство Шерабадское и часть Байсунского, 1889. / Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии, вып. 57, 1894.
27. Вахабов М. Г. Формирование узбекской социалистической пации. –Т., 1961.
28. Вексельман М. И. Российский монополистический и иностранный капитал в Средней Азии (конец XIX-начале XX вв.), - Т.т 1987.
29. Вельяминов Зернов В. В. Монеты Бухарские и Хивинские. // Записки императорского археологического общества. Т. 8. –Спб., 1859.
30. Вохидов Ш.Х. Холикова Р. Ўрта Осиё хонликларида давлат бошқаруви. – Т.: Янги аср авлоди, 2006..
31. Вяткин В. Л. Каршинский округ, организация в нем войска и события в период 1215–1217 (1800–1803) годов. // Известия Среднеазиатского отдела Русского географического общества, Т. ХУШ. 1928.
32. Галкин А Краткий очерк Бухарского ханства. Военный сборник, 1 890, №11.
33. Галкин А. Военно-статистический очерк Средней и Южной частей Сурханской долины. // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии, вып. 57. - Спб., 1894.
34. Гафуров Б. История таджикского народа. - М; 1955
35. Гафуров Б., Прохоров Н. Н. Падение Бухарского эмирата, -Душанбе. 1940.
36. Генис В. Л. Разгром Бухарского эмирата в 1920. Вопросы истории, 1993. № 7.
37. Гинзбург А. И. Русское население в Туркестане - М., 1981.
38. Глуховский А. Записки о значении Бухарского ханства для России. - Спб.. 1867.
39. Гоипов Ф. Таърихи Ҳисори Шолмон, Чағониен ва Душанбе. - Душанбе, 1999.
40. Гофуров Б., Прохоров Н. Н, Падение Бухарского эмирата. Сталинабад.. 1940.
41. Дониш Ахмад Наводир улвақос. Т., 1964.
42. Дониш Ахмади Махаум. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салғанаги хонадони мангития. Таҳияи Далер. - Душанбе: Сарват. 1992.
43. Железные дороги в Среднюю Азию // Сборник статей и проектов по проведению железных дорог в Среднюю Азию. –СПб., 1890.
44. Жуковский С. В. Сношение России с Бухарой и Хивой за последнее трехсотлетие. - Пгд. 2. 1915.
45. Записки о Бухарском ханстве (Отчёты П. И. Демезона и И.В.Виткевича). М.: Наука, 1983..

46. Зарубин И. И. Список пародностей Туркестанского края // Труды комиссии по изучению племен составляющих населения России и сопредельных стран. № 9, – Ленинград, 1925.
47. Зиёев Х. 3. Ўрта Осиё ва Сибирь (XV1-X1X асрлар). – Т: 1962.
48. Зиёев Х. 3. Экономические связи с Сибирью (XVI-XIX вв.). – Т: 1983.
49. Зиеев Ҳ. 3. Завоеванис Бухарского и Хивинского ханства иариз.мом. // Обшесгвенне науки в Узбекистане-Т., 1990, № 8.
50. Зиеев Ҳ. 3. Туркистонда Россия тажовузи ва хукмронлигига карши кураш. (XVII- XX аср бошларн).-Т.: Шарк. 1998.
51. Зиеев Ҳ. 3. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи. (милоддан оллинг асрлардан то 1991 йил 31 августгача). - Т.: Шарк. 2001.
52. ЗиёевХ. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи. –Т.: Шарк, 2001.
53. Зиновьев М. А. Осада Ура-Тюбе и Джизаха. // Русский Вестник 1868, № 56.
54. Зияева Д. Туркистон миллий озодлик харакати: (Мустабид тузумга карши). – Т: 2000.
55. Иванов Д.Л. Под Самаркандом. Рассказ новичка, (Из старых записок 1868 года). // Военный сборник, 1876, № 2.
56. Иванов П. П. Восстание китайкипчаков в Бухарском ханстве в 1821-1825 гг. –М.,Л., 1937.
57. Иванов П. П. Очерки по истории Средней Азии (XVI-середина XIXвека).М, 1958.
58. Иванов П. П. Хозяйство джуйберских шейхов. К истории феодаального землевладения в Средней Азии в XVI–XVII вв. –М., –Л., 1954.
59. Иноятов С, Тўраев Х. Ҳайитова О. Амир Абдулахадхоп лаврида Кармана. Т.: Шарк, 2004.
60. Искандаров Б. И. Восточная Бухара и Памир во второй половине XIX в. ч. 1-2. - Душанбе. 1962.
61. Искандаров Б. И. Из истории Бухарского эмирата: (Восточная Бухара и западный Памир в первой половине XIX в.) - М.. 1958
62. Искандаров Б. И. О некоторых изменениях в экономике Восточной Бухары на рубеже XIX-XX вв. // Труды института истории АН. Тадж. ССР, т. LVXXXIII, 1962.
63. История Бухары. С древнейших времен до наших дней (Б. В. Лунин. Я, Г. Гулямов, Г. А. Пугаченкова и др.). - Т.. 1976.
64. История народов Узбекистана. Т. II. - Тошкент. 1947
65. История таджикского народа. Т. II, кн. II, –М., 1964.
66. История Узбекской ССР. т.1, 2 китоб. –Тошкент, 1956, 134– 139бетлар.
67. История Узбекской ССР.ч.1. кн-2.Т., 1956.
68. Источники и опыт их исследования. –М., 1937.
69. Ишанов А. И. Бухара в период первой русской революции. // Известия АН Уз ССР.. 1955, № 12;
70. Ишанов А. И. Победа Бухарской Народной революции. - Т., 1957:
71. Ишанов А. И. Создание Бухарской Народной Советской республики. - Т, 1965:
72. Йорк-фон-Вартенбург. Рост России в Азии. Т., 1900.
73. Касимов Ф. Х. Советские историография Бухарской революции. - Т., 1972.

74. Кисдяков Н. А. Патриархально-феодалные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX-начале XX в, - М.-Л., 1962
75. Кисляков Н. А. Очерки по истории Каратегина. К истории Таджикистана. – Ленинград, 1941.
76. Кисляков Н. А. Патриархально-феодалные отношения среди оседлого сельского населения Бухарского ханства в конце XIX – начале XX века. М., Л., 1962.
77. Қосимов Ф. Узбек давлатчилиги тарихида Бухоро хукмдорларининг урни. // Тарих, мустақиллик. миллий ғоя. - Т.. 2001.
78. Костенко А. Ф. Туркестанский край. Опытг восновностатистического обозрения Туркестанского военного округа, т.Ш, ~СПб., 1880.
79. Костенко Л. Исторический очерк: Распространения русского владычества Средней в Азии // Военный сборник, -СПб., 1887, № 7.
80. Крестовский В. В. В гостях у эмира Бухарского; Путевой дневник. - Спб 1887.
81. Кун Л. Очеркн Шахрисабзского бекства. Н Записки Известие Русского Географического Общества по отделению этнографии Т. IV, 1880.
82. Левтеева Л. Г. Присоединение Средней Азии к России в мемуарных источниках. - Т., 1986.
83. Липский В.И. Горная Бухара. Т. 1, - Спб., 1902
84. Логофег Д. Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Т. 1-2 - Спб., 1911
85. Логофег Д. Н. В горах и равнинах Бухары. (Очерк Средней Азии). Спб.. 1415.
86. Логофег Д. Н. Страна бесправия; Бухарское ханство и его современное состояние. -Сиб. 1909.
87. Логофет Д. Н. На границах Средней Азии: Путевме очерки. В 3х кн. СПб.,1909.
88. Лунин Б. В. Средняя Азия в дореволюционном и советском востоковедении. - Т., 1965
89. Лунин Б. В. Средняя Азия в научном наследии отечественных востоковедов: Историограф. очерк. - Т.т 1979
90. Маджлисов А. Аграрные отношения в Восточной Бухаре в XIX-начале XX вв. -Душанбе-Алма-Ата, 1967.
91. Маджлисов А. Каратегин накануне установления советской власти. - Душанбе, 1959
92. Маев Н. А. Географический очерк Гиссарского и Кулябского бекства. / Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. V, - Спб., 1879.
93. Маев Н. А. Очерки Бухарского ханства. Материалы для статистики Туркестанского края. Вып. V. - Спб., 1879.
94. Маев Н. Географический очерк Гиссарского края и Кулябского бекства. // Известия Русского Географического обидества, т. XII, 1876.
95. Макшеев А. И. Исторический обзор Туркестана и наступательного движения в него русских. ч. 1-2. - Спб., 1890; Йорк фон Вартенбург Росг России в Азии. - Т.. 1900.
96. Мамадазимов А. Политическая история таджикского народа. - Душанбе, 2000.

97. Масалиева О Бухоро амирлигида давлат бошқаруви (хорижлик муаллифлар асарлари асосида). / Ҳаёт ва қонун, 1991, №2.
98. Масальский В И. Туркестанский край. Т. XIX. -Спб, 1913.
99. Материалы по истории туркмен и Туркмении//XVI–XIX вв. Иранские, Бухарские и Хивинские источники /Под ред. В. В. Струве, А. К. Боровкова, А. А. Рамашкевича и П. П. Иванова. Т.2. –М., Л., 1938.
100. Медведев В. Нечаянная революция. Бухара. 1920. // Дружба народов, 1992, № 11.
101. Мейендорф Е, К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. - М. 1875.
102. Милютин Д. А. Дневник. Т1. М., 1947, с. 8889. (Д.А.Милютин (1816–1912 й.й.)
103. Мирза Абдал Азим Сами. Тарихи салотини мангития. (История мангитских государей). –М.: ИВЛ, 1962.
104. Мирзо Абдал Азим Сами. Тарихи салотиби мангитийа (История мангитских правителей). Перевод, издание текста и примеч. Л. М. Епифановой, –М., 1962.
105. Михайлов. Золотые прииски в Бухаре. // Москва, 1910. № 178–179.
106. Михалева Г. А. Торговые и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами через Оренбург. –Т., 1992.
107. Михалева Г. А. Торговые и посольские связи России со среднеазиатскими ханствами через Оренбург (вторая половина XVIII-первая половина XIX в), - Т: 1982.
108. Мирза Абдал Ашм Сами. Тарих-и салотин-и мангити-йа. (История мангитских правителей). Перевод. издание текста и прим. Л. М. Епифановой. - М., 1962.
109. Муминов И. Из истории развития общественно-философской мысли в Узбекистане в конце XIX и начале XX в.в.,- Т.. 1955.
110. Мухаммаджонов А. Р.. Неъматов Т. Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар. - Т.. 1957
111. Мухсинова К. К История выступления Бухарских крестьян против налогового гнета в конце XIX в. // Проблемы востоковедения, 1959. № I;
112. Мухторов А. Очерк истории Уратюбинского владения в XIX в. Душанбе, 1964.
113. Мухторов А. Ҳокимони Ҳисор. –Душанбе. 1996.
114. Населенные пункты Бухарского эмирата.,–Т.: Университет, 2001..
115. Небольсин П. П. Очерки торговли России со Средней Азии. // Записки Русского географического общества. Т.Х. –СПб., 1856.
116. Оглоблин В. Н. – Промышленность и торговля Туркестана. –М., 1914.
117. Оглоблин В. Н. Хлопкобумажная промышленность в русских среднеазиатских владениях. –СПб., 1901.
118. Одилов А. Абдумалик Тўра бошчилигидаги халқ озошлик ҳаракати тарихидан. // ЎзМУ хабарлари. 2002. № 2.
119. Одилов А. Бухоро амирлигида XIX асрнинг 60-йилларида озошлик ҳаракати тарихи // Илмий тўплам. - Т.. 1995.
120. Одилов А. Озошлик фидойиси // Тафаккур. 2001, № 2.
121. Очилдиев Ф. XIX аср охири-XX аср бошларида Термиз. // Жамият ва бошқарув, 2004, № 3.

122. Очилдиев Ф. XX аср бошларида Шаркий Бухородаги иктисодий ҳаёт. // Жамият ва бошқарув 2003, № 2.
123. Очилдиев Ф. Бухоро амирлигида иктисодий ҳаёт. //Жамият ва бошқарув, 2001. № 2.
124. Очилдиев Ф. Бухоро амирлигида Сурхон воҳаси бекликларининг тутган урни. Тарих. мустақиллик миллий ғоя. - Т.; Академия, 2001.
125. Павлов Н. Г. История Туркестана. В связи с кратким историческим очерком сопредельных стран.–Т., 1910.
126. Полатило Н.Н. Путешествие в центральную и восточную Бухару в 1886 г. // Известие Русского Географического Общества. -Спб.. 1889.
127. Пославский Ю. И. Экономический очерк Таджикистана. – Таджикистан // Сборник статей, –Т., 1995.
128. Пославский И, Т. Город Бухара: Описание его и исследование вопроса о занятии его русскими. - Т., 1891.
129. Радлов В. В. Средняя Зарафшанская долина.// Записки Известие Русского Географического Общества по отделению этнографии Т, IV, 1880.
130. Ражабов З.У. Мирзо Азим Соми аа осори Шарки Сурх. 1947. № 3-6.
131. Ражабов Қ. Бухоро қўшбегилар// Бухоронома, 2005 й. 15 октябрь.
132. Ражабов К. Бухоро оталиклари сулоласи.// Бухоро окшоми, 2005 й.. 28 октябрь
133. Ражабов К. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш. - Тошкент: Маънавият, 2002.
134. Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш.–Т.: Маънавият, 2002.
135. Ражабов Қ. Муҳаммад Раҳимхон – мангитлар сулоласи асосчиси. // Бухоро мавжлари. 2005, 3 сон.
136. Ражабов Қ. Муҳаммад Раҳимхон //Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 6 жилд..
137. Ражабов Қ. Муҳаммад Раҳимхон. //Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т.6.
138. Ражабов К. Муҳаммад Дониёлбий оталиқ: бийлик мансабидан амирлик рутбасига. // Бухоро мавжлари. 2005, 4-сон
139. Ражабов Қ. уҳаммад Ҳакимбий оталиқ.// Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, т.6..
140. Ражабов К.Туркистон минтақасида совет режимига қарши қуролли ҳаракат (1918-1924 йй.). Тарих фан. докт. дисс. - Т., 2005.
141. Ремез И. А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны: Опыт историко-стат. обзор внешней торговли ханства в сфере таможенных объединений его с Российской империей. - Т., 1922.
142. Рожовин Р. Ю. Поездка в Южную и Среднюю Бухару в 1906 г. Известия Русского Географического Общества, Т. XIV, Вып. 9, 1908.
143. Ростиславов М. Н. Очерк видов земельной собственности и поземельныйш вопрос в Туркестанском крае. // Труды III международного съезда ориенталистов, 1876, –Т.СПб., 1879-1880.
144. Рябинский А. Царская Россия и Бухара в эпоху империализма // Историкмарксист, 1941, № 4.

145. Рябнинский А. М. История колониального порабощения Бухарского ханства царской Россией. // Труды Военно-Политической Академии Красной Армии. - М., 1940., Т.4.
146. Сангирова Д. XIX аср охири – XX аср бошларида Туркистонда пархнаволар (Фарғона вилояти мисолида) // Ўзбекистон тарихи ва археология фанларининг муаммолари. Республика илмий конференцияси материаллари. 2003 йил, 27-28 ноябрь. Самарқанд, 2003.
147. Саъдуллаев А., Аминов Б., Мавлонов У., Норкулов Н. Ўзбекистон тарихи: Давлат ва жамият тараққиёти, – Т.: Академия, 2000, 1936.
148. Сборник действующих трактатов, конвенций и соглашений. Издание второе. Т. 1. –Спб., 1902.
149. Сборник договоров России с другими государствами. 1856–1917 г.г, М. 1952.
150. Сборник консульских донесений за 1898 г. – СПб. Вып. I.
151. Свод законов Российской Империи. Кн. первая. Т. 2, –Спб., 1912.
152. Семенов А. А. Очерк устройство центрального административного управления Бухарского ханства позднейшего времени.//Материалы таджиков и узбеков Средней Азии. Вып. 2.Сталинабад, 1954.
153. Соболев Л. Н. Географическис и статистичесские сведения о Зарафшанском округе // Записки Императорского Российского географического общества. Т. VI. – Спб., 1874.
154. Стремоухов Н. Поездка в Бухару. Русский вестник, № 6. 1875.
155. Сухарева О. А. Бухара: XIX–начало XX в. (Позднеефеодальньгй город и сго население). М., 1966.
156. Сухарена О. А. К истории городов Бухарского ханства (нсторико-этнографический очерк). - Т., 1958
157. Тарих шоҳидлиги ва сабоқлари. Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. –Т., 2001.
158. Татаринов А, Семимесячный плен в Бухарию. // Библиотека Известие Русского Географического Общества. - Спб, 1867.
159. Терентьев М. А. История завоевания Средний Азнии. Т. 1-3. - Спб.. 1906.
160. Терентьев М. А. Экономические задачи России в Среднеазиатских владениях. – СПб., 1888.
161. Турсунов Х. Т. Восстание 1916 года в Средпей Азии и Казахстане. – Т., 1962.
162. Тухтаметов Т. Г. Прогрессивное значение русского протектората над Бухарским эмиратом. // Звезда Востока. 1956, № 8:
163. Тухтаметов Т. Г. Россия и Бухарский эмират в начале XX в. - Душанбе, 1977
164. Тухтаметов Т. Г. РусскоБухарские отношения в конце XIX–начале XX века. Т.; 1966.
165. Тухтаметов Т. Г. Экономическое состояние Бухарского эмирата в конце XIX и начале XX веков. /Труды института истории АН Киргиз ССР. 1967, вып. 3.
166. Ўзбекистоннинг янги тарихи: 1 китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. –Т.: Шарқ, 2000.
167. Файзиев Т. Бухоро феодал жамиятида куллардан фойлаланишга доир хужжатлар (XIX аср.). - Т., 1990;

168. Файзиев Т. Бухоро хонлигида кул савдоси. - Т 1970:
169. Федоров М. Н. О ценах на рынках Бухарм XIX рубежа XX вска // Ўзбскистонда ижтимоий фанлар, 1977.
170. Фитрат. Три документа по аграрному вопросу в Средней Азии // Пер. с перс. Ф. Б. Ростоптин //Записки института востоковедения Академии наук СССР. Выш. 2. Т.2. –Л., 1933.
171. Фомченко А. П. Русские поселения в Бухарском эмирате. –Ташкент, 1958.
172. Хакимова К. З. Крестьянство Бухарского эмирата в конце ХГХ-начале ХХ вв. - Т.. 1991.
173. Халфин Н. А. Политика России в Средней Азии (1857-186В г.г.). - М., 1960
174. Халфин Н. А. Россия и Бухарский Эмират на Западном Памире. - М., 1975.
175. Халфин Н. А. Россия и ханства Средней Азии: (Первая половина XIX в.) - М., 1974.
176. Хамидова М. XVII-XX асрларда Шахрисабз кулолчилиги // Тарих. мустакиллик, миллий ғоя. - Т., 2001.
177. Хамраев А. Х. К вопросу о земельно-водных отношениях в Бухарском ханстве в XIX а. - Т., 1948.
178. Хамраев А. Х. К вопросу о январских событиях 1910 года в Бухаре,- // Труды САГУ. -Т.. 1954, вып. УП:
179. ХаныковН. В, Описание Бухарского ханства, –СПб., 1843.
180. Ходжаев Ф. К Истории революции в Бухаре и национального размежевания в Средней Азии. /Избранные труды Т-1. - Т. 1970.
181. Хотамов Н. Свержение эмирского режима в Бухаре. - Душанбе, 1997.
182. Чабров Г. Н. Новый источник по истории Бухарского ханства. / Бюллетень АН Уз ССР. 1947, № 3.
183. Чехович О. Д. Бухарские поземельные акты ХУ1-Х1Х //Проблемы источниковедения. 1955, № 4.
184. Чехович О. Д. Об актовых материалах по истории Бухары. // Исторические записки, Т. 16. - М.. 1945.;
185. Чориев З., Жўраев А. Ғузор тарихидан лавҳалар. –Қарши: Насаф, 1997.
186. Шек Л. К. Победа Народной Советской революции в Бухаре. - Т., 1956.
187. Шмидт А.Е. Из истории суннитско-шиитских отношений // В.В.Бартольд. Туркестанские друзья и ученики и почитатели. –Т., 1927.
188. Шодмон Вохид. Кукон хонлиги ва Бухоро амирлигида унвон ва мансаблар. – Т: 1996.
189. Шубинский П. Очерки Бухары. // Исторический вестник, 1892, №8.
190. Эргашев Б, Идеология национально-освободительного движения е Бухарском эмирате. - Т, 1991.
191. Эркинов А.С. Алишер Навоий «Хамса»си нусхаларининг XV–XX аср манбалари. –Т., 1998.
192. Якунин А. Ф. Народы Средней Азии и Казахстапа во второй половине XIXвека. Присоединение Средней Азии к России. –М.. 1954.

3. Диссертация ва авторефератлар.

1. Абдуллаев Р. М. Национальные политические организации Туркестана в 1917-1918 г.г.-Автореф. дисс. докт. ист. наук. - Т.. 1998.
2. Абдурахимова Н. А. Колониальная система власти в Туркестане (вторая половииа Х1Х-начало ХХ в.в.), Автореферат дисс. док. ист. наук. - Т., 1994.

3. Авазова Х. Ш. Развитие банков и фирм в Туркестане во второй половине XIX-начале XX в.: - Автореф. дисс. канд. ист. наук. - Т., 1997.
4. Болтабаев С. Д. Вакфное имущество в Туркестанском крае во второй половине XIX начале XX в.в.- Автореф. дисс. канд.ист.наук. - Т.. 1995.
5. Воҳидов Ш. XIX аср – XX асрнинг бошларида Қўқон хонлигида тарихпависликнинг ривожланиши. Тарих фан.док.дисс. –Т., 1998.
6. Гаффоров Ш. С. Переселенческая политика Российской империи в Туркестане (вторая половина XIX-начала XX веков.). Автореф. дисс. докт. ист. наук. – Т., 2003.
7. Катюкова Т. В. Проблемы Туркестана в центральных законодательных органах власти Российской империи. {1905-1917 г.г.}. Автореф. дисс, канд. ист. наук. - Т.. 2001.
8. Курахмедов А. Э. Экономическая и культурная жизнь Самаркандской области второй половине XIX-начала XX вв. (по материалам «Туркестанского сборника») Автореф. дис. канд. ист. наук. - Т., 2001.
9. Касимов Ф. Х. Советская историография Бухарской Народной Советской Республики. // Рукопись дисс. на соиск. ученой степени канд ист. Наук. - Т., 1968.
10. Муродова Ш. XIX аср охири-XX аср бошларида Туркистон улкасидаги озошлик ҳаракатлари тарихи. (Самарканд вилояти мисолида.) Тарих фан. номзоди дисс. автореф. – Т., 2004.
11. Мусаев Н. У. Формирование и развитие промышленного производства в Туркестане (конец XIX-начало XX в.в.) Автореф. дисс, докт. ист. наук. - Т., 1999.
12. Норкулов Н. «Таърихи Салимий» -ценный источник по истории Бухарского эмирата (1860-1920 г.г.) // Диссертация на соиск. ученой степ. канд, ист. наук, - Т.; 1968.
13. Одилов А. А, Бухоро амирлигида миллий-озошлик ҳаракатлари тарихи (Абдумалик Тўра бошчилигидаги халқ озошлик ҳаракати мисолида). Тарих фан номзоди дисс. автореф. – Т., 2003
14. Пардаев К. К. Ўрта Зарафшон (Мийнқол) воҳасининг XIX-XX аср бошларида ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёти. Тарих фан. номзоди дисс. автореф, - Т.. 2003.
15. Содиков Х. Д. Колониальная политика царизма в Туркестане и борьба за национальную независимость а начале XX века. Автореферат дисс. докт. ист. наук -Т.: 1994.
16. Тошқулов Д. Основные направления политико-правовой мысли народов Ўзбекистана во второй половине XIX и н начале XX в. - Автореф. дисс. докт. юридич. наук. – Т: 1995.
17. Ҳайтова О. С. Қармана шахрининг Бухоро хонлиги ижтимоий-сиёсий ва маънавий ҳаётида туган ўрни. Тарих фан. номзоди дисс. автореф. – Т: 2004.
18. Хатамов З. Х., «Туркестанский сборник» как источник изучения истории Афганистана. // Автореферат канд. дисс. –Фергана, 1993
19. Худойкулов А. М, Просветительская деятельность джадидов Туркестана (конец XIX-начало XX вв.). - Автореф. дисс. канд. ист наук. - Т., 1995
20. Шек Л. К. Советско-Бухарское отношение в 1917-1920 г.г. // Рукопись дисс. на соиск. учен. степ. канд. ист, наук. - Т., 1949

21. Чариев З. У. Усиление колониальной политики и национального гнета и их последствия в Туркестане в начале XX века (на примере мобилизации на тыловые работы). Автореф. дисс. докт. ист. наук. - Т.. 1999.

4. Журналлар ва газеталар

1. Аваз Муҳаммад Атор Хўқандий. Тарихи жақоннамои. // Шарқ юлдузи, 1991, 8-сон.
2. Босқинчилар кўзини ўйнатган Бухоро олтини // Жамият ва бошқарув. 2000, 4-сон
3. Бутенев К. Заводское дело в Бухаре. // Горный журнал, ч. V, книга XI, СПб., 1842.
4. Воҳидов Ш, Сабурова С. Хива хонлигида амал ва унвонлар ва уларнинг вазифалари. // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1998, 10, 11 сон.
5. Воҳидов Ш. Интересный документ конца XVII века. // Хўжалик ва ҳуқуқ. 1999, 4-сон.
6. Воҳидов Ш. Сангирова Д. Шоҳ ва шоир тақдири // Фан ва турмуш, 1999, 4-сон.
7. Қосимов Ф. Халқаро муносабатлар тизимида Бухоро давлатининг ўрни (1900–1925 й.й.). // Бухоро университети илмий ахборотлари. 2004, 2 сон.
8. Ражабов Қ. Муҳаммад Дониёлбий оталик: бийлик мансабидан амирлик рутбасига. // Бухоро мавжлари, 2005. 4-сон.
9. Холиқова Р. XIX аср охири – XX аср бошларида Россия-Бухоро ўртасидаги иқтисодий муносабатлари тарихидан лавҳалар. // Таълим тизимида ижтимоий-гуманитар фанлар. 2003. 1–2 сонлар.
10. Юсупов Ш. Машъум хато ёки гап канизакда эдим. // Ўзбекистон адабиёти ва санъати, 2005, 10 июнь. 24-сон.
11. Юсупов Ш. Янгиланиш йўлидаги тарих. // Тафаккур, 2001, 3-сон.

Samarqand Davlat Universiteti tarix fakulteti tarix ta'lim yo'nalishi «O'zbekiston tarixi» kafedrasida bitiruvchi Raximova Gavharning «XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy tuzumi va davlat boshqaruvi» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishiga

TAQRIZ

Istiqlol tufayli Vatanimiz tarixidagi tadqiq etilgan muammolar yoki xolisona yoritilmagan mavzular o'z yechimini topa boshladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov ta'kidlaganidek, «Buxoro tarixi shukuxli va muborak kunlar bilan bir qatorda juda og'ir va musibatli damlarga xam guvoh bo'ldi, ko'plab bosqinlarni boshdan kechirdi, necha marta vayron etildi, o't ichida koldi. Bu muqaddas tuproqda begunoh qonlar to'kildi,

muhtasham obida, minora va aziz avliyolarning qabrlari oyoq osti qilindi».¹ Prezidentimiz I. Karimov o'z nutqlarida ta'kidlagan Buxoroning ana shunday og'ir va musibatli davrlaridan biri bu Buxoro davlatining Rossiya imperiyasi qaramligiga tushib qolish davridir. Rus harbiy qudrati Buxoro amirligining katta hududlarini ishg'ol etib, uni butunlay tugatishga imkoni bo'lgan holda, bu vazifani bajara olmaganligining mohiyatini va sabablarini aniq, tarixiy dalillar asosida ochib berish, Buxoroda amirlik hokimiyatining saqlanib qolganligini va uning sabablarini ko'rsatib berish O'zbekiston tarix fani oldida turgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mazkur ish III bob, tegishli fasllar, «Kirish», «Xulosa» qismlaridan iborat. «Kirish»da mavzuning dolzarbligi, tadqiq etilishi darajasi, tarixiy davri, maqsad va vazifalari, manbalari, ilmiy-nazariy metodologik asoslari, ilmiy-amaliy ahamiyati YADAK talablariga muvofiq yetarli asoslab berilgan.

Malakaviy bitiruv ishining birinchi bobi, «Buxoro amirligining XIX asr o'rtalaridagi ma'muriy-siyosiy va iqtisodiy ahvoli» deb nomlanib unda Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar Buxoro amirligida mavjud bo'lgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot, davlat boshqaruv tizimi, Buxoro amirligining hududiy tuzilishi, uning aholisi to'g'risida muhim ma'lumotlar berilgan.

Ishning ikkinchi bobi «Buxoro amirligining XIX asr ikkinchi yarmi - XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tuzumi va davlat boshqaruvi», deb nomlangan bo'lib, unda Rossiya imperiyasi bosqinidan keyin amirlikdagi davlat boshqaruvi va ma'muriy-hududiy tizimda ro'y bergan o'zgarishlar, XIX asr ikkinchi yarmi, XX asr boshlarida Buxoro amirligida davlat boshqaruvini olib borgan hukmdorlar portretining haqiqiy tavsifi, Buxoro amirligining o'z tashqi siyosiy aloqalar olib borish mustaqilligining yo'qotishi va Buxoro Rossiya imperatorligi Siyosiy agentligining tashkil etilishi voqealari o'rganilgan va tahlil etilgan.

Tadqiqotning uchinchi bobi XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Buxoro amirligining iqtisodiy ahvoli» deb nomlangan bo'lib, ushbu bobda Rossiya imperiyasining Buxoro amirligi iqtisodiyotiga aralashuvi, amirlikda moliyaviy islohot o'tkazilishiga rus hukumatining ta'sir o'tkazishi va tazyiqi, temir yo'llar qurilishi va uning mustamlakachilik mohiyati, amirlik hududlarida rus harbiy garnizonlarining joylashtirilishi va rus manzilgohlarining tashkil etilishi, amirlik iqtisodiy hayotiga rus kapitalining jadal kirib kelishi va uning oqibatlari kabi masalalar yoritilgan.

Shu bilan birga malakaviy bitiruv ishida ayrim juz'iy kamchiliklar mavjud. Xususan, boblarda keltirilgan fasllardagi masalalarni yoritishda ma'lumotlar hajm jihatidan nisbatan teng keltirilmagan. Matn davomida ayrim imloviy va stilistik xatolar ham mavjud. Lekin ushbu xatolar ishning darajasini pasaytirmaydi.

Malakaviy bitiruv ishining xulosasida tadqiq etilgan masalalar bo'yicha tegishli mulohazalar va takliflar keltirilgan. Ular ham zarur darajada asoslangan.

Shunga ko'ra, Raximova Gavharning «XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy tuzumi va davlat boshqaruvi» mavzusidagi

¹ Каримов И. А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида. 6-жилд. Т.: Ўзбекистон. 1998. 372 -6.

malakaviy bitiruv ishi Yakuniy Davlat Attestatsiya Komissiyasi tarafidan yuqori baholanishiga sazovordir.

Samarqand viloyati pedagog kadrlarni

qayta tayyorlash va malakasini oshirish

instituti dotsenti, tarix fanlari nomzodi:

Rajabova D.N.

Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti tarix ta'lim yo'nalishi «O'zbekiston tarixi» kafedrası bitiruvchi Raximova Gavharning «XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy tuzumi va davlat boshqaruvi» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi to'g'risida

MULOHAZA

Bugungi kunda o'zbek davlatchiligi tarixini, jumladan O'zbekiston hududida qadimgi davrlardan to bizning davrimizgacha bo'lgan davlatlar tarixini yangitdan, tarixiy haqiqat mezonini asosida to'laqonli holatda tiklash va uni xalqimizga yetkazish masalasi O'zbekiston tarix fani va tarixchi olimlari oldida turgan eng muhim va eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu jihatdan olib qaraganda, XV asr oxiri-XVI asr boshlarida tarix sahnasida paydo bo'lgan va XX asrning 20-yillariga qadar mavjud bo'lgan Buxoro davlati tarixini, ayniqsa uning so'nggi davri, ya'ni Rossiya imperiyasiga qaramlik holatiga tushib qolgan davri tarixini o'rganish va undan tegishli xulosalar chiqarish, bu davrdagi davlat boshqaruv tizimi, uning tartib qoidalarini, vaqt o'tib borishi bilan unda sodir bo'lgan o'zgarishlarni tahlil etish bugungi kunda nihoyatda katta tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan masaladir.

Shu jihatdan Raximova Gavhar tomonidan tayyorlangan ushbu tadqiqot dolzarbdir. Tadqiqotda qo'yidagi masalalar o'rganib tahlil qilingan:

- Buxoro amirligi XIX asrning o'rtalariga kelib O'rta Osiyo xonliklari ichida o'z salohiyati, hududi, aholisi, ishlab chiqarishi va tabiiy resurslari jihatidan O'rta Osiyo hududidagi eng yirik davlat hisoblangan.

- XIX asrning 20-50-yillarida Buxoro amirligi hududiy tuzilishida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Toshkent, Turkiston, Xo'jand va O'ratepa Buxoro amirligi tasarrufidan chiqib, Qo'qon xonligiga o'tdi. Hisor viloyati, hamda Zarafshon daryosining yuqori oqimi qismlaridagi hududlar mustaqil hukmronlikni qo'lga kiritishdi. Shaxrisabz va Kitob Buxoroga bo'ysunmay qo'ydi. XIX asrning 50-yillariga kelib esa, uzoq vaqt Buxoro vassali hisoblangan Balx. Andxoy, Maymana, Shibirgon va Janubiy Turkistonning boshqa viloyatlari bevosita Angliya hukumatining ta'siri va yordami tufayli afg'on amirlari tomonidan egallab olindi.

- XIX asrning 50-60-yillariga kelib, Buxoro amirligi 44 ta beklikdan iborat bo'lgan bo'lsa, 1915 yilda Buxoro amirligi 27 viloyat (beklik) va 11 ta tumandan iborat bo'lgan. Buxoro amirligida viloyatlar (bekliklar) va tumanlar doimiy ravishda yo qo'shilib turgan, yo ajralib turgan.

- Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar Buxoro amirligi iqtisodiy hayotining asosini qishloq xo'jaligi tashkil etgan.

- Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar, Rossiya bilan Buxoro o'rtasidagi savdo aloqalari ancha jadal sur'atlar bilan o'sib borgan. Buxorodan Rossiyaga ipak matolar, ipak xom ashyosi, teri xom ashyosi, ip, paxta, qorako'l teri kabi mahsulotlar, hamda katta miqdorda oltin va kumush olib borilgan. O'z navbatida Rossiyadan Buxoroga esa mix, oyna, igna, shakar, temir buyumlar, cho'yan qozonlar, chinni idishlar olib kelingan.

- Savdo-sotiqning rivojlanishi va uning bevosita ta'siri ostida, XIX asrning o'rtalaridan boshlab. Buxoro amirligi ishlab chiqarish munosabatlarida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Ushbu holatning ro'y berishida Buxoro amirligiga nisbatan Rossiya va Angliya davlatlarining qiziqishining yanada kuchayishi sabab bo'ldi. Angliya hukumati Buxoroga nisbatan o'z ta'sir doirasini kuchaytirishga katta e'tibor karatib, Buxoro bozorlaridan rus tovarlarini siqib chiqarish siyosatini ishlab chiqdi. Ushbu siyosat O'rta Osiyo masalalari bo'yicha Angliya-Rossiya o'rtasidagi raqobatni yuzaga keltirdi.

- XIX asrning 50-yillarida O'rta Sharq mamlakatlari masalasi bo'yicha Angliya-Rossiya davlat rahbarlari va siyosiy kuchlari o'rtasida jiddiy ziddiyatlar va ixtiloflar yuzaga keldi. Angliya-Rossiya raqobatining kun sayin kuchayib borishi, har ikkita tomonning turli xil yo'llar-siyosiy, iqtisodiy, diplomatik va harbiy yo'llar orqali ushbu hududlarda o'z hukmronligini o'rnatish borasida jiddiy va keskin choralarni ko'rishga olib keldi. Rossiya imperiyasi XIX asrning 50-60-yillarida O'rta Osiyo hududlariga nisbatan harbiy yurishlar uyushtirib XIX asrning 60-yillarida Qo'qon xonligining katta qismi va Toshkentning ruslar tomonidan istilo qilinishi Rossiya-Buxoro munosabatlarining keskinlashuviga va 1866-1868 yillarda Buxoro amirligining katta hududining bosib olinishiga olib keldi. Buxoro amirligining bosib olingan hududlari Rossiya imperiyasi tarkibidagi hududlar deb rasman e'lon qilindi.

- Rossiya imperiyasi Buxoro amirini Zirabuloq tepaligida mag'lubiyatga uchratgach, general-fon Kaufman tomonidan 1868 yil 18 iyunda taqdim etilgan shartnoma shartlarini Buxoro amiri Sayyid Muzaffar to'la qabul qildi. Buxoro amiri o'z mulki bo'lgan Samarkand va Kattaqo'rgonning ruslarga tobe bo'lgan mulk sifatida tan olishga majbur bo'ldi, hamda urush xarajatlarini qoplash uchun katta miqdorda kontributsiya to'lashni o'z bo'yniga oldi.

- Rossiya imperiyasi Buxoro amirligining katta hududlarini zabt etib, u yerda mavjud bo'lgan milliy davlatchilikning boshqaruv tizimiga barham berishdi va Rossiya imperiyasi hududlaridagi kabi yangi rus boshqaruv tizimlari tashkil etildi.

- Rossiya imperiyasi hukumati va uning Turkiston o'lkasidagi ma'murlari asta-sekinlik bilan Buxoro amirligi iqtisodiyotiga kirib kelib, to'la hukmronlikni qo'lga kiritdi. Rus hukumatining Samarkand viloyatidagi ma'murlari Zarafshon suvi taqsimoti masalasi ustidan ustunlikni qo'lga kiritib, Buxoro hududlari suv ta'minotini o'ziga qaram qilib, ushbu yo'l orqali ham amirlik iqtisodiyotini o'ziga bo'ysundirdi. Rus sanoatchilari o'zlarining doimiy raqobatchilari bo'lgan yevropaliklarni va ularning tovarlarini Buxoro ichki bozoridan siqib chiqara boshladi va 1880 yilga kelib Buxoro ichki bozorlarida ruslar va rus tovarlari to'la ustunlikni qo'lga kiritib, yagona monopol huquqqa ega bo'ldi.

- Rus hukumati 1895 yil 1 yanvardan boshlab Buxoro amirligini Rossiyaning yagona bojxona hududiga kiritib oldi.

- Rus ishbilarmonlari va savdogarlarining qattiq tazyiqi ostida, rus hukumati 1897 yildan boshlab, Buxoro amiridan ichki bozorda Buxoro tangasidan voz kechishni va moliyaviy islohot o'tkazishni qat'iy talab qildi va Buxoro iqtisodiyotining eng muhim tayanchi hisoblangan pul muomalasiga ham o'z ta'sirini o'tkazib, Buxoro tanga pullarini amirlik iqtisodiy hayotidan umuman olib tashlashga muvaffaq bo'ldi.

- 1896 yil 24 fevralda Turkiston general gubernatori tomonidan «Buxoro xonligida oltin sanoati» to'grisida 40 ta banddan iborat farmoyish chiqarilib, unda Buxoro amirligi hududlarida hali egallanmagan yerlarda mavjud bo'lgan oltin konlarini rus fuqarolari tomonidan qazib olish huquqlari qonun doirasida mustahkamlab berildi.

- Rus hukumati Buxoro amirligida o'z mavqeini yanada mustahkamlash, anglo-rus raqobatini kuchayishini oldini olish, inglizlarning Buxoro amirligi hududlariga ham iqtisodiy, ham siyosiy, ham harbiy strategik jihatdan aralashuviga yo'l qo'ymaslik maqsadida Buxoro hududlarida rus garnizonlarining joylashtirilishiga va rus manzilgohlarining tashkil etilishiga katta e'tibor qaratdi. Kerki, Chorjo'y, Termiz, Pattakesarda rus garnizonlarining joylashtirilishi va Yangi Buxoro (Kogon), Farob, Saroy, Amirobod kabi rus manzilgohlarining tashkil etilishi natijasida amirlikda o'ta muhim rus harbiy platsdarmolari shakllantirildi.

- Turkiston o'lkasidagi Rossiya imperiyasi amaldorlari XIX asrning 80-yillaridan boshlab, Buxoro amirligi hududlarining qolgan qismlarini ham bosib olish va Rossiyaga bo'ysundirish talablarini bir necha bor rus hukumati oldiga ko'ndalang qilib qo'yishdi. Buxoro amirligini to'la Rossiyaga qo'shib olinishi, ko'shni Afg'oniston va Eron hukumatlarida katta norozilik paydo qilishini anglagan Rus hukumati ushbu taklifni qat'iy rad etdi.

- XIX asr oxiri-XX asr boshlarida Buxoro amirligida ko'p asrlar davomida shakllangan milliy davlatchilik va uning boshqaruv tizimi Buxoro tomonidan rasman ham siyosiy, ham iqtisodiy huquqlar qo'ldan boy berilganda ham saqlanib qolishiga erishildi. Viloyat (beklik) hokimlari-beklari va ularga bo'ysunuvchi amaldorlardan iborat bo'lgan-mahalliy boshqaruv tizimidan iborat bo'lib, to 1920 yilga qadar rasman saqlanib keldi.

Shularni inobatga olib, shuni ta'kidlash lozim, bitiruv malakaviy ishi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega, undan yaqin tariximizning oliy o'quv yurtlari va o'rta maktablarda foydalanish mumkin. Ushbu malakaviy bitiruv ishi Yakuniy Davlat Attestatsiyasi komissiyaga himoya qilishga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar,

Tarix fanlari doktori

professor:

Sh.S.G'afforov

**Samarqand davlat universiteti tarix fakulteti tarix ta'lim yo'nalishi
«O'zbekiston tarixi» kafedrası bitiruvchi Raximova Gavharning «XIX asr
oxiri - XX asr boshlarida Buxoro amirligining ijtimoiy-siyosiy tuzumi va
davlat boshqaruvi» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishiga**

TAQRIZ

O'tmish tariximizga nazar solsak milliy davlatchiligimizning turli davrlardagi yuksalishi va inqirozi, fojialariga daxldor tarixiy voqea va jarayonlar jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotiga qanchalik ta'sir etganligi yanada ravshanroq namoyon bo'ladi.

Buxoro amirligidagi XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yuz bergan siyosiy, iqtisodiy, madaniy jarayonlarda markaziy va mahalliy davlat boshqaruvining o'rnini, tabiatini va xususiyatlarini ko'rsatish hamda ularni bugungi kun tarix fani oldida turgan talab va vazifalar nuqtai nazaridan tahlil qilish hamda haqqoniy xulosalar yaratish ushbu ishda ko'rstilgan.

Ishning kontseptual mohiyatidan kelib chiqqan holda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asrning boshlarida Buxoro tarixi masalasini tizimli ravishda ilmiy tahlil qilish; chor Rossiyasining Buxoroga nisbatan harbiy harakatlarining

boshlanish sabablari va uning salbiy oqibatlarini ochib berish hamda chor Rossiyasining Buxoro amirligi hududida olib borgan mustamlaka siyosatining tub mohiyatlarini kompleks holatda o'rganish va ilmiy xulosalar chiqarish ishda yaqqol namoyon etilgan.

Mazkur tadqiqot ishida tadqiqotchi chinakam ilmiy-uslubiy asosga tayangan holda bir qator masalalarni yuqori ilmiy saviyada va xolisona ta'riflashga harakat qilganini ko'rish qiyin emas.

Ortiqcha hissiyotlarga berilmasdan, aniqlangan hujjatlarni, chop etilgan manbalarni tahlil qilish, har bir masala bo'yicha ma'lumotlarni mohiyatini o'rganish natijasida xulosalarni, ilmiy mulohazalarni bayon qilish ham Raximova Gavhar tadqiqotchi sifatida yetarli tajribaga va sog'lom siyosiy mavqega ega ekanligini ko'rsatmoqda.

Tadqiqot bilan tanishish natijasida xulosa qilish mumkin-ki, uni yakunlangan ilmiy ish hisoblash va ijobiy baholab, YADAKsi oldida himoyaga tavsiya etish mumkin.

SamDU O'zbekiston tarixi

kafedrasi mudiri

tarix fanlar nomzodi,dotsent:

R.SH.Xoliqulov